

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

TAHRIRIYAT HAY‘ATI

Bosh muharrir: prof. Nabiyev D.H.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

f.-m.f.d. Bekpulatov I.R.

Mas‘ul kotib: dots. Ne‘matova Y.O.

Tahririyat hay‘ati a‘zolari:

prof. Bahriddinova B.M.

prof. Bo‘riyev O.B.

prof. Yoziyev L.Y.

prof. Jabborov A.M.

prof. Jabborov X.J.

f.-m.f.d. Imomov A.A.

k.f.d. Kamolov L.S.

prof. Kuchboyev A.E.

prof. Mengliyev B.R.

prof. Normurodov M.T.

prof. Nurillayeva Sh.N.

prof. Nurmanov S.E.

p.f.d. Oripova N.X.

prof. Ochilov A.O.

prof. Tojiyeva G.N.

prof. To‘rayev D.T.

prof. Umirzakov B.Ye.

prof. Xayriddinov B.X.

prof. Xolmurodov A.E.

prof. Choriyev S.A.

prof. Shodiyev R.D.

prof. Shodmonov N.N.

prof. Erkayev A.P.

prof. Ernazarova G.X.

prof. Eshov B.J.

prof. Qurbonov Sh.Q.

prof. Qo‘yliyev B.T.

prof. Bekmurodova G.H.

prof. Imanova G.T.

prof. Bobonazarov G‘.Y.

prof. Shukurov O.M.

prof. Yusupova A.Sh

f.f.d. Imomova G.M.

dots. Ro‘ziyev B.X.

dots. Eshqorayeva N.G‘.

dots. Xolmirzayev N.S.

dots. Hamrayeva Y.N.

dots. Rizayev B.X.

dots. Nashirova Sh.B.

f.f.f.d. Musayeva D.T.

**Maxsus son
2024**

QarDU xabarleri
Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal

Muassis: Qarshi davlat universiteti

Jurnal Qashqadaryo viloyati

Matbuot va axborot boshqarmasi

tomonidan 2010.17.09 da

№ 14–061 raqamli guvohnoma

bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan.

Musahhihlar:

Shodmonova D.E.

Tursunboyev B.N.

Pardayeva D.R.

Sahifalovchi:

Yuldoshev D.N.

Texnik muharrir:

Raxmatov M.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarorlari bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, tarix, falsafa, siyosatshunoslik, filologiya, pedagogika-psixologiya va iqtisod fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



**Jurnal 2009-yilda tashkil
etilgan.**

**Yiliga 4 marta
chop etiladi.**

MUROJAAT UCHUN MANZIL:

Pochta manzili: 180003, Qarshi,

Ko‘chabog‘, 17. Qarshi davlat universiteti,

Filologiya fakulteti binosi, 107-xona.

Telefon: 97-222-10-80

TelegramID:

https://t.me/Qardu_Xabarleri2024

Elektron pochta: qardu_xabarleri@mail.ru

Veb-sayt:

<https://qarshidu.uz/oz/page/ilmiy-jurnal-NEW>

Jurnaldan olingan materiallarga “QarDU xabarleri” jurnalidan olindi”, degan havola berilishi shart. Mualliflardan kelgan materiallar egalari qaytarilmaydi.

MUNDARIJA

TARIX

Komilov S.S. Mustaqillik yillarida Shahrisabz shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida mahallarning o‘rni va roli.....	4
Djurayev R.X. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda chorva mahsulotlarining eksporti: holat, muammo va natijalar.....	8
Jo‘rayev A.R. Qarshi davlat universitetida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish tadbirlari va erishilgan yutuqlar.....	11
Jo‘rayev I. Qashqadaryo viloyati mahallalarida aholi bandligini ta‘minlash (tarixi va rivojlanish tendensiyalari).....	14
Ernazarov A.X. G‘uzor bekligining tarixiy-geografik tasnifi (A.Mayev ma‘lumotlari asosida).....	19
Rasulova I.A. Butunittifoq favqulodda komissiyasi (VCHK)ning tashkil topishi haqida ayrim mulohazalar.....	23
Xasanov A.M. Tarixiy madaniy merosni asrash – dolzarb mavzu.....	27
Eshov B.J. Janubiy O‘zbekistonda davlatchilik va shahar madaniyati.....	31

SIYOSATSHUNOSLIK

Qarshiyev N.O. Siyosiy partiyalar faoliyatining tashkiliy jihatlari.....	37
Nasrullayev I. Modernizatsiya nazariyasiga nisbatan mavjud yondashuvlar tasnifi.....	42

FILOLOGIYA

Begimqulova D. Ingliz va o‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarida reduplikativ shakllarning qo‘llanilishi.....	49
Sa‘dullayeva M.S. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” asarida keltirilgan o‘g‘uz lahjasidagi polisemiyalarning tasnifi.....	54
Tojiyeva G.N., Jumanova S.X. Ingliz va o‘zbek tillarida kiyim-kechak nomlarini o‘rganishning ahamiyati va qiyosiy tahlili.....	61
Qahharova D.A. Lirikada ko‘ngil timsolining genezisi va tarixiy takomili.....	66
Imomova G.M. Tarixiy muhit va badiiy tasvir.....	72
Sattorzoda X.S. Adabiy- estetik qarashlar va ijodkor biografiyasi (Pirimqul Qodirov ijodi misolida)	76
Avaznazarov O.R. Alisher Navoiyning epik poeziyasida yo‘l obrazi.....	81
Xo‘jayev A. Faqiriy lirikasida ma‘rifatparvarlik va milliy qadriyatlar tasviri.....	88

PEDAGOGIKA

Boymuratov F.X. Arxitektura-qurilish chizmachiligi fanini o‘qitishda talabalarning kognitiv qiziqishlarini rivojlantirishning metodik asoslari.....	94
Iskandarova G.P. Ta‘limni raqamli transformatsiyalash sharoitida maktab rahbarlari shaxsiga qo‘yiladigan umumiy talablar.....	99
Raxmatullayeva Sh.Z. Boshlang‘ich ta‘limda matn ustida ishlash orqali nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga doir o‘quv topshiriqlari tavsifi.....	107
Sobirova N.Z. Ona tili ta‘limi jarayonida etimologik tahlilning innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi.....	112

PSIXOLOGIYA

Esanov M. Internet tarmog'idagi inson psixologiyasiga ta'sir o'tkazuvchi materiallar tahlili.....	119
--	-----

FIZIKA-MATEMATIKA

Mukhtarov E. Production of polycrystalline silicon and the current state of its market.....	123
Khaydarov Sh., Khalilov A., Khalilova Z. Divisibility criteria for some prime numbers with proof.....	128
Xolmurodov A., Matanov M., Quzratov M. Reflection of <i>sv waves</i> in the elastic half-space. field equations for angles of incidence less than the critical one, this equation analysis and graphing program.....	132
Мукумов А.Х. Единственное решение обратной задачи об источнике для уравнения Хопфа.....	141

KIMYO

Turaev Kh.Kh., Bozorov L.U., Eshmurodov Kh.E. Synthesis and sorption properties of complex sorbents based on polyvinylchloride.....	147
Bozorov L.U., To'rayev X.X. Polivinilxlorid asosida kompleks hosil qiluvchi sorbentlarning fizik-kimyoviy tahlili.....	153
Raxmatov Sh.Sh., Axmedov V.N. "Uz-Kor Gas Chemical" MCHJ QK chiqindisidan ajratib olingan parafinning krioskopik usulda molekulyar massasini aniqlash.....	158

BIOLOGIYA

Do'schanov U.E. Xorazm viloyati agrotsenozlaridagi qattiqqanotlilarning fenologik rivojlanish davrlari va faolligi.....	163
Duysengaliev E.S., Isaev R.T., Juginisov T.I. Qoraqalpog'iston respublikasi uzun shoxli qo'ng'izlarining xylotrechus (<i>Turanoclytus</i>) <i>namanganensis</i> (Heyden, 1885) (Coleoptera: Cerambycidae) yangi topilmalari va bioekologik xususiyatlari.....	170
Садыкова Д.Г., Хакимова С.Х. Химический состав и свойства шалфея лекарственного (<i>Salvia officinalis</i>) и мелиссы лекарственный (<i>Melisa officinalis</i>).....	174

MUSTAQILLIK YILLARIDA SHAHRISABZ SHAHRINING IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA MAHALLARNING O'RNI VA ROLI

Komilov Sobit Soyibovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti erkin izlanuvchisi

Komilovsobit085@gmail.com

ORCID 0009-0002-1535-842X

UDK 316.3/4.908

Annotatsiya. O'zbekistonda mahalliy hokimiyat organlari tizimida hokim lavozimining ta'sis etilishi hamda uning vakillik organlariga ham rahbarlik qilishi hokimiyat idoralari tizimida mutlaqo yangi hodisa bo'ldi. Mahalliy hokimiyat organlarining vakillik va ijroiya organlariga bo'linishi hokimiyat taqsimlanishi borasidagi muhim qadam edi. Respublikamizning barcha hududlarida bo'lgani singari Shahrisabz shahrida ham hokimiyat tizimida amalga oshirilgan islohotlar shaharning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. Shahrisabz Qashqadaryo viloyatida Qarshi shahridan keyingi ikkinchi, viloyatga bo'ysinuvchi maqomiga ega bo'lgan shahar sanaladi. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Shahrisabz shahrining hokimiyat tizimidagi o'zgarishlar, o'tkazilgan iqtisodiy islohotlar va ularning natijalari, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarida mahallalarning o'rni, shahar aholisining etnik va ijtimoiy tarkibi kabi muhim jihatlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Tayanch so'zlar. "Mahalla", "Navro'z" jamg'armasi, "Dilorom", "Iskandar", "Nilufar", "Kafolat", "Chehra", "Yulduz", "Oybek", "Muhayyo" korxonalarini, Guliston jamoa-shirkat xo'jaligi

THE ROLE AND IMPORTANCE OF MAHALLAH (NEIGHBORHOODS) IN THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF SHAHRISABZ CITY THROUGHOUT THE YEARS OF INDEPENDENCE

Abstract. The establishment of the position of khokim in the system of local authorities in Uzbekistan and his leadership of representative bodies was a completely new phenomenon in the system of authorities. The division of local authorities into representative and executive bodies was an important step in the distribution of power. As in all regions of our republic, the reforms implemented in the system of authorities in the city of Shahrisabz have become important in the socio-economic life of the city. Shahrisabz is the second city in the Kashkadarya region after Karshi, which has the status of a city subordinate to the region. This article scientifically analyzes such important aspects as changes in the system of authorities of the city of Shahrisabz during the years of independence, the economic reforms carried out and their results, economic growth indicators, and the ethnic and social composition of the city's population.

Keywords. "Mahalla", "Navruz" Foundation, "Dilorom", "Iskandar", "Nilufar", "Kafolat", "Chehra", "Yulduz", "Oybek", "Muhayyo" enterprises, Gulistan collective farm

Kirish. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilindi. 1992-yil 4-yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralari qayta tashkil etish to'g'risida"gi qonun alohida ahamiyat kasb etadi. Bu qonun bilan mahalliy hokimiyat organlari tizimida butunlay yangi organ Hokimlik va hokimlik lavozimi ta'sis etildi va uning vakillik organlariga ham boshchilik qilishi belgilab qo'yildi. Ushbu qonunda birinchi marta qonun me'yorlari darajasida davlatlar organlari vakillik hokimiyati va ijro hokimiyati organlariga bo'linishi mustahkamlandi.

Adabiyotlar tahlili. Mavzuni o'rganishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridan, qonunchilik hujjatlaridan, mavzuga doir o'tkazilgan tadbirlar bayonnomalaridan, davriy matbuot nashrlaridan, Shahrisabz shahar hokimligi joriy arxivi materiallaridan, Hakimov N., Jo'raqulov O., Kamolova X. asarlaridan foydalanilgan.

Tadqiqot usullari. Mavzuni o'rganish jarayonida tarixiylik tamoyillari asosida qiyosiy-taqqoslash, to'plangan ma'lumotlarni tizimli tahlil etish, xronologik izchillikka e'tibor qaratildi.

Tadqiqot natijalari. Mahalliy hokimiyat organlarining vakillik va ijroiya hokimiyati organlariga bo'linishi hokimiyatchilikning taqsimlanishi borasidagi muhim qadam edi. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy bo'linishi respublikaning ishlab chiqarish kuchlari holatini, ularning joylashish xarakterini, transport joylarda aloqa vositalarining rivojlanishini, boshqaruvning tashkiliy tuzilishini u yoki bu darajada aks

ettirdi.

Shahrisabz shahrida hokimlik tashkil etilgan paytda Shahrisabz aholisi 67,0 ming kishi va 13,5 ming oiladan iborat edi. 13 sanoat korxonasi, 5 ta qurilish tashkiloti, 8 ta transport, 7 ta savdo, 9 ta maishiy xizmat, 15 ta maktab, 19 mahalla, 3 ta posyolka kengashi mavjud edi. Shahar salohiyati jihatidan Qashqadaryo viloyatida Qarshidan keyingi ikkinchi shahar, viloyatga bo'ysunuvchi maqomiga ega edi [1:88].

1992-yil 25-iyulda Shahrisabz hokimiyati shahar faollari yig'ilishida 67 nafar shahar deputati va taklif etilgan 96 nafar faol qatnashib "O'zbekiston Respublikasining Oliy Kengashi X sessiyasining yakunlari va shaharni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy rivojlantirish to'g'risida"gi masala har tomonlama chuqur muhokama etildi.

Shahrisabzda qurilish, obodonlashtirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotining boshqa sohalarida amalga oshirilgan ishlar, yechimini kutib turgan muammolar bilan mahalla ahli tanishtirildi. Shunday uchrashuvlarni shaharning barcha mahallalarida ham o'tkazish maqsadga muvofiq ekanligini ta'kidladilar. Shahar hokimining birinchi muovinligiga O. Xurramov, muovinligiga Habibullo Ibodullayev, A.V. Haydarov, umumiy ishlar bo'limi mudirligiga Q. Qilichevalar tasdiqlandilar.

1992-yilning 26-dekabrida Xalq deputatlari Shahrisabz shahar kengashining XXI chaqiriq XI sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq XI sessiyasi va Qashqadaryo viloyat kengashining XI sessiyasi yakunlari hamda shahar mehnatkashlarining 1993-yilda va kelajakdagi vazifalari muhokama etildi.

Ma'lumki, kishilarning tarixan shakllangan, oiladan keyingi birligi mahalladir. Prezident farmoniga binoan "Mahalla" xayriya jamg'armasining tuzilishi Mahallaning an'anaviy tarbiya maskani ekanini yana bir tasdiqladi. Uning zimmasiga zamon talablaridan kelib chiqib yangi vazifalar yukladi. Mahalla maqomini har qachongidan ko'ra oshirdi. Shahrisabz shahar "Mahalla" xayriya jamg'armasi bo'limi ham o'z oldidagi vazifalarni belgilab oldi. 1993-yil 13-martda Shahrisabz hokimiyatining rejasi bo'yicha shahar umumxalq shahar hashari tashkil etildi. Hasharda 30 ming kishi qatnashib, hashardan tushgan 1 million 92, 2 ming so'm pul "Navro'z" jamg'armasiga o'tkazildi. 1993-yil 21-mart Navro'zi olam kunida shahar hokimiyatining tashabbusi bilan kam ta'minlangan 155 oilaga sovg'alar tortiq qilindi.

Shahrisabz shahar kengashining 1994-yil 24-yanvarda bo'lib o'tgan XXI chaqiriq XIII sessiyasiga 80 deputatdan 62 deputat qatnashib "Shahar hokimligining 1993-yilda olib borgan ishlari haqida shahar hokimi Azim Zayniddinovning hisoboti va Respublika Oliy Kengashining XIV sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat kengashining XVIII sessiyasida viloyat hokimi Temir Xidirovning nutqlaridan kelib chiqadigan vazifalar to'g'risida" shahar hokimining ma'ruzasini muhokama qildi. Sessiyada shaharda 1993-yilda 1200 kishi foydali mehnatga jalb etilgani, shahar hokimligining 1993-yil 27-fevralidagi 56-sonli farmoyishiga asosan shahar korxonalari 7 foizli imtiyozli o'rinlari yaratishlari belgilangan, o'sha farmoyishga asosan "Hujum" fabrikasida 60 o'rin, tikuv-trikataj fabrikasida 90 o'rin, kristall zavodida 20, sanoat kombinatida 20, xalq hunarmandchilik fabrikasida 47, "Chevar" kichik korxonasida 16 o'rin yaratilganligi qayd etildi. Shahar aholisini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida 1993-yilda 10 million so'm mahalliy byudjetdan va boshqa mablag'lardan sarflanganligi aytili [2].

1994-yil 2-iyundagi Shahrisabz shahar kengashining XXI chaqiriq XIV sessiyasida O'zbekiston Oliy Kengashi XV sessiyasi yakunlari va unda respublika Prezidenti nutqidan kelib chiqadigan vazifalar hamda shahar xalq xo'jaligi tarmoqlaridan iqtisodiy islohotlarning borishi to'g'risidagi masala muhokama etildi.

Shahrisabzda 135 shirkat, kichik xususiy korxonalarda 1300 kishi ishlayotganini, ular 1994-yilning 4 oyida 302 million so'mlik mahsulot ishlab chiqargani, 993 million

soʻmlik savdo, 228 million soʻmlik pullik xizmat koʻrsatilganini, 650 kishi shaxsiy mehnat faoliyati bilan bandligi taʼkidlandi.

1994-yil oxiriga kelib 40 ta savdo shaxobchalari xususiylashdi. Shundan 36 shaxsiy korxonalariga va 4 tasi ochiq turdagi jamiyatiga hissadorlik aylantirildi. Chakana savdoning 87.7 foizi, xususiylashgan savdo korxonalariga toʻgʻri keldi. Shahrisabz shahar kengashiga saylangan 25 deputatning 3 nafari 40 yoshgacha boʻlgan kishilar, 8 nafari 45 yoshgacha, 11 nafari - 50 yoshgacha, 3 nafari - 50 yoshdan yuqori kishilar edi. 1995-yil 25-yanvarida Shahrisabz aholisi 70 ming kishi boʻlib, ular 26 millat kishilariga mansub yoki 93 foizini oʻzbeklar tashkil etib, 63200 kishi tashkil etdi. Ruslar 1500 kishini, qrim tatarlar 1385 kishi, qozon tatarlari 1000 kishi, tojiklar 372, yahudiylar 93, armanlar 54, ukrainlar 68, uygʻurlar 29, boshqirdlar 60, nemislar 49, turklar 59, chuvashlar 15, beloruslar 28, koreslar 52, boshqa millat vakillari 1350 kishini tashkil etdi.

1994-yilda Shahrisabz shahridan 718 kishi yurtimizning boshqa joylariga koʻchib ketdi. Mustaqilligimiz tufayli shahardagi mahallalarda olib borilgan tushuntirish, taʼlim-tarbiya ishlari tufayli osoyishtalikka qarab qadam tashlandi, turli turdagi jinoyatlar soni kamaydi. Nikohlarni buzish holatlari qisqardi.

Shahrisabzda 1992-yilda shahar boʻyicha 75 er-xotin nikohi bekor etilgan boʻlsa, 1994-yilda bu 52 taga kamaydi. 1992-yilda shaharda 249 jinoyat sodir etilgan boʻlsa, 1994-yil 209 taga kamaydi. 1994-yil 12-martda Shahrisabz shahrida Navroʻz bayrami anʼanaviy xalq hashari oldidan oʻtkazildi. Hasharda 22 ming kishi faol qatnashdi, hashardan tushgan mablagʻ “Navroʻz” jamgʻarmasiga oʻtkazildi. 21-mart kuni Navroʻz bayrami Mustaqillik maydonida, Amir Temur nomli istirohat bogʻida zoʻr shodiyona bilan yakunlandi. 1994-yil 31-dekabrda Shahrisabz telestudiyasi ishga tushdi [3:113-117].

Muhokama natijalari. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 15-iyundagi “Davlat korxonalarini ochiq turdagi aksionerlik jamiyatlariga aylantirishga oid tashkiliy chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 221-sonli qarorini bajarish bobida 1995-yilning qolgan oylarida bir qator ishlarni amalga oshirdilar. 1995-yilning boshida davlatga qarashli boʻlmagan korxonalar soni Shahrisabz shahrida 132 ta boʻlsa, oktyabr oyida ularning soni 101 ga koʻpayib 233 ga yetdi. Shaharda ishlab chiqarilgan mahsulotning qariyb 98 foizini, har xil pullik va maishiy xizmatning 100 foizini nodavlat sektor yetkazdi. Shaharda koʻchmas mulk birjasi rahbarligida 3 marta “Kim oshdi” savdosi oʻtkazildi. 1995-yilda shahar sanoat korxonalarini 1994-yilga nisbatan yalpi mahsulot ishlab chiqarishni 1,5 foizga, xalq isteʼmol mollarini ishlab chiqarishni 11,3 foizga koʻpaytirdi. 520 million soʻmlik yalpi sanoat mahsuloti, 634,0 million soʻmlik xalq isteʼmol mollari mahsuloti ishlab chiqarildi. 1995-yilda shaharga qarashli aksiyadorlik jamiyatlari 21 ga yetdi, ulardan 17 tasi aksiyasini chiqarib oʻz aʼzolariga sotdi.

1993-yilda davlat tasarrufidan chiqarilgan shahar Maishiy xizmat boshqarmasiga qarashli obyektlar negizida 11 ta “Navroʻz”, “Dilorom”, “Iskandar”, “Nilufar”, “Kafolat”, “Chehra”, “Yulduz”, “Oybek”, “Muhayyo” kabi xususiy jamoa tuzilib, ular ham 1995-yilda samarali mehnat qildilar. Mulknii davlat tasarrufidan chiqarish 1992-yilda boshlangan boʻlib, 1996-yilning apreliga qadar 120 savdo doʻkoni, 52 maishiy xizmat korxonasi, 24 korxon va tashkilot, jami-196 obyekt davlat tasarrufidan chiqarib, sotildi. Shularning hisobiga 21 aksionerlik jamiyati, 10 jamoa korxonalarini, 88 xususiy korxonalar tashkil etildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 31-avgustdagi 134-1 sonli qarori va Qashqadaryo viloyat hokimining 1995-yil 31-avgustdagi 184-F farmoyishi bilan Shahrisabz tumanidagi 6 ta jamoa shirkat xoʻjaligi hududidan jami 1474, 5 ga yer

maydoni, 331, 8 ga yerni tashkil etgan, yashovchilar soni 12879 kishi bo'lgan 16 ta qishloq 1996-yil boshidan Shahrisabz shahri hududiga kiritildi [4].

Shahar tarkibiga Guliston jamoa-shirkat xo'jaligidan Pisandi, Taraxli va O'oji qishloqlari, aholi soni 2855 kishi: Amir Temur, Kesh jamoa-shirkat xo'jaliklari va Pilla qabul qilish punkting yordamchi xo'jaligidan Do'ng qishloq, Aspijallob, Teparlik, Arabon, Tutzor va Qoraqo'zi qishloqlari, aholi soni 3658 kishi O'zbekiston jamoa-shirkat xo'jaligidan Sariosiyo, Bobayariq, Kalakon, Simabog', Govushmon qishloqlari, aholi soni 3127 kishi, Bolta Fozilov nomli jamoa shirkat xo'jaligidan Neko'z, Paxtakor qishloqlaridir [5:49-51].

1996-yilning 3 oyida shahar hududiga kiritilgan 16 qishloq aholi punktlari hisobidan yana 1475 ga yer qo'shib, uning hududi kengayib 2460 ga yerni tashkil etdi.

Shahar aholisining soni 69100 kishidan 82600 kishiga etdi. 1995 yilda shahar ko'chalarining soni 171 ta bo'lib, ularda 14539 ta xonadon mavjud bo'lgan. Shahar ichidagi ko'chalarning uzunligi esa 180 km ni tashkil etdi.

Shaharsozlikni rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tomonidan 2009-yil "Shaharsozlik normalari va qoidalar" ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra shahar va qishloq aholi punktlari rivojlantirilishi uchun hudud me'moriy-rejaviy yechimlarning texnik-iqtisodiy, sanitariya-gigienik ko'rsatkichlar, yoqilg'i-energetik, suv, hududiy zaxiralar, atrof-muhit holatining variantlarini taqqoslash asosida, tabiiy va boshqa sharoitlarning kelajakdagi o'zgarishi bo'yicha prognozlarni, ushbu hududlardan oqilona funksional foydalanish imkoniyatini hisobga olgan holda tanlanishi lozimligi, yangi shahar va boshqa aholi punktlarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish uchun hududlarni tanlash, aholining ishlash, yashash va dam olish joylarini oqilona joylashtirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda, hududlarning tabiiy va boshqa sharoitlarini o'rganish va tahlil qilish, variantlarning texnik iqtisodiy, sanitariya-gigienik va me'moriy-rejaviy ko'rsatkichlarini taqqoslash asosida amalga oshirish zarurligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasining 2017-yil 16-maydagi "Xorazm viloyatining Xiva shahri va Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shaharlarini viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2017-yil 27-maydagi "Xorazm viloyatining Xiva shahri va Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shaharlarini viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi PQ-3124-sonli qaroriga ko'ra Shahrisabz shahar hokimligi tashkil etilib, viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritildi [6]. Bu siyosiy-ma'muriy o'zgarish shaharning iqtisodiy, ijtimoiy rivojiga hamda turizmning keng rivojlanishiga turtki berdi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mustaqillik yillarida Shahrisabz shahrida keng ko'lamdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar izchillik bilan amalga oshirildi. Keng ko'lamdagi xususiylashtirish tadbirlarining amalga oshirilishi Shahrisabz shahri iqtisodiyotiga, aholining ijtimoiy ahvoriga sezilarli darajada ijobiy ta'sir o'tkazdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hakimov N., Jo'raqulov O. Shahrisabz tarixi. –T.: Fan, 2001. B – 88.
2. Shahrisabz shahar hokimligi joriy arxivi materiallari
3. Shahrisabz – ming yillar merosi. –T.: Sharq, 2001. –B. 113-117.
4. Shahrisabz tuman hokimligi joriy arxivi materiallari.
5. Kamolova X. Shahrisabz asrlar osha. –T.: Yangi asr avlodi, 2016. –B. 49-51
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorazm viloyatining Xiva shahri va Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahri hokimliklarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toplami. –Toshkent, Adolat, 2017 - №28.-B.25-27.

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA CHORVA MAHSULOTLARINING EKSPORTI: HOLAT, MUAMMO VA NATIJALAR

Djurayev Ravshan Xurramovich,
O‘zbekiston Milliy universiteti
Jahon tarixi kafedrasida dotsenti.
PhD, dotsent.
ravshandjurayev@gmail.com
ORCID 0000-0002-9073-8155
UDK 94(575.171)(072)

Annotatsiya. So‘nggi yillarda chorvachilikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, chorvachilik mahsulotlari yetishtiruvchi xo‘jaliklarda agrar va oziq-ovqat sohasini rivojlantirish, aholini sifatli va arzon chorva mahsulotlari bilan ta‘minlash hamda chorvachilikka ixtisoslashgan korxonalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga e‘tibor kuchaytirildi. “Mavjud resurs va imkoniyatlardan oqilona foydalanib, aholini qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan kafolatli ta‘minlash, sohada yangi ish o‘rinlari yaratish, manfaatdorlikni yanada oshirish, ilg‘or yondashuvlarni joriy etish eng muhim masalaga aylanmoqda”[1]. Bu borada chorvachilik sohasida shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollari naslini yaxshilash, xorijdan yuqori mahsuldor nasli qoramollar olib kelish, respublika aholisini sifatli go‘sh, sut mahsulotlari bilan ta‘minlash yuzasidan ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Maqolada ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda chorva mahsulotlarining savdosi masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar. Chorvachilik, tashqi savdo, ichak-chavoq savdosi, qorako‘l teri, jun, Yevropa.

LIVESTOCK EXPORTS AFTER WORLD WAR II: STATUS, ISSUES, AND RESULTS

Abstract. In recent years, attention has been paid to state support for animal husbandry, development of agricultural and food industries in livestock farms, provision of the population with high-quality and affordable livestock products, and state support for livestock enterprises. "The most important issue is the guaranteed provision of the population with agricultural products, the creation of new jobs in the industry, the further increase of interest, and the introduction of advanced approaches through the rational use of available resources and opportunities." In this regard, the development of scientific research on improving livestock breeding in personal subsidiary, peasant and farm households, importing high-yielding pedigree cattle from abroad, and providing the republic's population with high-quality meat and dairy products is of paramount importance. The article covers the issues of livestock trade in the years after World War II.

Keywords. Animal husbandry, foreign trade, gut trading, karakul skins, wool, Europe.

Kirish. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda xorijiy davlatlar bilan tashqi savdo munosabatlari bir qancha yo‘llar bilan amalga oshirilgan bo‘lib, unda katta kompaniya va firmalarning alohida o‘rni bo‘lgan. Ularning aksariyati katta mablag‘larga ega bo‘lgan va bu holat ularning chorva mahsulotlari bilan tashqi savdo ishlarini olib borish imkonini bergan. Xususan, Germaniyaning “Dyurshmidt” nomli firmasi O‘zbekiston hududidagi chorva ichak-chavoq savdosining asosiy ishtirokchisi hisoblangan. Bundan tashqari, xomashyo va mo‘yna savdo-sotig‘ida Zalm va Erman Glikin kabi firmalar asosiy o‘rin tutgan bo‘lsa, Dyurshmidt va Stuken kabi firmalar bu mahsulotlar savdosida onda-sonda qatnashgan. O‘zbekiston SSRda jun mahsulotlarining asosiy olibsotarlari Asayevlar va Kuznetsov kabi fabrikalar bo‘lib, ular chorva junlarini chet davlatlarga eksport qilish bilan shug‘ullangan. Mazkur tashqi savdo-sotiq ishlarida “Stuken” firmasi ishtirokining ahamiyati sezilarli darajada katta bo‘lgan, bu firma Eron va Kaspiyorti hududlari bozorida monopol mavqega ega bo‘lgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, determinizm tamoyillari, tizimli yondashuv, xolislik tamoyillari kabi metodlardan unumli foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Chorva ichak-chavog‘i, juni va terisi tashqi savdo munosabatlarida asosiy tovar sifatida qadrlangan. Mazkur xomashyolarga qo‘shni davlatlar bilan birgalikda Yevropa davlatlari ham xaridor hisoblangan. Xususan, yuqoridagi uch turdagi chorva mahsulotlarinig barchasi Rossiyaning markaziy shaharlariga

eksport qilingan. Bundan tashqari, ushbu tovarlar Yevropa davlatlarida ham ancha xaridorgir bo'lib, buning bir qancha sabablari mavjud edi. Masalan, O'zbekiston hududidagi cho'l va dashtlarda boqilgan hayvonlarning ichaklari yo'g'on bo'lishi sababli ham o'lkadan jo'natilgan bu xomashyoning bozori chaqqon bo'lgan. Jumladan, ichakchavoqlarning asosiy qismi Germaniyaga eksport qilingan va u yerdan boshqa mamlakatlar bozorlariga yuborilgan. Chorva junlari sifatiga qarab markazga yoki boshqa xorijiy davlatlarga eksport qilingan. Cho'l hududlarida boqilgan chorva mollarining junlari tashqi savdoda past sifatli hisoblangan. Mazkur turdagi junlarning asosiy qismi cho'l va dashtdan iborat bo'lgan Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarida yetishtirilgan. Mazkur junlar asosan RSFSR shaharlariga sotish uchun yuborilgan. Tog'li hududlarda boqilgan chorvalarning juni ingichka va qattiq bo'lganligi uchun ular tashqi savdoda ancha qiymatli tovar hisoblangan. Mazkur turdagi jun mahsulotlarining asosiy qismi Yevropa davlatlariga eksport qilingan[9].

Tashqi savdo geografiyasida tovarlar nafaqat mahsulot turlari, balki o'sha mahsulot qaysi chorvadan olinganligi ham ahamiyat kasb etgan. Xususan, qoramollardan olingan mahsulotlarning katta qismi RSFSRga yuborilgan bo'lsa, faqatgina 20 foiz qoramol mahsulotlari Germaniyaga eksport qilingan[10]. Qo'y va echkidan olingan mahsulotlar geografiyasi aksincha bo'lib, bunda G'arb davlatlarining ulushi ko'proq bo'lgan. Jumladan, qo'y junlari va terilarining 50 foizi va echkidan olingan mahsulotlarning 70 foizi Germaniyaga sotish uchun yuborilgan. Bundan tashqari, qo'y va echkidan olingan mahsulotlarning bir qismi AQShga eksport qilingan[2].

O'rganilayotgan davrda qorako'l terisini qayta ishlash va uni eksport qilish muhim ahamiyat kasb etgan. O'zbekistonda 1940-1950-yillarda qorako'l qo'ylarining miqdori to'g'risida turli xil statistik ma'lumotlar mavjud. Xususan, Savdo xalq komissarligi ma'lumotlari 1940-yilda 2 612 000 bosh qorako'l qo'ylari mavjud bo'lganligini ko'rsatsa, Davlat reja tashkiloti mazkur yilda 2 151 400 bosh qorako'l qo'ylari bo'lganligini qayd etadi. Markaziy qishloq xo'jalik boshqarmasi statistikasi bu ikki tashkilotga qaraganda kamroq raqamlarni ko'rsatib, 1950-yilda O'zbekistonda jami 1 870 229 bosh qorako'l qo'ylari mavjud bo'lganligi haqida yozadi[3].

Qorako'l terisini chet davlatlarga eksport qilishda "O'zbekiston chorvachilik ittifoqi", "O'zbekiston davlat savdosi" va "Davlat banki" tashkilotlari ishtirok etgan. Qorako'l terilarini qayta ishlash, ularning savdosi hamda eksport jarayonlari mazkur uchta muassasa o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida amalga oshirilgan. Bunda "O'zbekiston chorvachilik ittifoqi" qorako'l terisini joylardan yig'ish, qayta ishlash va yetkazish bilan shug'ullansa, "Uzgostorg" tashkiloti tayyor bo'lgan terilarni chet davlatlarga eksport qilish bilan shug'ullangan[4]. "Davlat banki"ning vazifasi esa mazkur jarayonlarni kreditlashdan iborat bo'lgan. Qorako'l teri bilan bog'liq savdo mas'uliyati asosan "O'zbekiston chorvachilik ittifoqi" zimmasiga tushgan. Chunki ushbu tashkilot qayta ishlash va terilarni saralash ishlarini olib borgan va agarda savdoda inqiroz yuz bersa, asosiy iqtisodiy kamomad mazkur tashkilotga tushgan. Bundan tashqari, ushbu tashkilot teri mahsulotlarining sifatiga javobgar bo'lgan va har qanday savdodagi tushunmovchiliklar mazkur tashkilot bilan bog'langan. Shu sababli, ushbu tashkilot terini qayta ishlovchi malakali kadrlarga ehtiyoji mavjud bo'lgan. 1950-yillarda qorako'l terilarini qayta ishlovchi va ularni saralovchi mutaxassislar kam bo'lgan. Malakali mutaxassislarning yoshi 50 dan 65 yoshgacha bo'lgan. Qorako'l terisini saralovchi va ularni qayta ishlovchi mutaxassislar bu yo'nalishning tarixidan xabardor bo'lgan va bu sohada katta malakaga ega bo'lgan. Sovet ma'muriyati mazkur mutaxassislarning

bilimlarini yozib olib, risola tarzida chop etish hamda ularni yosh kadrlar malakasini oshirishda foydalanishni rejalashtirgan[5].

O‘zSSR faqatgina xorijiy davlatlarga chorva mollari, chorva mahsulotlarini eksport qilmasdan, balki ayrim hollarda chetdan chorva mollari import qilishga to‘g‘ri kelgan. Xususan, 1934-yil 3-iyunda O‘zSSR Xalq Komissarlari soveti rahbari Fayzulla Xo‘jayev SSSR Xalq Komissarlari soveti rahbari V.M. Molotovga zotdor ayg‘ir otlar importi masalasi bo‘yicha xat yuborgan edi[6]. Urushdan keyingi yillarda esa O‘zbekistonda asosiy ot turi qorabayir otlari hisoblangan. Mazkur ot turi asosan qishloq xo‘jaligidagi yer ishlari, transport hamda harbiy maqsadlarda foydalanilgan. Armiyadagi otliq qismlar komandiri S.M. Budenniy, ayniqsa, qorabayir otlari harbiy amaliyotlarda katta o‘rin tutganligini ta‘kidlaydi. Xususan, u mazkur otlar “imperialistik va xalq ozodlik harakatlaridagi janglarda hal qiluvchi vazifalarni bajarganligini” qayd etadi[7]. 1940-yillar o‘rtalariga kelib qorabayir otlarini yetishtirish va ularning zotdorlik sifatini saqlab qolish ishlarida kamchiliklar ko‘zga tashlangan. Jumladan, qorabayir otlarini urchitish ishlari ahvoli yomon bo‘lgan. Turli sohalarida qorabayir otlaridan keng foydalanilganligi hamda zotdor otlar naslini ko‘paytirish ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi mazkur otlarga bo‘lgan talabni oshirib yuborgan. 1917-1934-yillarda Turkistonda bo‘lib o‘tgan harbiy harakatlar natijasida ko‘pgina shaxslar Afg‘oniston hududiga qochib o‘tgan hamda ular o‘zlari bilan ularga tegishli ko‘plab otlarni olib chiqqan. Fayzulla Xo‘jayev yilqichilikka oid holatlarni yoritib, V.M. Molotovdan zotdor otlarni chetdan olib kelish taklifini beradi. Jumladan, u Afg‘onistondan 25-30 ta zotdor qorabayir otlarini sotib olishga ruxsat berishini so‘raydi[8]. Mazkur otlar sotib olingan taqdirda ushbu otlar O‘zbekistonga 1945-yilning mart oyida yetib kelishi ko‘zda tutilgan. Mazkur qorabayir otlari har bir donasining narxi 500 rubldan bo‘lgan. Bundan tashqari, har bir otini olib kelish xarajatlari 100 rubldan bo‘lgan. Shunday holatda qorabayir otlarini import qilish xarajatlari jami 18 000 rublni tashkil etgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, 1945-1950-yillarda O‘zbekistonning tashqi savdosida chorva va chorva mahsulotlarining o‘rni katta bo‘lgan. Chorva mahsulotlarining tashqi savdodagi dinamikasi turlicha bo‘lib, bu bir qancha siyosiy, harbiy va iqtisodiy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Jumladan, 1945-1950-yillarda chorva mahsulotlarining eksporti deyarli to‘xtab qolganligini ko‘rishimiz mumkin. Faqatgina 1960-yillarning o‘rtalariga kelib tashqi savdo munosabatlarining rivojlanishi va chet davlatlarda hamda Rossiyada O‘zbekiston SSRning chorva mollari va chorva mahsulotlariga bo‘lgan talabning kuchayishi oqibatida chorva mahsulotlari savdosi kuchaydi. Shunday bo‘lsa-da, o‘lkadagi tashqi savdo aloqalari bolsheviklar qo‘lida bo‘lib, ular bu tarmoqda o‘z monopollarini o‘rnatdi. Natijada mahalliy chorvadorlar va tadbirkorlarning chorva mahsulotlari savdosidagi ulushi kamayib ketdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон кишлок хўжалиги ходимларига табриги // <https://president.uz/uz/lists/view/4009>
2. Ўз МА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 1701-иш, 7-варақ.
3. Ўз МА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 1701-иш, 9-варақ.
4. Ўз МА, Р.838-фонд, 12-рўйхат, 562-иш, 19-19 варақ орқаси.
5. Ўз МА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 1701-иш, 22-варақ.
6. Хамдамов А. Себестоимость продукции скотоводства и пути ее снижения (На примере колхозов Самаркандской области Узбекской ССР). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Ташкент, 1971. – С.3.
7. Ўз МА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 1701-иш, 31-варақ.
8. Ўз МА, Р.95-фонд, 1-рўйхат, 1701-иш, 32-варақ.
9. Ўз МА, Р.95-фонд. 1-рўйхат, 1701-иш, 1-2 варақлар.
10. Ўз МА, Р.95-фонд. 1-рўйхат, 1701-иш, 4-варақ

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI RIVOJLANTIRISH TADBIRLARI VA ERISHILGAN YUTUQLAR

Alisher Rustamovich Jo‘rayev
mustaqil tadqiqotchi
Qarshi davlat universiteti,
djurayev.ar@qarshidu.uz
ORCID 0009-0005-7127-9875
УДК 351.761.1(045)

Annotatsiya. Yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yishda, chinakam barkamol avlodni voyaga yetkazishda sportning o‘rni beqiyos ekanligi inobatga olingan holda, barcha ta‘lim tashkilotlarida mazkur masalaga jiddiy e‘tibor qaratilib kelinmoqda. Qarshi davlat universiteti respublikada sport sohasida o‘zining ulkan yutuqlari bilan tanilgan ta‘lim muassasalaridan biridir. Universitet nafaqat ilmiy faoliyatda, balki sportda ham katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Mustaqillik yillarida Qarshi davlat universitetida ham jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida talabalar orasida ko‘plab Osiyo va jahon chempionlari yetishib chiqdi. Ushbu maqolada Qarshi davlat universitetida sport sohasida amalga oshirilgan islohotlar, universitet talabalarining sport sohasidagi yutuqlari, universitetning sport infratuzilmasi, talaba sportchilari va erishgan natijalari, universitetning jismoniy madaniyat fakulteti tuzilmasi haqida so‘z yuritiladi.

Tayanch so‘zlar. sport, Atlanta, karate-do, sambo, Rio-de-Janeyro, paralimpiya, sog‘lom turmush tarzi, Sidney, jismoniy madaniyat.

ACTIVITIES AND ACHIEVEMENTS OF THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS AT KARSHI STATE UNIVERSITY

Abstract. Considering the incomparable role of sports in establishing a healthy lifestyle among young people and raising a truly harmonious generation, serious attention is being paid to this issue in all educational organizations. Karshi State University is one of the educational institutions in the republic known for its great achievements in the field of sports. The university has achieved great success not only in scientific activities, but also in sports. During the years of independence, as a result of the work carried out at Karshi State University in the field of physical education and sports development, many Asian and world champions have emerged among its students. This article discusses the reforms implemented in the field of sports at Karshi State University, the achievements of university students in the field of sports, the sports infrastructure of the university, student athletes and their results, and the structure of the faculty of physical culture of the university.

Keywords. sports, Atlanta, karate-do, sambo, Rio de Janeiro, paralympics, healthy lifestyle, Sydney, physical culture.

Kirish. O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridayoq jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi. Yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yishda, chinakam barkamol avlodni voyaga yetkazishda sportning o‘rni beqiyos ekanligi inobatga olingan holda, barcha ta‘lim tashkilotlarida mazkur masalaga jiddiy e‘tibor qaratildi.

1992-yil 14-yanvarda O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi [1] Qonuni qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 2000-yil 26-mayda “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi [2] qonunining ikkinchi yangi tahriri, 2015-yil 5-sentyabrda esa Qonunning uchinchi yangi tahriri [3] qabul qilindi. Mazkur qonunlarning qabul qilinishi respublikamizda sportning rivojlanishida muhim omil bo‘ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni o‘rganishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridan, qonunchilik hujjatlaridan, mavzuga doir o‘tkazilgan tadbirlar bayonnomalaridan, davriy matbuot nashrlaridan hamda Qarshi davlat universiteti joriy arxivi materiallaridan foydalanilgan.

Mavzuni o‘rganish jarayonida tarixiylik tamoyillari asosida qiyosiy-taqqoslash, to‘plangan ma‘lumotlarni tizimli tahlil etish, xronologik izchillikka e‘tibor qaratildi.

Natijalar va muhokama. Qarshi davlat universitetining sport sohasidagi yutuqlari uning rivojlangan sport infratuzilmasi bilan bog‘liq. Universitetda talabalar uchun zamonaviy sport zallari, stadionlar va maqsadga muvofiq jihozlangan sport maydonchalari

mavjud. Bundan tashqari, talabalarga sportni rivojlantirish, turli sport turlari bo'yicha mahoratni oshirish uchun sharoitlar yaratish yuzasidan doimiy ishlar olib borilmoqda. Universitetda sport bo'yicha o'qituvchilar va murabbiylar jamoasi ham faoliyat yuritadi.

Mustaqillik yillarida Qarshi davlat universitetida ham jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida talabalari orasida ko'plab Osiyo va jahon chempionlari yetishib chiqdi. Universitetning Jismoniy madaniyat fakultetida 4 ta kafedra, ya'ni Sport asoslari, Jismoniy madaniyat nazariyasi, Jismoniy tarbiya va Tibbiyot asoslari kafedralari faoliyat ko'rsatdi. Ularda 34 nafar professor-o'qituvchi bo'lib, ulardan 1 nafari professor, 6 nafari dosent, 28 nafari katta o'qituvchi va o'qituvchi sifatida faoliyat ko'rsatdi. Kafedralarni professor Bahodir Aminov, dotsentlardan Murod Berdiyev, Iso Vardiashvili, Toshtemir Arslonovlar boshqardi. Fakultet talabalariga o'zbek kurashi bo'yicha ikki marta jahon chempioni Bahrom Avazovdek ustozlar ta'lim berdi. Universitetda sportning dzyu-do, yakkama-yakka kurashi, katta tennis, futbol, voleybol, qo'l to'plaridan sport seksiyalari tashkil etildi. Qarshi davlat universitetida futbol o'yingohi, basketbol, qo'l to'pi maydonchasi, tennis korti, kurash, gimnastika, sport o'yinlari zali faoliyat ko'rsatdi[4:111].

Mamlakatimizda sportga e'tibor ta'lim tizimiga e'tiborning ajralmas bir qismiga aylandi. Sportni yanada rivojlantirish uchun, albatta, uning moddiy-texnik bazasini muntazam ravishda mustahkamlab borish talab qilinadi. Qarshi davlat universitetida 2013-yil 2-aprelda "Yakkabog' qo'rg'oni" injeneriya kompaniyasi tomonidan loyiha smetasi 2564,8 mln so'mdan iborat qurilishi rejalashtirilgan yangi sport zali binosini bunyod etish ishlari boshlandi. Sport majmuasi 44 mln so'mlik turli xil zamonaviy sport anjomlari bilan jihozlandi. Unda kurash, gimnastika, voleybol, basketbol, shaxmat-shashka, stol tennisi kabi bir qator universitet, viloyat va respublika miqyosidagi sport musobaqalarini tashkil qilish imkoni yaratildi[5].

Fakultetda dzyu-do kurashi bo'yicha xalqaro sport ustasi, olimpiada o'yinlari ishtirokchisi Alisher Muxtorovdek sportchilar tarbiyalandi. U 1996-yili Atlantada o'tkazilgan, 2000-yili Sidneyda o'tkazilgan olimpiada o'yinlarida ishtirok etdi. Bundan tashqari u bir necha bor respublika chempioni, nufuzli xalqaro turnirlar g'olibi va sovrindori bo'ldi. Shuningdek, fakultetda Mohira Nuraliyeva ham ta'lim olib, u 1996-yili Amir Temur tavvaludining 660-yiliga bag'ishlab o'tkazilgan milliy kurashda xalqaro turnir g'olibi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrinining sohibi, 2001-yilda sambo bo'yicha (Toshkent) Osiyo chempioni bo'ldi. Bahrom Avazov esa 2000-yilda Antaliyada jahon chempioni bo'ldi. Bundan tashqari bir necha bor respublika turnir musobaqalari ishtirokchisi va sovrindori aka-uka Islom va Furqat Kenjayevlar, oliy toifa futbol jamoasida to'p surgan I.Volkov, A.Kazansev, A.Beynarovich, I.Mardonov kabilar ham aynan shu fakultetda ta'lim oldi. Fakultetda 2001-yil sentyabr oyida "Kurash markazi" ochildi. Fakultetning talabasi Sofiya Kaspulatova sportning karate-do (yakka kurash) turi bo'yicha 1999- yilda Osiyo chempioni va 2003-yilda jahon chempionati musobaqalarida kumush medal sovrindori bo'ldi [6].

2016-yil Rio-de-Janeyroda o'tkazilgan paralimpiya o'yinlarida Qarshi davlat universiteti talabasi Amilova Fotimaxon suzish bo'yicha oltin medal, Toshpo'latova Shohsanam esa 3 ta bronza medal sohibasi bo'ldi. Shuningdek, ushbu paralimpiya o'yinlarida Norov Sirojiddin, suzish sporti bo'yicha Olimpiya o'yinlari ishtirokchilari Amanova Ra'noxon, Amilov Farhodbeklar ishtirok etdi.

2017-yil 28-iyun kuni Qarshi shahrida "26-iyun – Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuni" munosabati bilan viloyat hokimligi, Jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi, "Kamolot" YoIH viloyat Kengashi, viloyatdagi xalq ta'limi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi hamda oliy ta'lim muassasalari hamkorligida talaba-yoshlar ishtirokida "Biz sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz!" shiori ostida yugurish bo'yicha marafon musobaqasi

o‘tkazildi [7].

Qarshi Olimpiya zaxiralari kollejidan viloyat Amfiteatrigacha bo‘lgan uch ming metr masofada o‘tkazilgan musobaqada universitet talaba-yoshlari faol ishtirok etdilar.

Yugurish marafonida universitet talaba-sportchilaridan Jismoniy madaniyat fakulteti talabalari B.Qudratov 1-o‘rinni, S.Ro‘ziqulov 2-o‘rinni, qizlar o‘rtasida Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi D.Do‘stmurodova 1-o‘rinni, Z.Nurimova 2-o‘rinni, Xorijiy tillar fakulteti talabasi M.Xudoyberdiyeva 3-o‘rinni qo‘lga kiritdilar.

G‘olib va sovrindorlar viloyat hokimligining diplom va qimmatbaho sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

Qarshi davlat universiteti turli sport turlari bo‘yicha keng qamrovli faoliyatni amalga oshirmoqda. Futbol, voleybol, basketbol, erkin kurash, stol tennisi va boshqa sport turlari bo‘yicha talabalarning muvaffaqiyatlari hamda universitetning sport jamoalari sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishmoqda. Shu bilan birga, QarDU sport turlarini tanlashda talabalarning qiziqishlarini hisobga oladi va ularga kerakli sport inshootlari, jihozlar va trening imkoniyatlarini taqdim etadi.

Qarshi davlat universiteti talabalari nafaqat universitet ichidagi musobaqalarda, balki mamlakat miqyosida ham muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Universitet sportchilari respublika chempionatlari, O‘zbekistondagi turli sport turnirlarida ko‘plab medallarni qo‘lga kiritgan. Ayrim talabalar sportni ilmiy faoliyatlari bilan birlashtirib, sport fanlari bo‘yicha ham katta yutuqlarga erishmoqda. Bunday yutuqlar universitetni nafaqat ilmiy, balki sport sohasida ham yuqori obro‘ga ega bo‘lishiga yordam bermoqda. Universitet har yili turli sport musobaqalarini tashkil etadi. Bu musobaqalar nafaqat universitet talabalari, balki boshqa ta‘lim muassasalari o‘rtasida ham tashkil qilinadi. Universitetda o‘tkaziladigan sport festivallari va turnirlar o‘quvchilarni sportga jalb qilish, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlashga qaratilgan. Bunday tadbirlar talabalar o‘rtasida jismoniy faollikni oshirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynaydi.

2023-yilda Xitoyning Chendu shahrida bo‘lib o‘tgan XXXI yozgi Universiada o‘yinlarida dzyudo sport turi bo‘yicha universitet talabalaridan Nurbek Murtazoyev kumush medalni, Kamoliddin Baxtiyorov bronza medalni qo‘lga kiritdi [8].

2024-yilning 13–17-noyabr kunlari Toshkent shahrining “Universal” sport majmuasida “Kurash haftaligi” bo‘lib o‘tdi. Haftalik doirasida kurash milliy sport turi bo‘yicha xotin-qizlar o‘rtasida “Kurash malikalari” respublika turniri o‘tkazildi.

Quvonarlisi, musobaqaning 63 kg vazn toifasidagi bahslarida Sport fakulteti kurash ta‘lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi Maftuna Nurmamatova kumush medalni qo‘lga kiritdi.

Joriy yilning 21-noyabrida Qarshi davlat universiteti Sport sog‘lomlashtirish majmuasida oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida voleybol sport turi bo‘yicha “Besh tashabbus olimpiadasi”ning viloyat bosqichi bo‘lib o‘tdi. Keskin va shiddatli kurashlar ostida kechgan musobaqada Qarshi davlat universitetining talaba yigitlaridan iborat jamoa birinchi o‘rinni egallab, respublika final bosqichi yo‘llanmasini qo‘lga kiritdi [9].

Qarshi davlat universiteti sport sohasidagi yutuqlarini yanada kengaytirishga intilmoqda. Universitetning kelajakdagi rejalari sport infratuzilmasini yanada modernizatsiya qilish, talabalarga ko‘proq sport turlarini taqdim etish va xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etishga yo‘l ochishdan iborat. Shu bilan birga, universitet sportchilarini qo‘llab-quvvatlash, ularga sport faoliyatida yanada yuqori natijalarga erishish uchun zarur sharoitlar yaratish niyatida harakat qilmoqda.

Xulosa va takliflar. Qarshi davlat universiteti sport sohasida o‘zining yutuqlari bilan ajralib turadi. Universitetning sport infratuzilmasi, sport musobaqalaridagi ishtiroki,

talabalarining yutuqlari va sportga bo'lgan yondashuvi yuqori darajada rivojlanib, universitetni nafaqat ilmiy, balki sportda ham o'zining o'rnini mustahkamlashga yordam bermoqda. Kelajakda Qarshi davlat universiteti sport sohasidagi yutuqlarini yanada kengaytirish, talabalarini xalqaro maydonlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlashni maqsad qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni, 1992-yil 14-yanvar, Lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunining ikkinchi tahriri, 2000-yil 26-may, Lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunining uchinchi tahriri, 2015-yil 5-sentyabr, Lex.uz
4. Shadiyeva D.A. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimining yo'lga qo'yilishi va rivojlantirilishi (Qashqadaryo viloyati misolida, 1945–2020 yy.): Tarix fanlari falsafa doktori diss. – Qarshi, 2023. –B. 111..
5. Avaznazorov O. Universitetning yangi sport majmuasi // Qarshi davlat universiteti gazetasi, 2013-yil 26-noyabr.
6. Qarshi davlat universiteti joriy arxivi materiallari
7. 2016–2017-o'quv yilida ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda Qarshi davlat universitetida amalga oshirilgan ishlar hisobotidan.
8. Nabiyev D. Sifatli ta'lim – taraqqiyot poydevori. // Qashqadaryo News jurnali, 3/2023.
9. <https://t.me/qarduuz> Qarshi davlat universitetining rasmiy telegram kanali.

QASHQADARYO VILOYATI MAHALLALARIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH (TARIXI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI)

Jo'rayev Ilhom

Osiyo texnologiyalar universiteti
o'qituvchisi
islombek.jurayev1@mail.ru
ORCID 0009-0003-7748-6635
UO'K 94(575.152)

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif o'tgan davrlarda Qashqadaryo viloyatida aholini ijtimoiy himoyalash yo'nalishida ayrim muammolar shakllangani, aholi bandligiga ko'maklashuvchi tuman (shahar) markazlari aholi bandligini ta'minlash, mahallada kasanachilikni shakllantirish, shaxsiy, yordamchi va dehqon xo'jaliklarida chorva mollari boqish, parrandachilik bilan shug'illanish hamda boshqa turdagi ishlar yordamida bandlikka oid qator vazifalar bajarilgani, ayollar bandligini ta'minlash borasida "Tadbirkor ayol" assotsiatsiyasining viloyat bo'limlari tomonidan talay ishlar amalga oshirilganini ilmiy dalillar asosida tahlil etgan.

Shuningdek, o'tgan tarixiy davrda mahallalarda ayollar uchun tadbirkorlik faoliyatlari bilan shug'illanishga ko'mak berilgani, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlanib, mahallalarda mazkur yo'nalishda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga e'tibor qaratilgani ham ma'lumotlar asosida ilmiy tahlil etilgan.

Tayanch so'zlar. Qashqadaryo viloyati, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, mehnat birjasi, bandlik masalasi, bozor munosabatlari, kichik biznes subyektlari, taraqqiyot modeli, sog'liqni saqlash tizimi, yoshlar bandligini ta'minlash.

ENSURING EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN THE MAHALLAH (NEIGHBORHOOD)S OF THE KASHKADARYA REGIONS. (HISTORY AND DEVELOPMENT TRENDS)

Abstract. In this article, the author describes some problems in the area of social protection of the population in Kashkadarya region in the past, district (city) centers that help the population to ensure the employment of the population, the formation of households in the neighborhood, personal assistants and livestock raising, poultry farming and other types of work on farms. "Entrepreneur" in terms of fulfilling a number of tasks, ensuring women's employment He analyzed on the basis of scientific evidence that many works were carried out by the regional branches of the association.

Also, it was scientifically analyzed based on the data that in the past historical period, women in the neighborhoods were helped to engage in entrepreneurial activities, families in need of social protection were provided with material and moral support, and attention was paid to the development of social infrastructure in the neighborhoods in this direction.

Keywords. Kashkadarya region, state of social protection, labor exchange, employment issue, market relations, small business entities, development model, health care system, provision of youth employment.

Kirish. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatida aholi bandligini ta'minlash tarixi va uning rivojlanish tendensiyalari xususida fikr yuritishdan oldin, bandlik tushunchasining lug'aviy ma'nosi va mohiyatiga to'xtalish o'rinli ekanligi, bu borada turlicha talqinlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Bandlik masalasiga O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida ham alohida ta'rif berilgan bo'lib, bu tushuncha to'liq bandlik va to'liq bo'lmagan bandlikka bo'linishi qayd etiladi. Aholi bandligini ta'minlash borasida mustaqillikning ilk yillarida o'ziga xos yutuqlar qo'lga kiritilishi bilan birga, ma'lum muammolar ham yuzaga kelgan edi. Jumladan, davlat obyektlari va korxonalarida mehnat qilayotgan ishchi va xodimlarning ko'pchiligining ishsiz qolishi bunga asosiy sabab bo'lgan edi. Agar tarixiy raqamlarga murojaat etilsa, birgina 1998–1999-yillarda sanatsiyaga uchragan va shirkatlarga aylantirilgan qishloq xo'jalik korxonalaridan 218 ming odam ishdan bo'shatilgan va ular ishsiz qolgan. Bu o'z-o'zidan ishsizlar armiyasining vujudga kelishiga olib keldi. Natijada odamlar ish so'rab turli tashkilotlarga murojaat qila boshladilar. Xususan, o'sha davrda bir necha yillar mobaynida mehnat tashkilotlariga ish so'rab murojaat qilganlar soni yildan-yilga o'sib, ularning soni 1996-yilda 275 ming, 1997-yilda 300 ming, 1998-yilda 314 ming, 1999-yilda 390 ming nafarni tashkil etgan[1:211].

Natijalar va muhokama. Mazkur muammolar jiddiy ravishda bandlik masalasida mavjud muammolarni hal etishni talab etar edi. Umuman, bu yangi ish o'rinlari yaratish, aholining bandligini ta'minlash borasida tashkiliy chora-tadbirlarni belgilashni taqozo etib, ishsizlar sonining ortishi Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy muammolarni hal qilish vazifasini qo'ydi. Bu borada avvalambor aholini yer bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega edi. Natijada aholi tomonidan yer so'rab murojaat qiluvchilar soni ham ortib bordi. Masalan, 1990-yilda Qashqadaryo viloyatining o'zida tomorqaga muhtoj bo'lgan 41401 oilaga 7 ming gektarga yaqin yer ajratib berildi. 1991-yilda bu ko'rsatkich 12 ming gektarni tashkil etdi[2:12].

Shuningdek, Qashqadaryo viloyatida Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh Boshqarmasi boshqa turli idora, muassasa, tashkilotlar bilan hamkorlikda bandlik muammosini hal etish bo'yicha talay ishlarni amalga oshirdilar. Shaharlardagi mehnat birjalari, turli tashkilotlar, ayniqsa, yoshlarni ijtimoiy foydali mehnat bilan ta'minlashda ma'lum ishlarni bajardilar va bu ko'rsatkich dinamik nuqtayi nazardan o'sib bordi. Masalan, amaliy tadbirlar sifatida Qarshi shahar mehnat birjasi yoshlarda boqimandalik kayfiyatini bartaraf etish, ularni ijtimoiy himoyalash maqsadida "Mehnat bozori" yarmarkalarini tashkil eta boshladi. Birgina 1996-yilda shaharda jami 1320 nafar yoshlar mehnat bozoriga chiqqan bo'lsalar, ularning 692 nafari ish bilan ta'minlandi. 115 nafar yoshlar kasbga qayta tayyorlandilar, 1720 ta yangi ish o'rinlari yaratildi[3:7].

Bandlik masalasida 1992-yilda Qashqadaryo viloyati mahallalarida ishlab chiqarishda band aholining 10,4 foizi sanoatda mashg'ul bo'lgan bo'lsa, bu raqam 1995-yilda 10,6 foiz, 2000-yilda 11,6 foizga yetdi. Qishloq xo'jaligi sohalarida mashg'ul bo'lganlarning soni esa, aksincha, kamaya bordi. Xususan, 1992-yilda qishloq xo'jaligida band bo'lganlarning hissasi ish bilan band aholining 33,7 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2005-yilga kelib, ularning hissasi 26,5 foizgacha kamaydi. Bu esa har ikki viloyatda mazkur sohada mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib ma'lum dinamik o'zgarishlar sodir bo'lganligini ko'rsatadi[4:34-35].

Ish bilan band bo'lmagan aholi salmog'i yuqori bo'lgan joylarda bandlikni ta'minlovchi tashkilot va korxonalar o'rtasida ma'lum nomutanosibliklar vujudga keldi. Masalan, Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani mahallalarida 12220 nafar ishsiz bo'lgan holda, kooperativlar soni 3 tani, kichik korxonalar 5 tani, fermer xo'jaliklari 140 tani tashkil etar edi.

Ularda jami 450 nafar kishi ish bilan ta'minlangan, xolos. Chiroqchi tumanida esa ish bilan band bo'lmaganlar soni 15700 nafar kishini tashkil etar, ulardan 512 nafari esa 18 ta kichik korxonalar, 14 ta kooperativ, 40 ta fermer xo'jaligiga ishga joylashgan, xolos [4:34-35].

Mustaqillikning dastlabki yillarida Qashqadaryo viloyatida band bo'lmaganlar soni ortib bordi. 1992-yilning 1-iyulidagi ma'lumotlarga ko'ra, viloyat mahallalarida mehnat bilan band bo'lmaganlarning soni 65285 nafar kishini tashkil etdi. Bularning 36085 nafari 16-35 yoshgacha bo'lgan yoshlardan iborat edi. 29200 nafar kishi esa 31 yoshdan pensiya yoshigacha bo'lgan fuqarolar edi. Ish bilan band bo'lmaganlarning 54474 nafari, aksariyat ko'pchiligini xotin-qizlar tashkil etardi. Bu hol xotin-qizlar uchun alohida ish o'rinlarini tashkil etishni talab etar edi [5:86].

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanida 2002-yil mart oyida o'tkazilgan yarmarkada 59 ta korxonalar va tashkilotlar o'zlaridagi 252 ta bo'sh o'rinlari bilan qatnashdilar. Keyingi yillarda, xususan, 2008-yilga kelib aholi bandligini ta'minlash va aholi turmush tarzini yuksaltirish borasida kasanachilik va oilaviy tadbirkorlikka e'tibor qaratila boshlandi. Natijada ishga jalb qilish yuzasidan birgina Qashqadaryo viloyatida 2008-yilning o'zida kichik korxonalar va mikrofirmalarni, kasanachilikni rivojlantirish va mavjud korxonalarni rekonstruksiya qilish hisobiga yoshlar uchun 47 ming 900 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan. Kam ta'minlangan oilalar farzandlaridan 270 nafarining nikoh to'ylari, 267 nafar bolaning sunnat to'ylari o'tkazildi. Kam ta'minlangan 8100 ta oilaga uy qurish va ta'mirlash uchun 4,6 milliard so'mlik Ipoteka, 4015 ta yosh oilaga uy-joy jihozlari va ro'zg'or anjomlari sotib olishlari uchun 4,2 milliard so'mlik iste'mol kreditlari berilgan[3:8].

Mustaqillikning dastlabki yillarida respublikaning asosiy muammolaridan biri – bu aholi bandligini ta'minlash ekan, tarixiy raqamlarga ko'ra respublikada 1990-yilda aholining ish bilan band qismi 7,941 ming kishini tashkil etgan va 2011-yilda ushbu ko'rsatkich 11,919 ming kishiga yetdi. Shu bilan birga, 2011-yilga kelib aholining ish bilan band bo'lgan qismi qariyb 4 mln. kishiga ortdi. Dastlabki 5 yillik mobaynida 500 mingdan ziyod aholi ish bilan ta'minlangan bo'lsa, ikkinchi 5 yillikda ham ushbu natija takrorlangan[6:114-115]. Uni Sovet ittifoqidagi o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan olganda, respublika yoshlarining moliyaviy daromadlari esa Qashqadaryo viloyatida – 46,2 %, bo'lganligini ko'rish mumkin[7:106].

Bozor munosabatlarining dastlabki yillardan e'tiboran aholi bandligini ta'minlash doirasida “Tadbirkor ayol” assotsiatsiyasining Qashqadaryo viloyat bo'limi tomonidan talay ishlar amalga oshirildi. Masalan, 2000-yilda 1500 nafar ayolga o'zlarining tadbirkorlik faoliyatlarini boshlashlariga ko'mak berildi, 500 nafar ayol esa kasbga qayta tayyorgarlikdan o'tib o'z malakalarini oshirganlar. Agar qiyoslansa, bu borada Xorazm viloyati bo'limida esa 240 ta ishchi o'rin tashkil etildi va 150 nafar ayol ishga joylashtirilgan, 300 ayol kasbga qayta tayyorlangan. 1991–2009-yillar oralig'ida respublikada tadbirkor ayollar 120 mingdan ortiq kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini boshqarganlar. Bu, shubhasiz, respublika bandlik masalasini ortishiga xizmat qilib, ichki bozorni mahsulotlar bilan to'ldirish, shu bilan birga, ayollarga yangi ish o'rinlarini yaratish borasida talay ijobiy ishlar amalga oshirib kelinganligini ko'rsatdi.

2011-yilning “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” deb e'lon qilinishi Qashqadaryo viloyati qishloq aholisining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, qishloq aholisining turmush darajasini oshirish, kundalik aholi ehtiyojlarni ta'minlash borasida muhim ahamiyatga ega bo'ldi [8:28]. Amalga oshirilgan ishlar tufayli 2012-yili Qashqadaryo viloyatida yalpi hududiy mahsulot 4,5 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari 7,3, kapital qo'yilmalar hajmi 26,6, chakana savdo aylanmasi 20,5, pudrat ishlari 12, xizmatlar ko'rsatish 18,5 foizga o'sdi. 2012-yilda tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotning real tarmoqlariga 935,5 milliard so'm hajmida kredit ajratildi. O'z navbatida, kichik biznes subyektlarining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 57,6 foizga yetdi. Shularga mos ravishda hududda bandlik dasturiga ko'ra, 88 ming 790 dan ortiq ish o'rni yaratildi[2:19].

2021-yilda “Mahalla” xayriya jamoat fondining viloyat, shahar va tuman bo'linmalari tomonidan mahallalarda turli maishiy xizmat ko'rsatish hamda servis sohasida

shug'ullanayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarga soliq to'lovlaridan ozod etilishi yuzasidan 2200-marta targ'ibot ishlari olib borildi va hokimliklarga tegishli takliflar berildi. Tadbirlarda 52860 dan ortiq aholi va tadbirkorlar ishtirok etdilar. Jumladan, Mirishkor tumanida 144-marta, Nishon tumanida 65-marta, Qarshi shahrida 273-marta ("Jeynov", "Pomuq", "Oydin", "Qarliqxon", "Mahollot", A.Qodiriy nomidagi, MFY) larda targ'ibot tadbirlari o'tkazildi. Umuman, 2014-yilgacha viloyat bo'yicha jami 10500 dan ortiq tadbirkorlik subyektlari tashkil qilinib 11 mingga yaqin yoshlarning bandligi ta'minlandi. Jumladan, Chiroqchi tumanida 1125 ta, Qarshi shahrida 2177 ta, Nishonda 447 ta, Qamashida 320 ta tadbirkorlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lib, 6500 dan ziyod yoshlar tadbirkorlik bilan shug'ullanganlar[9].

Ayniqsa, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari bandligini ta'minlash yuzasidan 2014-yilga kelib viloyatdagi mavjud 136 ta kasb-hunar kolleji bitiruvchilarining bandligini ta'minlashga, 9-sinf bitiruvchilarini ta'limning keyingi bosqichiga jalb etishga hamda ta'lim muassasalarida davomatni yaxshilashga ko'maklashish maqsadida hamkor tashkilotlar bilan birgalikda chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Respublika boshqaruvi tomonidan tayyorlangan umumta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari hamda kasb-hunar kollejlari tahsil olayotgan o'quvchilar va bitiruvchilarni hisobga qo'yish (temir) daftari shahar va tuman bo'linmalariga yetkazilgan bo'lib, ushbu daftarning yuritilishi bo'yicha fuqarolar yig'inlariga uslubiy-amaliy yordamlar ko'rsatilib, monitirong olib borilgan[9].

Viloyat mahallalarida jamoatchilik vakillari bilan olib borilgan targ'ibot ishlari natijasida 499218 nafar maktab o'quvchilar bo'lib, 491068 nafari - 98,4 foizi va 159920 nafar kasb-hunar kolleji o'quvchilari bo'lib, 137928 nafari - 86,2 foizi darsga qatnashishlar aniqlangan bo'lsa, 54735 nafar maktab bitiruvchilari akademik litsey, kollejlarga to'liq qamrab olinishiga erishilgan. Ushbu yo'nalishda monitoring olib borilib, yo'l qo'yilgan kamchiliklar yuzasidan Nishon va Muborak tuman bo'linmalari faoliyati joriy yilning 26-iyul kunlari o'tkazilgan viloyat bo'lim boshqaruv yig'ilishida muhokama qilinib intizomiy jazolar qo'llanilgan [9]. 2019-yilda Qashqadaryo viloyatida 131 375 nafar ishsiz fuqarolarning bandligini ta'minlash maqsadida:

1) kasbga o'qitish o'quv kurslarini tumanlarda ehtiyoj yuqori bo'lgan ishchi, kasb-hunarlarga, shu jumladan, xizmat ko'rsatish (sartaroshlik, qandolatchilik, oshpazlik, avtomobil va maishiy texnikani ta'mirlash, tikuvchilik va boshqa), qurilish (payvandlovchi, bo'yoqchi, suvoqchi), kommunal (santexnik, elektrik kabi) va boshqa sohalar bo'yicha tashkil etish;

2) xotin-qizlar bandligini ta'minlash borasida, avvalo, PQ-4341-sonli qaror asosida ularning bandligini ta'minlash choralari ko'rish;

3) viloyatda aniqlangan ishsiz fuqarolarni bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari bilan hamkorlikda vaqtincha haq to'lanadigan ishlarga jalb qilish;

4) o'zini o'zi band qilishga subsidiyalar ajratish;

5) zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini ushbu sohaga targ'ib qilish maqsadida bandlikni ta'minlashga qaratilgan tumanlar (shaharlar), mahallalar kesimida bandlik platformasini yaratish belgilandi[10].

Umuman, aholi bandligiga oid davlat siyosati, avvalo, har bir davlatning ichki ishi bo'lsa-da, u fuqarolar va davlat o'rtasidagi munosabatlarni ma'lum ma'noda aniq sohalariga yo'naltirib turishga xizmat qiladi. Bu holatni "bandlik omili" kun sayin dolzarb ahamiyat kasb etayotgani sifatida tushunish mumkin.

Qashqadaryo viloyati mahallalarida taraqqiyot modeliga ko'ra yoshlar bandligini ta'minlash maqsadidida tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o'rinlari yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ish bilan band bo'lmagan aholi qatlamini, shu bilan birga, ta'lim muassasalari, tibbiyot muassasalari va davlat tashkilotlarida ishlovchilarning daromadlarining bosqichma-bosqich oshirilib borilishi, kam ta'minlangan aholi qatlamini ijtimoiy himoya qilish, aholi salomatligini oshirishda 800 ta oilaviy poliklinikalar va 400 dan ortiq tez tibbiy yordam punktlari tashkil etildi, tez tibbiy yordam xizmati 1260 ta maxsus transport vositalari bilan ta'minlandi, sog'liqni saqlash tizimi muassasalariga dori vositalarini va tibbiyot anjomlarini sotib olish uchun ajratiladigan byudjet

mablagʻlari miqdori 3,5-marta oshirildi[11:2]. Xizmat qilayotgan tibbiyot muassalarini zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish, kam taʼminlangan uysiz odamlarga 140 mingta arzon uylar qurildi[12:96-136] va joylardagi ijtimoiy infratuzilma obyektlari faoliyatini tiklash kabi amalga oshirilgan ishlar Oʻzbekistonda aholi bandligini taʼminlashga xizmat qildi.

Bozor iqtisodiyotiga oʻtayotgan kezlarda ishsizlar sonining ortishi Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy muammolarni hal qilish vazifasini qoʻydi. Ayniqsa, bu borada avvalambor aholini yer bilan taʼminlash, aholining turli davlat idora, muassasa, korxonalariga yer va ish soʻrab murojaat qilishlari ham koʻpayib borganligini, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Bosh Boshqarmalari bu yoʻnalishda qator chora-tadbirlar ishlab chiqqanligini koʻrsatdi. Mahallalardagi mehnat birjalari, turli tashkilotlar, ayniqsa, yoshlarni ijtimoiy foydali mehnat bilan taʼminlashda maʼlum ishlarni bajardilar va bu koʻrsatkich dinamik nuqtayi nazardan oʻsib bordi. Xususan, “Mehnat bozori” yarmarkalari tashkil etilib minglab fuqarolarning bandligi taʼminlangan.

Yoshlar bandligini taʼminlash borasida ularni kasbga oʻqitish oʻquv kurslarini tashkil etish, ehtiyoj yuqori boʻlgan ish, kasb-hunarlariga, shu jumladan, xizmat koʻrsatish (sartaroshlik, qandolatchilik, oshpazlik, avtomobil va maishiy texnikani taʼmirlash, tikuvchilik va boshqa), qurilish (payvandlovchi, boʻyoqchi, suvoqchi), kommunal (santexnik, elektrik kabi) va boshqa sohalar boʻyicha tashkil etish, aniqlangan ishsizlarni mehnat markazlari bilan hamkorlikda haq toʻlanadigan jamoat ishlariga jalb qilish, oʻzini oʻzi band qilishga subsidiyalar ajratish, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini ushbu sohaga targʻib qilish maqsadida bandlikni taʼminlashga qaratilgan tumanlar (shaharlar), mahallalar kesimida bandlik platformasini yaratishga eʼtibor qaratilganligi bilan izohlandi.

Qashqadaryo viloyatidagi mahallalarning geografik joylashuvi, etnodemografik holati, geosiyosiy va geoiqtisodiy omillariga koʻra oʻziga xos farqlanib turuvchi viloyat ekanligiga, shahar va qishloqlar, yaʼni mahallalar ham bir-biridan maʼlum xususiyatlariga koʻra farqlanishini koʻrsatdi. Qashqadaryo viloyatidagi mahallalarining shakllanishi va rivojlanishining asosini iqtisodiyot tarmoqlari orasida asosan qishloq xoʻjaligi va chorvachilik, qisman hunarmandchilik, tuman markazidagi va shahar mahallalarida esa maʼlum maʼnoda sanoat sohalarini tashkil qilishi tasdiqlandi.

Viloyatning oʻziga xos geografik joylashuvi, tabiiy sharoiti, etnodemografik holatiga koʻra ajralib turuvchi xususiyat mavjud boʻlib tadqiqotlar ushbu viloyatda oʻz navbatida aholining joylashuv xususiyatlarida ham maʼlum oʻziga xosliklar mavjud ekanligiga guvoh boʻldik. Masalan, viloyat mahallalari aholisining aksariyat qismi qishloq hududlarida yashab keladi, bunday hududlarda aholini ish bilan taʼminlash, tadbirkorlikka jalb qilish boʻyicha muammolarning yetarlicha ekanligi aniqlandi. Ayrim mahallalar markazdan uzoqda joylashgan boʻlib, ularning joylashgan oʻrni va tabiiy sharoitining noqulayligi, aholining oʻsish darajasi va migratsiya jarayonlariga ham taʼsir qilib, viloyatda hamon tugʻilishning yuqori darajada saqlanib qolishi ham maʼlum maʼnoda bandlik muammosini keltirib chiqarayotganligiga guvoh boʻldik.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda viloyatlar mahallalari faoliyatini bir qancha yoʻnalishlarda baholash va ular faoliyatini yangicha tashkil etish yuzasidan ayrim takliflar ilgari surildi. Har ikki viloyatlar mahallalarida istiqomat qilayotgan aholi turmush tarzidagi oʻzgarishlar va bandlikni taʼminlash boʻyicha tegishli hududda yashovchi fuqarolarga oʻz ish faoliyatlarini tashkil etishga koʻmaklashish, tadbirkorlik faoliyati uchun kredit olishga koʻmaklashish, aholini qoʻshimcha ish bilan taʼminlashga yordam berish, aholining bandligini rasmiylashtirishga koʻmaklashish, ehtiyojmand va kam taʼminlangan oilalar sonidan kelib chiqib, kasanachilik va tomorqa yer uchastkalaridan unumli foydalanish, hashar yoʻli bilan oʻtqazilgan daraxtlar va obodonlashtirish tadbirlarini yanada kengaytirish boʻyicha rejali ishlar amalga oshirilgan boʻlishiga qaramasdan hali talay yechimini kutayotgan muammolar borligi tasdiqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. – T., 2004. –B. 211.
2. Botirova H. O'zbekistonda agrar soha mutaxassislarini tayyorlash jarayoni tendensiyalari (1991-2015-yillar, janubiy hududlar misolida). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. –T., 2021.-B. 12.
3. Qashqadaryo viloyati Davlat arxivi. 142-fond, 1-ro'yxat, 11-ish, 7-varaq.
4. Yormatov F. O'zbekistonning janubiy viloyatlarida aholining ijtimoiy himoyasi (1991-2017-yillar). / Monografiya. –Termiz, 2018. –B. 34-35.
5. Xayitov A.B. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy rivojlanish va aholi bandligining o'zaro aloqadorligi. Iqtisod fanlari nomzodi ... diss. –Toshkent, 1994.– B.86.
6. Bobojonov I. O'zbekistonda yosh avlodni tarbiyalash jarayonida mahalla institutining roli (Toshkent shahri mahallalari misolida. 1991-2019 yy.). Tarix fanlari bo'yicha falsafa dokt. (Phd) diss. –T., 2021. –B. 114-115.
7. Insopov A. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishda davlat va nodavlat tashkilotlar ijtimoiy sherikligi (1991-2016 yy.) Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) diss. –Toshkent. 2021.-B 106.
8. Qashqadaryo viloyati hokimligi joriy arxivi materiallari: Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining II/I sessiyasi materiallari. 2012-yil 14-fevral. –B. 28.
9. O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamoat fondining Qashqadaryo viloyat bo'limining ish rejasi yuzasidan 2014-yil yanvar–dekabr oylari davomida bajarilishi to'g'risida ma'lumotlardan olindi.
10. Ma'lumotlar Respublika Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi vakillarining Qashqadaryo viloyatiga tashrif davomida rahbarlarning hisobotida yoritilgan masalalaridan olindi.
11. Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakilining (ombudsmanning) 2017-yildagi hisoboti. T.: 2017. 2 b.
12. O'zbekistonda 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi natijalari. fastbook [matn]: Byulleten.-Toshkent: Baktria press.2021. – b.96-136.

G'UZOR BEKLIKINING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI

(A.Mayev ma'lumotlari asosida)

Ernazarov Azim Xudoyqulovich

Osiyo texnologiyalar universiteti

Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar

kafedrasida dotsenti v.b., t.f.f.d (PhD),

ernazarov.85@bk.ru

ORCID-0009-0001-2825-8068

UDK 94:(575.152)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida maxsus topshiriqlar asosida o'lkani o'rgangan sayyoh A.Mayevning hisobot va esdaliklar yozib qoldirgani, bu hisobot va esdaliklarda hududda o'zining siyosiy, iqtisodiy ta'sirini kengaytirishga harakat qilgan metropoliyaning strategik qiziqishlari asosida G'uzor bekligining geografik joylashuvi, iqtisodiy va ijtimoiy hayoti haqidagi qayd etish darajasidagi dalil va ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Shuningdek, G'uzor bekligining iqtisodiy taraqqiyoti, shaharning ma'muriy boshqaruv tizimi, amirlik xazinasiga keltiradigan daromadi, aholisi, ishlab chiqarish jarayonlari xususida ayrim ma'lumotlar tahlil etib berilgan.

G'uzor bekligining aynan XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida amirlikning muhim harbiy-strategik, siyosiy, iqtisodiy tayanch markazi darajasiga ko'tarilishiga shaharning himoya devorlari bilan o'ralganligi, shaharning ichki va tashqi savdo markazi bo'lganligi A.Mayev ma'lumotlari asosida ilmiy yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar. G'uzor bekligi, Qorategin, Taxtakoprik, Poyontepa, G'uzordaryo, Tangixaram va Qo'shilish, savdo-sotiq munosabatlari, Poshxurt qizil tuzi, Chashmai Hofizjon, tosh uzoqlik, verst, sharqiy viloyatlar, serhosil yerlar, iqtisodiy taraqqiyot, Chakchak vodiysi, Oqrabot xarobalari, payshanba bozori.

HISTORICAL-GEOGRAPHICAL CLASSIFICATION OF GUZAR BEYLIC

(based on the information A. Mayev)

Abstract. This article contains reports and memoirs of the tourist A. Mayev, who explored the region on the basis of special assignments during the reign of the Russian Empire, in these reports and memoirs there are recorded evidence and information about the geographical location, economic and social life of the

Guzar beylic on the basis of the strategic interests of the metropolis, which tried to expand its political and economic influence in the region.

In addition, some data are analyzed on the economic development of Guzar governorship, the administrative management system of the city, income to the emirate's treasury, population, production processes.

It was in the second half of the 19th century - the beginning of the 20th century that Guzar beylic rose to the level of an important military, strategic, political and economic base center of the emirate, surrounded by protective walls, being a center of internal and foreign trade, based on the information of A.Mayev

Keywords. Guzar beylic (noble-province), Karategin, Taktakkoprik, Poyontepa, Guzardarya, Tangiharam and Annexation, trade relations, Pashkhurt red salt, Chashmai Hafizjan, stone distance, verst, eastern regions, fertile lands, economic development, Chak-chak valley, Oqrabat ruins, Thursday market.

Kirish. Tarixiy manbalardan ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligi ma'muriy-hududiy jihatdan bekkliklar, tumanlarga bo'lingan holda boshqarilar edi. G'uzor bekkligi amirlikda eng ko'zga ko'ringan hududlardan biri bo'lib, savdo-sotiq munosabatlari yuqori darajaga ko'tarilganligi bilan katta ahamiyatga ega bo'lib, bekklik amirlikning g'arbiy, sharqiy viloyatlarini bir-biri bilan bog'lab turgan". G'uzor bekkligi Buxoro amirligining savdo-sotiq markazi bo'lishi bilan birga, u harbiy istehkom vazifasini ham o'tagan, amirlikning janubiy viloyatlarini boshqarib turardi.

Nebolsinning "Rossiyaning O'rta Osiyo bilan munosabatlari" nomli asari chop etilganligi bois asardagi xaritada Qarshi Amudaryo va Cho'chqaguzargacha bo'lgan yo'nalish aniq ko'rsatilgan. Bu yo'nalish G'uzordan bosh Hisorgacha, undan Qorategin olib borish ko'rsatilgan. Ushbu yo'nalish A.Borne tomonidan tayyorlangan xaritada ko'rsatilgan bo'lib, u N.Xanikovning "Buxoro xonligi tavsifi" nomli asarining xaritasiga ham kiritilgan[1:109].

Tadqiqot metodologiyasi. Qarshidan G'uzorga qarab borishda Hisor tog'laridan o'tib, Shahrisabz vodiysiga borib taqaladigan uchta shahardan biri – G'uzor yo'li orqali sharqiy tomonda edi. Sharqiy tomonga chiqish Toshqo'rg'on darasi orqali Yakkabog'ga kelib taqaladi. Kaltaminor yo'li Buxoro amirligining muhim qal'alaridan hisoblangan Yortepa qishlog'iga kelib tutashgan. Boysundan Oqrabotgacha, Chashmai Hofizjongacha, Tangixaram va Qo'shilishgacha bo'lgan g'arb tomondagi yo'l Buxoro, Qarshi va Hisor yo'li o'rtasida muhim tranzit ahamiyatiga ega G'uzor shahriga kelib to'xtaydi^[2:94].

G'uzor bilan Qarshi shahridan birinchi qishloqqacha masofa 1 verstni tashkil etgan bo'lib, bu qishloq Yangimozor bo'lgan. Keyingisi esa 7 verst uzoqlikdagi, ancha boy qishloq Taxtakoprik va Qarshini suv bilan ta'minlab turuvchi Beshariq qishlog'i joylashgan. Bundan keyin to Yangikentgacha (Qarshidan 22 verst) boshqa qishloqlar mavjud bo'lmagan.

Natijalar va muhokama. XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro va Samarqand shaharlari Afg'oniston, Eron, Hindiston bilan olib borgan barcha savdo-sotiq munosabatlari G'uzor bekkligi orqali amalga oshirilgan[10:87]. Yangikent Dasht qishlog'i bo'lib, Qashqadaryoning emas, G'uzordaryoning suvi bilan o'z dashtlarini sug'organ. G'uzor Yangikentdan 18 verst uzoqlikda bo'lib, bu qishloqdan G'uzorgacha bo'lgan yo'lining ikki chetida qadimiy va yangi qishloqlar joylashgan. Yangikentdan 8 verst uzoqlikda yo'lining ikki cheti bo'ylab ekilgan yam-yashil bog'lardan to Poyontepagacha ikki qishloq joylashgan. Bu ikkala qishloqni bir-biridan uncha keng bo'lmagan jar va qiyaliklar hamda Poyontepa nomli tepalik ajratib turgan. G'uzordan yana 4 verst uzoqlikda yo'lining chap tomonida Cho'loq qishlog'i, undan keyin esa Bog'dod qishlog'i o'rin olgan [3: 142].

Shahrisabzdan Kitobgacha bo'lgan masofa 8 verst bo'lgan. Shahrisabzga yaqin Kitob shahriga Samarqanddan ikkita yo'l: biri Jom darasi orqali yaxshi arava yo'l olib borardi, bu yo'ldan 1870-yildan Kitobni egallash uchun rus qo'shinlari o'tgan. Keyingisi yuk tashiladigan yo'l bo'lib, bu Qoratepa qishlog'i orqali Taxtaqoracha dovonidan o'tib, to'g'ri Kitob devorlariga olib chiqar edi[4: 394-397].

G'uzordaryo suvini Boysunning shimoli-sharqiy tomonidagi tog'ning qorli cho'qqilaridan olib, ikki daryo: Katta O'radaryo va Kichik O'radaryodan hosil bo'ladi. Katta

O'radaryo Shahrizabz vodiysidan ham ko'rinib turadigan ulkan Sengridagadan oqib chiqadi. Ikkinchi Kichik O'radaryo esa qarama-qarshi tomonidagi Boysun tog'laridan Sheroboddaryoning katta irmoqlardan biri sifatida oqib chiqadi. G'uzordan 16 verst uzoqlikda Qushlush tog' qishlog'i yaqinida Katta va Kichik O'radaryolar bir-biri bilan qo'shilib G'uzor daryosini hosil qiladi. Bu daryo tufayli butun G'uzor vohasi unumdor va serhosil yerlarga aylanadi. G'uzordaryo yuqorida ta'kidlanganidek, faqat Yangikentgacha yetib keladi va shu sababli aholi ariq suviga unchalik ishonmasdan, yilning asosiy qismida hovuzlar va quduqlardan foydalanadi. Qarshi bilan G'uzor o'rtasidagi yo'l yuk yo'li bo'lib hisoblansa-da, dashtning tep-tekis, ravon qismidan o'tadi[5: 89].

Poshxurt qizil tuzi yuqori sifatli bo'lib, butun Buxoro va Zarafshon o'lkalarida G'uzor tuzi nomi bilan mashhur. Poshxurt yoki G'uzor tuzining omborxonalari Qarshida joylashgan bo'lib, u yerdan Buxoroga olib ketilgan. Shuningdek, dasht yo'lidan Koson qishlog'i orqali (Qarshidan 24 verst) Karmanaga va u yerdan Samarqandga olib ketilgan[6: 135-138].

G'uzor qal'asi G'uzordaryosi qirg'og'i bo'yida, shahardagi tepaliklardan birining ustida joylashgan bo'lib, daryo uning tabiiy devori bo'lib xizmat qilgan. G'uzor boshqa Osiyo shaharlari singari qalin bog'lar halqasi bilan o'rab olingan.

"Ertasi kuni ertalab G'uzordan yo'lga chiqdik. Bizning yo'limiz suvning seroblighi tufayli G'uzorni o'rab olgan yam-yashil bog'lar halqasidan o'tar edi. Bu bog'larda Qarshi va G'uzorda mashhur bo'lgan nihoyatda shirin va katta-katta donali maska navli uzumlar pishadi. Bu uzumlar quritilib, Buxoro, Shahrizabz va Samarqand shaharlariga olib ketiladi. Xonlikning boshqa joylarida uzumning ushbu navini ko'paytirish harakatlari behuda bo'lib chiqdi. Chunki maska navi faqat G'uzor va qo'shni Qarshi bog'larida o'sadi.

G'uzordaryoning o'ng qirg'og'i bo'ylab notekis so'qmoqlar va balandliklar orqali G'uzordan yo'l davom etib kelardi. Shaharga yaqin joyda, bor-yo'g'i 1 verst uzoqlikda shaharga deyarli qo'shilib ketgan Yortepa qishlog'i joylashgan. Shundan so'ng G'uzordaryo aylana va soyliklar qirg'oqlari bo'ylab oqib, to Qushlushgacha uning yo'lida birorta ham qishloq uchramaydi.

Biz Qushlush qishlog'ida to'xtadik. Qushlush G'uzordan 12 verst uzoqlikdagi tog'lar bag'rida joylashgan. Bu yerdagi yo'l uncha baland yoki past bo'lmagan yo'llar orqali jarlikdan o'tadi"[7:127].

Darvoqe, G'arbiy Tyanshandan oqib chiqadigan barcha daryo va daryochalar, shu jumladan, sersuv Amudaryo ham bu yerda keng tarqalgan o'lchami qatlam, qizil tuproq tufayli qizil tusga ega. Shu sababli G'arbiy Tyanshanda Surxob va Qizilsuvga o'xshash daryolar ko'p uchraydi. Bu ikkala daryo ham bir xil nomga bo'lib, biri tojikcha, ikkinchi o'zbekcha yoki to'g'rirog'i, turkcha atalishidir.

Shu tufayli G'arbiy Tyanshan qo'rg'oshin rudasi, kvars, marmar va boshqa tuzli minerallarga boy bo'lib, G'uzordan 8 tosh uzoqlikda joylashgan Ko'hitang qishlog'i yaqinida qayta ishlanadi. Qushlushdan o'zlashtirilgan madaniy hudud Tangaxo'ram qishlog'igacha uch yarim tosh (28 verst) keladi. Deyarli Qushlush qishlog'idan yo'l ikkiga bo'linib ketadi: biri katta, keng yo'l bo'lib, Oqrabot yo'lga olib chiqadi va Anorbuloq chashmasi yonida u bilan qo'shilib ketadi; ikkinchisi esa birinchisidan o'ng tomonga qarab ketadi. Bu yo'l, ayniqsa, Qushlushdan boshlanish paytida nihoyatda toshli va qiyin yo'l bo'lib, tog'li so'qmoqlar va juda tor nishabliklardan o'tadi. So'ngra yana to Gumbuloq balandligiga qadar Kichik O'radaryosi qirg'oqlari bo'ylab yurib tekislangan yo'l boshlanadi[8: 292-296].

Qushlushdan bir yarim tosh uzoqlikdagi janubi-g'arbiy tomondagi yo'lida kesishadigan qoyalik ana shunday deb ataladi.

Gumbuloq ko'tarilishidan boshlab ikki tomoni tepaliklar bilan o'rab olingan keng vodiy bo'ylab yo'l boshlanadi. Gumbuloqdan keyin qo'ton yaqinida joylashgan Qorasoch qishlog'i keladi.

Qorasoch Tangaxo'ram qishlog'igacha bir tosh (8 verst).Toza zilol suvli ariqlari ko'p maydon hududi ham ana shunday ataladi.

Chashmai Hofizjon G'uzor bekligining chegarasi bo'lib, undan keyin Darband

amlokдорligining yerlari boshlanadi.

Biz tog' tizmasining baland nuqtasi hisoblanmish Oqrabot dovoniga yaqinlashganimiz sari tog' archalari va yam-yashil tusga kirgan Chashmai Hofizjon tog' balandliklari ko'rina boshladi. Oqrabot tog'lari archalarga nihoyatda boy bo'lgani uchun bu yerdan o'tinlar eshklarga ortilib G'uzor va Qarshiga olib ketiladi.

Biz soatiga o'rtacha besh yarim verstdan ikki nimchorak soat mobaynida to'lqinsimon balandliklar ustidan yurdik. Yo'limiz sharqqa qarab burilganda Chashmai Hofizjondan 12-13 verst masofada uzoqlashganimizni hisobladik. Biz bu paytga kelib sho'r, ammo zilol suvli qirg'izlarning qishlovini o'tkazadigan uncha katta bo'lmagan Sho'rsuv qishlog'iga yetib keldik. Oqrabot dovoniga olib chiqadigan aylanali baland yo'llar boshlandi. Qarshimizda qoyali tog'lar ko'rina boshladi. Yovvoyi tabiat manzarasini yam-yashil daraxtlar chiroyli qilib ko'rsatar edi[1:121].

Oqrabotdan shimolga qarab yuk yo'li Qora hoval, Kaltaminor, Yortepa va Shahrisabzga qarab ketadi. Xuddi shu joydan Anorbuloq chashmasi yonidan yana bitta yo'l Qushlushga (Katta va Kichik O'ra daryoning qo'shiladigan joyi) qarab, u yerdan G'uzorga qarab ketadi[2:103].

Payshanba kuni G'uzorda bo'ladigan bozorga borish uchun barcha tog'liklar yana shu qulay yo'ldan foydalanishadi. Yortepadan bir tosh uzoqlikda bu yo'ldan Yakkabog'ga qarab ketadigan katta va keng yo'l ajralib chiqadi. Shunday qilib Oqrabot xarobalari yonida biri G'uzor va Qarshiga olib boruvchi ikkita yo'l bir-biri bilan kesishadi va xuddi shu yerdan yo'lning eng manzarali va eng qiziqarli qismi boshlanadi [8: 292-296]. Bu yerda yo'l tog' qoyalari bir-biridan ajratib turgan tor daraning ichidan o'tib tog' toshlari bilan qoplanib yotgan nihoyatda tor yo'lakli tog' yonbag'ridan o'tib, toshli Chakchak vodiysiga chiqadi.

Chakchak darasi esa janubiy-sharqiy yo'nalish bo'ylab 9 verst masofaga cho'zilgan. Vodiydan biz o'tayotganda qurib qolgan Chakchak daryo irmog'i oqib o'tadi[9:49]. Uncha baland bo'lmagan tog' qoyalari Chakchak vodiysini har tomondan o'rab turadi.

Xulosa va takliflar. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoro amirligi paydo bo'lib, mang'itlar sulolasi hokimiyatga kelgach amirlikda 27 bekklik tashkil topdi. Shulardan biri G'uzor bekkligi bo'lib, ushbu bekklikning katta qismi adirlik va tog'oldi hududlaridan iborat bo'lsa-da, bekklik strategik jihatdan savdo yo'llari (Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz hamda Termiz orqali Afg'oniston, Eron, Hindiston) kesishgan joyda joylashganligi tufayli G'uzor shahri muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etgan edi. G'uzor bekkligi XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Buxoro amirligida harbiy, siyosiy, iqtisodiy jihatdan yuqori o'ringa ko'tarildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mayev N.A. Buxoro xonligi ocherklari. O'zbek tiliga I.Botirov tarjimasini. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – B.109
2. Маев Н. Очерки горных бекств Бухарского ханства.//Материалы для статистики Туркестанского края. -СПб., 1879. - С.94
3. Xasanov A. Janubiy O'zbekistonda shaharlar shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari (V-XIV asrlar birinchi yarmi misolida): Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Qarshi, 2021. – B.142.
4. Xudoyqulovich, E. A. (2024). Historical geography of the region Naxshab of the medieval period. *Gospodarka i Innovacje.*, 48, 394-397.
5. Ergashev A. G'uzor me'morchilik tarixi. –T.: Hilol-media, 2019. – B.89
6. Khudaykulovich, E. A. (2022). Guzar's ethymology in Historical Sources. *International Journal of Development and Public Policy*, 2(3), 135-138.
7. Saidov M. G'uzor tarix sarhadlarida. – Qarshi. "Nasaf", 2003. B.127
8. Khudoykulovich, E. A. (2023). ISSUES OF THE HISTORICAL-GEOGRAPHICAL LOCATION OF GUZAR DISTRICT. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 6(1), 292-296.
9. Nuriddinov H. G'uzornoma. –T., 2011. – B. 49.
10. Berdiyev J. Janubiy O'zbekistonda shaharsozlik va urbanizatsiya tarixi (XVIII-XX asr boshlari) "LESSON PRESS". –T., 2022. –B.87

BUTUNITTIFOQ FAVQULODDA KOMISSIYASI (VChK)NING TASHKIL TOPIHI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR**Rasulova Iroda Abduxoliqovna**

Qarshi davlat universiteti

O‘zbekiston tarixi kafedrası tadqiqotchisi

irasulova778@gmail.com

ORCID 0000-0002-2984-7155

UDK (575.1); 631

Annotatsiya. Muallif ushbu maqolada sovet hokimiyatining dastlabki yillarida Butunittifoq favquoldda komissiyasi (ВЧК – Всесоюзная Чрезвычайная Комиссия) ning tashkil topishi, uning dastlabki yillardagi faoliyati haqida so‘z yuritadi. Maqolada V. Lenin va F. Dzerzhinskiylarning ushbu jazo organi tashkil etilishidagi harakatlari, bu organning asl maqsadlari, uning vazifalari faqat operativ – qidiruv olib borish bilan cheklanmaganligi, balki VChK butun e‘tiborini mavjud tuzumga qarshi bo‘lgan “aksilinqilobchilar”ni fosh etishga qaratganligi masalalari ham yoritilgan.

Bundan tashqari, aksilinqilobiy faoliyatdagilarni aniqlash, ularning yangi barpo etilayotgan tuzumga qarshi har qanday xatti-harakatlarini o‘z vaqtida to‘xtatish va aksilinqilobiy kayfiyatdagi barcha kishilar hamda ularning sheriklarini tezda aniqlash uchun zarur bo‘lgan shoshilinch tergov harakatlari ham amalga oshirishga ruxsat berilganligi ilmiy ma‘lumotlar asosida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar. Bolsheviklar siyosati, g‘ayrimilliy davlatchilik, “proletariat diktaturasi” Muvaqqat hukumat, burjuaziya va pomeshchiklar, sovet hukumati, axborot bo‘limi, tashkiliy bo‘lim, kurash bo‘limi, boshqaruv apparati, boshqaruv idorasi.

SOME CONSIDERATIONS ON THE FORMATION OF THE ALL-UNION EMERGENCY COMMISSION (AEC)

Abstract. In this article, the author talks about the creation of the All-Union Extraordinary Commission (VChK – Vsesoyuznaya Cherezvychaynaya Komissiya) in the early years of Soviet power, and its activities in the early years. The article covers the actions of V. Lenin and F. Dzerzhinsky in the establishment of this penal body, the original goals of this body, the fact that its tasks are not limited to operative - investigative, but also the fact that the MChK focused all its attention on exposing "counter-revolutionaries" who are against the existing system.

In addition, it was analyzed on the basis of scientific data that it was allowed to carry out urgent investigative actions necessary to identify those engaged in counter-revolutionary activities, to stop any of their actions against the newly established regime, and to quickly identify all people with counter-revolutionary moods and their associates.

Keywords. Bolshevik policy, non-national statehood, "dictatorship of the proletariat" Provisional government, bourgeoisie and landlords, Soviet government, information department, organizational department, struggle department, management apparatus, management office.

Kirish. XX asrning 20-yillari ikkinchi yarmidan e‘tiboran sobiq sovetlar mamlakatida I.V. Stalin “rahnamo”ligida boshlangan ommaviy siyosiy qatag‘onlar aslida o‘sha mustabid tuzumning ichki mohiyatidan kelib chiqqan va uning tabiatida mavjud bo‘lgan ijtimoiy ofat edi. Qatag‘onlar kompartiya va sovet hukumatining ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib, sovetlarning o‘zi ham qatag‘on vositasida yuzaga kelgan edi. Bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelishi zo‘rluk, bosqin, qirg‘in, kuch ishlatish asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Bolsheviklar olib borgan g‘ayrimilliy davlatchilikni mustahkamlash, boshqaruvning mustamlakachilik tuzilmasini o‘zgartirib, imperiya-mustabidchilik tuzilmasiga aylantirish siyosatining muhim yo‘nalishi sovet tuzumining siyosiy tizimini shakllantirishdan iborat bo‘ldi. Avvalo, “proletariat diktaturasi” davlatini tashkil etish mafkurasiga muvofiq, hokimiyat organlari markazning siyosiy manfaatlarini zo‘ravonlik bilan ta‘minlashga qodir bo‘lgan qatag‘onchilik tuzilmalarini yaratishga e‘tiborni qaratdilar. Ana shu maqsadda qisqa muddat ichida umumrossiya sxemasi asosida “inqilobiy” sudlar, prokuratura, VChK (Butunrossiya favquoldda komissiyasi) organlari, “inqilobiy” tribunallar, “xalq militsiyasi” tashkil etildiki, ular “inqilob dushmanlari” uchun shafqatsiz “temir supurgi”ga aylanishi lozim edi.

Natijalar va muhokama. Shunday sovet hokimiyatining jazolovchi organlaridan biri – bu VChK (Butunrossiya Favquoldda komissiyasi) bo‘lib u “yangi sotsialistik tipdagi

davlat xavfsizligini ta'minlovchi organ sifatida" maydonga keldi. 1917-yil kuziga kelib Muvaqqat hukumat mamlakatni boshqara olmay qoldi. Xalq ommasining keng noroziligi, mislsiz iqtisodiy tanglik, armiyadagi tartibsizliklar, tushkunlik, aholining yashash darajasining o'ta og'irlashuvi sharoitida Qizil gvardiya otryadlari 24–25-oktyabr kunlari Petrogradni egalladilar, 26-oktyabr tunida esa qishki saroyni zabt etdilar. 1917-yil dekabr oyida Petrogradagi ahvol yanada og'irlashdi [1:47]. Amaldorlarning yangi tashkil topayotgan hukumatdan bo'yin tovlashlari bir oydan ko'proq davom etdi. Bunga qarshi chora ko'rish uchun bolsheviklar maxsus komissiya tuzishga kirishdilar.

1917-yil 7-(20) dekabr kuni V.I. Lenin F.E. Dzerjinskiyga "Burjuaziya, pomeshchiklar va barcha boy tabaqa vakillari ishchilar, mehnatkashlar va eziluvchi sinflar manfaatini himoya qiluvchi inqilobni jon-jahdi bilan barbod qilishga intilmoqdalar... Shuning uchun shoshilinch ravishda aksilinqilobchilar va tovlamachilarga qarshi kurash choralarini ko'rmoq lozim", – deya murojaat qilgan edi. RSFSR XKS qoshida Butunrossiya Favqulodda komissiyasi (VChK) aksilinqilobchilarga, chayqovchilikka va lavozimdagi jinoyatchilikka qarshi kurashish maqsadida o'sha kuni, ya'ni 1917-yil 7 -(20) dekabrda Leninning tashabbusi bilan tashkil etiladi. Unga rais etib V.I. Leninining taklifiga ko'ra, F.E. Dzerjinskiy tayinlandi. Bu haqda F.E. Dzerjinskiyning o'zi shunday yozadi: "Meni 1917-yil 7-dekabrda Butunrossiya favqulodda komissiyasini, yani VChKning raisi etib tayinlashdi hamda uning tarkibini tuzish topshirig'ini ham berishdi.

Darhaqiqat, o'sha kuni VChK tuzilib uning raisi F.E.Dzerjinskiy, kollegiyasi a'zolariga esa, D.G. Yevseyev, N.A. Jidel, I.K. Ksenofonotov, Y.X. Peterslar kiritilgan edi[2:22]. Keginroq VChK kollegiyasida xodimlari bo'lib turli davrlarda sovet hukumati va kommunistik partiyaning ko'zga ko'ringan taniqli namoyandalari V.A. Avanesov, G.I. Bokiy, I.P. Jukov, M.S. Kedrov, M.Y. Latsis, V.N. Mansev, V.R. Menjinskiy, I.S. Unshlixt, S.G. Uralov, V.V. Fomin va boshqalar xizmat qilishgan[3:4]. Ko'pgina Leninning tarafdorlari VChKning tashkil etilishi "inqilobni" himoya qiladi, proletariat diktaturasini o'rnatishga yordam beradi, deb umid qilishgan.

1917-yil 7-dekabrda chiqarilgan Xalq Komissarlari Soveti qarori haqida M.I. Latsis shunday yozadi: "Bu qaror ko'proq qoralama xarakterda bo'lib, VChKni tashkil etish to'g'risidagi dekret emas edi. O'sha kunlarda qarorni butun iker-chikiricha to'liq ishlab chiqishga vaqt yo'q edi. Tez harakat qilish zarur edi"[4:68-69]. Darhaqiqat, M.I. Latsis ta'kidlagandek, qarorning matni qoralama tarzda shoshilinch qabul qilingan edi. Chunki bolsheviklar o'z hokimiyatini qarshi kuchlardan saqlab qolish uchun bunday idora zarur edi. 1917-yil 7-dekabrda keyin VChK apparati shakllana boshlaydi. Komissiyada ish boshlaganlar soni bir nechta xodimdan iborat bo'lgan bo'lsa, keyinroq esa u butun boshli armiyaga aylangan edi.

VChKni tashkil etish to'g'risidagi XKSning qarorida (yuqoridagi 1917 ko'rsatilishicha yangi tashkillangan komissiyani Xalq Komissarlari Soveti qoshidagi aksilinqilobchilar va ishdan bo'yin tovlashchilar (sabotajchilar)ga qarshi kurashuvchi ushbu tashkilotni "Butunrossiya Favqulodda Komissiyasi" (VChK) deb atashga qaror qilingan edi. Komissiyaga quyidagi vazifalar yuklatilgan edi:

1. Rossiyaning istalgan joyida kim tomonidan amalga oshirilishidan qat'i nazar, barcha aksilinqilobchi va sabotaj harakatlari hamda urinishlarini ta'qib qilish va yo'q qilish.

2. Barcha sabotajchi hamda aksilinqilobchilarni aniqlab, ularni qo'lga olib "Inqilobiy" tribunallar sudiga topshirish va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish.

3. VChK komissiyasi faqat dastlabki tergov ishlarini olib boradi, bu bilan zaruratga ko'ra aksilinqilobiy hamda sabotaj harakatlarning oldini olish uchun mo'ljallangan.

Komissiya tarkibida quyidagicha bo'limlar faoliyatda bo'ladi:

1. Axborot bo'limi.

2. Tashkiliy bo'lim (Rossiya bo'ylab aksilinqilobchilarga qarshi kurashni tashkil etish uchun) va uning joylardagi filial bo'linmalari faoliyatini nazorat qilish bo'limi.

3. Kurash bo'limidan iborat bo'lishi ko'rsatib o'tilgan edi[5:83].

VChK tashkil topishi jarayonida bitta partiya a'zolari ya'ni bolsheviklardan iborat tarkibda tuzildi. 1918 yil 7 yanvardan 6 iyuliga qadar VChK tarkibidagi muxim lavozimlarni so'l eserlar partiyasi vakillari egallagan. VChK boshqaruv apparatini kollegiya boshqargan. Asosiy boshqaruv idorasi esa ikki o'rinbosar va ikki shaxsiy kotib yordamida hujjatlar aylanmasi ta'minlangan. VChK prezidiumiga esa rais rahbarlik qilgan[6].

Dastlab biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek 1917-yil dekabrda VChK tashkillangan dastlabki kunlarda unga quyidagi vazifalar yuklangan edi: ishdan bo'yin tovlovchilar (sabotajchilar) va aksilinqilobchilarga qarshi kurashish; aybdorlarni aniqlab "inqilobiy" tribunal sudiga topshirish va qidiruv ishlarini olib borish. Keyinroq uning vakolat doirasi hamda funksiyalari kengayib bordi. F.E. Dzerjinskiyning qayd etishicha, hibsga olinganlarni mol-mulkini musodara qilish, uy-joyidan quvib chiqarish, savdo qilish kartochkasidan mahrum etish, xalq dushmanlarining ro'yxatini tuzish va nashr etish ham tashkilot vakolatiga kirgan. Boshida biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, VChK apparati uchta asosiy bo'limdan informatsion (siyosiy va tezkor axborotlarni to'plash), tashkiliy (aksilinqilobchilarga qarshi kurashni tashkillash), kurash bo'limlari (bevosita aksilinqilobchilar va ishdan bo'yin tovlovchilarga qarshi kurash)dan iborat bo'lgan edi. Biroq bir necha kun o'tib 1917-yil 11(24)-dekabrda VChK tarkibida chayqovchilikka hamda tovlamachilikka qarshi kurashish bo'limi ham tuzildi[7:17-18].

1918-yil 18-martida tashkiliy bo'lim shaharlararo deb qayta tashkil etildi. 20 martda esa sovet idoralarida lavozimlardagi jinoyatchilikka qarshi kurash bo'limi ham tashkil etildi. Xodimlarning soni dastlab kamchilikni tashkil etgan: Masalan Petrogradada 23 kishi, 1918-yil martida Moskvada 120 kishi bo'lgan [1:48]. 1918-yil 14-yanvarda Xalq Komissarlari Soveti qaroriga muvofiq VChK faoliyati va a'zolarining ko'lami kengaytirilib, joylardagi mahalliy bo'linmalar hamda ularning otryadlari tashkil etilgan. VChKning ushbu otryadlari 1918-yil iyunida 35 batalyon (40 ming jangchi) bo'lgan. Ularni Rossianing Yevropaga tutash rayonlari va chekka o'lkalariga jo'natildi[4:70]. 1918-yil aprelda Moskvada VChKning o'z ichiga har biri 125 nafar jangchini olgan 5 ta rotasi tashkil qilindi.

VChK bolshevik-kommunistlarning insonlar ustidan nazorat o'rnatishda cheklanmagan vakolatga ega bo'lgan elita tashkiloti sifatida maydonga keldi. Ularning oylik maoshi ham doimo oshirib borilgan (VChK kollegiyasi a'zosining maoshi 500 rubl bo'lib xalq komissarlari oyligiga tenglashtirilgan edi, oddiy ryadovoy chekist 1918-yil fevralida 400 rubl oyiga olardi; bu davrda qizil armiya askari 150 rubl, oilali askar 250 rubl olgan) hamda oziq-ovqat va sanoat mollariga bepul payoklar berilgan edi[8:48].

Joylarda mahalliy ChKlarni tashkil qilishni faollashtirish va ularning funksiyalarini aniqlash uchun VChK 1918-yil 22-martda muhim qaror qabul qildi. Ushbu qarorda quyidagilar ko'rsatilgan edi:

1. Har bir hududdagi va tumanlardagi sovetlarga favqulodda komissiyalarni tashkil qilish buyuriladi.

2. Favqulodda komissiyalari aksilinqilobchilar, chayqovchilar, mansabdagi jinoyatchilarga qarshi kurashni matbuot orqali ham tashkillaydi.

3. Moskvada ham, boshqa hududlarda ham bundan buyon barcha hibsga olishlar, tintuv o'tkazishlar, mol-mulkni ro'yxatga olish va musodara qilish kabi jinoyatlarga bog'liq barcha xatti-harakatlarni favqulodda komissiyalar tomonidan amalga oshiriladi[4:70-71].

Shu bilan birga, aksilinqilobiy harakatni ikki xil talqin qilinishi mumkin edi, chunki bu atama aniq belgilanmagan edi. 1918-yil 6-noyabrda BIK kassatsiya bo'limining qarorida berilgan edi. "Har qanday chiqishlar, ularning sabablaridan qat'i nazar, sovetlarga, ularning ijroiya qo'mitalariga yoki alohida sovet muassasalariga qarshi chiqishlar aksilinqilobiy deb hisoblanadi"[9:45-46], deya ta'rif berilgan edi.

1919-yilgi jangovar davr davomida harbiy chekistlarning uyezd va gubernya ChKlari qatori faol amaliyotda bo'lgan. 1920-yilning birinchi yarmida Turkiston frontidagi VChK Maxsus bo'limining jazo faoliyati statistikasi ma'lumotlariga ko'ra 3140 kishi hibsga olingan,

shu jumladan, josuslik va qarshi inqilob uchun 960 va 58 kishi, ulardan 170 nafari otib tashlangan edi. Bu davrda oddiy aholi vakillari hamda yirik zamindorlar barcha maxsus bo'lim xodimlarini ichkilikboz, zo'ravon, poraxo'r va qiynoqqa soluvchi deb hisoblagan. Bu o'sha davr muarrixlari, jumladan, A.S. Iosilevich tadqiqotida ham, garchand muarrix bu tashkilot faoliyatiga ijobiy baho bergan bo'lsa-da, to'xtalib o'tgan[10:338].

F.E. Dzerjinskiy fikrini VChK xodimlari Y.X. Peters va G.S. Morozlar qo'llab, Krilenko - sovet ishchisi, "inqilobiy" tribunal a'zosi, shu bois VChK faoliyatini cheklamoqchi deyishdi. Munozara oxirida Krilenko o'z fikrini bildirib, "chekistlar inqilobni saqlab qoluvchi monopolistlarga o'xshab qolmoqda", dedi. Krilenko taklifiga muvofiq yig'ilish qaror qiladi, huquqiy asosga ega qarorlarni qabul qilish huquqi "inqilobiy" tribunallarga beriladi, VChKga esa "jinoyat qidiruv ishlari va ular haqida ma'lumot to'plash, hukumatni ogohlantirish" vazifasi yuklatildi. BMIKning 1919-yil 17-fevraldagi qaroriga muvofiq VChK joylarda hukmning ijrosini ta'minlash, harbiy holatlarni e'lon qilish, aksilingilobiy chiqishlarni bostirish, uning oldini olish vakolatini saqlab qoldi[4:71].

1918-yil 15-iyunda birinchi bor VChKning otuvga hukm etuvchi "troyka"si tashkil etildi. O'sha VChK kollegiyasi qaroriga ko'ra "troyka" tarkibiga kommunistik partiya a'zolaridan (bolsheviklar) va so'l eserlar vakillari kiritilib otuv jazosini hal etishi belgilab qo'yildi. "Troyka"ga Dzerjinskiy, Latsis va Aleksandrovichlar saylandi. "Troyka"ning o'rinbosarlari qilib Fomin, Peters va Ilinlar saylandilar. Otuv jazosini sovet hukumatiga va respublikalar hukumatlariga qarshi akt harakatlarida ishtirok etgan, bu "jinoyati" isbotlangan shaxslarga nisbatan qo'llangan. "Troyka" hukmni bir ovozdan chiqarishi lozim edi.[8:48]

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, 1918-yilning ikkinchi yarmiga kelib VChK (Favqulodda komissiya) va mahalliy chekistik organlarning tuzilmasi shakllandi. VChKning tuzilishida aksilingilobchilikka, chayqovchilikka va lavozimdagi jinoyatlarga qarshi kurash asosiy vazifalar etib belgilandi. Biroq ushbu tashkilot amalda sovet hokimiyatiga muxolifatda bo'lgan kuchlarni mahv etishda asosiy rol o'ynadi. Tashkilot markaziy va mahalliy bo'limlardan iborat bo'lib, uning tarkibida turli xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalar ham mavjud edi. Uyezdlarda esa tuzilma ancha sodda bo'lib, ba'zi bo'limlar birlashtirilgan edi.

1922-yilda VChK rasman tugatildi va uning vazifalari RSFSR Ichki ishlar xalq komissariati (NKVD)ga o'tkazildi. Shundan so'ng, Davlat siyosiy boshqarmasi (GPU) tashkil etildi, u markaziy va mahalliy darajada faoliyat yuritib, mamlakat xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Bu tuzilmalar sovet davlatida aksilingilobiy harakatlar hamda davlatga qarshi jinoiy harakatlarga qarshi kurashda katta kuch, vakolatga ega bo'lgan va siyosiy tizimdagi asosiy repressiv organlardan biriga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мозохин О.Б. Право на репрессии: Внесудебные полномочия органов государственной безопасности (1918-1953). – Москва: Кучково поле, 2006. – С. 47.
2. 20 лет ВЧК-ОГПУ-НКВД. – Москва: ОГИЗ государственное издательство политической литературы, 1938. – С. 22.
3. Красная книга ВЧК Том 1. – Москва: Издательство политической литературы, 1989. –С. 4.
4. Литвин А. Красный и белый террор в России 1918-1922гг. (Совершенно секретно) – Москва, Яуза, ЭКСМО 2004,- С.68-69
5. Лацис М. Товарищ Дзержинский и ВЧК. – Пролетарская революция, 1926, №9 (56), - С. 83.
6. "Правда", №290, 18 декабря 1927 г.
7. Советская деревня глазами ВЧК-ОГПУ. Том 1. 1918 – 1922. – Москва: РОССПЭН, 1998.– С.17-18.
8. Мозохин О.Б. Право на репрессии: Внесудебные полномочия органов государственной безопасности (1918-1953). – Москва: Кучково поле, 2006. – С. 48.
9. Скоркин К.В. Краткая история ВЧК-ГПУ-ОГПУ (1917-1924 гг.). – Москва, 2017. – С.45-46.
10. Советская деревня глазами ВЧК-ОГПУ. Том 1. 1918 – 1922. – Москва: РОССПЭН, 1998.– С.338.

TARIXIY MADANIY MEROSNI ASRASH – DOLZARB MAVZU**Xasanov Akram Muminovich**

Qarshi davlat universiteti

O‘zbekiston tarixi kafedrası

professori, tarix fanlari doktori.

ORCID 0009-0009-3289-4321

UDK 950:008:940.1(021)

Annotatsiya. Muallif ushbu maqolada tarixiy-madaniy meros tizimida arxeologik yodgorliklar, mintaqa sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini aks ettiruvchi moddiy boyliklar, arxeologik yodgorliklarni muhofaza qilish, tarixiy-madaniy merosini saqlash va o‘rganish muammosi, Turkiston o‘lkasidagi arxeologik yodgorliklarga e‘tibor, aholi sonining ko‘payishi va uy-joylarga bo‘lgan ehtiyojning oshishi, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi, sanoat obyektlarining barpo etilishi, ekin yerlarining muttasil ko‘paytirishga yo‘naltirilgan davlat siyosati natijasida hududlarning jadal o‘zlashtirilib borilishi bilan bog‘liq masalalarni ilmiy ma‘lumotlar asosida tahlil etgan.

Shuningdek, maqolada bugungi kunda mamlakatimiz hududida saqlanib qolgan arxeologik yodgorliklar, dunyo xalqlarining butunjahon merosini tashkil etuvchi buyuk ahamiyatga ega ayrim tabiiy va madaniy meroslarni saqlash va avaylab asrash bilan bog‘liq masalalar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar. tarixiy-madaniy meros, muhofaza etish, butunjahon merosi, arxeologik yodgorliklar, nodir yodgorliklar, arxeologik kompleks ekspeditsiya, mahalliy hokimiyat, amaliy san‘at asarlari, badiiy hunarmandchilik, me‘moriy inshootlar, tarixiy bitiklar, qo‘lyozma manbalar.

PRESERVATION OF HISTORICAL CULTURAL HERITAGE IS AN URGENT TOPIC.

Abstract. In this article, the author discusses archaeological monuments in the system of historical-cultural heritage, material resources reflecting the stages of formation and development of regional civilization, the problem of protection of archaeological monuments, preservation and study of historical-cultural heritage, attention to archaeological monuments in Turkestan, population growth and housing increase in demand, based on scientific data, he analyzed the issues related to the increase of urbanization processes, the construction of industrial facilities, and the rapid development of territories as a result of the state policy aimed at the rapid increase of arable land.

Also, the article analyzes issues related to the preservation and careful preservation of archaeological monuments preserved in the territory of our country today, some natural and cultural heritages of great importance that constitute the world heritage of the peoples of the world.

Keywords. Historical and cultural heritage, protection, world heritage, archaeological monuments, rare monuments, archaeological complex expedition, local government, works of applied art, artistic crafts, architectural structures, historical inscriptions, manuscript sources.

Kirish. O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosi tizimida arxeologik yodgorliklar o‘ziga xos va o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Qadim tariximiz xazinasi bo‘lgan arxeologik yodgorliklar qadim va betakror madaniyatimiz tarixini, mintaqa sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini aks ettiruvchi moddiy boyliklarni o‘z bag‘rida saqlab kelayotgan noyob xazinadir. Shu sababli ham O‘zbekistonda tarixiy meros va arxeologik yodgorliklarga e‘tibor yangi asosda yo‘lga qo‘yilmoqda[1]. Bu sohada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-dekabrda PQ-4068 sonli “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-sentyabrdagi 792-sonli “Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, determinizm tamoyillari, tizimli yondashuv, xolislik tamoyillari kabi metodlardan unumli foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Ma‘lumki, tarixiy madaniy merosni, shu jumladan, arxeologik yodgorliklarni muhofaza qilish umuminsoniy ahamiyatga ega masaladir. Xalqaro miqyosda olinganda, tarixiy-madaniy merosga e‘tibor dastlab Yevropada, asosan, Uyg‘onish davridan boshlangan edi. XIX-XX asr boshlarida Yevropa davlatlarida tarixiy-madaniy yodgorliklarni davlat muhofazasiga olish bo‘yicha muhim davr bo‘ldi. Lekin XX asrda ro‘y

bergan ikkita jahon urushi Yevropada va urush girdobiga tortilgan boshqa qit'alarda ham tarixiy-madaniy meros obyektlari, shu jumladan, arxeologik yodgorliklarning ma'lum qismi vayron bo'lishiga, talon-taroj qilinishiga olib keldi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin tarixiy yodgorliklarga, tarixiy merosga e'tibor kuchaydi. Insoniyatning tarixiy-madaniy merosini saqlash va o'rganish muammosi dunyoning barcha madaniy mamlakatlari uchun muhim masalalardan biri bo'lib, bu muammo qator xalqaro tashkilotlarning faoliyatida yetakchi o'rin tutib kelmoqda. Xususan, 1946-yilda tashkil etilgan "Xalqaro muzeylar kengashi" faoliyatida ham tarixiy yodgorliklarni saqlashga asosiy e'tibor qaratildi. 1954-yilda bo'lib o'tgan Gaaga konferensiyasida YuNESKO tashabbusi bilan "Qurolli majoralar ro'y berganda madaniyat boyliklarini himoya qilish to'g'risida"gi Xalqaro konvensiya va bayonnoma imzolandi. 1959-yilda tashkil etilgan "Tarixiy meros va madaniy boyliklarini muhofaza etish va restavratsiya qilish xalqaro tadqiqot markazi", "Yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni muhofaza etish bo'yicha xalqaro kengash" (1965-yilda tashkil etilgan) ham xalqaro miqyosda tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish bilan shug'ullanib kelmoqda.

BMTning fan, ta'lim va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti YuNESKO tomonidan 1972-yilda "Jahon madaniy va tabiiy merosini saqlash to'g'risida" Konvensiya qabul qilinishi tarixiy merosga e'tibor va bu sohada xalqaro hamkorlikning rivojiga keng yo'l ochdi[2]. Bu hujjatda birinchi marotaba dunyo xalqlarining butunjahon merosini tashkil etuvchi buyuk ahamiyatga ega ayrim tabiiy va madaniy meroslarni saqlash va avaylab asrash uchun mamlakatlar va hukumatlar mas'ullikka chaqirilgan edi. Konvensiyani amaliyotga tatbiq qilish uchun 1974-yilda YuNESKO qoshida "Umumjahon merosi" qo'mitasi ta'sis etilib, qo'mita tomonidan noyob madaniy yodgorliklar ro'yxatini tuzish boshlandi [3]. Afsuski, sobiq ittifoq davrida Markaziy Osiyo hududida joylashgan birorta tarixiy-madaniy meros obyekti, garchi ularning ko'pchiligi o'zining qadimiyligi, ahamiyati va betakrorligi bilan dunyo madaniyati tarixida muhim o'rin tutgan bo'lsa-da, ushbu ro'yxatga kiritilmadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda tarixiy-madaniy merosga, shu jumladan, arxeologik yodgorliklarga nisbatan yangicha munosabat konsepsiyasi ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etib borilmoqda [4:125-135]. Bu masalani yoritishdan oldin mamlakatimizda arxeologik yodgorliklarning o'rganilishi masalasiga qisqacha nazar solib o'tish zarur.

Ma'lumki, Turkiston o'lkasidagi arxeologik yodgorliklarga e'tibor, ularni ilmiy o'rganish XIX asrning oxirgi choragida, Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinganidan so'ng boshlandi. Bu ishni dastlab rus arxeologiya havaskorlari va o'lkashunoslari boshlab berdilar. 1895-yilda Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi tuzilib, o'lkadagi arxeologik qazishma ishlari shu to'garak nazoratida olib borila boshlandi.

O'zbekistonda arxeologiya fani tom ma'noda XX asrning 20-30-yillarda shakllandi va bosqichma-bosqich rivojlanib bordi. Mamlakatimizda arxeologiya fanini rivojlantirishda O'rta Osiyo Davlat universitetida Arxeologiya kafedrasining ochilishi (1940), O'zFA Arxeologiya bo'limining tashkil etilishi (1943) katta ahamiyatga ega bo'ldi. Arxeologik yodgorliklarni tumanlarga bo'lib o'rganishda Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasi, Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi, Pomir-Oltoy va Pomir-Farg'ona ekspeditsiyalari katta rol o'ynadi.

1963-yilda ToshDU Tarix fakulteti "Arxeologiya" kafedrasida KATE (Kesh arxeologik topografik ekspeditsiya) tashkil etilishi Janubiy Sug'd hududidagi arxeologik yodgorliklarni o'rganishda yangi davrni boshlab berdi. M.Y. Masson, N.Krashennikova, S.B. Lunina, Z. Usmanova, G.A. Dresvyanskaya, A.S. Sagdullayev, N.P. Stolyarova, O.P. Lushpenko va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari qadimgi Kesh vohasi tarixi va madaniyatining Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston sivilizatsiyasi rivojida o'rni aniqlashtirishda muhim o'rin tutdi.

O'zbekiston FAning Tarix va arxeologiya instituti negizida Samarqandda Arxeologiya institutining tashkil etilishi (1970-yil) O'zbekistonda arxeologik tadqiqotlarni yanada

kengaytirishga imkon berdi. Institut olimlari tomonidan XX asrning 70-80-yillarda O'zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida keng qamrovli arxeologik kuzatuv va qazishlar o'tkazilib, qadim o'tmishdan to so'nggi o'rta asrlargacha bo'lgan davrga mansub ko'plab nodir yodgorliklar topilib, o'rganib chiqildi.

Arxeologik merosni saqlash va o'rganishda fidokor arxeologlarning xizmatlarini e'tirof etgan holda, XX asrning 50-80-yillarini mamlakatimiz hududidagi arxeologik yodgorliklarning yo'q qilinishi keskin o'sib ketgan davri sifatida qayd qilishga ham to'g'ri keladi. Chunki, ayrim ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston hududidagi arxeologik yodgorliklarning soni XX asrning 30 yillarida 14,5 mingdan ortiqroq bo'lgan. Tabiiyki, bu merosni muhofaza qilish va o'rganishni tartibga solish muhim ahamiyatga ega edi. Afsuski, sobiq ittifoq davrida arxeologik yodgorliklarni muhofaza qilish to'g'risida ko'plab qarorlar qabul qilingan bo'lsa-da, aynan o'sha davrda ko'plab arxeologik yodgorliklar fan uchun butunlay yo'qotildi. Bunga olib kelgan sabablar ichida aholi sonining ko'payishi va uy-joylarga bo'lgan ehtiyojning oshishi, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi, sanoat obyektlarining barpo etilishi, ekin yerlarini muttasil ko'paytirishga yo'naltirilgan davlat siyosati natijasida hududlarning jadal o'zlashtirilib borilishi va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Mamlakat va aholi ehtiyojlari uchun o'zlashtirilayotgan hududlardagi arxeologik va boshqa yodgorliklarni saqlashga ikkinchi darajali masala sifatida qaralgani ham o'sha davrda tarixiy merosga nisbatan davlat siyosatining tub mohiyatini anglashga imkon beradi.

Afsuski, arxeologik yodgorliklarga bepisandlik bilan qarash, uning ahamiyatini, tarixiy-madaniy meros tizimida tutgan muhim o'rnini to'liq anglamaslik mustaqillikning dastlabki yillarida ham kuzatildi. Ayniqsa, 90-yillarning boshida, xususiy mulkchilik rivojlanib, qishloq tumanlarida fermer xo'jaliklari tashkil etila boshlangan dastlabki davrlarda, arxeologik yodgorliklar joylashgan hududni xo'jalik ehtiyojlari uchun o'zlashtirish davomida yodgorliklarni asta-sekin yo'q qilishdek sobiq ittifoqdan qolgan "an'ana" saqlanib qoldi. Mahalliy hokimiyat organlarining beparvoligi, xususiy mulkdorlarda ijtimoiy ongning yetarli darajada emasligi, o'ziga biriktirilgan hududda joylashgan arxeologik yodgorlikning ahamiyatini, uni saqlashga mas'ulligini anglab yetmaganligi natijasida ayrim arxeologik yodgorliklar kelajak avlod uchun butunlay yo'qotildi.

Bugungi kunda mamlakatimiz hududida saqlanib qolgan arxeologik yodgorliklarning soni, ayrim manbalarga ko'ra, 8,5 mingga yaqin[5:233]. Bu raqamni yuqorida keltirilgan raqam, ya'ni XX asrning 30-yillaridagi arxeologik yodgorliklar soni (14,5 mingga yaqin) bilan qiyoslasak, 70 yilga yaqin vaqt ichida arxeologik yodgorliklarning 30%dan ortig'i yo'q bo'lib ketganligini qayd etishga to'g'ri keladi.

Joylardan kelayotgan tashvishli xabarlar arxeologik yodgorliklarni muhofaza qilishning huquqiy asoslarini yangitdan yaratishni, tarixiy-madaniy merosimizning muhim qismi bo'lgan arxeologik merosga munosabatning qonuniy asoslarini takomillashtirishni kun tartibiga qo'ydi. O'zbekiston hukumatining kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlari, bu borada qabul qilingan yangi qonunlar va hukumat qarorlari arxeologik merosga bo'lgan davlat siyosatining asosi bo'lib xizmat qildi[9].

Madaniyat va sport ishlari vazirligi huzuridagi "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish Bosh boshqarmasi" faoliyati bevosita bu siyosatni amalga oshiruvchi davlat organi hisoblanadi. Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 29-iyuldagi 269-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi madaniy meros obyektlari davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida Nizom" va "Madaniy meros obyektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi to'g'risida Nizom" hamda boshqa ko'plab qaror va qonunlar qabul qilinishi mamlakatimizda tarixiy-madaniy merosni saqlash va o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistondagi deyarli barcha arxeologik yodgorliklar rasmiy ro'yxatga olinib, tegishli qonunlar asosida davlat himoyasiga olingan[6]. Bu borada 2009- yil 16- iyunda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan 2009-yil 29-avgustda ma'qullangan "Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan

foydalanish to'g'risida"gi Qonun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 5 ta bob, 34-moddadan iborat Qonunda "...arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish..." "Arxeologiya merosi obyektlariga bo'lgan mulk huquqi"ningdavlatga tegishlili ekanligi, "Arxeologiya ashyolari operativ boshqarish huquqi asosida fan, madaniyat va ta'lim muassasalariga biriktirib qo'yilishi mumkin"ligi[8:252] va boshqalar belgilab qo'yilgan.

Mazkur qonunda "Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi" masalalari, arxeologik yodgorliklarni muhofaza qilishda davlat va mahalliy hokimiyatlarning vazifalari, ilmiy tadqiqotlar olib borish va foydalanish qoidalari, bu sohadagi xalqaro hamkorlik, arxeologik yodgorliklarni davlat kadastriga olish va boshqa tegishli masalalar o'z aksini topgan[7].

2014-yil 21-iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 200-sonli Qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda O'zbekiston xalqining umummilliy boyligi bo'lmish moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish, noyob moddiy va madaniy meros obyektlarini har tomonlama o'rganish, ommalashtirish va targ'ib qilish uchun shart-sharoitlar yaratish, O'zbekistonning turizm salohiyatini oshirish kabi vazifalar kun tartibiga qo'yildi[4:236].

Bugungi kunda arxeologik yodgorliklarni zamonaviy asosda o'rganish ham keng yo'lga qo'yilmoqda. Bu borada xalqaro hamkorlik rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda arxeologiya fani o'z tadqiqotlarining samarasi bilan jahon ilmiy darajasiga ko'tarilib bormoqda. Hozirda Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Italiya va Polsha bilan hamkorlikda arxeologik tadqiqotlar olib borilmoqda. Rossiya (Moskva, Sankt-Peterburg) olimlari bilan doimiy ilmiy aloqalar mavjud[7].

Bugungi kunda nisbatan yaxshi o'rganilgan mashhur yodgorliklar ichida Zarafshon vohasida joylashgan qadim Afrosiyob, Ko'ktepa va ko'hna Poykend xarobalari, Qashqadaryo vohasidagi Uzunqir va Yerqo'rg'on, Surxon vohasidagi bronza davriga oid Sopollitepa va Jarqo'ton, kushonlar davrining noyob yodgorliklari bo'lgan Dalvarzintepa, Xalchayon, Fayoztepa, Qoratepa, shuningdek, Ko'hna Termiz xarobalarini, Farg'ona vodiysidagi Chust va Dalvarzin kabi so'nggi bronza – ilk temir davriga mansub yodgorliklar hamda mashhur Axsikent shahri xarobasini, Toshkent vohasidagi Qanqa va Mingo'rik, Xorazm vohasidagi Ko'zaliqir, antik davrning mashhur yodgorliklari bo'lgan To'proqqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Ayoqqal'a va boshqa ko'plab qal'alarni qayd etish mumkin[5:234].

Bu yodgorliklarning 10 dan ortiq eng mashhurlari "O'zbekturizm"ning turistik marshrutlari ro'yxatiga kiritilgani ham ularning zamonaviy sivilizatsiya rivojida o'rni va ahamiyatini ko'rsatib turibdi. Ularning ayrimlarida (masalan, Ellikqal'a tumanida joylashgan Ayoqqal'ada) Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda "O'zbekturizm" OOK hamkorligida zamonaviy turizm talablariga javob beradigan xizmat ko'rsatish tizimi, tegishli infratuzilmalar yaratilgan[10]. Kelajakda bunday infratuzilmalarga ega yodgorliklar sonining oshib borishi tabiiy jarayon bo'lib, bu ham arxeologik yodgorliklarga tashrif buyurayotgan mahalliy va xorijiy turistlar sonining yildan yilga ko'payib borishiga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Shu tariqa, bugungi kunda arxeologik yodgorliklarning tarixiy-madaniy meros tizimidagi ahamiyatini anglash, ularni o'zbek xalqi tarixi bilan bog'lash, tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash, o'rganish va kelajak avlodlarga meros qoldirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimizda tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilishning qonuniy asoslari yaratildi va takomillashib bormoqda.

Umuman olganda, tarixiy-madaniy merosning muhim tarkibiy qismi bo'lgan arxeologik yodgorliklar va topilmalar, me'moriy inshootlar, tarixiy bitiklar va qo'lyozma manbalar, tarixiy va badiiy asarlar, qoyatosh suratlar, tasviriy va amaliy san'at asarlari, badiiy hunarmandchilik buyumlarining muhofazasi barcha madaniy dunyo mamlakatlari kabi O'zbekiston hukumatining ham doimo diqqat markazida turuvchi vazifalardan hisoblanadi.

Zero, tarixiy-madaniy yodgorliklarni saqlashga e'tibor, o'z navbatida, jamiyatning ma'naviy va madaniy yuksalishida o'ziga xos poydevor vazifasini o'taydi va yosh avlod tarbiyasida ham muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi", 2019-yil 29-dekabr;
2. Mazkur Konvensiya SSSR Oliy Soveti tomonidan 1975-yilda, O'zbekiston Oliy Majlisi tomonidan 1993-yilda ratifikatsiya qilingan.
3. ЮНЕСКО. Цели, структура, деятельность. Хроника, факты, цифры. – М., 2002.
4. Mavlonov O., Abduvositova I. Tarixiy-madaniy meros – milliy g'oyani anglas'h omili. – Toshkent: Akademiya, 2014.– B. 125-135.
5. Berdimurodov A., Raimqulov A.T. Arxeologik meros: uni asrab-avaylas'h barchamizning fuqoralik burchimizdir // O'zbekiston tarixi va madaniyati. – Toshkent: Tafakkur, 2011. – B. 233.
6. So'nggi yillardagi tadqiqotlar mamlakatimiz hududida yangi-yangi arxeologik yodgorliklar topilishiga olib kelmoqda. Kelajakdagi tadqiqotlar natijasida ular soni yanada oshishi tabiiy holdir.
7. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 yil, 42-son.
8. Rasulova M. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda moddiy-madaniy yodgorliklar va muzeylarning o'rni (Qashqadaryo moddiy-madaniy yodgorliklari va muzeylari misolida) Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. – Shahrisabz, 2022. –B. 252.
9. Boqiy san'atimizning xalqaro e'tirofi. / "Xalq so'zi" gazetasi, 2021-yil, 17-dekabr, 269-son.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekistonda turizm 2016–2019. –Toshkent, 2020.

JANUBIY O'ZBEKISTONDA DAVLATCHILIK VA SHAHAR MADANIYATI

Eshov Boxodir Jo'rayevich,

Qarshi davlat universiteti

O'zbekiston tarixi kafedrasini professori

tarix fanlari doktori.

eshovbakhodir@gmail.com

ORCID 0009-0003-6865-8765

UDK 94(575.171)(072)

Annotatsiya. Vatanimiz yerlarida, xususan, Janubiy O'zbekiston hududlarida qadimgi davrdanoq bir qancha davlatlarning paydo bo'lishi va bu orqali davlatchilik tarixining vujudga kelishi barchaga tarixiy ma'lumotlar asosida ma'lumdir. Davlatchilik poydevori temir asri, ya'ni 1-mingyillik bilan chambarchas bog'liq. Chunki shu davrda hunarmandchilikning yanada rivoj topishi, dehqonchilikning gullab-yashnashini ko'rishimiz mumkin. Hunarmandchilik va dehqonchilikning rivojlanishiga asosiy sabab esa temirdan yasalgan mehnat qurollarining keng tarqalishidir. O'zbekistonda ilk davlat uyushmalari sun'iy sug'orish birmuncha qulay bo'lgan Amudaryo (yuqori, o'rta, quyi) oqimlari bo'ylarida, Sirdaryoning quyi oqimlarida, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida shakllanib rivojlanadi. Janubiy va shimoliy hududlardan topilgan arxeologik ashyolardagi juda ko'pgina o'xshashliklar bu hududlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalardan, qadimgi yo'llarning taraqqiy etganligidan dalolat beradiki, bu jarayonlar ham dastlabki shaharlar bilan birga ilk davlatchilikning asosiy omillaridan hisoblanadi.

Kalit so'zlar. hunarmandchilik, dehqonchilik, temir mehnat qurollari, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, sun'iy sug'orish.

STATEHOOD AND URBAN CULTURE IN SOUTH UZBEKISTAN

Abstract. The emergence of several states in the lands of our motherland, especially in the southern regions of Uzbekistan, and the emergence of the history of statehood through this is known to everyone based on historical data. The foundations of statehood are closely related to the Iron Age, i.e. the 1st millennium. Because during this period, we can see the further development of handicrafts and the flourishing of agriculture. The main reason for the development of handicrafts and agriculture is the widespread use of iron tools. In Uzbekistan, the first state associations were formed and developed along the Amudarya (upper, middle, lower) streams, in the lower reaches of the Syrdarya, in the oases of Zarafshan, Kashkadarya and Surkhandarya, where artificial irrigation is somewhat convenient. A lot of similarities in the archeological objects found in the southern and northern regions indicate mutual economic and cultural relations between these regions, the development of ancient roads, and these processes, along with the first cities, are the main factors of the first statehood.

Keywords. crafts, agriculture, iron tools, Amudarya, Syrdarya, Zarafshan, Kashkadarya, Surkhandarya, artificial irrigation.

Kirish. O'rta Osiyodagi urbanizatsiya jarayonlari tadqiqotchilarining izlanishlariga ko'ra, shaharmonand va ilk shaharlar taraqqiyoti turli-tuman omillar bilan bog'liq holda kechgan. Ushbu omillar (yangi yerlarning o'zlashtirilishi, aholi maskanlarining tizimlashuvi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, migratsiya va hok.) urbanizatsiya jarayonlarining taraqqiyotini ta'minlash bilan birga, ularning yanada taraqqiy etishiga turtki bo'lgan. Tadqiqotchilarning qiyosiy tahlillari ushbu holatni tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda xronologik ketma-ketlik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, determinizm tamoyillari, tizimli yondoshuv, xolislik tamoyillari kabi metodlardan unumli foydalanildi.

Natija va muhokama. T. Shirinovning fikricha, Surxon vohasida dastlabki shaharlarning vujudga kelishi va bajargan vazifalari o'z davridagi ijtimoiy- iqtisodiy, tabiiy yoxud madaniy zaruriyatdan kelib chiqadigan jarayondir. O'troq aholi maskanlarining vazifaviy faoliyatini, ularning shahar markazlari sifatidagi ahamiyatini keng xronologik ko'lamda qayta tiklash uchun faqat arxeologik tadqiqotlarning natijalari yetarli emas. Olimning ta'kidlashicha, Shimoliy Baqtriya'dagi dastlabki aholi maskanlari jamiyat taraqqiyotining turli tarixiy jihatlarini – siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, demografik va boshqa tomonlarini aks ettiradi. Shuning uchun ham urbanizatsiya jarayonlarini o'rganish va tahlildan o'tkazish muammosini hal qilishda tayanch fanlar natijalaridan ham foydalanish tavsiya etiladi [1:214-215].

Surxon vohasidagi ilk urbanistik markazlarning funksiyalari nuqtayi nazaridan ular yaqin atrofdagi aholi maskanlari bilan o'zaro muloqotda bo'lganligini ham ta'kidlash lozimdir. Shu holatga e'tibor beradigan bo'lsak, turli funksiyali shahar-markazlar mavjud bo'lib, V.Massonning fikricha, ulardan bir-ikkitasi asosiy vazifa bo'lishi mumkin. Olim ko'p vazifali shaharlarni quyidagi guruhlariga ajratadi: ilk davlatchilik markazlari, yaqin hududlardagi qishloq xo'jalik qo'shnilar markazi; iqtisodiy yo'nalishdagi savdo-hunarmandchilik maskanlari; harbiy-ma'muriy funksiyalar; madaniy-mafkuraviy funksiyalar[2:5-7]. Bu jihatlarining har birini, avvalo, shahar maskanlardagi mavjud aholi mashg'ulotlari va turmush tarzi yuritishi bilan bog'lash maqsadga muvofiqdir.

Bajargan vazifalari asosida tarixshunoslikda Shimoliy Baqtriya shaharlari atrof qishloq xo'jalik hududlari markazi, ilk davlatchilik markazlari, savdo hunarmandchilik, harbiy-ma'muriy, madaniy-mafkuraviy markazlar kabilarga ajratiladi. Ayrim (Sopolli, Jarqo'ton, Kuchuktepa, Qiziltepa) hollarda turli vazifalarning sintezi (birikishi) ham kuzatiladi. V. Massonning qayd etishicha, qadimgi shaharlar ma'lum funksiyalarni bajarish bilan birga, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning markazlari ham hisoblanadi. Shuningdek, davlatchilik tizimida ham dastlabki shaharlar butun ijtimoiy-iqtisodiy tizimning tarkibiy qismini tashkil etib, uning rivojlanish bosqichlarini ifodalaydi[3:21].

Urbanizatsiya jarayoni nisbatan kuchliroq kechgan hududlardagi (xususan, Surxon vohasida) aholi o'troq ishlab chiqarish xo'jaligi yuritgan bo'lib, bu mintaqalarda mudofaa vazifasi birlamchi hisoblangan. Tadqiqotchilar bunday maskanlarni bitta tabiiy mintaqada – yirik daryolarning hosildor vodiysida, suv ta'minoti barqaror bo'lgan vohalarda yoki tarmoqlangan suv manbalari doirasida joylashganligini ta'kidlaydilar[4:183-196]. Bunday hududlarga hayotiy muhim mahsulotlar bilan yaxshi ta'minlanmagan hududlardan bosqinchilik hujumlari uyushtirilib turilgan bo'lishi mumkin edi.

V. Massonning fikricha, taraqqiyot bosqichlarida ayrim hududning tarixiy-madaniy rivojlanishi jarayonida shaharlarning asosiy vazifalari o'zgarishsiz qolmagan va shaharning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillar majmui: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, demografik va nihoyat ekologik omillarga ko'p jihatdan bog'liq holda kechgan[5:66]. B. Eshovning fikricha, mazkur omillarning ta'siriga qarab alohida shaharlarning yetakchi vazifalari qo'shilishi yoki ajralishi mumkin bo'lgan. Misol uchun, yo'llarning yo'nalishi o'zgargan taqdirda savdo-sotiq va hunarmandchilik markazlari gullab-yashnagan yoki inqirozga uchragan, hududiy chegaralar va siyosiy barqarorlik o'zgargan taqdirda chegaralardagi qal'a shaharlar yanada mustahkamlangan

yoki tashlab ketilgan, geografik sharoit o'zgargan holatlarda shaharlar paydo bo'lgan yoxud ular butunlay tashlab ketilib ma'lum hududlarga siljigan yoki ko'chgan[6:134-137].

Urbanizatsiya jarayoni ma'lum mintaqada jamiyat taraqqiyoti yuqori pog'onaga ko'tarilganini tasdiqlaydi. Tadqiqotlarning tahlillari ham shaharlarda yashaydigan aholining ijtimoiy, mulkiy va etnomadaniy belgilariga ko'ra xilma-xilligi mazkur daraja qanchalik rivojlanganidan dalolat beradi[7:56]. Bu jihatlar ilk davlatchilik markazlari bo'lgan yodgorliklarning turli qismlarida (ark, shahriston, qal'a) uchraydigan arxeologik belgilaridagi farqlarda, shaharning turli qismlaridagi madaniy qatlamlardan topilgan ashyolarning ijtimoiy tarkibida, ijtimoiy holatni belgilovchi zeb-ziynat buyumlarining paydo bo'lishida va mazkur buyumlarni ishlab chiqaruvchi hunarmandchilikning yuqori tabaqalarga xizmat qiluvchi alohida tarmog'iga aylanishida, dafn marosimini o'tkazish va me'morchilik qurilmalari (ibodatxonalar va saroylar) barpo etishga ketgan mehnat sarfidagi jiddiy farqlarda o'z aksini topadi[8:116].

R.X. Sulaymonovning tadqiqotlariga ko'ra, ilk temir davriga o'tish bilan O'rta Osiyoning janubida qal'alari, diniy majmualari va mudofaa inshootlariga (minoralar, burjlar) ega bo'lgan Jarqo'ton kabi ilk shahar markazlari baland poydevor ustida bunyod etilgan Kuchuktepa, Tallashqontepa kabi maskanlar bilan almashadi. Keyinroq esa Qiziltepa kabi ko'hna shaharlar mudofaa devorlari bilan o'rab olinadi. Surxon vohasi shaharlarining ushbu umumiy rejasi davlatchilik rivojlanishining shaharsozlik madaniyatida o'sha davrda bajargan vazifasiga qarab ba'zan murakkablashgan ko'rinishda, ba'zan asosiy belgilarini saqlagan ko'rinishda taraqqiy etadi. Bu jarayonda jamoat inshootlari – qal'a, ibodatxona va saroylar ba'zan yagona me'moriy majmuada joylashsa, ba'zan alohida-alohida joylashadi. Shaharni o'rab turgan mudofaa devorlari uni atrof qishloq xo'jalik hududlaridan ajratib turgan. Bu hududda keyin qisqa vaqt ichida shaharoldi shakllanib, bu yerda odatda hunarmandchilik ishlab chiqarish, qabristonlar, diniy inshootlar va saroylar joylashgan[9:90-100].

O'zbekiston hududlarida dastlabki davlatchilikning paydo bo'lishi masalalari hozirgacha to'la yechimini topmagan bo'lib, bu masaladagi bahs-munozaralar davom etmoqda. Neolit davridan boshlanib, bronza davrida an'anaga aylanib borgan sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik mintaqa xo'jaligining asosini tashkil etgan. Vohalardagi sug'orma dehqonchilikning yuqori unumdor shakllari o'sha davr jamiyatida hal qiluvchi o'zgarishlarga olib keldi. Natijada, dehqonchilikning rivoji tufayli qo'shimcha mahsulot va xususiy mulk ko'rinishlari paydo bo'lishiga zamin yaratildi.

O'zbekistonda ilk davlat uyushmalari sun'iy sug'orish birmuncha qulay bo'lgan Amudaryo (yuqori, o'rta, quyi) oqimlari bo'ylarida, Sirdaryoning quyi oqimlarida, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida shakllanib rivojlanadi. Tadqiqotlarga ko'ra, mil.avv. II m.y.ning oxirlariga kelib hunarmandchilikning ixtisoslashuvi hamda dehqonchilikdan ajralib alohida xo'jalik tarmog'i sifatida rivojlanishi tarixiy-madaniy vohalardagi iqtisodiy taraqqiyot uchun keng imkoniyatlar yaratadi hamda ilk davlatchilikning paydo bo'lishi uchun muhim bo'lgan qo'shimcha mahsulot ko'payishi uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Ilk davlatchilikning rivojlanishida dastlabki shaharlardagi o'zaro ayirboshlash, savdo-sotiq va madaniy aloqalarning ham ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan [10:87]. Janubiy va shimoliy hududlardan topilgan arxeologik ashyolardagi juda ko'pgina o'xshashliklar bu hududlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalardan, qadimgi yo'llarning taraqqiy etganligidan dalolat beradiki, bu jarayonlar ham dastlabki shaharlar bilan birga ilk davlatchilikning asosiy omillaridan hisoblanadi[10:87].

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Surxon vohasida joylashgan yirik mustahkam maskanlar o'rni va atroflarida (Sopolli, Jarqo'ton, Kuchuktepa, Qiziltepa, Bandixon) dastlabki shahar markazlari shakllanib rivojlana boshlagan[11:134-137]. Ilk shaharlar qishloqlardan iqtisodiy, siyosiy va madaniy mavqeyi bilan ajralib turgan. Bunday shaharlar o'zlari joylashgan vohalarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy va harbiy markazlari vazifalarini bajargan.

Tadqiqotlardan ma'lumki, mintaqadagi dastlabki davlatlarning shakllanish jarayoni dehqon-chorvachilik, iqtisodiy hayot, ixtisoslashgan hunarmandchilik va shahar markazlarining paydo bo'lishi bilan bog'lanadi. Hozirgi kunga qadar olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari bu mintaqa hududlarida ilk temir davridagi ijtimoiy-siyosiy rivojlanishning ayrim muhim masalalarini

yangi asosda izohlashga imkoniyat yaratadi. Ammo, shunga qaramasdan bu masala to'liq yechimini topmagan bo'lib, xususan, O'rta Osiyo eng qadimgi davlatlari tipologiyasi va xronologiyasi, davlatchilik taraqqiyotida ilk shaharlarning ahamiyati muammosi ayniqsa dolzarbdir.

Ilk urbanistik markazlar tadqiqotlarga ko'ra, dastlabki davlatlarning markazlari sifatida shakllangan va bu masala ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan maxsus ko'rib chiqilib, rivojlanish taraqqiyotining turli davrlari belgilangan[12:42-44]. Hozirgi kunga qadar olingan yangi ma'lumotlar asosida bu masalaga birmuncha aniqliklar kiritildi. Xususan, shuni alohida ta'kidlash lozimki, Qadimgi Baqtriya hududlarida mil. avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning boshlariga oid eng qadimgi shahar xarobalari uchramaydi, ilk temir davri shaharlarining shakllanishi esa mil. avv. VII – VI asrlarga oiddir. Mil. avv. VIII asrning oxiri – VII asrga kelib O'rta Osiyoning janubidagi qishloqlar rivojlanishida jadallik bilan o'zgarishlar boshlanib, Baqtriya hududlarida o'zida shaharsozlik belgilarini (mustahkam devorlar, saroylar, burjlar, xandaqlar, devorlardagi o'q otish yo'laklari va boshq.) aks ettiruvchi manzilgohlar paydo bo'ladi. Ilk temir davriga oid bunday manzilgohlarning soni Baqtriyada ko'pchilikni tashkil etadi.

Shahar mavqeini belgilab beruvchi omillar O'rta Osiyodagi barcha yirik qishloqlarning hammasida ham kuzatilmaydi. Shunga qaramasdan ta'kidlash lozimki, ularning barchasi harbiy to'qnashuvlar paytida qal'a-qo'rg'on vazifasini bo'lishi mumkin. Bu borada A.M.Belenitskiy harbiy-ma'muriy markazlar sifatida paydo bo'lgan qadimgi shaharlar savdo-hunarmandchilik markazlariga aylanib boradi deb hisoblaydi[13:38]. Tarixshunoslikda o'rganilgan tahlillardan xulosa qilish mumkinki, O'rta Osiyo hududlarida ilk davlat uyushmalarining shakllanishida ilk shaharlar va harbiy-siyosiy omillardan tashqari ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar ham katta ahamiyatga ega edi. Sababi, siyosiy jihatdan shakllangan davlat yoki uyushma boshqaruv tartibi, ijtimoiy-madaniy markazlar va iqtisodiyotsiz taraqqiyot bosqichiga ko'tarila olmasligi e'tirof etilgan[14:30].

M.X. Isomiddinovning so'nggi yillardagi izlanishlariga ko'ra, mil. avv. VIII asrning o'rtalaridan boshlab O'rta Osiyoning janubida mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan yirik aholi punktlari shakllanadi. Shunga o'xshash jarayonlar Marg'iyona va So'g'd hududlarida ham kuzatilgan. Olimning fikricha, bu hududlar qadimgi Baqtriya hududlari bilan uzviy bog'lanadi. Keyingi davrlarda bu umumiylikka Xorazm ham qo'shiladi. Baqtriya madaniyatining kuchli ta'siri dastavval yuqori darajada rivojlangan shahar madaniyatida kuzatilgan[15:20].

B. Eshov yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha qilib, bir-biriga juda o'xshash buyumlarning topilishi faqat ustalarga emas, balki savdo-sotiq munosabatlari, o'zaro almashinuv va qadimgi savdo-tranzit yo'llariga ham bog'liqligini ta'kidlaydi. Mavjud yozma va arxeologik ma'lumotlarni tahlil qilib shunday xulosa chiqarish mumkinki, Buxoro va Xorazm hududlaridagi qadimgi yo'llar biz o'rganayotgan davrda voha ichidagi ichki yoki ikkinchi darajadagi yo'llar vazifasini o'tar edi. Asosiy savdo yo'llari esa Baqtriyadan Janubiy So'g'd (Qashqadaryo) va Markaziy So'g'd (Samarqand) orqali Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysiga o'tib ketardi[16:30].

Sh.T. Odilovning So'g'diyona davlatchiligi masalalariga bag'ishlangan so'nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir[17:23-30]. Olim So'g'diyonada, xususan, Zarafshon vohasida topib tekshirilgan ilk temir davriga oid arxeologik ma'lumotlarni boshqa hududlar bilan qiyosiy solishtirib chuqur ilmiy tahlil etgan. Buxoro atroflaridagi "ahamoniy davri" yodgorliklari uncha katta bo'lmagan hududlarda joylashgan bo'lib, bu maskan tashqi ko'rinishi bir xil bo'lgan dehqonchilik madaniyati shakllanadi. Bu etno-madaniy viloyat avvalo Amudaryo vohasi (Xorazm, Marg'iyona, Baqtriya-Toxariston), Janubiy So'g'd, Markaziy So'g'dning bir qismi, Buxoro So'g'dining shimoli-g'arbiy va shimoli-sharqiy hududlari, shuningdek, Ustrushona kabi tarixiy viloyatlarni o'z ichiga olgan. Qadimgi Baqtriya hududlaridan ko'chib borish bevosita Amudaryo, Sirdaryo, Qashqadaryo suv havzalari va ularning irmoqlari orqali bo'lib o'tgan.

B. Eshovning fikricha, aynan mana shu davrda Janubiy So'g'dning kattagina qismi o'troq dehqonchilik aholisi tomonidan o'zlashtirilib daryo vohalari va tekisliklarda sug'orma dehqonchilik va ixtisoslashgan hunarmandchilik gurkirab rivojlanayotgan edi. Qo'shni Qadimgi

Baqtriyaning kattagina hududlarida ham aynan mana shu holatni kuzatishimiz mumkin.

Arxeologik izlanishlarning ko'rsatishicha, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi va ixtisoslashgan hunarmandchilik natijasida bronza davridayoq O'rta Osiyo hududlarida ijtimoiy tabaqalanish va mulkiy tengsizlik paydo bo'ladi. Shimoliy Baqtriya'dagi bu jarayon faqat ichki sabablarga bog'liq bo'lmay, Yaqin Sharqdagi yuqori darajada rivojlangan an'anaviy tarixiy-madaniy aloqalarga ham bog'liq edi. Har bir jamoaning rivojlanishi uning ichki qonuniyatlaridan kelib chiqsa ham, dastlabki markazlardan kelib chiqqan tashqi ta'sir chetdagi viloyatlarning taqdirida katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin edi.

Xullas, so'nggi 15-20 yil ichida Baqtriya shaharlari tarixiga doir olingan yangi arxeologik ma'lumotlar ularning ilk davlat uyushmalari paydo bo'lishidagi ahamiyatini yanada kengroq izohlash imkonini yaratadi. Bu ma'lumotlarga qaraganda, ilk temir davri umumiy jamoalaridagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlarni bir necha kichik oiladan iborat uy jamoalari tashkil etgan. Shaharlar va manzilgohlar joylashuvining tashqi belgilari – katta oilali uy jamoalari ancha yirik uyushmalarga kirganligidan dalolat beradi. Boshqaruv tartibida katta oilalar jamoasi boshliqlari yoki uy xo'jayinlari, shuningdek, alohida qishloq qo'rg'onlarini boshqaruvchi eski jamoalar katta o'rin tutgan. Har bir katta oila mumkin bo'lgan qarindoshlik aloqalariga qaramasdan alohida uyga, ishlab chiqarish buyumlariga ega bo'lishgan, o'zining qishloq xo'jalik mahsulotlari zaxiralari va chorvalari bo'lgan yoki o'zini iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladigan xo'jalikni aks ettirgan.

Xulosa va takliflar. Janubiy O'zbekiston hududlari davlatchiligi va shaharlar madaniyati tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, tajriba to'plash va ko'nikmalarni rivojlantirish bilan shaharlar hayotidagi aholining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotida katta o'zgarishlar yaratdilar. Shahar va manzilgohlarda boshqaruv tartiblari asosida qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sohalari keying rivojlanish jarayonlariga asosiy poydevor bo'lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ширинов Т.Ш. Социальная структура города II тыс. до н.э. и проблемы государственности Средней Азии. Тезисы докладов. – Самарканд, 1994. – С. 214-215.
2. Массон В.М. Типология древних городов и исторический процесс // Древние города. - Л.: Наука. 1977. – С. 5-7.
3. Массон В.М. Городские центры раннеклассовых обществ // История и археология Средней Азии. – Ашхабад: Ёлым, 1978. – С. 21.
4. Большаков О.Г., Якобсон В.А. Об определении понятия “город” // История и культура народов Востока (древность и средневековье). – Л.: Наука, 1993. – С.183-196.
5. Массон В.М. Процессы урбанизации в древней истории Средней Азии // Древний город Средней Азии. - Л.: Наука, 1973. – С.66.
6. Эшов Б. Узункир, Китоб, Кеш, Шахрисабз. // Халқаро конф. мат. –Тошкент.: Фан. 2002. – Б. 134-137.
7. Эшов Б.Ж. Ўрта Осиё қадимги шаҳарларининг марказлар сифатидаги аҳамияти масалалари // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2006. - № 4. – Б. 56.
8. Буряков Ю.Ф., Радиловский В.В. Модельное построение урбанизационного процесса, основанного на логической структуре // Комплексные методы в исторических исследованиях. – М.: Наука, 1987. – С. 116.
9. Сулейманов Р.Х. К периодизации и типологии древних и средневековых городов Средней Азии // Археология Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1990. – С. 90-100.
10. Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда қадимги бошқарув ва илк давлатчилик тарихшунослиги. – Тошкент: Akademiya, 2009. – Б. 87.
11. Эшов Б.Ж. Илк шаҳарлар давлатчилик пайдо бўлишининг асосий омили // Конференция материаллари. – Тошкент: Академия, 2001. – Б. 134-137.
12. Дьяконов И.М. Проблемы Вавилонского города II тыс до н.э. // Древний Восток. Города и торговля. – Ереван.: 1973. – С. 115; Массон В.М. Проблема древнего города ... – С. 3-13; Литвинский Б.А. Древний среднеазиатский город (местные традиции и иноземные модели) // Древний Восток, города и торговля (III-I тыс. до.н.э.). АН Арм. ССР, 1973. – С. 99-125; Сагдуллаев А.С. Заметки о раннем железном веке ... – С. 229-234; Павленко Ю.В. Раннеклассовые общества. Генезис к пути развития. – Киев: Знание, 1989. – С. 210; Аскарлов А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура ... – С. 132-140; Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии// Автореф. дисс... док. ист. наук. – М.: Институт археологии РАН,

1993. – С. 42-44. ва бошқ.
13. Беленицкий А.М. О рабовладельческой формации в истории Средней Азии // Тезисы докл. и сообщений к совещанию по археологии Средней Азии. – Л.: Наука, 1968. – С. 38.
 14. Эшов Б. История формирования и развития раннегородской культуры Средней Азии: Автореф. дисс. ... док. ист. наук. – Ташкент: Институт истории АНРУз. 2008. – 30 с.
 15. Исомиддинов М. Сополга битилган тарих. – Тошкент: Фан, 1993. – Б. 20.
 16. Эшов Б. История формирования и развития раннегородской культуры Средней Азии: Автореф. дисс. ... док. ист. наук. – Ташкент: Институт истории АНРУз. 2008. – 30 с.
 17. Адылов Ш.Т. На заре урбанизации и государственности в Бухарском оазисе // Бухара и мировая культура. Динамика культурного процесса в столицах восточных цивилизаций. Вып. 1. – Бухара, 1993. – С. 51-55; Ўша муаллиф. Поселение Уртатепа (некоторые предварительные итоги обследования) // ОНУ. – Ташкент, 1995. - № 5-6-7-8. – С. 47-50; Ўша муаллиф. Истоки и возникновение цивилизации и государственности в Западном Согде // ОНУ. – Ташкент, 1998. - № 4-5. – С. 23- 30.

SIYOSIY PARTIYALAR FAOLIYATINING TASHKILIY JIHLARI**Qarshiyev Nurmuhhammad Olimjonovich**

O‘zMU Siyosatshunoslik kafedrası v.b.dotsenti

nurmuxammad.qarshiev@mail.ru

ORCID 0009 0009 0277 7052

UDK (329.735(575.1))

Annotatsiya. Jahon davlatlarida siyosiy jarayonlarning jadallashib, modernizatsiyalashuvi siyosiy partiya institutining mazkur jarayonlardagi rolini oshirib bormoqda. Siyosiy partiya paydo bo‘libdiki, uning siyosiy tashkilot sifatida murakkab tuzilishini o‘rganish, tadqiq qilishga ham qiziqish ortib bormoqda. Zamonaviy siyosatshunoslikda siyosiy partiyalar faoliyatining tashkiliy jihatlari o‘rganish tobora dolzarblashib bormoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida ham siyosiy partiyalarning jamiyatdagi rolini oshirish, demokratik islohotlarning ajralmas qismi sifatida qaralib kelinmoqda. Siyosiy partiyalar faolligini oshirishda ularning faoliyatiga tashkiliy jihatlari alohida e‘tibor berilmoqda.

Kalit so‘zlar. Siyosiy partiya, partiyaviy tizim, qonunchilik, demokratiya, institutsional tuzilma, fuqarolik jamiyati, parlament, siyosiy rejim, elektorat.

ORGANIZATIONAL ASPECTS OF POLITICAL PARTIES

Abstract. The acceleration and modernization of political processes in the countries of the world is increasing the role of the political party institution in these processes. A political party has emerged, and there is increasing interest in studying and researching its complex structure as a political organization. In modern political science, the study of the organizational aspects of the activity of political parties is becoming more and more relevant.

At a new stage in our country's development, increasing the role of political parties in society is being seen as an integral part of democratic reforms. In increasing the activity of political parties, special attention is paid to the organizational aspects of their activity.

Keywords. Political party, party system, legislation, democracy, institutional structure, civil society, parliament, political regime, electorate.

Kirish. Jahonda siyosiy fanlar rivojining jadallashuvi uning markaziy tadqiqot obyektlaridan biri bo‘lgan siyosiy partiya institutini tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Siyosiy partiyalar paydo bo‘libdiki, jamiyat va davlat o‘rtasida bog‘lovchi ko‘prik vazifasini bajarib kelmoqda. Umuman, ularning mohiyati jamiyatda mavjud turli qatlam, guruhlarning manfaatlarini hokimiyat oldida himoya qilib, boshqaruvni shakllantirgan holda ularga qulayliklar yaratishdan iborat. Siyosiy partiyalarning boshqa nodavlat notijorat tashkilotlaridan farqi ularning hokimiyatga ochiq, oshkora intilishidir. Mazkur siyosiy jarayonlar saylovlar vositasida qonunlar doirasida amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jamiyatlarda erkin fuqarolik jamiyati demokratik tamoyillar asosida rivojlantirish zarurati tobora oshib bormoqda. Siyosiy partiyalar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikning mukammalligi, uning institutsional jihatdan mukammal tuzilganligi, uning bo‘limlari, bo‘linmalarining takomillashganligi, elektorati tarkibidagi yoshlar, ayollarning, shuningdek, jismoniy imkoniyati cheklangan fuqarolarga beriladigan alohida e‘tiborning tizimliliigi hamda dasturlaridagi mafkuraviy yo‘nalishning izchilligi, uzviyligini ta‘minlash, ular faoliyatining tashkiliy jihatlari asosi sifatida qarashimiz mumkin.

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyatining tom ma‘nodagi institutiga aylanishi, ularning demokratik jamiyatni yanada rivojlantirishdagi ishtirokini ta‘minlash borasida ko‘plab islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi IV ustuvor yo‘nalishi “Qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish deb nomlangan bo‘lib, uning 79-maqsadi: “Yangi O‘zbekistonni barpo etishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish”, xususan, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini

yanada kuchaytirish maqsadida vakillik organlariga saylovning aralash (majoritar-proporsional) tizimini joriy qilish"[4] masalalarini qamrab olgan. Joriy yilning 27-oktyabr kuni bo'lib o'tgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi uchun saylovlar "aralash saylov tizimi" asosida o'tkazilganligi mazkur maqsadda nazarda tutilgan vazifalarning ijrosi ta'minlanayotganligidan dalolatdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Jahon siyosatshunosligida siyosiy partiyalar faoliyatining turli jihatlarini ko'plab olimlar o'rganishgan. Siyosiy partiyalarning institutsional tuzulishi, mafkuraviy faoliyati, ular faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikning mavjudligi hamda uning demokratik tamoyillarga mosligi muammolari borasida ilmiy izlanishlar salmog'i kengayib bormoqda.

Siyosiy partiyalar, partiyaviy tizimlarga doir muammolarni tadqiq qilgan olimlar guruhini biz shartli ravishda uchga bo'lishimiz mumkin. Birinchi guruhga g'arb olimlaridan M. Dyuverje, M. Veber, N. Makiavelli, T. Gobss, J. Lokk, T. Parsons, J. Sartori, T. Jefferson, J-J. Russo, K. Janda kabilarni, ikkinchi guruh olimlariga rus olimlaridan M. Ostrogorskiy, S. Lansov, B. Isayev, N. Azarov, I. Melishken, V. Pugachev, A. Solovyev kabilarni, uchinchi guruh o'zbek olimlari guruhiga Q. Nazarov, M. Qirg'izboyev, I. Ergashev, V. Qo'chqorov, X. Odilqoriyev, B. Yakubov, X. Axmedov, U. Tilavov kabilarni kiritishimiz mumkin.

Siyosiy partiyalarning tashkiliy tuzilmasi ularning institutsionallashuvi va rivojlanishi jarayonida muhim rol o'ynaydi. O'z vaqtida M. Dyuverjer shunday ta'kidlagan edi: "...Zamonaviy siyosiy partiyalarning tashkiliy tabiatida ularning mohiyati dasturlari yoki sinfiy tarkibiga qaraganda ancha to'liqroq ochib berilgan: partiya ma'lum bir o'ziga xos tuzilishga asoslangan jamoadir"[5]. Demak, siyosiy partiyalar faoliyatining tashkiliy jihatlarini uning dasturi va elektorati majmuidan tashqari bir qancha omillarni o'z ichiga qamrab oladi. Siyosiy partiyalar faoliyatini tashkil etish uchun eng avvalo siyosiy muhit, qonunchilik ham siyosiy partiya ehtiyoj mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Partiya qurilishi deganda partiyani tashkil etish va uning siyosiy maydonda keyingi faoliyatini ta'minlash maqsadida partiya boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui tushunilishi kerak. Partiya qurilishining ta'rifiga asoslanib, partiya tuzish mantig'iga ko'ra ikkita asosiy bosqichni o'z ichiga oladi. Ulardan birinchisi, maqsadi siyosiy partiyalarni tashkil etish, ikkinchidan, uning siyosiy maydondagi faolligini ta'minlash bo'yicha tadbirlar amalga oshiriladi. Albatta, har bir bosqichda tadbirlarning yetarlicha keng ro'yxati tuziladi, shuning uchun ularning eng muhimlariga to'xtalib o'tish tavsiya etiladi[6]. Siyosiy partiya faoliyati uchun zarur bo'lgan omillarning barchasi mavjud bo'lganda, uning jamiyatdagi mavqeyi ortib faol demokratik institutga aylanadi.

O'zbek olimlaridan M. Qirg'izboyev o'zining "Siyosatshunoslik" kitobida "Nemis sotsiologi Maks Veber siyosiy partiyalarni "ijtimoiy mexanizm" sifatida tadqiq etdi. Uning fikricha, bu "ijtimoiy mexanizm"da doktrina va tashkiliy tuzilma ma'lum siyosiy maqsadga erishish uchun xizmat qiladi. U oxir-oqibatda partiya-korporatsiyalarni shakllantiradigan partiyaviy bosqichlarni ajratib ko'rsatib berdi: uyushgan to'da unsurlarini o'zida ifodalagan partiya o'xshash tashkilotlar – "mo'tabar odamlar" partiyasiga aylanishga shay turgan dvoryanlar partiyalari; saylovlarda g'alabaga erishish uchun vaqtincha birlashgan va tashkillashgan guruhlar – jentelmen partiyalari; tanlangan ishtirokchilar atrofida tashkil etilgan doimiy bo'lmagan siyosiy ittifoqlar, lokal siyosiy klublar; hozirgi davr siyosiy partiyalari, qaysiki ular vaqtinchalik holatidan muntazamlilik holatiga o'tib, partiya apparatini sekinlik bilan korporatsiyalarga aylanadilar, pirovardida partiya kapitalistik korxonaga o'sib o'tadi [7].

Yuqoridagi siyosatshunos olimlarning siyosiy partiyalar hamda ularning qurilishi, ular faoliyatining tashkiliy jihatlarini tahlil etishlari asosida shunday fikrga kelish

mumkinki, siyosiy partiyalar faoliyati nafaqat dasturiy mafkuraviy, elektorat munosabatlariga, balki undan tashqari ko'plab omillar qonunchilik, boshqa nodavlat-notijorat tashkilotlari va davlat instituti bilan munosabatlari, shuningdek, uning ichki tuzilmalarining tuzilishi o'zaro munosabatlariga ham bog'liqdir.

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotimizda institutsional, funksional, obyektivlik hamda kompleks yondashuv metodologiyalaridan foydalanildi.

- **Tahlil va natijalar.** Zamonaviy siyosiy partiyalar mavjudligining asosiy shartlariga quyidagilarni keltirib o'tishimiz mumkin: Siyosiy partiyalarni qo'llab-quvvatlovchi tarafdorlarining (elektorat) mavjudligi; siyosiy partiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, uning g'oyalari, umumiy qilib aytganda, mafkurasining o'ziga xosligi va mavjudligi; siyosiy partiyaning institutsional tuzilma sifatidagi talablarga javob berishi, ya'ni uning bo'lim, bo'linmalari, boshqaruvi, binosi, moddiy-texnik bazasi va boshqalar kiradi. Zamonaviy siyosiy partiyalarning barchasi dasturiga va nizomiga egadir. Ularda siyosiy partiyalar faoliyatining tashkiliy jihatlari qamrab olingan. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tishimiz kerakki, siyosiy partiyalar faoliyatiga doir qonunchilik muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda ham siyosiy partiyalar faoliyatini tartibga soluvchi bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, xususan, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobi Fuqarolik jamiyati institutlariga bag'ishlangan bo'lib, uning 74-moddasi quyidagicha: "Siyosiy partiyalar turli ijtimoiy tabaqa va guruhlarning siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatining moliyalashtirilishi manbalari haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga yoki u vakolat bergan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar taqdim etadilar[1] deb belgilangan. Bosh qomusimiz bo'lgan Konstitutsiyamizda aynan davlat hokimiyatini tuzishdagi siyosiy partiyalar ishtirokining belgilanishi mazkur institutning jamiyat siyosiy hayotida naqadar muhim tashkiliy tuzilma ekanligini ko'rsatib beradi.

Shuningdek, 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 1-moddasida "siyosiy partiya tushunchasi"ga quyidagicha ta'rif berib o'tilgan: "Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir[2]. Dunyoning ko'plab rivojlangan demokratik davlatlarida siyosiy partiyalar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan alohida qonunlar mavjud. Aynan mana shunday ilg'or tajribalar asosida mamlakatimizda ham alohida qonunlarning qabul qilinganligi siyosiy partiyalar faoliyatining tashkiliy jihatlari aniqroq ko'rsatib berishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, alohida qonunlar 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2007-yil 3-yanvarda qabul qilingan "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi "Saylov kodeksi" (2019) orqali partiyalar faoliyati tartibga solinadi. O'zbekistonda siyosiy partiyalarning moliyaviy manbalari "2004-yil 30-apreldagi "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinib, quyidagicha shakllantiriladi: kirish va a'zolik badallari, agar siyosiy partiyaning ustavida bunday badallar to'lash nazarda tutilgan bo'lsa, qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ushbu Qonunga muvofiq ajratiladigan mablag'lar, O'zbekiston Respublikasi

yuridik shaxslari va fuqarolari tomonidan ushbu Qonunga muvofiq beriladigan xayriya yordami”[3].

“Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida quyidagicha: “Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta‘minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Nodavlat notijorat tashkilotlarining alohida ijtimoiy foydali dasturlariga davlat ko‘mak ko‘rsatishi mumkin. Davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining nodavlat notijorat tashkiloti faoliyatiga aralashishiga, xuddi shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotining davlat organlari hamda ular mansabdor shaxslarining faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi”[8] deb belgilangan.

Hozirgi kunda O‘zbekiston siyosiy hayotida besh nafar siyosiy partiya faoliyat olib bormoqda. Jumladan, O‘zbekiston xalq demokratik partiyasi (1991), O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi (1995), O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi (2008), Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (2003), O‘zbekiston Ekologik partiyasi (2019).

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida siyosiy partiyalar faoliyati samaradorligi juda muhim omillardan hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati instituti sifatida siyosiy partiyalar O‘zbekistondagi barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldor, shuningdek, davlat boshqaruvi hokimiyati organlarining ayrim xato va kamchiliklarini ko‘rsatib berishi, rivojlanishning muqobil variantlarini taqdim qilishi lozimdir. Siyosiy partiyalar barcha nodavlat notijorat tashkilotlari kabi o‘z navbatida davlatga ko‘makchi vazifasini ham bajarishi lozim. Jamiyatda fuqarolarning siyosiy ongini yuksaltirish yo‘lida imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olishi zarur.

Siyosiy partiyalarning ichki tuzulishi ularning ustavida aks etgan bo‘ladi. Jahonning turli mamlakatlarida siyosiy partiyalar turlicha tuzulishga egadir. Birgina boshlang‘ich partiya tashkilotlarining mavjud yoki mavjud emasligi turli mintaqalarda partiya xususiyatidan kelib chiqib turlichadir.

Masalan, O‘zbekistonda mavjud siyosiy partiyalardan O‘zbekiston xalq demokratik partiyasining “Ustavi”da siyosiy partiyaning tuzilishi quyidagicha ifodalangan:

1. Partiya O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy bo‘linishiga muvofiq hududiy prinsip bo‘yicha tuziladi. Mintaqaviy, tuman (shahar) va boshlang‘ich partiya tashkilotlari Partiyaning tarkibiy bo‘linmalaridir.

2. Mintaqaviy partiya tashkilotlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining ma‘muriy hududida joylashgan tuman (shahar) partiya tashkilotlarining faoliyatini boshqarish, muvofiqlashtirish va birlashtirish maqsadida tashkil etiladi.

3. Tuman (shahar) partiya tashkilotlari, tegishli hududlardagi boshlang‘ich partiya tashkilotlarining faoliyatini boshqarish, muvofiqlashtirish va birlashtirish maqsadida, mintaqaviy tashkilotlar tarkibida tashkil etiladi.

4. Tuman (shahar) partiya tashkilotlarining quyi tarkibiy bo‘linmalari boshlang‘ich partiya tashkilotlari hisoblanadi. Ular Partiya a‘zolarini bevosita yashash yoki ish joyida birlashtirish, ularning Partiyadagi faoliyatini yo‘naltirish va muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etiladi.

5. Partiyaning yuqori turuvchi rahbar organlari mintaqaviy, tuman (shahar), boshlang‘ich partiya tashkilotlarining qarorlarini bekor qilishi yoki ularning ijro etilishini to‘xtatib turish huquqiga ega.

Mazkur tashkilot rahbar organi o‘z yig‘ilishida muhim masalalar yuzasidan tashkilot a‘zolari (vakillari)ning muayyan qismi ovozi (roziligi) bilan qaror qabul qiladigan organ, partiyaning oliy rahbar organi – qurultoy; Qoraqalpog‘iston Respublikasi,

viloyatlar, Toshkent shahar hamda tuman (shahar) kengashlarining rahbar organi – konferensiya; Boshlang‘ich partiya tashkilotining rahbar organi – boshlang‘ich partiya tashkiloti a‘zolarining umumiy yig‘ilishi. Qurultoy – partiyaning oliy rahbar organi (partiya Markaziy Kengashi tomonidan 5 yil ichida kamida bir marta chaqiriladi). Qurultoylar oralig‘ida Markaziy Kengash rahbar organ bo‘lib uning faoliyatini asosiy shakli hisoblangan plenum bir yilda kamida bir marta chaqiriladi; Plenumlar oralig‘ida Ijroiya qo‘mita partiya manfaatlarini ifoda etadi[9]. Mamlakatimizda mavjud siyosiy partiyalarning deyarli barchasining tuzilishi ayrim jihatlarida farqlar mavjud bo‘lmasa, yuqorida ko‘rib chiqilgan shakldadir.

O‘zbekiston “Adolat” SDP ning tuzilmalari sifatida “Siyosiy kengash”, “Ijroiya qo‘mita”, “Nazorat taftish komissiyasi”, “Markaziy kengash”, “Adolatchi ayollar bong uradi”, “Yosh adolatchilar ovozi” va BPT [10] lar keltirib o‘tiladi.

O‘zbekistonda mavjud siyosiy partiyalar xususan, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi, O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi, O‘zbekiston “Ekologik” partiyalarining tashkiliy tuzilishi bir-biriga yaqin. Mazkur siyosiy partiyalarning har birida ayollar va yoshlarga ixtisoslashgan bo‘linmalar turli nomlar ostida faoliyat yuritib kelmoqda. Masalan, “Ayollar qanotlari”, “Yoshlar qanotlari” va hokazo.

“Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 13-moddasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari faoliyati belgilab berilgan. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari o‘z partiyalarining siyosatini uyushqoqlik bilan o‘tkazish uchun, siyosiy partiyalardan ko‘rsatilgan deputatlarning ta‘sis yig‘ilishlarida tuziladi. Fraksiyalar uning rahbari bergan tegishli ariza va ta‘sis hujjatlariga asosan Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi tomonidan ro‘yxatga olinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo‘lsak, mamlakatimizdagi siyosiy partiyalar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida so‘nggi yillarda ko‘plab islohotlar amalga oshirilib, ularning tarkibiy tuzilishi, mafkuraviy, elektorat bilan ishlash faoliyati takomillashtirildi. Yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, siyosiy partiyalarning fuqarolik jamiyatining tom ma‘nodagi instituti sifatidagi roli oshirildi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, jamiyat taraqqiyotida siyosiy partiyalarning roli hal qiluvchi muhim ahamiyat kasb etadi. Uning davlat boshqaruvini shakllantirishda aholining, elektoratning ishtirokini ta‘minlash funksiyasi ahamiyatlidir, qolaversa, jamiyat taraqqiyotini ta‘minlashga xizmat qiluvchi g‘oyalar, mafkuralar yaratuvchisi vazifasini boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari mazkur institut kabi izchil amalga oshira olmaydi. Siyosiy partiyalar faoliyatining tashkiliy jihatlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligi uning takomillashuviga xizmat qilib, taraqqiyotni ta‘minlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

siyosiy partiyalar faoliyatining tashkiliy jihatlarini takomillashtirishda ilg‘or xorijiy tajribalarni chuqur o‘rganishni davom ettirish;

siyosiy partiyalarning “ayollar qanotlari”, “yoshlar qanotlari” kabi tuzilmalarining faoliyatini yanada jonlantirish hamda ularning xalqchilligini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. -120 bet.
2. “Сиёсий партиялар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни. 1996 йил 26 декабр. <https://lex.uz/acts/54191>
3. “Сиёсий партияларни молиялаштириш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни 3-

модда. 2004 йил 30 апрель. <https://lex.uz/docs/168391?ONDATE=09.02.2021>.

4. “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 11.09.2023 йилдаги ПФ-158-сон. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

5. Гришина А.М. Организационная эффективность политических партий: Теоретический Аспект. – В режиме доступа: <file:///C:/Users/user/Downloads/organizatsionnaya-effektivnost-politicheskikh-partiy-teoreticheskiy-aspekt.pdf>

6. Невская Т.А. Организационные основы партийного строительства в современной России. DOI 10.34823/SGZ.2021.5.51684. – В режиме доступа: <file:///C:/Users/user/Downloads/organizatsionnye-osnovy-partiynogo-stroitelstva-v-sovremennoy-rossii.pdf>

7. Қирғизбоев Муқимжон. Сийосатшунослик: олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик / М.Қирғизбоев; Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети. – Тошкент: Шарқ, 2024. – 504 б.

8. “Нодавлат ноижорат ташкилотлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни Тошкент ш., 1999 йил 14 апрель, 763-И-сон (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 5-сон, 115-модда).

9. <https://xdp.uz/uploads/documentation/9.pdf>

10. <https://adolat.uz/siyosiy-kengash>

MODERNIZATSIYA NAZARIYASIGA NISBATAN MAVJUD YONDASHUVLAR TASNIFI

Ikromjon Nasrullayev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat boshqaruv akademiyasi

Iqtisodiyot va moliya kafedrasi katta o‘qituvchisi

i.nasrullaev1973@gmail.com

ORCID 0009-0007-9125-1823

UDK 316.422.42

Annotatsiya. Mamlakatimizda davlat boshqaruvini keng qamrovli transformatsiya jarayonlari jadal sur’atlarda olib borilmoqda. Tizimli islohotlar orqali amalga oshiriladigan mazkur transformatsiya jarayonlarini ilmiy hamjamiyat salohiyatini ishga solgan holda amalga oshirish rusmga kirayotganligi esa tahsinga sazovor. Fanda har qanday tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy yoki siyosiy tizimning ibtidosi, buguni va kelajagi uning shakllanish (formatsiya), rivojlanish (sivilizatsiya), zamonaviylashish (modernizatsiya), uyg’unlashish (konvergensiya) va ommaviylashuv (globalizatsiya) nazariyalari asosini tashkil etuvchi konseptiyalar tadrijiga mos jarayonlar bilan rivojlanadi. Mazkur nazariyalar ichida davlat hokimiyati boshqaruv tizimini optimallashtirishni ifodalovchi modernizatsiya nazariyasi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy transformatsiyasidan iborat majmuaviy takomillashishni nazarda tutadi.

Maqolada transformatsiya doirasida amalga oshiriladigan islohotlarni nazariy metodologik asosi bo‘lgan medernizatsiya nazariyasi va uning tipologiyasiga oid tahlil amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar. transformatsiya nazariyalari, klassifikatsiya, formatsiya, sivilizatsiya, modernizatsiya, konvergensiya, globalizatsiya, renessans, ilmiy salohiyat, ma’muriy jarayonlar reinjiningi, sun’iy intellekt.

CLASSIFICATION OF EXISTING APPROACHES TO THE THEORY OF MODERNIZATION

OF PUBLIC AUTHORITY AND OPTIMIZATION OF MANAGEMENT

Annotation. In our country, comprehensive transformation processes in state governance are being carried out at a rapid pace. It is commendable that these transformation processes, implemented through systematic reforms, are being conducted with the involvement of the scientific community's potential. In science, any natural, social, economic, or political system's origin, present, and future develop in line with the processes that correspond to the formation (formation), development (civilization), modernization, convergence, and globalization theories, which form the basis of these concepts. Among these theories, the modernization theory, which represents the optimization of the state governance system, envisages comprehensive improvement through social, economic, and political transformation of society. The article analyzes the modernization theory and its typology, which serve as the theoretical and methodological basis of reforms implemented within the framework of transformation.

Keywords. theories of transformation, classification, formation, civilization, modernization, convergence, globalization, renaissance, scientific potential, reengineering of management processes, artificial intelligence.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston” va “Uchinchi renessans” konsepsiyalari mamlakatimiz taraqqiyotining tamomila yangi va zamonaviy yondashuvlar asosidagi zalvarli islohotlar davrini boshlab berdi. Mazkur konsepsiyalar genezisidagi islohotlarni amaliy faoliyat va ilmiy salohiyatni o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda ishlab chiqish va amalga oshirish sharti davlat organlari faoliyati samaradorligini kafolatlovchi omildir.

Yuqorida qayd etilgan konsepsiyalar mohiyatini to‘laligicha anglagan holda istiqbolli loyihalar ishlab chiqish vazifasi davlat xizmatchilari hamda ilmiy hamjamiyat vakillari qarashlarining o‘zaro uyg‘unlashgan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham mazkur maqolamizdagi davlat hokimiyati boshqaruv tizimini modernizatsiya nazariyalarini tizimlashtirgan holda amalga oshirilgan tahlili o‘quvchilar uchun foydali bo‘ladi deb hisobladik.

Fanda har qanday tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy yoki siyosiy tizimning ibtidosi, buguni va kelajagi uning shakllanish (formatsiya), rivojlanish (sivilizatsiya), zamonaviylashish (modernizatsiya), uyg‘unlashish (konvergensiya) va ommaviylashuv (globalizatsiya) nazariyalari asosini tashkil etuvchi konsepsiyalar tadrijiga mos jarayonlar bilan rivojlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur nazariyalar ichida davlat hokimiyati boshqaruv tizimini optimallashtirishni ifodalovchi modernizatsiya nazariyasi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy transformatsiyasidan iborat majmuaviy takomillashishni nazarda tutadi. Davlat hokimiyati boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar modernizatsiya nazariyasi modellarini tadqiq etish orqali ularga mos ravishda ishlab chiqilgan konsepsiya va tamoyillarga asoslanadi va turlicha tasniflanadi.

Natija va muhokama. Olimlarning modernizatsiya jarayonlarini o‘rganishdagi yondashuvlarini ular qamrab olgan davrlariga nisbatan ikki turga ajratish mumkin. Birinchi toifadagi tadqiqotchilar modernizatsiyani kishilik jamiyati boshlangan davrdan boshlab tadqiq etsalar, ikkinchi toifa tadqiqotchilar modernizatsiyani yangi paradigma sifatida tavsif berib, XX asr o‘rtalarida shakllangan deb baho beradilar.

Birinchi toifa tarafdorlari nuqtayi nazaridan talqin etadigan bo‘lsak, darhaqiqat, mazmun-mohiyatiga ko‘ra modernizatsiya takomillashish jarayonlarini ifodalar ekan, mazkur fenomen kishilik jamiyati shakllana boshlangandan buyon tadrijij rivojlanishning tegishli makon va zamoniga mos zamonaviylashish jarayonlari xisobiga rivojlanib kelgan, rivojlanmoqda va rivojlanishda davom etadi. Oxir oqibat, insoniyatning tadrijij sivilizatsiyasi sharq va g‘arbning bir biriga navbatma-navbat o‘rin beruvchi va bir birini to‘ldiruvchi uyg‘onish davrlari bosqichlaridagi, komillikka nisbatan yondashuvlarga doir bilimlarni o‘zlashtirilishi va jamlanishi bilan, umuminsoniy qadriyatlar sifatida sintezlashgan neytral modernizatsiyaning shakllanishiga olib keladi.

G‘arbning ilk uyg‘onish va yuksalish davrining (e.o 1 ming yillikdan eramizning IV-V asrlariga qadar) namoyandalari Aristotel, Ptolemey asarlaridagi davlatchilik, falsafa, madaniyat, adabiyot, san‘atga doir qarashlari qadimgi grek tilidan sharq tillariga o‘girilgan bo‘lsa, o‘rta asrlar sharq uyg‘onish davri namoyandalarining nafaqat gumanitar, balki aniq, tabiiy va texnik fanlar yo‘nalishidagi tadqiqotlari mahsullari g‘arb tillariga o‘girilgan.

Xususan, “...sharq tillaridan lotin tiliga tarjima qilish bilan mashg‘ul bo‘lgan dastlabki maktablar 1151-yilda Toledo (Ispaniya) shahrida faoliyat boshlagan. Ular al-Farobiy, al-G‘azzoliy, Ibn Sino asarlari tarjimalari bilan shug‘ullanganlar”[1].

Ilk o‘rta asrlarda yashab ijod etgan Abu Nasr Farobiyning feodalizm va musulmon madaniyati rivojlanayotgan bir sharoitda yaratgan “Siyosat al-madaniya” (“Shahar yuritish siyosati”) hamda “Fozil shahar ahli qarashlari” nomli asrlaridagi ilg‘or tamoyillar Abu Nasr Farobiyi davlat boshqaruvida modernizatsiya nazariyasining o‘z davridagi g‘oyaviy

asoschisi sifatida namoyon etadi.

Bu bilimlar XV asrlar o'rtalaridan boshlangan g'arbning qayta uyg'onish va yuksalish davriga (XV-XX asrlar) bevosita turtki bo'ldi. Bu davrda Fransiyada Ogyust Kont (1778-1857) va Emil Dyurkgeym, Germaniyada Maks Veber (1864-1920) va Ferdinand Tyonnis (1855-1936), Buyuk Britaniyada Gerbert Spenser (1820-1903) singari olimlar modernizatsiya nazariyasini g'oyaviy asoschilari izdoshlari safiga qo'shildilar.

O'z davrida sharq va g'arbning uyg'onish davrlariga asos bo'lib xizmat qilgan modernizatsiya nazariyalari endilikda ushbu qonuniyat asosida g'arbdan sharqqa tomon yuzlanayotganligi va sharqning yangi uyg'onish davri tendensiyalari kuzatilayotganligini shohidi bo'lmoqdamiz. Xususan, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, meditsina sohalaridagi Janubi-sharqiy Osiyo davlatlarining rivojlanish darajalari buning yaqqol isbotidir.

Zamonaviy davlatchiligimiz boshqaruv tizimini takomillashtirish ham klassik modernizatsiya nazariyasiga asoslangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyalari ham yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash va uni taraqqiy etgan mamlakatlar darajasiga olib chiqishga qaratilgan tarixiy islohot dasturlari bo'lib, ularning har biridagi markaziy yo'nalishlari davlat boshqaruvini modernizatsiyalashdan iboratdir. Aynan mana shu strategiya maqsadlari asosidagi, mamlakatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev muallifi bo'lgan "Uchinchi renessans" konsepsiyasi yangi milliy g'oya sifatida shakllanib jamiyat shuuriga singib bormoqda.

Bu islohotlar negizini, yuqorida qayd etilgan klassik modernizm nazariyasi tamoyillariga mos holda shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini kafolatlashga qaratilgan, chuqur va uzoqni o'ylab ishlab chiqilgan konsepsiyalar, tamoyillar, strategik maqsadlar va rejalar, shuningdek, ularni amalga oshirishga qaratilgan qaror va amaliy chora-tadbirlar tashkil etadi.

Aholining hayotiy muhim ehtiyoj va manfaatlariga mutanosib tartibot va qonunlar kuchga kirmas ekan, mustabid davrda qattiq o'rnatilgan stereotiplar, tasavvurlar va me'yorlarni o'zgartirish katta siyosiy iroda, izchil harakat va fursat talab etadi. Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maqomidagi faoliyati mamlakatimiz hududida tarixan shakllanib amalga oshgan buyuk renessanslarning yangi davrini boshlab berdi.

Xususan, "O'zbekiston tarixining birinchi Renessansi - Somoniylar davriga to'g'ri kelib, ushbu davrda buyuk ajdodlarimizning yaratgan ilmiy-falsafiy asarlari va olamshumul kashfiyotlari islom sivilizatsiyasiga tamal toshi bo'ldi. Ikkinchi Renessans – Amir Temur va Temuriylar davriga to'g'ri kelib, nafaqat Movarounnahr, balki butun Markaziy Osiyo o'lkalari o'z taraqqiyotining yangi pog'onasiga ko'tariladi.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning: "Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda", – degan so'zi yangradi"[2]. Bu mamlakatimiz davlatchiligini modernizatsiyalashga qaratilgan keng ko'lamlil va jadal islohotlar davri boshlanganidan dalolat berdi.

Ikkinchi toifa tadqiqotchilar modernizm nazariyasini II jahon urushidan keyin shakllangan nazariya sifatida talqin etadilar. Va buni XX asrning 50 yillarida siyosatchilar tomonidan siyosiy tizim va rejimlarning o'zgarishi masalalarilariga alohida e'tibor qaratila boshlagani bilan izohlaydilar. Bunda **siyosiy rejimlarning rivojlanganligini baxolash omillari va mezonlarini ishlab chiqish** masalasi markaziy o'rinni egallagan. Ushbu

yoʻnalishdagi tadqiqotlar siyosiy rivojlanish nazariyalarning shakllanishini boshlab bergan. Keyingi bosqichda esa tadqiqotchilar zamonaviy siyosiy tizimlarga oʻtish jarayonlarini tadqiq etishga eʼtibor qaratganlar. Bu bosqichda demokratik qadriyatlarga oʻtish jarayonlari siyosiy modernizatsiya sifatida talqin etilgan.

Siyosiy tizimlarning tuzilmaviy differentsiyasi, innovatsiyalarni oʻzlashtirishi, uyushish va mobillik, yashash uchun kurashish qobiliyati, koʻnikmasi, imkoniyati, tajriba va kompetensiyasining oʻsishi dinamikalari shuningdek, jamiyatning siyosatdagi ishtiroki, qonun oldida tenglik va erkin saylovlarni nazarda tutuvchi teng huquqlilik sari intilish tendensiyalari siyosiy rivojlanishning asosiy mezonlari sifatida belgilab olindi.

Nemis sotsiologi Maks Veber izdoshlari hisoblangan amerikalik nazariyotchi-sotsiologlar, tuzilmaviy funksionalizm maktabi asoschilari Talkott Parsons va Edvard Shilzlar mazkur ikkinchi toifadagi modernizatsiya nazariyasi mualliflari sifatida etirof etiladi. Mazkur toifa ilmiy hamjamiyati doiralarida modernizatsiyaga nisbatan yondashuvlar serqirra boʻlib, ularning tahlili bu yondashuvlarni turli mezonlar boʻyicha tasniflash mumkinligini koʻrsatadi. Xususan, modernizatsiya nazariyasiga boʻlgan yondashuvlarni modernizatsiya konsepsiyalarini:

1. ishlab chiqilishi maqsad-muddaolariga nisbatan;
2. milliy qadriyatlarga boʻlgan yondashuvlariga nisbatan;
3. modernizatsiya jarayoni subyektlariga nisbatan;
4. modernizatsiyaga turtki boʻlgan omillarga nisbatan;
5. modernizatsiyaning yakuniy natijalariga nisbatan;
6. mamlakatlarni modernizatsiyalash turiga nisbatan;
7. takomillashtirish natijasida jamiyat erishadigan natijaviy transformatsiya turiga nisbatan;
8. modernizatsiyaning tashqi va ichki subyektlar taʼsiriga nisbatan;
9. subyektlarning modernizatsiyaga xayrixohlik darajasiga nisbatan tasniflashgan.

1. Modernizm gʻoyasini uning maqsad-muddaosiga nisbatan mavjud yondashuvlar asosida tasniflasak, tadqiqotchilarni salbiy va ijobiy tavsiflovchilarga ajratishimiz mumkin. Salbiy tavsif beruvchi tadqiqotchi-olimlar mazkur nazariya Amerikaning liberal-markaziy qanotini tashkil etuvchi ziyolilari tarafdorlarining kolonial qaramlikdan qutulgan yangi mustaqil davlatlarni intellektual jihatdan oʻzlariga boʻysindirib olish, yaʼni “vesternizatsiya” gʻoyasini amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan nazariya deb taʼkidlaydilar [3].

2. Modernizatsiya yoʻlini tutgan mamlakatlar milliy qadriyatlarining inobatga olinishiga boʻlgan munosabatlarga koʻra ham mazkur nazariya tavsifchilarining ikki xil nuqtayi nazarga egaligini koʻrish mumkin. Yaʼni, ilmiy asarlarda modernizatsiyaga nisbatan madaniy va nomadaniy yondashuv mavjudligi taʼkidlanadi [4].

3. 1950–60-yillarda, mualliflar tomonidan nazariyaning dastlabki loyihasi leniar pozitsiya, yaʼni modernizatsiya universal jarayon, milliy madaniyatning oʻziga xosligini inobatga olmaydigan gʻoya sifatida yaratilgan boʻlsa, 1970-80-yillarda esa universal model asosida amalga oshirilgan modernizatsiyalash loyihalarining birin-ketin barbod boʻlishi bilan modernizatsiya nazariyasi asosidagi islohotlarda milliy madaniyat va qadriyatlar inobatga olinishi lozimligini taʼkidlovchi tarafdorlar paydo boʻlgan. Vesternizatsiyaga qaratilgan leniar modernizatsiyaning notoʻgʻriligi, milliy qadriyat va madaniyatlar inobatga olinishi lozimligiga misol sifatida 1963-1979-yillarda Erondagi “oq revolyutsiya”, yaʼni shoh Muhammad Rizo Pahlaviy tomonidan oʻtkazilgan islohotlarni misol sifatida keltirish mumkin. Bu jarayonlarda dunyoviy islohotlardan diniy qarashlar kuchli keladi va 1979-yil islom revolyutsiyasi gʻolib chiqib Eronda diniy rahnamo Ruhilloh Musaviy Xumayniy boshchiligida teokratik rejim oʻrnatilgan.

4. Zamonaviylashtirishni bu jarayonlarning subektlari mavjudligiga nisbatan

tasniflaganda stixiyali va loyihaviy-boshqariladigan modernizatsiya turlari mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Xususan, “Davlat – bosh islohotchi” tamoyiliga e’tibor qaratsak, mamlakatimizda mustaqillikka erishilgach amalga oshirilayotgan islohotlar loyihaviy-boshqariladigan modernizatsiya turiga mansubligini ko’ramiz.

5. Modernizatsiyani uning yakuniy natijalariga nisbatan mavjud bo’ladigan yondashuvlariga ko’ra tahlil qilinsa, pessimistik va optimistik pozitsiyalarni egallovchi taraflar shakllanishini ko’rishimiz mumkin. Masalan, Osvald Shpengler[5], Vilfredo Pareto, Pitirim Aleksandrovich Sorokin (6), Arnold Jozef Taynobi [7], Karl Manxeym [8], Xanna Arendt[9] singari olimlarni pessimistik yondashuv vakillari safiga qo’shishimiz mumkin.

6. Ilmiy adabiyotlarda mamlakatlarning modernizatsiyalash turi bo’yicha egallagan pozitsiyasiga nisbatan tasniflaganda quyidagi yondashuvlarni kuzatish mumkin:

a. modernizatsiyaning klassik nazariyasi g’arb namunasini nazarda tutuvchi universallik tamoyiliga asoslangan nazariya bo’lib u “vesternizatsiya” tamoyillarini talqin etadi va g’arb davlatlari tomonidan ilgari suriladi;

b. qoloqlikdan xolos bo’lish nazariyasi – rivojlanayotgan mamlakatlar pozitsiyasini tavsiflavchi mazkur nazariya modernizatsiyaning klassik, ya’ni g’arb modernizatsiya nazariyasini rad etgan holda o’z kuch va salohiyatiga tayanib takomillashishni nazarda tutadi;

c. neokonservativ nazariya – modernizatsiyaga nisbatan shakllangan g’arb me’yorlari va shakllarini qat’iy talab etishidan xolis bo’lgan mustaqil modernizatsiyalashni nazarda tutadi.

7. Modernizatsiyani takomillashtirish natijasida jamiyat erishadigan natijaviy transformatsiyasiga nisbatan tasniflash esa o’z o’rnida quyidagi turlarni bayon etiladi [10]:

a. an’anaviy jamiyatni shakllantirishga olib keluvchi modernizatsiya;

b. fuqarolik jamiyatini shakllantirishga olib keluvchi modernizatsiya;

c. insonparvar jamiyatni shakllantirishga olib keluvchi modernizatsiya.

8. Modernizatsiya uni amalga oshirish jarayonlaridagi tashqi va ichki subektlarni ishtiroki darajasiga nisbatan xam 3 ta toifada tasniflanadi. Xususan, modernizatsiyaning mazkur toifadagi “endogen”, “organik” yoki “birlamchi” nomlari bilan ataluvchi birinchi modelida tashqi tasir ishtiroki yo’q, mamlakat hukumatining ichki tashabbusiy islohotlari natijasida amalga oshiriladigan zamonaviylashuv nazarda tutiladi. Odatda, bunday modernizatsiyani o’tkazgan mamlakatlar qatoriga AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya singari davlatlarni kiritadilar.

Shu bilan birga, modernizatsiyaning “endo-ekzogen” yoki “ikkilamchi” nomi bilan ataluvchi 3 turini oldingi ikki toifani sintezi sifatida ham talqin qilish holatlarini kuzatish mumkin. Ya’ni, modernizatsiyaning universal tamoyillari asosida milliy-madaniy qadriyatlar va ichki salohiyat hisobiga amalga oshiriladigan modernizatsiyalash islohotlari nazarda tutiladi. Bunday mamlakatlar toifasiga Yaponiya, Koreya, Singapur, Daniya, Turkiya, Braziliya singari davlatlarni kiritish mumkin.

9. Mamlakatni rivojlantirishga qaratilgan modernizatsiya islohotlari hukumatning siyosiy irodasiga, tashabbus va shijoatiga bevosita bog’liq. Zamonaviylashuvga nisbatan hukumatning xayrixohlik darajasi tahlil etilgan ilmiy maqola va asarlarga ko’ra tasniflaydigan bo’lsak, modernizatsiyaga nisbatan ijobiy xayrixohlikni ifodalovchi “yuqori darajali modernizatsiya”, “kardinal modernizatsiya”, “dinamik modernizatsiya” turlarini yoki modernizatsiyaga nisbatan salbiy xayrixohlikni ifodalovchi va “xo’ja ko’rsin” qabilidagi islohotlarni ifodalovchi “kontrmodernizatsiya”, “antimodernizatsiya”, “yolg’on modernizatsiya” singari talqinlarni ham kuzatishimiz mumkin.

Xulosa. Modernizatsiyani jamiyat hayotining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jabhalari bo’yicha tavsiflaydigan bo’lsak, quyidagicha xulosalarni qayd etishimiz mumkin.

Iqtisodiy sohadagi modernizatsiya ovchilikdan dehqonchilikka, undan qishloq xo‘jaligiga, undan esa keng tarmoqli fermerlik, kompleks fermerlikdan esa sanoat ishlab chiqarishi va nihoyat nanotexnologiyalarga asoslangan, yuqori rentabelli sanoat darajasigacha takomillashishni nazarda tutadi.

Ijtimoiy sohadagi modernizatsiya sog‘liqni saqlash, ta‘lim va fan, madaniyat va sport, jumladan, oilaviy munosabatlar va farovonlik tizimlari takomillashishi orqali kishilarning o‘rtacha umr ko‘rish davrining ortishi, savodsizlikni ommaviy ravishda barham topishi, bilim va innovatsion g‘oyalar, hamda malakali xodim va mutaxassislarning qadr-qimmatining dinamik o‘sib borishi, urf-odatlarining komillik uchungina xizmat qiluvchi jihatlari nuqtayi nazaridan saralanishi va ularning nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlar darajasigacha ko‘tarilishi bilan ifodalanadi.

Siyosiy sohadagi modernizatsiya esa, davlat boshqaruvini monarxiyadan konstitutsion parlamentarizm darajasigacha takomillashuvi, demokratik tamoyillar jamiyat va davlat organlarining madaniyati va odatlari tarziga aylanib borishini, ijro hokimiyatiga innovatsion boshqaruv keng joriy etilishi, sud tizimini mutlaq mustaqil darajagacha takomillashishini nazarda tutadi.

Maqolada qayd etilgan masalalar yuzasidan umumiy xulosa shundan iboratki, **birinchidan**, har qanday mamlakatda davlat boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar modernizatsiya nazariyalariga asoslanishi shart.

Ikkinchidan, davlat hokimiyati va boshqaruvini siyosiy modernizatsiyasi hokimiyatning uchala tarmog‘ida ham parallel ravishda olib borilishi lozim.

Uchinchidan esa, davlatning funktsiya va xizmatlarini kontaktsiz amalga oshirish, jumladan, sun‘iy intellektga asoslangan davlat xizmatlarini joriy etishga qaratilgan davlat boshqaruvini transformatsiya qilish va modernizatsiyalash jarayonlarida iqtisodiy tizimlarni optimallashtirishda katta natija bergan usullardan, jumladan, biznes jarayonlarni optimallashtirish (ingl. Business process reengineering, BPR) texnologiyasini davlat boshqaruv organlari faoliyatini optimallashtirish usuli sifatida “Ma‘muriy jarayonlar reinjiningi” nomi bilan qo‘llash lozim;

To‘rtinchidan, siyosiy boshqaruv tizimlari faoliyatiga nafaqat raqamli texnologiyalarni joriy etish, jumladan **“elektron hukumat”**, **“elektron sud”**, **“elektron parlament”** va umuman **“elektron davlat”** tizimlarini keng joriy etish, balki bu boradagi modernizatsiyaning navbatdagi darajasi bo‘lgan **sun‘iy intellekt** (ingl. artificial intelligence, AI) elementlarini ham joriy etishni rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алиев У.Ж. К общей теории типологии, истории модернизации. - Журнал “Теоретическая экономика”, №2, 2011. – В режиме доступа: www.theoreticaleconomy.info.
2. Oydin Abdullaeva, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, “Xalq so‘zi”, 186 soni (7688), 1 Sentyabr, 2020.
3. Kalxun Kreygning 17.01.2006 y. (2006). “Modernizatsiya va globalizatsiya nazariyalari: kim tomonidan va nima uchun ishlab chiqilgan” nomli ma‘ruzasi. – Elektron manbaa <http://www.inop.ru/files/calhoun.doc>;
4. Taylor, Charles, “Two Theories of Modernity”, Hastings Center Report, 25, № 2 (1995): 24-33., Giddens, Anthony. The Consequences of Modernity. Stanford (Cal.): Stanford University Press, 1990. Ch. 1-2., Jameson, Fredric. Postmodernism, or the Logic of Late Capitalism. Duke University Press, 1991. Ch. 1
5. Шпенглер О. Закат Европы. - М: Наука, 1993. – 592 с.

6. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. - М.: Политиздат, 1992. - 542, [1] с. - (Мыслители XX века. Редкол.: Т. И. Ойзерман (пред.) и др.).
7. Тайноби А.Ж. Цивилизация перед судом истории. Мир и Запад. - 2011. - 65 стр.
8. Манхейм К. Диагноз нашего времени. - Изд.Юрист, 1994. - 704 стр., Идеология и утопия, 260 стр. – В режиме доступа: <http://www.grosbook.info/index.php?name=FilesSearch>
9. Арндт Х. Скрытая традиция: Эссе / Пер. с нем. и англ. Т. Набатниковой, А.Шибаровой, Н.Мовниной. - М., 2008. – 221 с.

INGLIZ VA O‘ZBEK XALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARIDA REDUPLIKATIV SHAKLLARNING QO‘LLANILISHI

Begimqulova Dilobar

Qarshi davlat universiteti, katta o‘qituvchi

begimkulova9092@gmail.com

ORCID 0009-0003-6867-7034

UDK 398:81.362

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o‘zbek tillarida reduplikatsiyaning xalq og‘zaki ijodi namunalarida qo‘llanilish xususiyatlari batafsil tahlil qilinadi. Tadqiqotda ingliz va o‘zbek xalq ertaklari va hikoyalari qahramonlarining nomlarida atoqli otlarning reduplikatlangan shakllari hamda o‘zbek va ingliz xalq bolalar o‘yinlarida ishlatiluvchi she‘r va qo‘shiqlar matnida uchraydigan reduplikativ shakllar o‘rganiladi. Reduplikatsiya matnga ritm, obrazlilik va estetik ohang qo‘shib, milliy tafakkur, urf-odatlar va madaniy qadriyatlarni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. So‘qma so‘zlar orqali o‘yinlar va qo‘shiqlarda poetik o‘ynoqilik yaratiladi, bu esa bolalarning nutq va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Maqolada reduplikatsiyaning til madaniyati va xalqning ma‘naviy merosidagi o‘rni va ahamiyati atroflicha yoritilgan. Ushbu hodisa milliy o‘zlikni anglash va ifodalash vositasi sifatida o‘ziga xos talqin etilgan bo‘lib, uning til va madaniyatni boyitishdagi roli keng yoritiladi.

Kalit so‘zlar. reduplikatsiya, reduplikat, reduplikativ atoqli otlar, kompozitsion tarkibiy qism, so‘qma so‘z, sanama, chorlama, tarqalmachiq, cheklashmashiq.

THE USE OF REDUPLICATIVE FORMS IN SAMPLES OF ENGLISH AND UZBEK FOLK ART.

Abstract. The article provides an in-depth analysis of the use of reduplication in the examples of oral folk literature in English and Uzbek languages. The study examines the reduplicated forms of proper nouns in the names of characters from English and Uzbek folk tales and stories, as well as the reduplicative forms found in the texts of rhymes and songs used in traditional children’s games in both languages. Reduplication adds rhythm, vivid imagery, and an aesthetic tone to the text, serving as a means of expressing national mentality, customs, and cultural values. Through iterative words, poetic playfulness is created in games and songs, fostering the development of children’s speech and creative abilities. The article comprehensively highlights the significance of reduplication in language culture and the spiritual heritage of the people. This phenomenon is interpreted as a tool for understanding and expressing national identity, while its role in enriching language and culture is thoroughly explored.

Keywords. reduplication, reduplicate, reduplicated forms of proper nouns, compositional component, nonsense words, counting, invitation, scattering, restriction.

Kirish. Reduplikatsiya jahon tillari tizimidagi ko‘plab tillarning xarakterli xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shu sababdan ko‘plab tilshunoslar reduplikatsiyani universal lisoniy hodisa deb hisoblashni ma‘qullaydilar. G‘arb tadqiqotchilari reduplikatsiyaning turli jihatlarini bir til tizimida va tillararo qiyosiy-tarixiy miqyosda tadqiq etganlar. Reduplikatsiya jahon tillari tizimidagi ko‘plab tillarning xarakterli xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shu sababdan ko‘plab tilshunoslar reduplikatsiyanin universal lisoniy hodisa deb hisoblashni ma‘qullaydilar. G‘arb tadqiqotchilari reduplikatsiyaning turli jihatlarini bir til tizimida va tillararo qiyosiy-tarixiy miqyosda tadqiq etganlar. Xususan, A.Potning 1862-yilda nashr etilgan asari tilshunoslikda reduplikatsiyaga oid dastlabki tadqiqotlardan biri hisoblanib, unda turli tillarning lug‘at tarkibi o‘rganilgan [2]. Ingliz tili reduplikativ so‘zlariga bag‘ishlangan ilk lug‘at H.Vetley tomonidan 1866-yilda nashr etilgan va unda olti yuzdan ortiq reduplikatlar keltirib o‘tilgan [5]. Ingliz tilida reduplikatsiya hodisasining chuqur tahliliga bag‘ishlangan monografik ishlardan eng keng qamrovli va mukammali esa N.Tan tomonidan yaratilgan. Uning ro‘yxatida 1700 dan ortiq birliklar muhokama qilingan bo‘lib, ular turli xil semantik guruhlar ostida tartiblangan [4]. Reduplikatsiya borasida qilingan eng so‘nggi, keng ko‘lamli tadqiqot ishi esa M.Barbatesi tomonidan ekstralingvistik morfologiya nuqtayi nazaridan amalga oshirilgan bo‘lib, unda ushbu birliklarning hosil bo‘lishi, tahlili borasida bir qator qiziqarli fikrlar bayon etilgan [1].

Hozirgi kunda o‘zbek tilshunosligida ham reduplikatsiya hodisasiga oid bir qancha

nazariyalar ilgari surilganligiga qaramay, masalaning o'zbek tilidagi mohiyati to'liq ochib berilmagan. Reduplikativlik masalasiga asosan sintaktik-semantik jihatdan yondashilmoqda. Reduplikatsiya va takrorga nisbatan ba'zan bir xil hodisa sifatida qarash holatlari ham kuzatiladi.

Reduplikatsiya, odatda, so'z, grammatik shakl hosil qilish usuli sifatida so'zdagi dastlabki tovush, bo'g'in yoki butun so'zni takrorlanishidan iborat fonomorfoloqik hodisa deb tushuniladi. Reduplikatsiya natijasida reduplikatlar paydo bo'ladi. Ular ikki qismdan tashkil topib, manbalarda ularga nisbatan "replikatum va replikan" (replacatum and replican) yoki "asos va reduplikant" (base and reduplicant) atamalari qo'llaniladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda ingliz va o'zbek xalq og'zaki ijodida reduplikatsiyaning qo'llanilish xususiyatlarini tahlil qilish uchun *taqqoslash* va *tavsiflash* usullari qo'llanildi. Ma'lumotlar asosan ingliz va o'zbek xalq bolalar o'yinlari va qo'shiqlari matnlaridan to'plandi. Ushbu matnlardagi reduplikativ shakllar tuzilishi, semantikasi va funksional xususiyatlari bo'yicha chuqur tahlil qilindi. Ushbu metodologiya reduplikatsiyani til va madaniyatning boy va murakkab ko'rinishlaridan biri sifatida chuqur o'rganishga imkon yaratadi.

Natijalar va muhokama. Reduplikatsiyaning ko'plab xilma-xil shakllari tilning boy va o'ziga xos ekanligini namoyon etadi. So'zlovchilarga ularning o'y-xayollari, milliy tafakkur tarzi va atrofidagi olamning nozik jihatlarini lisoniy vositalar bilan ifoda eta olish imkonini beradi. Qolaversa, bu hodisa xalq og'zaki ijodida, misol uchun ertak, topishmoq, maqol, matal, latifa, tez aytish va boshqalarda uchraydi. Bundan tashqari, she'riyat, reklama, gazeta-jurnalistik matnlarda hamda badiiy adabiyotda, ayniqsa bolalar adabiyotida faol qo'llaniladi. Xalq o'yinlari, xususan, bolalar o'yinlarining kompozitsion tarkibiy qismlari bo'lgan she'r va qo'shiqlarda tez-tez uchrashi aniqlandi.

Avvalo, nasriy matnlarda reduplikatsiyaning qo'llanilishi matnning kontekstual ahamiyatini ta'kidlash, qo'shimcha semantik ma'nolarni ifodalash, qahramonning hissiy holati va nutq mavzusiga munosabatini ifodalaydi [3:76]. Ma'lumki, reduplikatsiya, asosan onomotopiyek reduplikatsiya, bolalar nutqining o'ziga xos xususiyati hisoblanganligi tufayli ham ular bolalar sherlari, so'z o'yinlari va albatta rivoyat va ertaklarda uchraydi. Chunki ular matnni jonlantiradi, obrazlilik namoyon etib, bolalarga tasavvur qila olish imkonini beradi. Ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar adabiyoti va xalq og'zaki ijodida ertaklarda asosiy qahramonlar hayvonlar bo'lib, ularning nomlari ko'p holatlarda reduplikatlangan atoqli otlardan iborat bo'ladi. Misol uchun, *Hen-Len*, *Cocky Locky*, *Goosey Loosey*, *Drakey Lakey*, *Ducky Lucky*, va hkz. Y.Shlyaxtina o'z tadqiqotida bu kabi ertaklarning ildizi Skandinaviya folkloriga borib taqalishini ta'kidlaydi. Olimga ko'ra daniyalik olim va shoir Jas Metyas Tayl (Just Matias Tiele) birinchilardan bo'lib hayvonlar haqidagi ertaklarni yozib olgan va to'plagan. Olim o'zining ertaklarida qahramonlar nomlarini qofiyali tarzda to'qishga harakat qilgan. Uning ertaklari ingliz tiliga bir bir necha marotaba tarjima qilingan va tarjimalarda ertak qahramonlarining qofiyali nomlari saqlanib qolgan [8:144].

Y.Shlyaxtina atoqli otlarning reduplikatsiyasi nafaqat bolalar adabiyotida, balki o'smirlar adabiyoti namunalarida ham uchrashini qayd etadi va bu uslubiy hodisa ko'pincha qahramonlarning xarakterini yorqinroq ifodalash hamda matnga o'ziga xos ohang berish uchun ishlatilishini ta'kidlaydi. Masalan, R. Dalning mashhur asari "Charli va shokolad fabrikasi"da (R. Dahl "Charlie and the Chocolate Factory") kakao donlariga sig'inuvchi g'aroyib mitti odamchalar "Umpa-Lumpa" (Oompa-Loompa) deb nomlanib, ular orqali muallif fantastik dunyo va kulgili elementlarni yaratishga muvaffaq bo'lgan. Shu bilan birga, J.K. Roulingning "Garri Potter va Sehrar Tosh" (J.K. Rowling "Harry Potter and the Sorcerer's Stone") asarida "tilni bog'lovchi sehr" ("tongue-tying spell")ni tasvirlash uchun "mimblewimble" kabi o'ziga xos tovushli so'zdan foydalanilgan bo'lib,

bu nafaqat qahramonlarning o‘zaro munosabatlarini boyitadi, balki sehrli dunyoning lingvistik cheksizligini ham ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, L. Kerrollning o‘ziga xos fantastik uslubda yozilgan “Ko‘zoynak Orqali” (L. Carroll “Through the Looking-Glass”) kitobida ham qiziqarli personajlar ismlari orqali o‘ziga xos tasviriylik yaratilgan. Masalan, “Jubjub” deb nomlangan g‘aroyib qush yoki “Humpty-Dumpty” kabi ramziy qahramonlar faqat ismning o‘zidayoq ma’lum bir hissiy ohangni aks ettiradi. Bu kabi ismlar mualliflarning tilga bo‘lgan ijodiy yondashuvi va adabiy uslublarining boyligini namoyon etadi. Shu tariqa, atoqli otlarning bunday ko‘p ma’noli va obrazli ishlatilishi asarlar mazmunini chuqurlashtiradi, o‘quvchilarni qahramonlar va ularning dunyosi bilan yanada kuchliroq bog‘laydi.

O‘zbek o‘smirlar va kattalar adabiyoti namunalari ham ko‘zdan kechirilganda qahramonlar nomlarining reduplikatlanish holatlariga oid misollarni topmadik, ammo ahamiyatlisi, bolalar xalq ertak qahramonlari nomlarida bo‘lgani kabi erkalash kichraytirish qo‘shimchalari ham qo‘shilmaslik holatlarini kuzatdik. Misol uchun, *Semurg‘*, *Devbachcha*, *Yalmog‘iz*, *Mehrigiyo*, *Mohistara*.

O‘zbek xalq bolalar o‘yinlari va qo‘shiqlari nomlarining aksariyat qismida esa reduplikatsiyadan foydalanilganligiga guvoh bo‘ldik, jumladan, “Bozor-bozor”, “Chori-chambar”, “G‘ozlar-g‘ozlar”, “Guldur-gup”, “Mehmon-mehmon”, “Otish-otish” va hokazo.

Xalq o‘yinlarida xalq tarixiy qismati, olis o‘tmishga xos turmush tarzi, urf-odatlarini zuhur topgan. Bola o‘yin jarayonida ajdodlarining ana shu tarixidan voqif bo‘ladi. Bunday voqiflik zamirida esa Vatanni anglash, unga mehr bilan qarash hissi uyg‘onadi, o‘zligini anglashga yo‘l ochiladi [7:5]. Xususan, “Mehmon-mehmon”, “To‘y-to‘y”, “Bozor-bozor”, “Xola-xola” o‘yinlarida o‘zbek xalqiga xos ijtimoiy, madaniy o‘ziga xosliklar, urf-odatlar aks etgan bo‘lib, unda xalqimizga xos yashash tarzining muhim qismidan biri bo‘lgan bozor-o‘char qilish, mehmonnavozlik, to‘y-marosimlar, mustahkam oila va qarindoshchilik munosabatlari aks etgan. “Urush-urush”, “Otish-otish” o‘yinlari esa millat boshidan kechirgan mazlum kunlar, urushlarning millat tarixida qoldirgan izi natijasida yaralgan deyish mumkin.

Bundan tashqari, bolalar xalq o‘yinlari qo‘shiqlari matni va ularning nomlarida uchratadigan so‘z va iboralardan, xalq hayoti va yashash tarziga xos bo‘lgan obrazlar va buyumlar nomlari orqali oila, ro‘zg‘or, hovli-joy, mol-hol, ekin-tekin xalq hayot tarzining bir bo‘lagi bo‘lganligini bilish mumkin. Misol uchun, “Xo‘zor-xo‘roz”, “G‘ozlar-g‘ozlar”, “Mushuk-sichqon”, “Shoqol-shoqol”, “Elak-elak”, “Atala-patala”, “Tandir-mandir” va hokazo.

Bolalar o‘yinlarida ikki vazifa, bola tanasi va a‘zolarini jismoniy jihatdan chiniqtirish, chaqqonlikka, tezkorlikka, chidamlilikka o‘rgatish hamda bolani mushohada qilishga, ma‘naviy nigohini o‘tkirlashga, teranlashtirishga o‘rgatish yotadi. Shu jihatdan o‘zbek xalq bolalar o‘yinlari harakatli o‘yinlar va so‘z o‘yinlariga bo‘linadi. O.Safarov harakatli o‘yinlarni taqlidiy o‘yinlar ham deb atash mumkinligini aytadi. Chunki harakat taqlid asosida yuzaga keladi, deydi muallif.

Bolalar o‘yinlarining muhim kompozitsion bosqichlari hisoblangan, *chorlamalar* – bolalarni o‘yinga da‘vat etish, chaqirish, *sanamalar* – (rus. считалка) o‘yinni kim boshlab berishini aniqlash, biror bola galini tayinlash, *cheklashmashoqlar* – cheklashish, ya‘ni qur‘a tashlash orqali ikki guruhga ajralish, *tarqalmashoqlar* – o‘yinni yakunlab uy-uyulariga tarqalish paytida jo‘r ovozdagi aytiladigan she‘r yoki qo‘shiqlarda ma’noli yoki ma‘nosiz (so‘qma) so‘zlarni ishlatish orqali ritmik o‘ynoqilikka, ohangdorlikka erishiladi. So‘qma so‘zlardan, asosan, qofiya va ritm hosil qilishda foydalaniladi. Bunda so‘qmalarning reduplikatlangan shakllari qo‘shiqqa yanada jo‘shqinlik va o‘yinqaroqlik baxsh etishini kuzatish mumkin.

Psixologik nuqtayi nazardan qaraganda, reduplikatsiya bolalar nutqining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bolalar nutqida qo'llaniladigan so'qma so'zlar va reduplikatsiya shakllari nutqning rivojlanishiga yordam beradi, chunki ular bolaga yangi so'zlarni eshitish, aytish va eslab qolish imkoniyatini yaratadi. Reduplikatsiya bolalar uchun ko'proq o'yin va tajriba shaklida bo'lib, ular atrofdagi olamni tushunishda o'ziga xos vosita hisoblanadi. Shuningdek, ularni qo'llash orqali bolalar o'z tasavvurlarini rivojlantiradi va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

a) *Abadayni-shabadayni*

Shab-shabadayni.

Dumala qoq,

Sen chiq-u boq

b) *Oppa-oppa,*

Halima – hoppa

Tilla-milla

Tilla-pilla

Hoy!

c) *Odina-badina, yagona,*

Misli Vali jahona

Jahon-jahon qizining otini qo'ydim Fozila.

d) Bir, ikki, uch,

Birlikdadir kuch,

Dumbur-dumbur

Dambir-dambir,

birlikdadir kuch

e) Bir anor, ikki anor,

Uch anor – uchginasi, to'rt anor – to'rtginasi,

Besh anor – chambarda, oltisi omborda...

Alag'ay-palag'ay,

Uchdi-yu ketdi!

f) *Avak-duvak,*

Eshim kavak

Safar, Lola,

Lingak-lingak,

San tur, san chiq! [7:22-41]

Tadqiqotimiz davomida ingliz, shotland, irland an'anaviy xalq va bolalar o'yinlari va o'yin-qo'shiqlaridan ham namunalar o'rganilganda, ushbu xalqlar milliy bolalar o'yinlari nomlarida ham reduplikativ shakllar qo'llanilganligiga guvoh bo'ldik. Izlanishlarimiz davomida "Glim-glam", "Hurly-burly", "Kit-cat", "Frincy-francy", "Hickety-bickety", "Hinch-Pinch", "Ho-go" kabi o'yin nomlari aniqlandi.

a) *Wiskit-a-waskit,*

A green leather basket;

I wrote a letter to my love,

And on the way I lost it;

Some of you have picked it up,

And put it in your pocket.

I have a little dog at home,

And it shan't bite you

Nor you, nor you, nor you;

But it shall bite you.

b) A duck and a drake,

And a half penny cake,
 And a penny to pay the old baker,
 A hop and a scotch is another notch,
Slitherum-slatherum, take her.
 c) *Gilty-galty* four-and-forty,
 Two tens make twenty.
 d) *Handy-dandy*,
 Sugary candy–
 Top or bottom?
Handy-spandy,
 Jack a dandy–
 Which good hand will you have?
 e) *Hickety-bickety*, pease-scone,
 Where shall this poor Scotchman gang?
 Will he gang east, or will he gang west,
 Or will he gang to the crow's nest?
 f) *Hurly-burly*, trumpy trace,
 The cow stands in the market-place;
 Some goes far, and some goes near,
 Where shall this poor sinner steer? [11]

Ko'rinadiki, so'qma so'zlar (*abadayni-shabadayni, oppa-oppa, alag'ay-palag'ay, avak-duvak, wiskit-a-waskit, slitherum-slatherum, gilty-galty* va hkz.) ma'nosiz so'zlar bo'lsa-da, poetik ahamiyat kasb etadi. Taniqli etnograf va folklorist G.Vinogradov bolalar nutqida so'qma so'zlarning paydo bo'lishini bolalarning nutqida atrof-olam go'zalligini va undagi mavjud narsalarni so'z bilan ifoda eta olishi uchun yetarlicha vositalar (so'zlar, iboralar va hkz.) mavjud emasligi bilan tushuntiradi. Olimga fikriga ko'ra, bolalarda bunday imkoniyat cheklanganligi tufayli ham ularni ifodalashda og'ziga kelgan so'zlar bilan qanoatlanadilar. Bu ularning olamga munosabatlarini ifodalovchi o'ziga xos vositadir [6:106].

Xulosa va takliflar. Ingliz va o'zbek xalq bolalar o'yin va qo'shiqlari nomlarida, ularning kompozitsion bosqichlarida aytiladigan she'r va qo'shiq matnlarida reduplikativ so'qma so'zlardan keng foydalaniladi. Ular orqali ritmik o'ynoqilikka, ohangdorlikka erishiladi. Ingliz va o'zbek xalq bolalar o'yinlari, qo'shiqlari va sherlaridagi reduplikativ shakllar milliy o'zlikni anglash va ifodalash vositasi sifatida muhim rol o'ynashi ahamiyatlidir. Bu hodisa, shuningdek, til va madaniyatning boy va murakkab jihatlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barbaresi M.L. Extra-grammatical morphology: English reduplicatives // Words in Action: Diachronic and Synchronic Approaches to English Discourse. – Genova: ECIG, 2008. – P. 228–241.
2. Pott A.F. Doppelung (Reduplikation, Geminatio) als eines der wichtigsten Bildungsmittel der Sprache. – Lemgo/Detmold: Meyer, 1862. – 304 p.
3. Safarov O. O'zbek xalq bolalar o'yinlari. – Toshkent: Sharq, 2013. – B. 5.
4. Thun N. Reduplicative Words in English: A Study of Formations of the Types Tick-tick, Hurly-burly and Shilly-shally. – Uppsala: Carl Bloms, 1963. – 347 p.
5. Wheatley H.B. A dictionary of reduplicated words in the English Language. – London: 13, 1866. – 104 p.
6. Виноградов Г. Русский детский фольклор–Иркутск:Иркут.секция науч.работников,1930– 106 с.
7. Кириллова В., Иванова А., Семенова Г. Особенности классификации и функционирования редупликаций в разносистемных языках // Вестник ЧГПУ им. И.Я. Яковлева, № 3(103), 2019. – С. 76.
8. Шляхтина Е. Редупликация в художественном тексте (на материале произведений британских и американских писателей) // Верхневолжский филологический вестник, № 4 (23), 2020. – С. 144.
9. <http://www.english-corpora.org>
10. <http://www.oxforddictionaries.com>
11. <https://www.traditionalmusic.co.uk>

**MAHMUD QOSHG‘ARIYNING “DEVONI LUG‘OTIT-TURK” ASARIDA
KELTIRILGAN O‘G‘UZ LAHJASIDAGI POLISEMIYALARNING TASNIFI****Sa’dullayeva Mohira Sobirovna**

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

mohirasobirovna2020@gmail.com

ORCID 0009-0007-2998-3089

UDK 809.437.5

Annotatsiya. Ushbu maqolada leksikologiyaning alohida yo‘nalishlaridan biri ko‘p ma‘noli so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlari va adabiyotlarda berilgan talqinlari tahlil etilgan. Shuningdek, o‘zbek shevalaridan o‘g‘uz lahjasiga murojaat etilib, dialektal mohiyati lug‘atlar asosida yoritilgan.

Adabiyot sifatida olingan Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit-turk” asari nazariy va amaliy jihatdan ochib berilgan. Uning ikkinchi, ya‘ni lug‘at qismida kelgan polisemiya umumiy tahlil etilib, o‘g‘uz lahjasiga xos so‘zlar alohida olingan va maqolada izohlangan. Izohlash jarayonida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan foydalanilgan. So‘zlarning fonetik o‘zgarishga uchragan yoki uchramaganligi, ma‘noviy torayish va kengayishi, shuningdek, arxaik yoki bugungi kunda qo‘llanish va qo‘llanilmasligi misollar orqali mustahkamlangan. Tahlil qilish jarayonida jonli xalq tilida o‘g‘uz shevasidagi shaxslardan berilgan 18 ta so‘zning bugungi kunda qanday qo‘llanilishi tajriba sifatida o‘rganildi. Hududlar kesimida tahlil qilingan ma‘lumotlar umumlashtirilib, adabiy til bilan solishtirilgan. Maqola davomida ularning bir-biridan farqi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar. “Devoni lug‘otit-turk”, polisemiya, leksika, leksikologiya, dialekt, sheva, lahja, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, o‘g‘uz, lug‘at, fonetik, monosemantik, arxaik.

**CLASSIFICATION OF POLYSEMY IN THE OGHUZ DIALECT CITED IN
MAHMUD KASHGARI’S “DEVONI LUGOTIT-TURK”**

Abstract. This article analyzes the specific features of polysemous words, one of the special areas of lexicology, and their interpretations in the literature. In this way, the Oghuz dialect is referred to from the Uzbek dialects, and its dialectal essence is illuminated on the basis of dictionaries.

Mahmud Kashgari’s “Devoni lug‘otit-turk” taken as literature, is theoretically and practically explained. The polysemies in its second, that is, dictionary part are generally analyzed, and words specific to the oguz dialect are separately taken and explained in the article. The “Explanatory Dictionary of the Uzbek Language” was used in the explanation process. The phonetic changes or not, the semantic narrowing and expansion, as well as the archaic or current use and non-use of words are reinforced through examples. In the process of analysis, the current use of 18 words given by individuals of the oguz dialect in the living vernacular was studied as an experiment. The analyzed data by region were summarized and compared with the literary language. The article shows their differences from each other.

Keywords. “Devoni lugotit-turk”, polysemy, lexicon, lexicology, dialect, “Explanatory dictionary of the Uzbek language”, oguz, dictionary, phonetic, monosemantic, archaic.

Kirish. Til birliklarining birdan ortiq ma‘noga ega bo‘lishi fanda ko‘p ma‘nolilik yoki polisemiya deb ataladi. Bu hodisa murakkab va turlicha ekanligi bilan matn mohiyatidan kelib chiqib, individual yondashish va ma‘noning izohlanishini talab etadi. Masalan, “ko‘z” so‘zi bir o‘rinda insonning ko‘zi ma‘nosini ifodalansa (Baxtiyorning ko‘zi yaxshi ko‘radi), bir o‘rinda buloqning ko‘zi (teshik) shaklida uchratishimiz mumkin. So‘zning ishlatilish matnidagi mohiyati uning lug‘aviy ma‘nosini belgilab beradi. Ko‘chma ma‘noning hosil bo‘lishi ko‘p ma‘nolilikning yuzaga kelishi uchun asos bo‘ladi. Polisemiya leksikologiyaning alohida muhim yo‘nalishidan biridir. Har bir ko‘p ma‘noli so‘z o‘ziga xos stilistik xususiyatga ega. Dastlab monosemantik sanalgan so‘z vaqt o‘tib taraqqiy etadi va natijada polisemantik so‘zga aylanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Professor E.D. Polivanov “O‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek adabiy tili” nomli asarida o‘tgan asrning birinchi choragidayoq o‘zbek tili o‘zining ko‘p shevaliligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishi haqida ma‘lumot bergan edi. Keyingi tadqiqotlar buni tasdiqlagan. Uning tub sabablari bir necha omillarga borib taqaladi. Professor V.V. Reshetov o‘zbek tili dialektal kartasining rang-barangligini uning etnogenezisidan qidirish lozimligini uqtiradi. [3. 7]

Yuqorida berilgan faktlar juda qimmatlidir. Bir til tarkibining o‘rganilish

jarayonida shu narsa aniq bo'ladiki, aholining yashash hududi, ijtimoiy hayoti, bosqichma-bosqich rivojlanishi turli shevalarning shakllanishi uchun xizmat qilgan. O'zbek tili uchta yirik lahjani o'zida qamragan. Ularni tasviriy (tavsifiy), qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, lingvistik, geografiya metodlarida o'rganish va o'rgatish muhim sanaladi.

“Devoni lug'otit-turk” asari tuzilishiga ko'ra ikki – muqaddima va lug'at qismlardan iborat. Shuningdek, lug'at qismining o'zi 8 bo'limdan tashkil topgan. Lug'atlarda so'zlar quyidagicha ifodalangan: avval turkiy so'z, so'ng uning arabcha tarjimasi, izohlanganda esa fonetik variantlari, sheva so'zi bo'lsa, qanday shevada uchrashi berilgan. Ushbu asar X-XII asrda diyorumizda yashab o'tgan millat va elatlarning etimologiyasini o'rganishda turmush tarzi, so'zlashuvi, diniy e'tiqodi va urf-odatlariga haqida juda muhim ma'lumotlarni beradi. Mahmud Qoshg'ariyning turkiy tillar haqidagi qomusiy asari hisoblangan “Devoni lug'otit-turk”da 350 dan ortiq polisemantik so'zlarni uchratish mumkin. Turli shevalarga xos so'zlar izohi berilgan bo'lib, ularning 18 tasi o'g'uz lahjasiga mansub.

Tadqiqot metodologiyasi. Quyida shu 18 ta so'zning har biriga alohida-alohida to'xtalib o'tamiz. Jumladan, so'zlarning “Devoni lug'otit-turk” asarida keltirilgan varianti, bugungi kunda “O'zbek tilining izohli lug'ati”da keltirilgan ma'nosi va albatta hozirda o'g'uz lahjasida so'zlashuvchilardan olingan ma'lumotlar. Tahlil qilish jarayonida jonli xalq tilida o'g'uz shevasidagi shaxslardan berilgan 18 ta so'zning bugungi kunda qanday qo'llanilishi tajriba sifatida o'rganildi. Tajriba uchun Xorazm viloyati (Yangibozor tumani, Xorazm shahri, Xiva tumani, Urganch tumani), Qoraqalpog'iston Respublikasi (Ellikqal'a tumani, Beruniy tumani) ning ba'zi hududlari olindi.

Natija va muhokamalar. Dialektlarga xos so'zlar qo'llanishi territoriyaga ko'ra chegaralangan leksemalardir. Bunday so'zlar leksik dialektizmlar sanaladi. Ular ikki xil bo'ladi: a) dialektizm-so'z – bunda so'zning ifoda plani, demak, nomemasi shevaga xos bo'ladi; b) dialektizm-ma'no – bunda leksemaning ifoda plani emas, ma'nosi shevaga xos bo'ladi, nomema esa adabiy tilda ham qo'llaniladi. [5. 198]

(So'zlar manba (indeks-lug'at)da aynan keltirilganidek sahifalari bilan berildi)

1. Ашлік – 1. Буғдой (ўғуз). 2. Дон [6. 30]

Ushbu so'z “O'zbek tilining izohli lug'ati”da aynan mavjud emas, lekin “oshlik” va “oshliq” so'zlarini ko'rishimiz mumkin. Bunda oshlik I – osh qilish uchun yetarli masalliq, narsa. (bir oylik masalliq. Ikki oshlik tuz). Esk.kt g'alla, don.

Shuningdek, “Devon”ning o'zida ushbu so'z ham omonim, ham ko'p ma'noli so'z sifatida berilgan. Omonimlik jihatidan ikkinchi ma'nosi “oshxona”.

Xorazm (Yangibozor tumani, Xorazm shahri, Xiva tumani, Urganch tumani) hududida shu so'z mavjud emas, bugungi kunda (balki fonetik o'zgarishlar bilan) “oshliq”, “oshlik” so'zi mavjud. Ma'nosi “ovqatlik”, “yeyish uchun nimadir”; Qoraqalpog'iston Respublikasi (Ellikqal'a tumani, Beruniy tumani) hududida ham bu so'z “oshlik” ma'nosida uchraydi, shu bilan birga ba'zilar “ochlik” deya izoh berishdi.

2. этти 1. Яхшилади, тўғрилади, ўнглади. 2. Жинсий алоқа қилди (ўғуз). 3. Бирор нарса бажарди (ўғуз) [6. 51]

Ushbu so'z “O'zbek tilining izohli lug'ati”da mavjud emas. “Ettir” so'zi esa fe'lining orttirma nisbati sifatida uchraydi. Nutqimizda “etmoq” fe'li mavjud. Uning tuslangandan keyingi shakli esa “etdi, eltdi” (olib bordi) shaklida uchraydi. Shevaga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu so'z nafaqat “etti”, balki “atti” deb ham uchraydi. Xorazm viloyati (Yangibozor tumani, Xorazm shahri, Xiva tumani, Urganch tumani) va Qoraqalpog'iston Respublikasi (Ellikqal'a tumani, Beruniy tumani) bu so'zning har uchala ma'nosi bugungi kunda ham ishlatilishi aniqlandi.

3. Бэклатті – 1. Қаматгирди. 2. Сақлашга буюрди (ўғуз) [6.64]

Bu so'z “O'zbek tilining izohli lug'ati”da aynan mavjud emas, ammo “bekit”,

“bekittir”, “berkittir” shakllari uchraydi. Bu soʻzlarni keltirishimizning sababi yuqoridagi soʻzning maʼnoviy farqini izohlashdir. Demak, bugungi kunda “yashirmoq” maʼnosini ifodalovchi “bekitmoq” soʻzi va “yopmoq, narsa buyumning ogʻzini yopmoq” shaklida keluvchi berkitmoq soʻzlarini keltirish mumkin. Xalq tili ijtimoiyligi bejiz emas. Sababi, soʻzlarning maʼnodagi kengayishi va torayishi shevalarga ham oʻz taʼsirini koʻrsatgan. Tajriba davomida toʻldirilgan va yozib olingan savolnomalarga koʻra, bu soʻz Xorazm viloyati (Yangibozor tumani, Xorazm shahri, Xiva tumani, Urganch tumani)da uchramaydi, ammo “baklat” shaklida baʼzi hududlarda qoʻllanilishi mumkin. Qoraqalpogʻiston Respublikasi (Ellikqalʼa tumani, Beruniy tumani)da yashab, oʻgʻuz lahjasida soʻzlashuvchi xalqning nutqida bugungi kunda bu soʻz uchramaydi.

4. ідіш – 1. Қадах, пієла. 2. ЯҒМО, тухси, ямоқ, ўғуз ва арғулар тилида – идиш. [6. 95]

Juda qiziqarli va koʻplab muhokamalarga sabab boʻlgan ushbu soʻz “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da quyidagicha ifodalanadi:

Idish I Narsa solish (solib qoʻyish) uchun ishlatiladigan uy-roʻzgʻor yoki xoʻjalik buyumi; II Hind-yevropa tillari oilasidagi german tillari guruhiga mansub, yevropalik yahudiylarning aloqa-aralashuvida qoʻllanuvchi til. Bizning ishimizda birinchi maʼnosining mohiyati eʼtiborga molik. Bugungi kunda ham idish soʻzi mavjud va bu umumiy oshxona buyumlariga nisbatan qoʻllaniladi. Xorazm viloyati (Yangibozor tumani, Xorazm shahri, Xiva tumani, Urganch tumani) shevasida ushbu soʻzning maʼnolari soʻralganda, “qadah” soʻzi “istakan”, “piyola” soʻzi “kosa, koso”, “kosa” esa “lopkosa” deyilishi maʼlum boʻldi., Qoraqalpogʻiston Respublikasi (Ellikqalʼa tumani, Beruniy tumani) da esa soʻzning birinchi maʼnosi “chanoq”, “kosa, kaso, koso” shaklida, ikkinchi maʼnosi esa “yamoq” shaklida uchrashi toʻgʻrisida maʼlumot berildi. Idish soʻzining oʻzi bugungi kunda ham mavjud va oshxona buyumi ekan.

5. Оғурланди – 1. Вақти келди, вақти яқинлашди. 2. Яхши, муборак бўлди. 3. Тенглаштирилди, қиймати берилди (ўғуз). [6. 191]

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da aynan shu soʻz mavjud emas. “Ogʻirlandi”, “oʻgʻirlandi” kabi fonetik jihatdan farqlanuvchi soʻzlarning mohiyati bu soʻzga yaqin emas.

Xorazm viloyati (Yangibozor tumani, Xorazm shahri, Xiva tumani, Urganch tumani) va Qoraqalpogʻiston Respublikasi (Ellikqalʼa tumani, Beruniy tumani)da bu soʻz bugungi kunda soʻzlashuvchilar nutqida uchramaydi. Shunday boʻlsa-da, izohida berilayotgan koʻp maʼnoli soʻzlar adabiy tilga nisbatan boshqacha talaffuzga ega, yaʼni “vaxti galdi”, “vaxti yakinlashdi”, “muorak boʻsin” va boshqalar.

6. Салтурдї – 1. Ихтиёрига ташлади (ўғуз). 2. Ишорат қилишга буюрди. 3. Ташлашга буюрди. [6. 205]

Bu soʻzning ham izohi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da berilmagan. “salt” soʻzi mavjud. Maʼnosi anchayin uzoq. Ushbu soʻz bugungi kunda oʻgʻuz shevasida soʻzlashuvchi har ikkala hudud Xorazm viloyati (Yangibozor tumani, Xorazm shahri Xiva tumani, Urganch tumani) Qoraqalpogʻiston Respublikasi (Ellikqalʼa tumani, Beruniy tumani) vakillari tomonidan ishlatilmaydi. Yana bir tomondan olib qaralsa, soʻzning maʼnolarida ham adabiy tilga nisbatan farq seziladi. Masalan, Xorazmda “oʻz ixtiyorina topshirdi”, “ixtiyorina uzina bardi” kabi shakllarda uchraydi.

7. Сартладї – 1. Ип билан боғлади. 2. Юқорига чиқди (ўғуз) [6. 209]

“Izohli lugʻat”da bu soʻz aynan uchramaydi. “sart” soʻzi uchraydi va quyidagi ikki maʼnoni ifodalaydi:

Sart 1. Qadimda Oʻrta Osiyodagi shahar va qishloqlarda yashab, dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik bilan shugʻullanib kelgan turkiy xalqlar (jumladan, oʻzbeklar); 2. Chor Rossiyasi hukmronligi davrida hozirgi Oʻzbekiston hududidagi mahalliy xalqqa

yevropaliklar tomonidan berilgan nom. Bu izohlar “Devoni lug‘otit-turk” asaridagi tarjima bilan muvofiq emas. Jonli xalq tilidan olingan ma’lumotga ko‘ra, Xorazm viloyati (Yangibozor tumani, Xorazm shahri, Xiva tumani, Urganch tumani)da ko‘p so‘zlar sheva bilan birga ruscha birliklar ham nutqda ishlatilgan ekan. Shunga ko‘ra, sartlamoq, ya’ni “sortlamoq” shaklida. Bir turdagi narsalarni turi (sorti)ga qarab joylash, sortlash ma’nosida. Lekin “Devon”da keltirilgan izohlar bilan muvofiq emas, xorazmlik va qoraqalpog‘istonlik o‘g‘uzlar “ip”ni “yip” va “nax” deyishlari to‘ldirilgan savolnomadan aniqlandi.

8. Сатғашдї – 1. Юзма-юз учрашди. 2. Қарзларни узишди (ўғуз) [6. 211]

So‘zning ma’nosi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilmagan. Bugungi kunda o‘g‘uz lahjasida gaplashadigan xalq tilida ham ushbu so‘z uchramaydi. Aynan Xorazm viloyati (Yangibozor tumani, Xorazm shahri, Xiva tumani, Urganch tumani), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (Ellikqal’a tumani, Beruniy tumani)da ushbu so‘z qo‘llanilmasligi aytiladi. Ma’lumot o‘rnida yuzma-yuz uchrashdi “go‘rishdi”, “qarzlarini uzishdi”, “qarzini uzdi, qarzini bardı” deb aytilishi aniqlandi.

9. Сїрт – 1. Куйрук, дум, соч. 2. Кичик тепа (ўғуз). 3. Кичик водий (ўғуз). [6. 221]

To‘qqizinchi so‘zimiz “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da 5 ta ma’no ifodalagan. Ular quyidagilar: 1 Narsalarning tashqi tomoni, tashqi yuz; 2. Narsa yoki kimsaning tashqi qiyofasi, ko‘rinishi, zohiriy tomoni; 3. Tashqari, chet; 4. Geometrik shaklning tashqi yuzi, umumiy qismi; 5. Tizma tog‘ cho‘qqilari. Nutqimizda bugungi kunda ham shunday ishlatiladigan so‘zning biror ma’nosi “Devon”da keltirilgan ko‘p ma’noli so‘zlar bilan ma’noviy yaqinlikka ega emas. Xorazm viloyati (Yangibozor tumani, Xorazm shahri, Xiva tumani, Urganch tumani) Qoraqalpog‘iston Respublikasi (Ellikqal’a tumani, Beruniy tumani) istiqomat qiluvchi o‘g‘uz lahjasida gaplashuvchi aholidan olingan ma’lumotlarga ko‘ra yuqorida keltirilgan so‘z bugungi kunda ham qo‘llaniladi va ma’nosi sirt, ya’ni yuzasi, yuz qismi. (Masalan, “Ko‘chaning sirtida yur”.)

10. Талїқтї – 1. Тиллашди, сўзлашди. 2. Гап бўлди (ўғуз) [6. 243]

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da aynan shu so‘zning ma’nosi keltirilmagan. So‘rov natijasida yozilishi va talaffuziga yaqin bo‘lgan “toliq” va “toliqtir” so‘zlari keltirilgan. Ma’nolari esa Toliq - 1. Kuch-madori qurimoq, tinkasi qurimoq, holdan toymoq, madorsizlanmoq; 2. Hayot-ehtiyoj narsalaridan kamchiligi bo‘lmoq, siqilmoq, shu jihatdan qiyin, nochor ahvolda bo‘lmoq. Toliqtir – toliqmoq fe‘lining orttirma nisbati.

O‘g‘uz lahjasida so‘zlashuvchi aholi tilida ham bu so‘zning aynan ma’nosi saqlanmagan, lekin fonetik o‘zgarishga uchrab “toliqti” bundan tashqari “charchadi, horidi” ma’nolarida kelar ekan. Umuman olganda, “toliqish”. Ma’noviy yaqinlik mavjud emas, sababi ularning so‘zlashuv uslubida 1. So‘lladi, gapladi; 2. Gap bo‘ldi shu shakllarda uchraydi, ammo taliqti emas.

11. Тарїғ – 1. Буғдой. 2. Тарїқ (ўғуз). [6. 250]

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da so‘z va uning ma’nosi keltirilmagan. “Tariq” so‘zi uchraydi. Ma’nosi esa “tariqa”. Ko‘p ma’noli so‘zning ikkinchi ma’nosida keltirilgan tariq esa O‘zbekistonda juda keng tarqalgan yorma ekinlaridan biri.

O‘g‘uz lahjasida gaplashuvchi xalq tilida uchramaydi. Ular bug‘doy va sholi degan so‘zlarni qo‘llashar ekan.

12. Тэк – 1. Анчайин, шунчайин. 2. Жим (ўғуз) [6. 260]

O‘zbek tilining izohli lug‘atida tek – 1. Harakatsiz, qimirlamasdan va ovoz chiqarmasdan, jim; 2. Hech ish, harakat qilmasdan, bekor; 3. Qimirlama, jim. (Tek, o‘rtoqlar, - dedi rais va davom etdi, - o‘zingiz ekasizmi? A.Qahhor, “Sarob”)

Aynan “Devon”da keltirilgan polisemiyaning ikkinchi ma’nosi “Izohli lug‘at”da kelgan uchinchi ma’no bilan bir xil. Olingan so‘rovnomada natijasiga ko‘ra Xorazm viloyati

(Yangibozor tumani, Xorazm shahri, Xiva tumani, Urganch tumani) Qoraqalpog‘iston Respublikasi (Ellikqal‘a tumani, Beruniy tumani) da uchramaydi. Ma‘nolarining izohi esa “shunchalim, dim yomon shundi” va “jim, jim bo‘” ekanligi haqida ma‘lumot berishdi.

13. Тоқинди – 1. Гавдаси билан урилди. 2. Тўқинишди (ўғуз) [6. 276]

Aynan shu so‘z va uning ma‘nosi izohlanmagan. So‘z qidirilganda to‘kindi so‘zi topildi. To‘kindi – 1. To‘kib tashlangan yoki tashlanadigan qoldiq narsa; 2. To‘kilib tushib qolgan narsa. Xorazm viloyati (Yangibozor tumani, Xorazm shahri, Xiva tumani, Urganch tumani), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (Ellikqal‘a tumani, Beruniy tumani) da uchramaydi. Ma‘nolardagi so‘zlarning izohi ham adabiy tildan biroz farq qiladi, ya‘ni “ini bilan urildi” yoki “govdasi bilan urilli” deb ishlatilinar ekan.

14. Туғрағланди – 1. Шоҳ томонидан ҳарбий машқ вақтида берилиб қайтиб олинадиган отга эга бўлди. 2. Мухрланди (ўғуз). [6. 289]

Ushbu so‘zning “O‘zbek tilining izohli lug‘atida” ma‘nosi mavjud emas. Keltirilgan polisemiyaning birinchi ma‘nosi arxaik so‘zga oid. Ma‘lum tarixiy davrda ishlatilgan, hozirda qo‘llanilmaydi. Ikkinchi ma‘nosi garchi bugun leksikonimizda mavjud bo‘lsa-da, “tug‘rag‘landi” shaklida qo‘llanilmaydi. So‘zning tarixiyliги inobatga olinsa, ma‘nosi shunga ko‘ra ifodalanganini anglashimiz mumkin. Jonli xalq tilidan yozib olingan ma‘lumotlarga ko‘ra, Xorazm viloyati (Yangibozor tumani, Xorazm shahri, Xiva tumani, Urganch tumani)da “pechat urildi” shaklida uchraydi. Yuqorida aytilganidek, rus tilidagi so‘zlarning ishlatilishi oddiy holga aylangan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi (Ellikqal‘a tumani)da “do‘g‘irlandi” shaklidagi so‘z uchraydi.

15. Чақди – 1. Чақди, эшиттирди. 2. (орани) бузди (ўғуз). 3. Чақмоқ чақди [6. 323]

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “chaq” so‘zi omonim bo‘lib kelishi bilan bir qatorda har bir omonimlik ko‘p ma‘noli so‘zlarni o‘zida mujassam etgan. Demak, chaq I – 1. Pista, bodom, yong‘oq va shu kabilar qattiq po‘choqli mevalarni yoki ba‘zi ho‘l mevalarning danaklarini tashlab yoki biror narsa bilan urib yormoq; 2. Qattiq narsani sindirib maydalamoq, bo‘lak-bo‘lak qilmoq, ushatmoq; 3. Bir-biriga urib, surtib, olov chiqarmoq, yondirmoq. 4. Chaqa qilmoq; 5. Charchatmoq, urintirmoq. 6. Mazmun-mohiyatini anglamoq, yechimini topmoq. Chaq II – 1. Tishlab yoki nayzasini sanchib jarohatlamoq, og‘ritmoq yoki zahar solmoq (ilon, chayon, ari kabi gazandalar, chumoli, burga, chivin kabi hasharotlar haqida). 2. Achchiq gaplar aytmoq, zahrini sochmoq. 3. Chaqimchilik qilmoq, gap tashib g‘iybat qilmoq.

Xorazm viloyati (Yangibozor tumani, Xorazm shahri, Xiva tumani, Urganch tumani) va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (Ellikqal‘a tumani, Beruniy tumani)dagi aholi birinchi va uchinchi ma‘nolarini nutqida qo‘llar ekan. So‘z “choqdi”, “chokdi”, “chakdi” variantlarda uchrashi kuzatildi.

Bugungi kunda so‘zlashuv uslubida “gap bilan chaqib oldi” iborasi keng qo‘llaniladi.

16. Чэрик – 1. Рўпара 2. (ҳар нарсагинг) вақти (ўғуз) [6. 327]

Bugungi kunda so‘zning ma‘nosi o‘g‘uz lahjasida so‘zlashuvchi xalq tilida Xorazm viloyati (Yangibozor tumani, Xorazm shahri, Xiva tumani, Urganch tumani) Qoraqalpog‘iston Respublikasi (Ellikqal‘a tumani, Beruniy tumani)da uchramaydi. Ko‘pma‘noli so‘zning ma‘nolari ham fonetik o‘zgarishga uchragan, ya‘ni “do‘g‘rida, do‘g‘risida” deb aytiladi. Cherikning yana bir ma‘nosi sanskritcha “ksatrika” – “qo‘shin, lashkar” demakdir.

17. Қарақуш – 1. Бургут. 2. Муштарий юлдузи. 3. Туя пайпоғи (ўғуз) [6. 350]

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu so‘z “Qoraqush” shaklida uchraydi va “Qarg‘asimonlar oilasiga mansub parranda; qora patli cho‘l burguti” degan ma‘noni ifodalaydi.

Xorazm viloyati (Yangibozor tumani, Xorazm shahri, Xiva tumani, Urganch tumani) va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (Ellikqal‘a tumani, Beruniy tumani)da “Qoraqush”

shaklida qora, katta qushlarga va qora qarg'aga nisbatan qo'llanilar ekan.

18. Қурт – 1. Қурт (хашарот). 2. Бўри (ўғуз) [6. 378]

O'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha uchraydi:

Qurt I 1. Uzun tanasini egib-yozib yoki juda ko'p oyoqlari vositasida sudralib yuradigan umurtqasiz mayda jonivor; 2. Ba'zi hasharotlar, mayda organizmlar nomi tarkibiga kiradi; 3. Ba'zi hasharotlarning tuxumidan yuzaga keladigan g'umbak; 4. Asosan tut bargi bilan boqiladigan, yetilib pilla o'raydigan shunday g'umbak.

Qurt II s.t.ayn. Qurut. Suzmani yong'oqdek-yong'oqdek yumaloqlab, 2-3 kun oftobga qo'yib quritib tayyorlanadigan mahsulot.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin:

№	“Devoni lug'otit-turk” asarida kelgan so'zlar va ularning ma'nosi	Bugungi kunda o'g'uz lahjasida so'zlashuvchi aholi tomonidan qo'llanilish yoki qo'llanilmasligi
1	Ашліқ – 1. Буғдой (ўғуз). 2. Дон	Oshliq(k) bor, ma'nosi osh-ovqat, yemak, och qolmoq
2	Этти 1. Яхшилади, тўғрилади, ўнглади. 2. Жинсий алоқа қилди (ўғуз). 3. Бирор нарсани бажарди (ўғуз)	Etti so'zining har uch ma'nosi mavjud
3	Бэклатті – 1. Қаматтирди. 2. Сақлашга буюрди (ўғуз)	Tadqiq etilgan hududlarda bugungi kunda keng qo'llanilmaydi. (Boshqa hududlarda ma'nosi mavjud bo'lishi mumkin)
4	Ідіш – 1. Қадах, пиёла. 2. Яғмо, тухси, ямок, ўғуз ва арғулар тилида – идиш.	Idish bor, ma'nosi oshxona buyumi
5	Оғурланди – 1. Вақти келди, вақти яқинлашди. 2. Яхши, муборак бўлди. 3. Тенглаштирилди, киймати берилди (ўғуз).	O'g'irlandi va og'irlandi bor, ma'nosi o'g'irlamoq va og'irlashmoq fe'liga yaqin. Lekin aynan so'z qo'llanilmaydi
6	Салтурдї – 1. Ихтиёрига ташлади (ўғуз). 2. Ишорат қилишга буюрди. 3. Ташлашга буюрди.	Sal qo'zg'aldi, o'rnidan turdi ma'nosi mavjud
7	Сартладї – 1. Ип билан боғлади. 2. Юкорига чиқди (ўғуз)	Ba'zi ruscha so'zlar kabi “sortladi” shaklida ko'p qo'llaniladi.
8	Сатғашдї – 1. Юзма-юз учрашди. 2. Қарзларни узишди (ўғуз)	Mavjud emas
9	Сїрт – 1. Куйрук, дум, соч. 2. Кичик тепа (ўғуз). 3. Кичик водий (ўғуз).	Sirt - yuza, tepa, ust degan ma'nolari mavjud
10	Талїктї – 1. Тиллашди, сўзлашди. 2. Гап бўлди (ўғуз)	Ushbu so'z emas, toliqti so'zi mavjud. Nutqda horidi, charchadi so'zlari bilan keng qo'llaniladi
11	Тарїғ – 1. Буғдой. 2. Тарик (ўғуз).	Tadqiq etilgan hududlarda bugungi kunda keng qo'llanilmaydi. (Boshqa hududlarda ma'nosi mavjud bo'lishi mumkin)
12	Тэк – 1. Анчайин, шунчайин. 2. Жим (ўғуз)	Tek tur, ya'ni jim tur ma'nosida qo'llaniladi
13	Тоқїндї – 1. Гавдаси билан урилди. 2. Тўқинишди (ўғуз)	Tadqiq etilgan hududlarda bugungi kunda keng qo'llanilmaydi. (Boshqa hududlarda ma'nosi mavjud bo'lishi mumkin)
14	Туғрағландї – 1. Шоҳ томонидан ҳарбий машқ вақтида берилиб қайтиб олинадиган отга эга бўлди. 2. Мухрланди (ўғуз). 289-бет	Tadqiq etilgan hududlarda bugungi kunda keng qo'llanilmaydi. (Boshqa hududlarda ma'nosi mavjud bo'lishi mumkin)

15	Чақдї – 1. Чақди, эшиттирди. 2. (орани) бузди (Ўғуз). 3. Чақмоқ чақди	Har uchchala ma'nosi mavjud
16	Чэрік – 1. Рўпара 2. (хар нарсаинг) вақти (Ўғуз)	Tadqiq etilgan hududlarda bugungi kunda keng qo'llanilmaydi. (Boshqa hududlarda ma'nosi mavjud bo'lishi mumkin)
17	Қарақуш – 1. Бургут. 2. Муштарий юлдузи. 3. Туя пайпоғи (Ўғуз)	Qush, katta qush, burgut kabilarni ifodalashda qo'llaniladi
18	Қурт – 1. Қурт (хашарот). 2. Бўри (Ўғуз)	Hasharot ma'nosi mavjud va qo'llaniladi

Xorazm viloyati (Yangibozor tumani, Xorazm shahri, Xiva tumani, Urganch tumani) Qoraqalpog'iston Respublikasi (Ellikqal'a tumani, Beruniy tumani)da bu so'zning hasharot sifatida ishlatilish hollari kuzatilar ekan. Ma'lumot o'rnida Xorazm hududidagi aholi iste'mol qilinadigan qurt (qurut)ni yaqin-yaqingacha bilishmas va tayyorlamas ekanlar.

Xulosa va takliflar. Shevada so'zlovchi aholidan olingan so'rovnomaga ko'ra "Devon"da keltirilgan so'zlar yoki fonetik o'zgarishga uchragan, yoki ma'nosi saqlansada, so'zning o'zi yo'qolib ketgan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ba'zi so'zlar uchraydi, lekin ma'nolari yaqin emas. Shu jumladan, tovush o'zgarishi hodisasi juda ko'p so'zlarda kuzatildi. Shuningdek, arxaik so'zlarga ham murojaat qilingan o'rinlar uchraydi.

Umuman olganda, adabiy tilning boyishi ikki turda amalga oshishini inobatga olsak, shevalardan so'z olish juda muhim hodisadir. Chet tilidan so'z olish orqali leksikamizni boyitishimiz biz uchun yangiliklar, kreativ g'oyalar, ilm-fan va boshqa sohalar uchun eshik ochsa, shevadan so'z olish izlanish, ko'plab tarixiy haqiqatlarni ochishga imkoniyat yaratadi. Ushbu maqolada berilgan 18 ta polisemantik so'z, ularning ma'nosi, shuningdek, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da mavjudligi, xalq tilida qanday amal qilishi va fonetik o'zgarishlar haqida umumiy ma'lumot berildi.

Tilshunosligimizning yirik yo'nalishlardan biri sheva bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar talaygina. Ilmiy ishlarning mohiyatini ochishda integratsiya orqali amalga oshirilsa, nafaqat bir fan doirasida, balki boshqa yo'nalishlarda ham ko'plab yutuqlarga erishsa bo'ladi. Buning uchun geograflar, tarixchilar, tilshunoslar va boshqalarning umumiy mehnat mahsulini bir yerda jamlash va natijaga erishish ham mahsuldor, ham kengroq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2008. – 527 b.
2. Abdullayev F.A. Xorazm shevalari I. Lug'at. –Toshkent. O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1961. – 348 b
3. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. Darslik // –Toshkent: Navro'z, 2016. – 134 b.
4. Ishayev A. Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari. –Toshkent: Fan, 1977. – 174 b.
5. Jamolxonov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik // –Toshkent. "Talqin" nashriyoti. 2005. – 271 b.
6. Koshg'ariy M. Devoni lug'otit-turk. –Toshkent. O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1960. – 545 b.
7. Madrahimov O. O'zbek tilining o'g'uz lahjasi leksikasini o'rganish masalalari. –Toshkent: Fan, 1973. – 190 b.
8. Madrahimov O. O'zbek tilining o'g'uz lahjasining qisqacha qiyosiy lug'ati. –Urganch, 1999. – 192 b.
9. Muhammadjonov Q. Janubiy Qozog'istondagi o'zbek shevalari. –Toshkent: Fan, 1981. – 166 b.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. –Toshkent: O'zbekiston, 2021.
11. O'zbek xalq shevalari lug'ati. –Toshkent: Fan, 1971. – 407 b.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KIYIM-KECHAK NOMLARINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI VA QIYOSIY TAHLILI

Tojiyeva Gulbahor Nomozovna
Qarshi davlat universiteti, professor
Jumanova Sevara Xolmurod qizi
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi
sevarajumanova39@gmail.com
ORCID 0009-0001-1484-0639,
UDK 801.8

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tillarida kiyim-kechak nomlarining lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Kiyim-kechak atamalari xalqning tarixiy, ijtimoiy va madaniy xotirasini aks ettiruvchi vosita bo‘lib, til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi. Milliy liboslar ingliz va o‘zbek madaniyatida madaniy o‘ziga xoslik, tarixiy meros va ijtimoiy me‘yorlarni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tadqiqot tarixiy yozuvlar, lug‘atlar va zamonaviy amaliyotlarni o‘rganish orqali ushbu ikki xalqdagi an‘anaviy liboslarning evolyutsiyasi va madaniy ahamiyatini solishtirishga qaratilgan. Biz asosiy kiyim atamalarini aniqlash va ularning ijtimoiy va ramziy rolini tahlil qilish uchun ikkala tilning izohli lug‘atlaridan foydalandik. Natijalar ingliz an‘anaviy liboslari funktsionallikdan tantanali foydalanishga qanday o‘tganini, o‘zbek liboslari esa milliy o‘ziga xoslik va hunarmandchilik bilan mustahkam aloqani saqlab qolganligini ko‘rsatadi. Tadqiqotda milliy liboslarning madaniy ifoda shakli sifatidagi ahamiyati, uning har ikki xalqning o‘ziga xosligini qanday shakllantirgani va aks ettirishiga urg‘u berilgan.

Kiyim terminologiyasi atrof-muhit sharoitlari, texnologik taraqqiyot va madaniyatlararo almashinuvlar natijasida shakllangan millatning madaniy, tarixiy va ijtimoiy o‘ziga xosligini aks ettiradi. Tadqiqot davomida lingvistik va madaniy tafovutlar, tarjima jarayonida uchraydigan muammolar va madaniy moslashuv masalalari tahlil qilinadi. Globalizatsiya sharoitida xalqaro atamalarni milliy madaniyat kontekstida talqin qilish zarurati qayd etiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kiyim-kechak nomlari xalqning madaniy qadriyatlarini va tarixini saqlashda, shuningdek, madaniyatlararo aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar. lingvokulturologiya, kiyim-kechak nomlari, tavsifiy tarjima, madaniy moslashuv, globalizatsiya, milliy madaniyat, bosh kiyim.

THE IMPORTANCE AND COMPARATIVE ANALYSIS OF LEARNING CLOTHING NAMES IN ENGLISH AND UZBEK

Abstract. This article is devoted to the study of the linguocultural characteristics of clothing names in English and Uzbek. Clothing terms are a means of reflecting the historical, social and cultural memory of a people, and represent the connection between language and culture.

National costumes play an important role in expressing cultural identity, historical heritage and social norms in English and Uzbek cultures. This study aims to compare the evolution and cultural significance of traditional costumes in these two peoples by examining historical records, dictionaries and contemporary practices. We used explanatory dictionaries in both languages to identify key clothing terms and analyze their social and symbolic role. The results show how English traditional costumes have moved from functional to ceremonial use, while Uzbek costumes have retained a strong connection with national identity and craftsmanship. The study emphasizes the importance of national costumes as a form of cultural expression, how they shape and reflect the identity of both peoples.

Clothing terminology reflects the cultural, historical and social identity of a nation, formed as a result of environmental conditions, technological progress and intercultural exchanges. The study analyzes linguistic and cultural differences, problems encountered in the translation process and issues of cultural adaptation. In the context of globalization, the need to interpret international terms in the context of national culture is noted. The results show that clothing names are important in preserving the cultural values and history of a people, as well as in developing intercultural relations.

Keywords. linguoculture, clothing terminology, translation, cultural adaptation, globalization, national culture, headwear

Kirish. Til insoniyatning eng muhim madaniy meroslaridan biri sifatida xalqning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlari va turmush tarzini aks ettiradi. Ayniqsa, kiyim-kechak nomlari xalqning urf-odatlarini, turmush tarzi va estetik qarashlarini aks ettirish bilan bir qatorda, lingvistik madaniyatni ifodalovchi muhim unsurlar sirasiga kiradi. Har

bir xalqning kiyim-kechak nomlari orqali o'ziga xos madaniyati, milliy qadriyatlari va tarixiy rivojlanishi namoyon bo'ladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi kiyim-kechak nomlari ana shu madaniy bog'liqlikning yorqin namunasi bo'lib, ularni lingvokulturologik va leksikografik nuqtayi nazardan tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi, avvalo, globallashuv jarayonida milliy madaniyatni saqlab qolish va xalqaro aloqalarni rivojlantirishda tilning tutgan o'rniga asoslanadi. Ingliz tilidagi kiyim-kechak nomlari xalqaro miqyosda keng qo'llanilayotgani sababli ularni o'zbek tilidagi nomlar bilan taqqoslash, tarjima qilish va lug'atlarga kiritish jarayonida madaniy va lingvistik tafovutlarni hisobga olish zarurati ortmoqda.

Maqolaning asosiy maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi kiyim-kechak nomlarini lingvokulturologik talqin qilish va ularni leksikografik tadqiq qilishdir. Quyidagi vazifalar ushbu maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi kiyim-kechak nomlarining madaniy mazmunini tahlil qilish jarayonida bir qator qiziqarli misollar aniqlangan. Masalan, ingliz tilidagi "kimono" atamasi yapon milliy kiyimiga ishora qiladi va o'zbek tiliga ham transliteratsiya orqali o'zlashgan. Bu so'z global madaniy transliteratsiya namunasi sifatida har ikki tilda bir xil ma'noda qo'llaniladi.

Shu bilan birga, ingliz tilidagi "trench coat" (yomg'irga chidamli uzun palto) o'zbek tilida o'ziga xos ekvivalenti bo'lmasa-da, "yomg'ir plashi" sifatida talqin etiladi. Bu jarayonda inglizcha nomning funktsionallik va vazifaga asoslanganligi, o'zbekcha nomning esa to'g'ridan to'g'ri tarjimasi madaniy xususiyatlarni aks ettiradi. Bundan tashqari, o'zbek tilidagi "mahsi" milliy oyoq kiyim sifatida madaniy mazmunni chuqur ifodalaydi. Ingliz tilida unga to'g'ri ekvivalent topish qiyin bo'lsa-da, "traditional footwear" yoki "Uzbek special boots" tarzida tasvirlanadi. Bu misol ikki tilning madaniy va semantik boyligini chuqurroq o'rganishga imkon beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda ingliz va o'zbek tillaridagi kiyim nomlarining tizimi, tuzilishi va genetik xususiyatlarini tahlil qilish uchun struktural va ko'p qirrali tadqiqot metodologiyasidan foydalaniladi.

1. Qiyosiy tarixiy metod

Qiyosiy tarixiy usul ingliz va o'zbek tillarida kiyimga oid atamalarning etimologik kelib chiqishini aniqlashda qo'llaniladi. Tarixiy matnlarni, lingvistik tuzilishini va etimologik lug'atlarni tahlil qilish orqali bu usul leksikaning genetik manbalarini aniqlaydi va boshqa tillardan o'zlashtirish darajasini ochib beradi.

2. Morfologik tahlil

Kiyim nomlarining morfologik tuzilishi ularning yaratilishiga hissa qo'shadigan so'z yasash jarayonlarini aniqlash uchun o'rganiladi. Bu oddiy, hosila va murakkab shakllarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi:

Sodda so'zlar monomorf birliklar sifatida tahlil qilinadi (masalan, ingliz tilida hat, o'zbek tilida do'ppi).

Murakkab so'zlar sintaktik va semantik tarkibiga ko'ra tahlil qilinadi (masalan, ingliz tilida raincoat, o'zbek tilida yomg'irpo'sh).

Morfologik tahlil lingvistik ijodkorlik va madaniy voqelik yangi leksik birliklarning shakllanishiga qanday ta'sir qilishini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

3. Semantik tasnifi

Semantik tahlil kiyim nomlarini ularning funksional, moddiy va madaniy belgilariga qarab tasniflash uchun amalga oshiriladi. Bu lug'atni quyidagi toifalarga guruhlashni o'z ichiga oladi. Bu usul ijtimoiy qadriyatlar, an'analar va atrof-muhit kiyim terminologiyasining semantik nuanslarini qanday shakllantirishini tushunishga yordam beradi.

4. Tasviriy tahlil

Tasviriy usul kiyim nomlarini hozirgi lingvistik va madaniy kontekstda tizimli

ravishda tavsiflash va tahlil qilish uchun ishlatiladi. Ushbu yondashuvdan foydalanib, lingvistik birliklar ularning rasmiy, funksional va madaniy xususiyatlariga ko'ra o'rganiladi. Tavsifiy tahlil, shuningdek, so'zlarning ishlatilishi, tuzilishi va konnotatsiyalari nuqtai nazaridan ikki til o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni ta'kidlaydi.

5. Etimologik tahlil

Etimologik tahlilda kiyim-kechak nomlarining kelib chiqishi va evolyutsion rivojlanishi batafsil o'rganiladi. Lingvistik korpus, etimologik lug'atlar va tarixiy ma'lumotlarga murojaat qilib, bu usulda so'zlarning ingliz va o'zbek tillarida qanday qabul qilinganligi, moslashtirilganligi va saqlanib qolganligini aniqlaydi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Kiyim-kechak insoniyat tarixining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Dastlab, u atrof-muhit elementlaridan himoya qilish uchun asosiy ehtiyoj bo'lib xizmat qildi. Biroq jamiyatning rivojlanishi bilan kiyim-kechak madaniy o'ziga xoslik va ijtimoiy mavqening belgisiga aylandi. D.Rahmatullayevaning ta'kidlashicha, "Xalq turmushining boshqa sohalari singari milliy liboslami o'rganish bar bir xalqning etnik tarixi va madaniyatini, uning boshqa xalqlar bilan o'zaro aloqalarini tatbiq etish bilan chambarchas bog'liqdir. U moddiy va ma'naviy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi va etnik belgilarini ko'rsatuvchi mezon ham hisoblanadi. Shu ma'noda libos tarixini o'rganish yer kurrasida mana necha ming yillardan beri yashab kelayotgan xalqlar boy madaniy merosi, shu bilan birga, ularning an'analari, yashash tarzi haqida kattagina ma'lumot ham beradi". Turli davrlarda insonlar o'zlarining qadriyatlarini, e'tiqodlari va ijtimoiy tuzilmalarini aks ettiruvchi o'ziga xos kiyim uslublarni ishlab chiqdilar. Til o'zgarishlari va mintaqaviylik kiyim-kechak lug'atini shakllantirishda muhim asosiy vosita hisoblanadi.

Kiyim-kechak nomlarini lingvomadaniy jihatdan tadqiq qilish til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqligini o'rganish imkonini beradi. Masalan, ingliz tilida "suit" (kostyum) so'zi professional hayot bilan bog'liq bo'lib, ish joyida formal ko'rinishni ifodalaydi. O'zbek tilida esa "ko'ylak" so'zi an'anaviy kiyimlarni anglatadi va ko'pincha bayramlarda, to'y marosimlarida kiyiladi, "Jeans" - bu so'z nafaqat ma'lum bir kiyim turini, balki yoshlar madaniyatining ramzi sifatida ham qaraladi. Jinsi shim, jinsi kostyum, jinsi yubka kabi kiyimlar ko'p hollarda erkinlik va individualizmni ifodalaydi. Bugungi kunda barcha xalqlar madaniyatida yoshlar garderobida kamida bitta bo'lsa ham jinsidan tikilgan kiyimni uchratamiz, albatta, bu globalizatsiyaning ta'siri natijasida deya xulosa qilishimiz mumkin. G'arb madaniyatining ommalashuvini barcha sohalarda, xususan, kiyinishda ham yaqqol kuzatish mumkin, ingliz mentalitetiga xos bo'lgan ayni vaqtda iste'molda mavjud bo'lgan kiyimlar qulay, oddiy, ortiqcha bezaklarsiz bo'lib, aynan mana shu xususiyatlari bilan alohida ajralib turadi.

Ingliz kiyim-kechak sanoatining dastlabki davrlarida ishlab chiqarilgan millatning tarixi va madaniy merosini aks ettiradigan "bowler", "kilt", "peacoat", "dungarees", "mantle" kabi kiyim-kechak nomlarining har biri o'ziga xos ahamiyatga ega. Masalan, "bowler" qo'ng'iroq shaklidagi ushbu shlyapa Charli Chaplin obrazini tasavvur qilishda muhim vosita. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, ingliz madaniyatida shlyapalarning 100dan ortiq turi mavjud. Bosh kiyim sifatida alohida ramziy ma'nolarga ega Viktoriya davrida shlyapasiz hattoki ko'chaga chiqish odobsizlik sanalgan. Tabiiyki, o'zbek mentalitetida ham bosh kiyim, ya'ni do'ppining o'rni yuksak bo'lgan. Ularning tashqi ko'rinishi, naqshlari, shakli orqali ko'plab ma'lumotlar olish mumkin. Bosh kiyim xalqimiz turmush tarzida insonning yoshi, qayerdan ekanligi, hattoki, mavqeyini ham ifodalaydi. Aynan bosh kiyimlar va ularning ahamiyati, o'rni yuqori ekanligini har ikkala madaniyatda ham ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari "kilt", an'anaviy Shotlandiya kiyimi, XVI asrda erkaklar uchun amaliy va bardoshli buyum sifatida mashhur bo'ldi. Har bir tartan naqshlari ma'lum bir urug' yoki oilani ifodalaydi. Kiltlar to'ylar, harbiy

marosimlar va tog‘li o‘yinlar kabi rasmiy tadbirlarda kiyiladi va Shotlandiya merosining ramzi bo‘lib xizmat qiladi. Har bir kiyim o‘ziga xos tarzda insonning madaniyati va kelib chiqishini aks ettiruvchi vositadir, shu sababli boshqa bir tilni o‘rganayotganda yoki tarjima jarayonida madaniyatlararo tafovutlarni hisobga olish muhimdir. Ayniqsa o‘zbek xalqining an‘anaviy liboslarini tarjimada berishda tarjimonning yondashuvi ahamiyatlidir. Ingliz tilida xalqaro ko‘lamda universal so‘zlar keng tarqalgan bo‘lsa, o‘zbek tilida asosan milliy xususiyatga ega bo‘lgan terminlar yetakchi hisoblanadi. O‘zbek tilida milliy xususiyatga ega bo‘lgan kiyim-kechak nomlari ingliz tilida to‘g‘ridan to‘g‘ri ekvivalentga ega emas. Masalan, “do‘ppi” so‘zi ingliz tilida “traditional skullcap” tarzida beriladi, ammo bu tarjima “do‘ppi”ning o‘zbek madaniyati va tarixidagi o‘rnini to‘liq aks ettirmaydi. Ingliz tilida keng ishlatiladigan “blazer”, “trench coat” kabi atamalar o‘zbek tilida xalqaro termin sifatida ishlatiladi, lekin milliy xususiyatlarni aks ettirmaydi.

Bundan tashqari, ko‘plab badiiy adabiyotlarning ingliz tilidagi tarjimasida “chopon, chakmon” so‘zlari tarjimada “traditional robe”(an‘anaviy xalat) tarzida berilgan. Bunday tarjimada tilning lingvokulturologik xususiyati to‘liq aks etmaydi, aksincha kitobxon mazmuni to‘liq tasavvur qila olmaydi. Lingvokulturemalar, ya‘ni milliy kaloritga xos bo‘lgan so‘zlarni anglatishda tavsifiy va tasviriy tarjimadan foydalanish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, ingliz mentalitetida mavjud “robe” so‘zi qadimda diniy marosimlarda kiyiladigan kiyim sifatida foydalanilgan, ammo hozirgi kunda “robe – xalat” uy kiyimi vazifasini bajarib, ya‘ni buyumning vazifasi o‘zgargan.

Tarjima til va madaniyat o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajarib, xalqaro muloqotda muhim o‘rin egallaydi. Biroq tarjima jarayonida madaniy va lingvistik tafovutlar muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, kiyim-kechak nomlarini tarjima qilishda bu masala yanada dolzarbroq bo‘lib, xalqning tarixiy va madaniy merosi bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlarni boshqa tilga to‘g‘ri va aniq aks ettirish qiyin kechadi. O‘zbek va ingliz tillarida kiyim-kechak nomlarini tarjima qilishda ko‘pincha madaniy va semantik uyg‘unlikni saqlash masalasi dolzarbdir.

Raqamli texnologiyalarning taraqqiyoti kiyinish madaniyatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Natijada, ko‘plab hoodie - hudi, sweater- sviter, culottes- kyulot, pyjamas-pajama kabi bir qator yangicha kiyim nomlari ingliz tilidan o‘zbek tiliga kirib keldi. Tadqiqotchi M.Asomutdinova bunday kiyim-kechak nomlarini zamonaviy kiyimlar sifatida o‘zining izohli lug‘atiga kiritgan. Shu o‘rinda bunday kiyimlarni nafaqat zamonaviy kiyimlar, balki “internatsional kiyimlar” deb ham talqin qilishimiz mumkin. Sababi, yuqorida sanab o‘tilgan kiyim-kechaklar boshqa bir nechta tillarda ham aynan shunday bir xil nomga va vazifalarga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kiyim-kechak nomlarini tarjima qilishda ikki asosiy muammo mavjud: madaniy mazmuni saqlash va tilning leksik xususiyatlarini to‘g‘ri aks ettirish. O‘zbek va ingliz tillari o‘rtasidagi tarjimada madaniy tafovutlar ko‘pincha semantik nomuvofiqlikka olib keladi. Masalan, “chopon” so‘zining ingliz tilidagi “robe” tarjimasini uning o‘ziga xos milliy va iqlimiy xususiyatlarini aks ettirmaydi. Shuningdek, zamonaviy kiyim-kechak nomlarini tarjima qilishda xalqaro terminlar ko‘proq qo‘llanilayotgani kuzatiladi, lug‘atlarda tarjima qilish jarayonida izoh va semantik bog‘liqlikni kengroq yoritish zarur. Bu tarjimonlar uchun ham, til o‘rganuvchilar uchun ham samarali usul hisoblanadi.

Xulosa. Kiyim-kechak nomlarini lingvistik va madaniy nuqtayi nazardan o‘rganish turli tillar va madaniyatlarining o‘zaro ta‘sirini tushunishda muhim vositadir. Kiyim-kechak nomlari bir tilning nafaqat lug‘aviy boyligini, balki xalqning tarixini, madaniyatini va urf-odatlarini aks ettiradi. Bu o‘rganish jarayoni nafaqat tilshunoslar va madaniyatshunoslar uchun, balki tarjimonlar va lug‘at tuzuvchilar uchun ham katta

ahamiyatga ega. O‘zbek va ingliz tillarida kiyim-kechak nomlarini tarjima qilishdagi asosiy muammolar madaniy mazmuni to‘g‘ri aks ettirish va leksik o‘ziga xoslikni saqlash bilan bog‘liq. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga yoki aksincha tarjima qilishda tilshunoslar va tarjimonlar madaniy kontekstni hisobga olishi kerak. Bu esa milliy madaniyatni saqlash va xalqaro muloqot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Lug‘atlarni boyitish, aniq izohlarni kiritish va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda avtomatlashtirilgan tarjima vositalarini takomillashtirish ushbu muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Kiyim-kechak nomlarining lingvomadaniy tadqiqi nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik sohalarida ham muhim ahamiyatga ega. Kiyim-kechak nomlari, bir tomondan, tilning leksik tuzilishini ko‘rsatadi, boshqa tomondan esa, ularning madaniy kontekstdagi o‘rni va ahamiyatini ochib beradi.

Kiyim-kechaklar ijtimoiy identifikatsiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Har bir millat va madaniyat o‘ziga xos kiyim-kechak an‘analari va uslublariga ega bo‘lib, bu orqali ular o‘z tarixini, urf-odatlarini va qadriyatlarini ifodalaydilar. Misol uchun, O‘zbekistonda “ko‘ylak” yoki “chopon” kabi kiyimlar nafaqat kundalik hayotda, balki milliy bayramlar va marosimlarda ham muhim rol o‘ynaydi. Bunday kiyimlar orqali insonlar o‘z milliylikini, an‘analarini va madaniy merosini saqlab qoladilar. Leksikografik talqin kiyim-kechak nomlarining lug‘atdagi o‘rnini aniqlashda yordam beradi. Leksikografiya yordamida biz tilning dinamikasini va so‘zlarning ma‘nolarining qanday rivojlanayotganini kuzatishimiz mumkin. Kiyim-kechak nomlari ko‘pincha yangi ma‘nolarni qabul qiladi yoki eski ma‘nolarini yo‘qotadi, bu esa madaniyatdagi o‘zgarishlarni aks ettiradi. Shuningdek, kiyim-kechak nomlari orqali biz ijtimoiy qatlamlar, gender rollari va iqtisodiy holatlarni ham tahlil qilishimiz mumkin. Masalan, “kostyum” so‘zi professional hayotda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u ish joyidagi formal ko‘rinishni ifodalaydi. Bunday nomlar orqali biz ijtimoiy munosabatlar va mehnat bozoridagi o‘zgarishlarni ham kuzatishimiz mumkin. Umuman olganda, kiyim-kechak nomlari til va madaniyat o‘rtasidagi murakkab aloqalarni ochib beradi. Ular nafaqat shaxsiy uslubni ifodalashda, balki milliy kimlikni saqlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Lingvomadaniy tadqiqotlar orqali bu nomlarning ma‘nolari va ularning ijtimoiy ahamiyati yanada chuqurroq tahlil qilinadi, bu esa tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida yangi bilimlarni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Christian Dior. The little dictionary of fashion. – London. V&A publishing 2012-139 pages
2. Gibbins, K., “Communication Aspects of Women’s Clothes and Their Relation to Fashionability”, British Journal of Social and Clinical Psychology, 1969. pp.301-312
3. Daniel Roche., The culture of clothing: Dress and Fashion in the Ancient Regime., English translation Maison des sciences de l’Homme and Cambridge University Press, 594 pp. 1994
4. Воробев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. –М., 2008. 120с
5. Давлатова Саодат Ўзбек кийимларининг изоҳли луғати. – Тошкент. “YANGI NASHR” 2014 – 128 b
6. Иброҳимова М. Либосларда халқ руҳи // Мулоқот – 2001. - № 5- Б-29
7. Rahmatullayev D., U. Xodjayeva, F. Ataxanova., Libos tarixi. Darslik. Toshkent 2015. Sano-standart nashriyoti-B-370
8. Jabborov I. O‘zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. - T.: “O‘qituvchi”, 2003
9. Xasanbayeva G. K., Chursina V.A. Kostyum tarixi. -T., O‘zbekiston, 2002
10. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: Изд. центр «Академия», 2001. – 208 с.

LIRIKADA KO'NGIL TIMSOLINING GENEZISI VA TARIXIY TAKOMILI**Qahharova Dilafro'z Abdug'afforovna**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Jahon adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

x.eshov@edu.uz

ORCID 0009-0008-0756-2256

YŷK 87-14(045)

Annotatsiya. Maqolada mumtoz adabiyotda keng qo'llanilgan ko'ngil timsoliga murojaat qilingan. Ko'ngil timsolining genezisi va tarixiy takomili va xalq og'zaki ijodida tutgan o'rni xususida fikr yuritilgan. Yurtimizda bugungi kunda ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan nodir qo'lyozmalar jiddiy o'rganilmoqda. Endilikda biz ajdodlarimiz haqida xorijda yaratilgan ilmiy-tarixiy va adabiy asarlar bilan ham bevosita tanishish imkoniga egamiz. Xususan, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning tarixda tutgan o'rni ham, ijodiy merosi ham nafaqat xalqimizning, balki insoniyatning bebaho ma'naviy xazinasidir. Shu bilan bir qatorda mumtoz adabiyoti vakillari ijodida turlicha o'rinlarda talqin qilingani misollar yordamida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. ko'ngil, timsol, obraz, dil, qalb, ishq, muhabbat.

GENESIS AND HISTORICAL DEVELOPMENT OF THE SOUL SYMBOL IN LYRICS

Abstract. The article refers to the symbol of the soul, which is widely used in classical literature. The interpretation of the symbol of the soul in different places in the work of representatives of classic literature is analyzed with the help of examples. In our country today, rare manuscripts that embody the life experiences, religious, moral, and scientific views of our ancestors accumulated over the centuries are being seriously studied. Now we have the opportunity to get acquainted directly with the scientific-historical and literary works created abroad about our ancestors. In particular, the place in history and the creative legacy of the king and poet Zahiriddin Muhammad Babur is not only a priceless spiritual treasure of our nation, but also of humanity. Additionally, the meaning of the use of the image of the soul in Babur's lyrics is analyzed by giving examples from the poet's ghazals and rubai.

Keywords. soul, symbol, image, love, lover, friend.

Kirish. Dunyo adabiyotshunosligida buyuk foh, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganishga qiziqish borgan sari ortib bormoqda. Shubhasiz, yosh avlodning zamon talablariga munosib, mustaqil fikr-qarashiga ega, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyat sohibi va dunyoning har bir burjhdagi tengdoshi bilan erkin muloqotga kirisha oladigan shaxs bo'lib kamol topishida adabiyot va san'atning roli beqiyosdir. Bugun boy adabiy meroslarimizni yoshlarga va, qolaversa, kelajak avlodlarga yetkazib berish muhim vazifalardan biriga aylandi. Yurtimizda bugungi kunda ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan nodir qo'lyozmalar jiddiy o'rganilmoqda. Endilikda biz ajdodlarimiz haqida xorijda yaratilgan ilmiy-tarixiy va adabiy asarlar bilan ham bevosita tanishish imkoniga egamiz. O'zbek mumtoz adabiyotining XV asr oxiri XVI asr boshlarida yashab ijod etgan atoqli namoyandalaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining murakkab va qisqa hayotida (1483-1530) salmoqli asarlar yaratgan bo'lsa-da ularning hammasi bizgacha yetib kelgan emas. Boburning ma'naviyat xazinasiga munosib hissa bo'lib qo'shilgan ilmiy va badiiy asarlarining har biri o'zbek nazmi va nasri taraqqiyoti rivojida muhim bosqichni tashkil etish bilan birga, adabiy-badiiy tafakkur taraqqiyotiga qo'shilgan katta hissadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini o'rganish, tadqiq etish XX asrning 50-yillarida rivoj topa boshladi. Xususan, Boburning hayoti, faoliyati, ilmiy, badiiy merosini o'rganish, asarlarini nashr etish borasida o'zbek olimlari ham muayyan ishlarni amalga oshirdilar. "Boburnoma"ni nashr etish, tarjima qilish, tadqiq etish, asarning badiiy xususiyatlari, tarixiy-badiiy qimmat, muallifning tasvirlash mahorati, o'ziga xos bayon uslubi kabi masalalarni yoritishda A. Fitrat, M. Shayxzoda,

H.Yoqubov, Oybek, O. Sharafiddinov, P. Shamsiyev, V. Abdullayev, A. Qayumov, S. Jamolov, B. Valixo‘jayev, X. Nazarova, S. Aliyev, S. Azimjonova, S. Hasanov, A. Abdug‘afurov, H. Quadratullayev, R. Vohidov, Y. Is‘hoqov, I. Haqqul, T. Fayziyev, F. Sulaymonova, I. Bekjon, B. Qosimov, G‘. Salomov, M. Otajonov, A. Ibrohimov, V. Rahmonov, H. Boltaboyev, Sh.Rustamxo‘jayev, N. Nizomiddinov, N. Jumaxo‘ja, D. Salohiy, N. Jabborov, I. Adizova, Z. Xolmanova, D. Hoshimova, R. Karimov, M. Abdullayeva, M. Olimov, G‘. Sotimov, Z. Mashrabov, S. Jalilov, B. Rajabova, I. Sulaymonov, M. Kenjabek, X. Sultonov, Q. Kenja, S. Shokarimov, Z. Mashrabov kabi o‘zbek olimlarining tadqiqotlarida uchraydi.

Tadqiqotning metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tasniflash, biografik, sotsiologik, analitik, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik va badiiy-estetik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Adabiyot shunday fanki, u orqali insonning qalbiga kirib borish mumkin. Ayniqsa, adabiyotning lirik turining bu borada yana ham ta‘sir doirasi kengroqdir. Lirik ko‘ngilni tarannum etish uchun chin ma‘nodagi maydondir. Ana shu ko‘ngil adabiyotda timsol yoki obraz darajasiga ko‘tarilganki u lirikaning eng asosiy timsollaridan biri sanaladi. Boisi mazkur timsolni tarannum etish orqali ijodkor o‘zining qalb kechinmalarini bayon qiladi. Biror bir timsol yoki obraz haqida so‘z ketganda har bir kitobxon avvalo uning kelib chiqishi va mohiyatini chuqurroq anglab yetishga intiladi. Bu esa insonda o‘sha timsol haqida tushuncha hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Shunday ekan biz ham aynan lirikada ko‘ngil timsolining kelib chiqishi, mohiyati, genezisiga nazar solmoqchimiz.

Ko‘ngil – turkiy tildagi eng qadimgi va lirik turda qadim zamonlardan beri keng qo‘llanilgan so‘zlardan biri hisoblanadi. Ko‘ngil so‘zining badiiy adabiyotda, ayniqsa, she‘riyatda poetik obraz sifatida obro‘ topishida xalq og‘zaki ijodining o‘rni beqiyosdir. Ko‘ngil so‘zi dil, qalb, va umumturkiy yurak so‘zlari bilan ma‘nodosh bo‘lib keladi. Shunga qaramasdan ko‘ngil so‘zining poetik ifodalanishi yuqorida ta‘kidlab o‘tgan ma‘nodoshlariga nisbatan ancha keng hisoblanadi. Izlanishlarimiz natijasida shunga amin bo‘ldikki, ma‘nodoshlariga nisbatan ko‘ngil so‘zining o‘zi turkiy adabiyotning ilk yozma namunalarida ko‘proq qo‘llanilgan.

Bu turkiy she‘riyatning o‘ziga xosligini dalillovchi eng muhim jihatlardan biridir. Lug‘atlarda ko‘ngil – kishining his-tuyg‘u va kechinmalari manbai; yurak, qalb, dil, [1] xotir, yod, fikr, xayol, ixtiyor [2] har narsaning markazi, o‘rtasi, [2:1] – deb sharhlangan.

“Ko‘ngil – insonning ma‘naviy, borlig‘iga, kuch-quvvatiga, sevgining, nafratning, ishonchning – yaxshi-yomon barcha tuyg‘ularning butun borlig‘iga va ifodasiga berilgan nomdir” [3] deb ta‘kidlaydi A.Gulpinorli.

Ko‘ngil so‘zining tarixiy ildizlariga nazar tashlar ekanmiz, bu o‘rinda xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lmish maqollarni nazardan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Fikrimizni davom ettirar ekanmiz, yuqorida ta‘kidlab o‘tganimiz, so‘z san‘atining boshi bo‘lgan xalq og‘zaki ijod namunalarida ham “ko‘ngil bermoq” (sevmok), “ko‘ngil ko‘yi” (xohish, istak), “ko‘ngil olmoq” (xursand qilmoq) kabi iboralarning ko‘p uchrashi ko‘ngil so‘zining yurak va qalbgacha nisbatan qo‘llanilishi keng ekanligini ko‘rsatadi [1:1].

Boisi maqollar xalq orasida juda ko‘p ishlatiladi va ularda insonlarni yaxshilikka yetaklovchi biror bir voqea hodisalardan xulosa chiqarishga qaratilgan fikrlar mavjud. Xususan, ko‘ngil so‘zi ham asrlar mobaynida maqollarda aks etib tildan tilga o‘tib kelmoqda. Misollarga nazar qaratadigan bo‘lsak, “Ko‘ngil kirini yetti daryo yuvsa ham ketmas”, “Ko‘ngil toshdan qattiq, guldan nozik”, “Ko‘ngilning qolishi shishaning sinishi” kabi maqollarni uchratamiz. Bundan ko‘rinib turibdiki, bir necha asrlardan buyon muomalada foydalanib kelinadigan maqollarda inson ko‘nglini hamma narsadan ulug‘ligi e‘tirof etiladi. “Ko‘z ko‘ngil oynasi”, “Ko‘ngil gulini sevgi suvi sug‘orar” kabi maqollarda

esa ko'ngilni oynaga, gulga qiyoslanganini anglashimiz mumkin.

Xalq og'zaki ijodining yana bir turi bo'lmish laparlarni kuzatsak ham, ko'ngil so'zi ishlatilgan o'rinlarga duch kelamiz. Xususan;

“Oting bozor deganda, oting bozor,
Tol-tolgina sochingni taroq yozar.
Yaxshi bilan o'ynashsang, ko'ngling bozor,
Yomon bilan o'ynashsang, ko'ngling ozor.” [4]

Yuqoridagi lapardan keltirilgan parchada asosiy urg'u yaxshilik va yomonlikka qaratilgan. Ammo mazkur ikki g'oyada ham inson ko'ngli juda ahamiyatli ekanligi ta'kidlangan. Ya'ni yaxshi inson bilan taqdiringni bog'lamochi bo'lsang, ko'ngling bozor kabi bo'ladi. Aksincha yomon bilan esa ko'ngling faqat ozor ko'radi deyilmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, ko'ngil shunchalar yuksakki, uni shunchaki tuhfa kabi qarab noto'g'ri tanlov qilib bo'lmaydi.

Yoki yana bir laparda;
“Qoshing qora qayloma,
Yorga ko'ngil boylama.
Yorga ko'ngil boylasang,
Tashlab ketsa yig'lama.” [4:1]

Yuqoridagi kabi aksariyat xalq qo'shiqlarida qahramonning dard-u hasrati aks etgan. Bunday o'rinlarda esa yurak, qalb, ko'ngil timsolining uchrashi oddiy hol emas. Chunki qahramon mazkur timsollar orqali kechinmalarini namoyon etadi.

Ko'rinib turibdiki, xalq og'zaki ijodida insonning his-tuyg'ularini, xohish va istaklarini tarannum etishida asosiy o'rin tutuvchi ko'ngil timsoli makon va zamon nuqtayi nazari bilan qaralganda asrdan asrga va sharoitga mos tarzda rivojlanib bordi. Ammo yuksak darajada shakllanmadi. Mazkur timsol yozma adabiyotga ko'chgandan keyin g'oyaviy va badiiy jihatdan juda yuqori o'ringa ko'tarildi.

Ba'zi bir manbalarda keltirilishicha, xalq og'zaki ijodi namunalarida, xalq marosim qo'shiqlarida ko'p bora tilga olinadigan ko'ngil so'zi aslida undan ham oldin qo'llanilgan ekan. Xususan yozma adabiyotda ko'ngil so'zi uchraydigan eng qadimgi matn O'rxun-Enasoy yozuvlari hisoblanib, “ko'ngulteki”, “ko'ngulte”, “ko'nglung-cha” shakllarida ishlatilgan ushbu so'z orzu, istak, tilak ma'nolarini aks ettirgan [5].

Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida ko'ngil so'zining shakl, ham ma'no – mohiyat jihatidan o'zgarib, yanada boyiganligiga guvoh bo'lish mumkin. U ko'ngil so'ziga shunday izoh beradi: “Ko'nyl – yurak, ziyraklik, aqllilik. Ko'nyllyk er iborasi shundan olingan bo'lib, bu aqlli, ziyrak odam demakdir” [6]. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” dostonida ham ko'ngilga alohida to'xtalib o'tilgan. Dostonning asosiy 4 qahramonlarining o'zaro suhbatlari misolida buni anglab olish qiyin emas. Shu bilan bir qatorda dostonida “Ko'ngil istaganini topmasa, kishi erksiz bo'lur”, degan juda muhim bir fikr bor. Bilamiz Yusuf Xos Hojib dostoni shohlar va xoqonlarning davlatni qanday boshqarishi xususida bo'lib, ko'ngil bilan bog'liq mazkur hikmatlar ham yozuvchi tomonidan bejiz keltirib o'tilmagan.

Qadimgi turkiy adabiyotning yana bir nodir durdonasi hisoblanmish Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida ham ko'ngil haqida so'z yuritiladi.

“Yig'ip ko'ngli to'ymaz ko'zi suq baxil,
Qul ul molga moli angar erklik ul.” [7]

Ko'rinib turibdiki, ko'ngil timsolining ilk qo'llanilishi turkiy adabiyotning eng nodir durdonalariga borib taqalar ekan. Shu bilan bir qatorda tasavvufda ham ko'ngilga murojaat mavjuddir. Tasavvuf ilmida ko'ngilni alohida ulug'lashadi. Ayniqsa, ko'ngilning inson va uning taqdiridagi rolini tahlil qilishga urinishadi. Boisi ko'ngil tasavvuf ilmida eng muqaddas maskan hisoblanadi. Bu maskanda zavq-u shavqni, azob-u uqubatni his

qilishadi. “Tasavvufda dini, irqi, mazhabi, millatidan qat’i nazar olam xalqini birlashtiradigan yagona ibodatgoh bor. Bu tasavvufiy hayotning bosh manbayi – Dil va ko’ngul atalmish Alloh taxtidir” [9].

G’azzoliy o’z asarlarida qalb, yani ko’ngil xususida ko’p fikr yuritadi. Xususan, u o’zining “Ihyo ulumid-din” (Qalb kitobi)da shunday deydi: “qalb shunday narsaki, agar inson uni tanisa, batahqiq, o’zini tanibdi. Agar o’zini tanisa, batahqiq, Robbini tanibdi. Qalb shunday narsaki, agar inson uni tanimasa, o’zini ham tanimabdi, agar o’zini tanimasa, Robbini ham tanimabdi. Kim qalbiga johil bo’lsa, boshqalarga undan ham johilroqdir” [10].

G’azzoliyning e’tirofi bo’yicha, birinchi xil qalb behad kamyob, eng ko’p uchraydigani ikkinchisi, ya’ni o’tkinchi dunyo hirsiga to’lib-toshgan qalbdir. Qalbning uchinchi va to’rtinchisi ko’rinishlari mavjud bo’lsa-da, ammo ularning soni uncha ko’p emasdir. Shu o’rinda yana bir haqiqatga aniqlik kiritib o’tish maqsadga muvofiqdir. Tasavvufiy hayotning manbayi ham, mazhari ham ko’nguldir.

Imom G’azzoliy tasavvuf ilmida ko’ngil haqida fikr yuritar ekan “...tasavvuf qalb ila mashg’ul etadigan bir ilmdir” [11], – deb ta’kidlaydi. “Tasavvuf va tariqatlar tarixi” kitobida “Tasavvuf ko’ngil tarbiyasidir. Ko’ngil esa insonda mavjudligi uchun tasavvufning mavzusi inson, maqsadi esa uning qalb hayotini o’rganib, qalb tarbiyasi orqali kamol darajasiga ko’tarmoqdir... Tasavvuf o’ziga mustaqil bir olam bo’lmish inson qalbini tashxis etib, kuchlantiruvchi va Arshning atrofida parvoz etishni ta’minlashga qaratilgan bir ilmdir” [12], – deb yozilgan.

Tasavvuf adabiyotida qalb yoki yurakka nisbatan ko’ngul ko’p tilga olinadi va ko’ngul to’g’risidagi ko’p fikr bildiriladi. Xo’sh, buning sababi nimada? “Miftohul-qulub”dagi mana bu so’zlar ushbu savolga o’ziga xos bir javobdir: “Ko’ngul qalbning ichidadur. Sharafi qalbdan ko’p ortiq erur. Qalbgaga ozor berish insonni sirtidan buzadi, chirkinlashtiradi va halok aylaydi... Ko’ngul qalbning bag’rida bo’lganligi tufayli ko’ngulga qattiq tegmak odamni ham zohiran, ham botinan halok etar”. Mana shuning uchun ko’ngul taqdiri, holati va haqiqatlariga doir mulohaza va mushohadalar tasavvufda nihoyatda keng o’rin ishg’ol etgan. Hatto tasavvufiy istilohlar orasida qalb va ko’ngul holi yoki haqiqatlarini sharxlaydigan kalima va atamalar yetakchi o’rinni egallaydiki, buni bilmasdan, ayniqsa, tasavvuf she’riyatining mazmun-mohiyatini to’g’ri anglab ham, talqin qilib ham bo’lmaydi. Tasavvuf ta’limotida ko’ngil “arsh”ga, “ka’ba”ga, “ummon”ga, “dengiz”ga qiyoslangan.

Jaloliddin Rumi “qalbni tan mulkining sultoni, Alloh taolo ma’rifatining kaliti” [9:1], – deya ta’riflaydi.

Keyinchalik turkiy adabiyotda tasavvuf ta’limotida ijod qilgan Ahmad Yassaviy asarlarida ham ko’ngil obraziga katta e’tibor qaratildi. Biroq Ahmad Yassaviyning boshqa tasavvuf ta’limoti ijodkorlaridan farqi shunda bo’ldiki ijodkor ko’ngilni qushga, ko’zguga qiyoslay boshladi.

Ko’zum tushti, ko’nglum uchti, Arshqa oshti.

Umrum kechti, nafsim qochti, bahrim toshti.

Karvon ko’chti, manzil oshti, horib tushti,

Sir ulashti, netak bo’lg’ay holim mening.

Ko’rinib turibdiki, bu hikmatda Ahmad Yassaviy “ko’nglum uchti” deb ruhni hech narsaga qaramasdan tandan uchib Arshga talpinishini tasvirlaydi. Yuqoridagi hikmatda nafs masalasiga alohida urg’u berilgan. Nafsning qochishi ko’ngilning Arsh tomon talpinishiga sabab bo’lmoqda. Yuqoridagi parchadan anglab yetishimiz mumkinki, qadimda turkiy xalqlar ruh, ya’ni jonni qush shaklida tasavvur qilishgan. Bu haqida ozarlik olim M.Saidov shunday fikr bildiradi: “Qadimgi davrlarda inson ruhi asosan qush, kapalak va boshqa shaklda tasavvur qilingan. Ibtidoiy insonning bu tasavvuri keyin ham

ko‘p vaqtlargacha davom etgan” [13].

Ahmad Yassaviy kibr, nafsni yengish haqidagi hikmatlarida ham ko‘ngil timsolidan foydalanadi. Bunday vaziyatda zikrga murojaat qilish lozimligini ta‘kidlaydi. Yassaviyshunos N. Hasanov o‘zining tadqiqotida ko‘ngil jilosi bo‘lgan zikr haqida to‘xtalib o‘tgan. “Yassaviy fikricha, soliq zikr qilish darajasiga yetganida uning qalbidagi zanglar, qora illatlar asta-sekin o‘cha boshlaydi.

Aritur dil zangorin hu-hu yodi,

Oshiqlarning kecha-kunduz hu murodi.

Dildagi zang ketgach, ko‘ngil poklanib, “andog‘ zokir qul”ning botini-yu zohiri ilohiy nurga to‘ladi, botin ko‘zi ochiladi va Haqni mushohada-yu muroqaba qilish martabasiga erishadi... Xoh xofiy, xoh jahriy Haqni eslamog ko‘ngilni o‘ziga tortadi, ko‘ngil sadaf kabi bo‘lib, zikr tufayli buyuk injuga to‘ladi” [14], – deb yozadi.

Nasiba Bozorovanning fikricha “tasavvufda qalb tarbiyasi muhim sanalgan. Shuning uchun mutasavviflar ko‘ngil holi, hayoti kamolotga erishish asrori haqida keng bahs yuritishgan. Ko‘ngilning tasavvuf she‘riyatidagi o‘rni ham alohida. Bunga sabab tasavvuf she‘riyatining inson e‘tiborini ko‘ngilga jalb etib, qalb va ko‘ngil sirlarini ochishga ko‘p kuch sarflagan, Alloh va odam munosabatini ko‘ngil yo‘li va ko‘ngil ehtiyojlari orqali hal etishda katta natijalarga erishgan she‘riyat sanalganidir. Tasavvufiy she‘riyatda ko‘ngil tubdan yangi mohiyat kasb etdi. Ya‘ni u haq tajalligohi Arsh Allohning taxti darajasiga ko‘tarildi” [15].

Umuman olganda, tasavvuf adabiyotida, ayniqsa, tasavvuf she‘riyatida ko‘ngilning bunday ta‘riflanishi va tahlil qilinishida Islom dinining muqaddas kitobi sanalmish “Qur‘oni Karim”ning ham o‘rni bor. Xususan, “Qur‘oni Karim”ning ba‘zi suralarida “Allohdan qo‘rqingiz! Albatta, Alloh ko‘ngillar zoti (siri)ni biluvchidir” (Moida. 7.). “Bilinglarki, shubhasiz, Alloh har bir kishi bilan uning qalbi o‘rtasini egallab turur” (Anfol. 24.).

Bundan anglashiladiki, ko‘ngil muqaddas kitoblarda ham Haq Taoloning nazargohi sifatida tasvirlangan. “Hadisi Sharif”larda ko‘ngil Allohning taxti kabi tasvirlanishi bilan bir qatorda insonlarning mol-dunyo, nafs, qanoatsizlik kabi illatlarga qul bo‘lmasdan ko‘ngliga e‘tibor qaratishi ham ko‘p bora tilga olingan.

Chunonchi hadislardan birida bunday deyiladi. “Boylik mol dunyoning ko‘pligida emas, balki (haqiqiy) boylik ko‘ngil boyligidir” [16].

Ma‘lumki, o‘zbek adabiyoti tarixi XIV-XV asrdan boshlab yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Adabiyotning mavzular olami kengaydi. Xalq og‘zaki ijodi bilan yozma adabiyot o‘rtasidagi aloqalar yanada kuchaydi. Bu davrda ijod qilgan ijodkorlarning she‘rladida asosan ishq-muhabbat mavzusiga katta urg‘u berildi. Professor A. Hayitmetov ham XV asr she‘riyati to‘g‘risida shunday fikrlarni ilgari surgan. “Lutfiy, Gadoiy, Atoiy, Sakkokiy kabi shoirlar oshiqning ishq, dard-u hasrati, orzu-havaslari, intilishlari tasviriga tobora keng va jiddiy o‘rin berishgan. Ular o‘z yorining go‘zalligini ta‘rif-tavsiflabgina qolmasdan, o‘zining sevgisi, orzusi, ichki hayajonlari, dardu alamlari, javobsiz sevgisidan noroziligi haqida ham baland ovoz bilan gapiradi. Ko‘proq ana shu zaminda ruhiy tasvir unsurlari paydo bo‘ldi, inson obrazi borgan sari to‘laroq gavdalana boshladi” [17].

O‘sha davrda forsiy adabiyotda Firdavsiy, Sa‘diy, Hofiz, Attor, Nizomiy va Xayyom o‘z ijod namunalari bilan ko‘plab mamlakatlar adabiyotiga ta‘sir o‘tkazgan. Turkiy va forsiyda ijod qilgan ijodkorlarning she‘rlarida asosan ishq mavzusi asosiy o‘rinda bo‘lgan. Ishq mavzusi, sevgi-muhabbat motivi aks etgan she‘rlarda, albatta, lirik qahramon ko‘ngil holati tasvirlanadi.

Ko‘nglim bu – hayronim mening shaydo-yu sayroning sening,

Shaydo-yu sayroning sening ko‘nglim bu – hayronim mening [18].

Hofiz qalamiga mansub bo'lgan g'azaldan parchada yor ishqida ko'ngil hayronligi, hayron ko'ngil dildoriga shaydo ekanligi aytilgan.

Bir g'arib ko'nglini qila olsang shod,
Yaxshidir yer yuzin qilgandan obod,
Lutfing-la bir dilni qul qila olsang,
Afzaldir yuz qulni qilmoqdan ozod [18:1].

Xayyomning quyidagi ruboiysi negizida ham yor ishqiy yotadi. Shoir sevgi kuyida g'arib bo'lgan ko'ngilning vasfini bayon qiladi.

Yuqorida ikki ijodkor she'rlaridan anglashimiz mumkinki, ko'ngil timsoli ishq-muhabbatga erishish uchun vositachi yoki bo'lmasa, sevgidan azob tortganda sirdosh do'st sifatida kelgan. Xuddi shu kabi forsiy adabiyot namoyandalarining deyarli barchasi she'rlarida ko'ngil timsolini shunday tasvirlaydi.

Turkiy adabiyot ijodkorlarining ijod namunalarini kuzatsak, forsiy adabiyotdagi unsurlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa bu hol ko'ngil timsoli tasvirida yanada ko'proq seziladi.

Tortaram yuz ming jafo ko'nglum elindin, koshki
Bergay erdi haq ko'ngul, berguncha sangi xoraye [18:2].
Lutfiy g'azalidan keltirilgan parchada botiniy va zohiriy ishqqa diqqat qaratilgan.
Ey ko'ngul, bu yo'lda ne g'amdur senga
Kim, xayoli yor hamdamdur senga.
Sevdung o'z haddingdin ortuq yorni,
Gar seni kuydursalar, kamdur senga [18:3].

Shoirning quyidagi ruboiysida esa yorga bo'lgan ishq qalamga tortiladi. Lutfiy sevgi yo'lida ko'ngliga g'am kelganini, shunday bo'lsa-da, yor xayoli bilan yashashda davom etishini, bu yo'lda ishqdan kuysa ham, bu shoir uchun kamlik qilishini tasvirlaydi.

Ko'nglum kuyarindin sanga men pand berurmen,
Ey mahrami jon-u jigarim, netti, ne bo'ldi? [18:4]

Yana turkiygo'y ijodkorlardan biri Atoiy qalamiga mansub "Ne bo'ldi" radifli g'azaldan keltirilgan misralarda shoir yor holini bilish uchun azoblanayotgan ko'ngilning holini bayon qiladi.

Yuqorida tahlilga tortgan forsiy va turkiy shoirlar ijodidagi parchalardan shuni anglashimiz mumkinki, adabiyot rivojlanib borgani sari undagi obraz va timsollarning mavzu ko'lami ham kengayib bordi. Shu jumladan, ko'ngil obrazi ham umuman forsiy va turkiy adabiyotda pand-nasihat ruhida yozilgan she'rlarda, ishqiy mavzudagi she'rlarda, tasavvufiy ta'limot aks etgan she'rlarda makon va zamon nuqtayi nazari bilan turlicha talqin etilib asrdan asrga o'tib kelmoqda. Boisi, ko'ngil Allohning insoniyatga bergan eng bebaho mulki hisoblanadi. Shunday ekan, ko'ngil timsoli qaysi mavzudagi she'rlarda aks etishidan qat'i nazar unda inson va his-tuyg'u bog'liqligida namoyon bo'ladi.

Bundan anglashiladiki, adabiyotning istalgan turi va janrida inson obrazi maydonga chiqdimi, demak, uning ko'ngil tasviri ifodasi, albatta, aks etadi. Bunda ijodkor qalbi bilan uning asari qahramoni qalbi o'rtasida bog'liqlik vujudga keladi. "San'at asaridan huzurlanish san'atkor qalbi bilan munosabatga kirishishdan iborat..." [19], deyilgan.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, mumtoz adabiyotdagi ko'ngil timsoli bevosita Qur'oni karim oyatlari, hadislar, xususan, yirik mutasavviflarning Alloh va inson ma'naviy kamoloti haqidagi fikrlari asosida shakllandi. Keyinchalik ushbu g'oyalarning yirik mutasavviflar tomonidan asrlar davomida mukammallashuvi hamda ularning buyuk so'z san'atkorlari ijodida badiiy sayqal topib insonning ma'naviy kamolotiga xizmat qildirilishi ko'ngil timsolining mumtoz adabiyotdagi tayanch mavzuga aylanishiga sabab bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гегел. Эстетика. Т.3. – М., 1971. – 504 б
2. Бозорова Н. Навоийнинг ижод олами. // Кўнгил тимсоли ва тасвир санъати. Мақолалар тўплами. –Т.: Фан. 144-б
3. Bekmirzayeva X. Bobur she'riyatida poetik obraz. – Т.: Muharrir, 2013. 22-б
4. Исхоқов Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси. –Т., 1965. 76-б
5. Лутфий. Сенсан севарим... – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. 146-б
6. Бобур З.М. Бобур шеърятидан. – Т.: 1982. 42-б
7. Алишер Навоий. Ҳайратул аброр. МАТ. 20 жилдлик. – Т.: Фан, 1991. 7-жилд
8. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – Т., 2017. 282-283 б

TARIXIY MUHIT VA BADIY TASVIR**Imomova Gulchehra Muhammadiyevna**

QarDU, filologiya fanlari doktori

gulchehramomova@gmail.com

ORCID 0009-0003-9290-5631

UDK 821.512.133

Annotatsiya. Ma'lumki, ijtimoiy-siyosiy tuzum ta'siri jamiyatning turli sohalarida seziladi. Ana shunday sohalarining biri adabiyotdir. Mazkur maqolada ijtimoiy va siyosiy tuzumga hukmronlik qilgan mafkura ta'sirida qolgan, ular bilan kurashgan yoxud moslashgan, o'z asarlarida zohiran muhitga qarshi isyon ruhini singdirgan, insoniyatning ulkan iztiroblari tasvirlangan badiiy ijod namunalari o'zbek hikoyachiligi misolida tahlil etildi.

Bundan tashqari maqolada jamiyatning ongli va ilg'or qatlamiga mansub ijodkorlar turli zamonlarda mafkuraviy zo'ravonliklar hamda haqsizliklar bilan kurashga chiqqanliklari, biroq mafkura hukmronligi paytida ijodkorlar uning ojiz va nomuqobil jihatlarini fosh etuvchi asarlarni ochiqdan ochiq yoza olmaganlari, mana shunday vaziyatda ijodkorlar asarlarida badiiy qatlam ostida fikrlarini bayon qilganlari tahlilga olingan.

Maqolada o'zbek yozuvchilarining hikoyalari obyekt qilib olingan.

Kalit so'zlar. hukmron mafkura, tarixiy muhit, badiiy tasvir, milliy adabiyot, shaxs, jamiyat, badiiy qatlam, modern, syujet, ijtimoiy tuzum, ruhiy iztirob, fojiviylik.

HISTORICAL ENVIRONMENT AND ARTISTIC IMAGE

Abstract. It is known that the influence of the socio-political system is felt in various spheres of society. One such field is literature. In this article, examples of artistic creations that were influenced by the ideology that dominated the social and political system, fought with them or adapted, instilled in their works the spirit of rebellion against the external environment, and depicted the great suffering of humanity, were analyzed on the example of Uzbek storytelling. In addition, the article states that artists belonging to the conscious and progressive strata of society have fought against ideological violence and injustice at different times, but during the reign of ideology, artists could not openly write works that expose its weak and inappropriate aspects. Those who expressed their opinions below were analyzed. In the article, the stories of Uzbek story writers are taken as an object.

Keywords. dominant ideology, historical environment, artistic depiction, national literature, personality, society, artistic stratum, modern

Kirish. Har bir ijtimoiy-siyosiy tuzum muayyan mafkura ta'siri ostida, aniqroq qilib aytganda, o'sha mafkuraga bo'ysungan holda yashaydi. Chunki jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti hukmron mafkuraning xarakteriga qarab yuz beradi. Jamiyatdagi hukmron mafkura barcha kishilarning xohish-irodasini aks ettirsa, ularni amalga oshirishga yordam bersa, bunday mafkura mustahkam va barqaror bo'ladi. Agar hukmron mafkura jamiyat ustidan zo'ravonlik qilsa, uning manfaatlarini adolatsizlarcha buzsa, bunday mafkura uzoq yashay olmaydi, u ko'pchilik tomonidan inkor etilishga mahkum bo'ladi.

Jamiyatning ongli va ilg'or qatlamiga mansub ijodkorlar turli zamonlarda mafkuraviy zo'ravonliklar hamda haqsizliklar bilan kurashga chiqadilar. Yaqin o'tmishimizda hukmron bo'lgan kommunistik mafkura ana shunday zo'ravonliklar, taqiqlar homiysi sifatida inkor etildi. Biroq mazkur mafkura hukmronligi paytida ijodkorlar uning ojiz va nomuqobil jihatlarini fosh etuvchi asarlarni ochiqdan ochiq yoza olmadilar. Lekin ijodkor burchi, da'vati

uning illatlarini aks ettirmay turolmas edi. Mana shunday vaziyatda adiblar va shoirlar asarlarida badiiy qatlam ostida fikrlarini bayon qildilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Badiiy ijod talablari va ijodkor burchi badiiy tasvirlash jarayonida aks etadi. Bu jarayonda esa yozuvchi betakror adabiy kashfiyotlarni amalga ochiradi. Maqolada ilgari surilgan masalalar mohiyatini ochib berishda qiyoslash, analiz va sintez, umumlashtirish va nazariy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. O‘zbek hikoyachiligi tarixiga nazar tashlasak, uning turli davrlarida adiblarimiz asarlarida serqatlamlilikka o‘rni-o‘rni bilan murojaat etganliklarini ko‘ramiz. Abdurauf Fitratning “Qiyomat”, Abdulla Qahhorning “Bashorat”, Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam”, “To‘zon” singari hikoyalari fikrimizning dalilidir.

Ma‘lumki, badiiy ijodning o‘z talablari, favqulodda kashfiyotlari, ongosti oqimlari, sarkash dolg‘alari borki, ular haqiqiy iste‘dod egalari doimiy izlanishlarga undaydi, o‘z ideallariga xizmat qiluvchi usul hamda vositalarni topishga majbur etadi. Badiiy tasvirlar ana shunday izlanishlar mahsuli sifatida yuzaga keladi. Badiiy tasvir hodisasining turlari ko‘p. Ular ichida asar serqatlamliligi alohida o‘rin tutadi.

Badiiy asar ko‘pqatlamliligiga ijodkorlar jamiyat hayotida ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar davrida yangidan yuzaga kelgan mafkuraning hukmronligi zo‘ravonlik darajasida amalga oshirilgan paytlarda ko‘proq murojaat qiladilar. Inson ahli davrning siyosiy talabini ko‘proq va chuqurroq his qiladilar, har doim hukmron tabaqalarning ularga nisbatan nazorati, tazyiqi kuchayadi. Mana shunday hollarda ijodkorlar turli xildagi mafkuralarni o‘zaro bir-biriga uyg‘unlashtirish, singdirish-sintezlash orqali zohiran davr talablariga hozirjavoblikni ifodalasalar, botinan o‘zlarining ideal g‘oyalarini ramziy yo‘l bilan ifodalashga intiladilar.

Abdurauf Fitratning “Qiyomat” hikoyasi (1923) endigina shakllanib kelayotgan o‘zbek realistik hikoyachiligida real badiiy tasvirning dadil va muvaffaqiyatli qo‘llanishi bilan alohida diqqatga sazovor.

Masalaning yana bir jihati e‘tiborga molik, badiiy tasvir faqatgina hukmron siyosat bilan bog‘liq, deb xulosa qilish bir yoqlamalilikka olib keladi. Ijodkorlarning ana shunday fikrga kelishiga asos bor, albatta. So‘z va fikr erkinligi berilgan davrda yaratilgan bir qator hikoyalar mavjudki, ularda yozuvchilar asarning g‘oyasi ostida badiiy tasvirdan o‘ziga xos usul sifatida foydalanishgan. Har bir davr adabiyoti yangi qarashlar va tamoyillar hisobiga boyib boradi. Fitrat va Abdulla Qahhor nasrida kuzatilgan tahlillar mustaqillik davri nosirlari hikoya va qissalarida yangicha izlanishlar samarasi o‘laroq ko‘zga tashlanadi.

Fitratning “Qiyomat”, G‘afur G‘ulomning “Hasan Kayfiy”, Abdulla Qahhorning “Dahshat”, “O‘g‘ri” hikoyalari o‘tmishda, chor istilosi va undan keyingi sobiq sovet ittifoqi davrida erksizlik, huquqsizlik, jamiyatning zulm-zo‘ravonlikka asoslanganligi ko‘rsatilgan. Hasan Kayfiy qiyofasida o‘z qarashlariga ega, siyosatdan chetda, o‘z e‘tiqodiga ega bo‘lgan kishining hayoti aks etgan. Podsho bilan har kech bo‘ladigan suhbatda Hasan Kayfiy xarakteriga xos halollik, qanoatpeshalik, bag‘rikenglik ko‘rinsa, podsho obrazi orqali o‘zini tan oldirish, o‘z shaxsiyatini va hukmini odamlarga majburan singdirmoqchi bo‘lgan, o‘zini qudratli va hammaga kerakli hisoblaydigan kalondimog‘, shuhratparast, maqtanchoq hukmdorning qilmishlari fosh qilingan.

“Dahshat” hikoyasida Dodxohning yoshgina xotini Unsinning o‘z erki yo‘lidaga mardona harakatlari, erk uchun mozorga borib choy qaynatib kelishi va qabristonda yelkasiga maymun chiqib olishi, haddan tashqari qo‘rquv tufayli hayotdan fojiali bir tarzda ko‘z yumishi ko‘rsatilgan.

“O‘g‘ri” hikoyasida nochor bir odamning ellikboshi, pristav kabi mansab egalari tomonidan kamsitilishi, odam o‘rnida ko‘rilmasligi, hatto kambag‘alning fojiasidan biror foyda undirish payida bo‘lgan amaldorlarning qiyofasi ochib berilgan. Sanab o‘tilgan asarlardagi mushtaraklik inson erki va qadr-qimmatini bilan aloqador bo‘lgan tuyg‘u. Tarixiy-ijtimoiy muhit va undagi nuqsonlar tanqid qilingan mazkur hikoyalarda inson qadri va sha‘ni oliy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan.

Modern ruhida yaratilgan hikoyalarda bu hol yanada yaqqol ko‘rinadi. Mustaqillikdan

keyin milliy adabiyotimizga kirib kelgan modern ruhi o'tgan davr mobaynida ayrim ijodkorlar asarlarida ustuvorlik qilayotganligini ko'rish mumkin.

Nazar Eshonqulning "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi 1989-yilda yozilgan va o'sha paytda ancha bahs-munozaralarga, shov-shuvga sabab bo'lgan edi. Hikoyaning bosh qahramoni bo'lgan cholga yozuvchi nom bermaydi. Bu bilan asar qahramoni alohida bir shaxs emas, ko'pchilikning timsoli, degan xulosa chiqarish mumkin. Yoki erksizlik hukmron bo'lgan jamiyatda inson shaxsi yemirilishga mahkum ekanligiga ishora qilingan deyish mumkin. Yozuvchi qahramonning qiyofasini quyidagicha tasvirlaydi: "U qoboqlari soliq, soqoli qirilmagan, bir paytlar semiz bo'lgan, ajinlar taram-taram qilib tashlagan ko'rimsiz yuzi tarix kitoblarida tasvirlangan badjahl ma'budlarning haykaliga o'xshab ketar, unga qaragan odamning yuragi orqaga tortardi. Ko'zlari hissiz va ifodasiz..." Adib qahramonning portretini chizar ekan, borgan sari qora bo'yoqlar kuchayib boradi va kitobxon qalbida unga nisbatan ham qiziqish, ham yoqtirmaslikka o'xshash his paydo bo'ladi. Asli kasbi rassom bo'lgan chol yashaydigan uyning tasviri orqali uning hayot tarzi, xarakteri, ichki olami ochib berilgan.

Yozuvchi avval qahramonning tashqi ko'rinishi, so'ng uning botiniy olamiga nazar soladi. Asar nomini tushunishda ham shartlilik mavjud. Maymun(ni) yetaklagan odammi yoki odam maymunni yetaklaganmi? Asar davomida bir umr ishongan narsalari yolg'ondan iborat ekanligi, e'tiqod va ishongani puch bir narsa ekanligi ayon bo'lgan odamning ahvoli yanada yorqinroq tus oladi. Rassomning bunday nochor va g'arib ahvoliga ijtimoiy tuzum sababchi degan xulosa kelib chiqadi. Xalqlar turmasi deb nom olgan sho'ro tuzumi qoralangan asarlarning o'ziga xos tomonlaridan biri ularda badiiy tasvir yozuvchi maqsadini yashirish uchun vosita vazifasini o'taydi.

Hikoyani o'qish davomida tasvirning nafaqat cholning hayotiga, balki tuzumga daxldor ekanligi, inson haq-huquqlari poymol bo'lgan jamiyatning inqirozga yuz tutishi muqarrarligi ko'rsatilgan. "Cholning uyi hashamatli, keng, lekin tashlab ketilgan maydonday huvillab yotardi. Ustun va romlar chirigan, umuman, hovlidan chirkin va badbo'y hid kelardi. Chirkin hid daraxtdan, qor ostida qolib qarovsizlikdan xazonlikka yuz tutgan gulzordan, uying yog'ochlaridan va ayvonda qalashib yotgan har xil rasmlar uyumidan kelayotgan edi..." [3;121]

Tasvirdan sezilib turibdiki, cholning umri sho'ro mafkurasiga ishonib o'tgan va qarigan chog'ida u haqiqatni anglab yetgan. Kundan kunga yemirilib, parchalanib borayotgan uyning tasviri orqali, aslida, cholning butun boshli hayotiga ishora qilingan. Mustabid mafkura, totalitar tuzum, inson erki, sha'ni, qadr-qimmat, tili, dini oyoqosti qilingan zamonning asl basharasi ochilgan hikoyada, bir avlod umrining tanazzuli ko'rsatib berilgan.

Rassom chol chizgan suratlar va eskizlarning "1957", "1947", "1926", "1928" tarzida nomlanishida ramziylik bor. Ayni mana shu yillarda turli qatag'on, "xalq dushmani" degan ayblov bilan millat ziyolilarini qirib yuborish, adolatsiz va zulmga tayangan siyosiy o'yinlar amalga oshirilgan. Millatning eng sara, hur fikrli kishilarini yalpisiga qatag'on qilish ommaviy tus olgan davrlarni ko'rsatib turuvchi rasmlarda qora rang quyushlab boradi.

Faqatgina dastlabki "1921" sanasi qo'yilgan suratda qora rang boshqalariga nisbatan biroz kam, unda o'rmondan maymunni yetaklab chiqayotgan kuchli va alpqomat yigit aks etgan. Suratlarini ko'zdan kechirgan kishining qalbida allaqanday anglab bo'lmas va tushuniksiz g'ashlik paydo bo'ladi, diliga noxushlik yopirilib kiradi.

Agar 1926-yildayoq Abdulla Qodiriyning "Yig'indi gaplar" asari uchun qamoqqa olinganligini eslasak, yozuvchi tanlagan raqamlarning har biri ma'lum bir voqeaga ishora ekanligi anglashiladi. Maymun yetaklagan yigit suratida "Yigitning ko'zlari tiyrak va ishonch bilan porlab turar, maymunning bo'yniga osilgan kishan tarang tortilgan edi". [3;123]

Bu suratlarda nafaqat cholning, balki butun boshli davrning fojiasi aks etgandi. Maymun tabiat ramzi bo'lsa, yigit jamiyatning timsoli. Ma'lumki, sho'ro davrida tabiatni bo'ysundirish, inson manfaatlariga xizmat qildirish uchun harakat qilingandi. Ikki o'rtadagi ayovsiz kurashda har ikkala tomon juda katta talafot ko'rganligi ham ayni haqiqat. Birgina Orol fojiasini eslashning o'ziyoq bu muammoning nechog'li keng qamrovligini bildiradi.

Tabiatning o'ziga qilingan zo'ravonlik uchun o'ch olishi, munosib javob qaytarishini bugun kundalik hayotning o'zi tasdiqlab turibdi. Inson tabiatga qo'shib o'zini, o'zligini ham xarob qildi. Hikoya serqatlam, polifonik xususiyatga ega, unda inson, tabiat va jamiyat uchligi tasviri orqali ulkan fojining ildizlari ochib berilgan, deyish mumkin.

Cholning alamzada, asabiy, hayotdan noroziligi sabablari, uning yo'qotishlari va o'zini baxtsiz, tushkun his qilishi jamiyatning mohiyatini tushunib yetganligi bilan izohlanadi. Bu narsa chol va ijarachi yigit o'rtasida kechgan suhbatda oshkor bo'ladi. Cholning hayot, jamiyat va odamlar to'g'risidagi fikrlari zamirida mantiq va falsafa yashirin. Jumladan, chol e'tiqod haqida shunday deydi: "E'tiqod! – dedi u g'ussali ohangda, – agar bir umr e'tiqod qo'yib yashasang-u, bir kuni e'tiqod qo'ygan narsangiz puch, yolg'on va puflab shishirilgan sharday omonat, siz ezgulik deb sig'ingan narsalar, asli razolat ekanini anglab qolsangiz, bunday demasdingiz; ana shunda umringiz yomonlik bilan yaxshilikning farqi qolmagan, xuddi yo'ldan chiqib ketgan shaldir-shuldir, bo'm-bo'sh aravaga aylanardi". [3;128]

Tarixiy muhitni badiiy tasvirlar orqali yozuvchi mustabid tuzumning qiyofasini yaratgan va inson qadr topmagan har qanday jamiyatning inqirozga yuz tutishini ko'rsatgan. Rassom cholning eng oxirgi suratida xuddi birinchi rasmdagi kabi o'rmon tasvirlangan. Bu ikki surat o'rtasidagi farq cholning hayoti bilan bog'liq. Suratda qari, munkayib qolgan cholni o'rmonga boshlab ketayotgan maymun tasvirlangan. Inson umrining ibtidosi va intihosi aks etgan suratda tarixiy-ijtimoiy muhit, shaxs fojiasi to'la namoyon bo'lgan. Bu hikoyada ramziylik ham tabiatga, ham jamiyatga ko'chirilgan, ko'p qatlamli tasvir va ko'p fikrlilik orqali umri yolg'onlarga to'lib-toshgan inson umri ko'rsatilgan. Davrga aybnoma kabi yaratilgan bu hikoyada bir nechta g'oya ilgari surilgan, hikoyaning oxiridagina kitobxon yozuvchining nima demoqchi bo'lganligini anglab yetadi. Modern kayfiyatining o'ziga xos namunasi bo'lgan bu hikoya, shubhasiz, nasrimizning yutuqlaridan biri deyish mumkin.

Nazar Eshonqulning "O'lik mavsum" [3;168] hikoyasida bayon qilingan voqea real hayotdagidek tuyuladi. Oliy o'quv yurti talabalari hammalari uchun nihoyatda sevimli bo'lgan o'qituvchilarining har bir darsini orziqib kutishadi. Uning har bir sabog'idan o'zlari uchun zarur bo'lgan ham ilmga, ham ruhiyatlariga yorug'lik beruvchi, tafakkurga kuch beruvchi ma'naviy chanqoqlikni qondiruvchi xazinaga ega bo'lishadi. Ustoz shogirdlarning savollariga javob qaytarar ekan, talabalar uning fikrlaridan hayratga tushadi. Favqulodda iste'dod sohibi bo'lgan bu insonni hammalari chuqur hurmat qilishadi va unga nisbatan ehtirom ko'rsatishadi. Ular o'zaro kelishib, ta'til davrida ustoz bilan ko'rishib, u bilan yanada yaqinroq tanishmoqchi bo'ladilar. Ta'til payti, ehtimol, ma'naviy tanazzul boshlanayotgan davrga ishora.

Xullas, ustozni uchrashuvga taklif qilmoqchi bo'lgan yoshlar uning yashash manzilini izlay boshlaydilar. Biroq uning uyini hech kim bilmasdi. Va nihoyat, xodimlar bo'limidan uning uy manzilini topishadi. Voqealar shu nuqtaga kelganda eng yuqori nuqtaga ko'tariladi. Bir qarashda tasvirlanayotgan real voqelik mutlaqo boshqacha tus oladi. Kitobxonni hikoyani qayta jiddiy o'qishga, unda yuz berayotgan voqealarga boshqacha nazar solishga majbur qiladi. Chunki ular ustozning manzilini izlab topishganida g'alati bir holga tushadi. Ustozning uyi deb ko'rsatilgan manzil, qabriston bo'lib, qabriston va uyning raqami bir xil ekanligi, aslida, uning allaqachon vafot etib ketganligi va o'zlariga dars bergan odamning marhum ekanligi aniq bo'ladi. Voqeadan insonga faqat tiriklar emas, balki marhumlar ham ustozlik qilishi mumkin, degan xulosa chiqadi.

Qatag'on qurboniga aylangan Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon kabi yuzlab alloma-ijodkorlarning kitoblari goh oshkora, goh yashirin tarzda qariyib bir asrdan buyon ilm-fan va adabiyot ahli tomonidan sevib o'qib kelinmoqda. Shunga asoslansak, ustozlik qiladigan rahnamoning tirik bo'lishi unchalik ahamiyatga ega emasligi ko'rinadi.

Xulosa. XX asrda xalqimiz bir necha marta qatag'onga duchor bo'ldi, millatparvar zotlar turli siyosiy ayblar bilan otildi, surgun qilindi, ijodlari taqiqlandi. Fitrat, Qodiriy yashagan 37-yillar, Oybek, Shayxzoda, Mirtemirning uzoq muddatga qamalishi – ikkinchi repressiya, Said Ahmad singari yozuvchilarning nohaq hibsga olinishi, 70–80-yillardagi siyosiy bo'hronlar, so'z erkinligining ta'qib ostiga olinishi, har qanday hur fikrning keskin qarshilikka uchrashi. Bularning barchasi

millatning ruhini sindirishga, uni ma'naviy-ruhiy jihatdan majruh qilishga qaratilgan, tili, dini, an'ana va qadriyatlaridan ajratib, shonli tarixini buzib ko'rsatib, o'zligidan ayirishga mo'ljallangan edi.

Mustaqillik davri hikoyachiligi to'g'risida fikr yuritilar ekan, ijodkorlar insonning o'z savollariga o'z botinidan javob izlashi, o'zini taftish qilishi, o'zini so'roqqa tutishi, izlayotgan narsasi, aslida o'zida ekanligini anglashi lozimligi, shaxs va millat dardi birlashmas ekan, jamiyat taraqqiy etmasligiga alohida e'tibor qarata boshlaganlarini qayd etishlari shart. Bu milliy adabiyotimizning yutug'idir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Belinskiy V.G. Tanlangan asarlar. –T.: O'zdamnashr, 1955
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari., Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti 2002-yil
3. Eshonqul Nazar. Maymun yetaklagan odam. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – B. 123.
4. Matyakubov S.T. Hozirgi o'zbek hikoyachilarida inson konsepsiyasi va shaxs badiiy talqini. Filologiya fanlari nomzodi diss. avtoref. – Toshkent, 2006. – B. 22
5. Murodov G'. Tarixiy romanning mushtaraklik va o'ziga xosliklar uyg'unligi. Filol fan. d-ri (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018. – B. 78.
6. Quchkarova M.X Hozirgi o'zbek nasrida badiiy shartlilik. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – B. 72.
7. Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. – Toshkent: Sharq NMAK, 2004. – B. 459.
8. Tavaldiyeva G. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida voqelikni badiiy idrok etish prinsiplari. Filologiya fanlari nomzodi diss. avtoreferat. – Toshkent, 2001. – B. 24.
9. Umurov X. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq matbaa –nashriyoti, 2005.
10. Каримов Б. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Фан, 2016.

ADABIY- ESTETIK QARASHLAR VA IJODKOR BIOGRAFIYASI (PIRIMQUL QODIROV IJODI MISOLIDA)

Sattorzoda Xurshidabonu Sobir qizi

Qarshi davlat universiteti,

10.00.02-O'zbek adabiyoti ixtisosligi tayanch doktoranti

sattorzodaxurshidabonu@gmail.com

ORCID 0009-0004-2553-5199

UDK 821.512.133

Annotatsiya. Adabiyotshunoslikda ijodkor tarjimai holi yozuvchi badiiy biografiasini va ijodiy psixologiyasini aniqlashda muhim o'ringa ega. Maqolada badiiy asar yaratishda yozuvchi biografiasining o'zni, ularga ta'sir etuvchi omillar Pirimqul Qodirovning adabiy-estetik qarashlari misolida tadqiq etildi. Adib biografiasining ijodiy jarayonga ta'sirini o'rganishda qiyosiy tipologik, analiz va sintez metodlaridan foydalanildi. Ijodkor estetik idealining shakllanishida alohida ahamiyatga molik bo'lgan bir qator omillar: ijodkorning shaxsiy hayoti, yaqin insonlari, o'qigan kitoblari, ustozlari va do'stlari bilan bog'liq xotiralarning yozuvchi adabiy pozitsiyasiga ta'siri kabi masalalar atroflicha ko'rib chiqildi. Maqolaning umumiy xulosasi sifatida Pirimqul Qodirov badiiy tafakkuri va ijodiy xotirasining o'zaro sintezlashira olish mahoratiga ilmiy baho berildi.

Kalit so'zlar: biografik metod, ijodiy xotira, ijodkor "men"i, yozuvchi biografiasini, tarjimai hol, estetik ideal, ijodiy psixologiya, biografik yondashuv

LITERARY-AESTHETIC VIEWS AND BIOGRAPHY OF THE CREATOR (ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF PIRIMKUL KADYROV)

Abstract. In literary criticism, the biography of the author plays an important role in determining the artistic biography and creative psychology of the writer. The article examines the role of the author's biography in creating a literary work, the analysis of the factors influencing them, using the example of the literary and aesthetic views of Pirimqul Qodirov's work. Comparative typological, analysis and synthesis methods were used to study the influence of the author's biography on the creative process. A number of factors of particular importance in the formation of the creative aesthetic ideal were examined in detail: the influence of the author's personal life, memories related to close people, books read, teachers and friends on the writer's literary position. As a general conclusion, the article provides a scientific assessment of Pirimqul Qodirov's ability to synthesize artistic thinking and creative memory.

Keywords. biographical method, creative memory, creative "I", writer's biography, biography, aesthetic ideal, creative psychology, biographical approach

Kirish. Ijodkor biografiyasi adabiyotshunoslik uchun san'atkorning ichki "men"i va estetik idealini ochib bera olishi mumkinligi jihatidan dolzarb masaladir. Azaldan mumtoz adabiyotimizda tazkiralalar ijod kishilarining tarjimaiyati holidan so'zlaganligi bilan adabiyot ixlosmandlariga yaxshi ma'lum. Masalani aynan o'rganishning asl genezisiga boradigan bo'lsak, Antik davridayoq bu borada qiziqish bildirilgan. Yozuvchilar ham tarixiy shaxslar deb hisoblanib, ularning hayot yo'lini ijodi bilan o'rganishga harakat boshlangan bo'lsa-da, bu masalaga jiddiy yondashilmay, tadqiqotlab bo'lib qolavergan.

Biografik metodning asoschisi hisoblangan fransuz adabiyotchisi, olim Sent-Byov o'z tadqiqotlarida ijodkorning oilaviy muhiti, turmush tarzi, yaqin insonlari, ijtimoiy kelib chiqishi, orzu-intilishlari, muhabbati, kamchilik va yutuqlari, shaxsiy qiziqishlari, bolalikda o'qigan kitoblari, hayotida qandaydir ma'noda iz qoldirgan kishilar va boshqa omillarning ta'sir ko'rsatishini ko'p bora ta'kidlagan va ilmiy asoslab ham bergan. Sent-Byov tadqiqotlaridan so'ng uning ilmiy izlanishlari davom ettirildi va rivojlantirildi. Xususan, Lakomb, Renar, Maks Verli, Viktor Jiro, Valter Mushg, D.Shtolnits, Andre Morua, B.M.Kedrov, M.G.Yaroshevskiy, B.S. Meylax, A.Mashkovskiyalar shular jumlasidandir. Ular o'z tadqiqotlarida Sent Byov asos solgan "Badiiy asarga biografik yondashuv" nazariyasini takomillashtirdilar.

Pirimqul Qodirovning estetik qarashlari fonida uning tarjimaiyati hol tipidagi mulohazalari, ijodiy xotiralari va esdaliklari alohida tahlilni talab etadi. Yozuvchining ijodiy "men"i bilan biografik "men"ini uyg'unlikda o'rganish, albatta, murakkab jarayon. Adib asarlarida aks etgan yozuvchi biografiyasi ijodkor psixologiyasi, ko'rgan-kechirganlari, yaqin kishilari bilan bog'liqligini tahlil qilar ekanmiz, masalani yoritishda asosan tarjimaiyati hol tipida yozilgan badiialar va adabiy suhbatlardan foydalandik. Zero, adib o'zi haqida soxta so'zlar va yolg'on to'qimadan yiroqda bo'ladi. Adabiyotshunos olim A. Rasulov aytganidek, "Yozuvchi ijodini haqqoniy talqin qilish, baholashda ishonarli bitilgan holat, hasbi hol, tarjimaiyati holning ahamiyati beqiyosdir. Biografiya yaratishda saktalik va soxtalikka yo'l qo'yish gunohi azimdir" [9;29]

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiy asarlarni tahlil qilishda biografik yondashuv adabiyotshunosligimizda o'rganilayotgan jarayonligini hisobga olsak, ijodkor tarjimaiyati holining adabiy asarlari uchun fabula bo'lishligi oddiy holdir. Shu jihatdan tadqiqotimizda ijodkorning tarjimaiyati hol va ijodiy xotira tipidagi estetik qarashlarida aks etgan ijodiy "men" va ularga ta'sir etgan biografik omillarni adibning o'z badii va maqolalari yordamida batafsil ochishga qaror qildik. Tadqiq davomida empirik tadqiqotning analiz va sintez, kuzatish, umumlashtirish, turkumlash va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Qolaversa, tiplarga ajratishda ijodkor psixologiyasi va shaxsiy xotiraning umumlashma natijasi sintez qilindi.

Natijalar va muhokama. Olima Obodon Adizova aytganidek, "...yozuvchilarning shaxs va ijodkor sifatidagi xususiyatlarini, ularning shoir yo adib sifatida shakllanishiga turtki bo'lgan omillarni, yaratgan asarlarida o'z-o'zini oddiy inson ko'rinishida namoyon eta olish iste'dodini o'rganish foydadan holi bo'lmaydi." [1;250] Shu fikrlarning isboti o'laroq tadqiqotimiz davomida Pirimqul Qodirovning tarjimaiyati hol tipidagi estetik qarashlarda ijodkorning o'z so'zi bilan aytgan fikrlarni ijodiy ideal shakllanishiga turtki bo'lgan omillar sifatida umumlashtirdik.

"Har qanday millat yozuvchisi yoki shoiri o'z asarida millatga, xalqqa qaratilgan chuqur falsafiy g'oyalarni aks ettiradi. Adabiyotning tarbiyaviylik funksiyalaridan biri bu omilning amalga oshishida birlamchi rol o'ynaydi. Ijodkor aynan men biron noto'g'ri ish ro'y bermasligi uchun insonlarga saboq, o'git berish uchun yozaman, demaydi. U shunchaki hayot fabulasini badiiy asar syujetida aks ettirib beradi va ko'rsatish, oyna tutish orqali tarbiyalaydi, ezgulikka chorlaydi". [8;15] Ko'rinadiki, adabiyotshunos olim No'monjon Rahimjonovning fikriga ko'ra, hayot fabulasi ijodkorning badiiy asar

tug‘ilishida eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan vosita bo‘lib xizmat qiladi. Pirmqul Qodirovning badiiyat biografiyasiga oid estetik qarashlarida adibning yozuvchilikka yetaklagan estetik tafakkuri shakllanishiga ta’sir etgan psixogenetik omillar sifatida oila va tarbiya, yaqin insonlari, e’tiqod, ijtimoiy-siyosiy vaziyat, adabiy jarayon va boshqa faktorlarni ko‘rish mumkin.

Pirmqul Qodirovning hayot yo‘li zamondoshlariniki kabi ancha murakkab. Qatag‘on bo‘lgan otasi, onasi bilan kechirgan sargardonliklari, bevaqt vafot etgan ukasi, ijod mahsullarini nashr etishga bo‘lgan to‘siqlar, nohaq tuhmatlar hayoti yo‘lida uchragan qora nuqtalar bo‘lsa, sevgan insoni Safia bilan uchrashuvi, ustozlar va tengdoshlari bilan uchrashuvidan olgan iliq taassurotlar, farzandlar tarbiyasi, shogirdlar va muxlislar e’tirofi hayot yo‘lini oy kabi yoritib, quyosh kabi ilitgan zarvaraqlaridir. Bularning barchasi uning ijodiy xotira sifatida badialarida va xotira monologlari shaklidagi adabiy suhbatlarida jo bo‘ladi va Pirmqul Qodirov estetik idealini yuzaga keltiribgina qolmay, badiiy asarlarning g‘oyaviy konsepsiyasini shakllantirishga xizmat qilgan.

Adabiyotda biografik metodning yozuvchi xotirasida, shaxsiy kuzatishlari-yu, ijodiy xotirasida jo bo‘lishi Pirmqul Qodirov estetik qarashlarining bir bo‘lagi sifatida o‘rganish kerakligini anglatadi. Quyida ushbu faktorlarni batafsil muhokama etamiz.

1. Ijodkorning tug‘ilib o‘sgan joyi, shajarasi, yashagan muhiti, oilasi va tarbiyasi. Sobiq mustabid tuzumning shafqatsiz qatag‘on siyosati adibning ko‘plab asarlari uchun “xamirturush” vazifasini o‘taydi. Adib o‘z ijtimoiy kelib chiqishi, yashagan muhiti va ota-bobolarining kim bo‘lganligi xususida “Taqdir tovlanishlari” badiasida batafsil tushuntiradi.

Katta bobolari orasida Boboyor so‘fi ismli fozil kishi o‘tganiga qaramay otasi Qodir Yo‘ldosh o‘g‘li maktab ko‘rmay o‘sganligi, tog‘oldi cho‘ponlaridan bo‘lib qo‘y-qo‘zini yuztaga, keyin mingtaga yetkazib boy bo‘lgan va onasi O‘g‘iloy Husan qiziga uylanib besh o‘g‘ilni voyaga yetkazgani haqida yozadi. Pirmqul Qodirovning sobiq mustabid tuzumning adolatsiz qatag‘on siyosatidan juda ko‘p aziyat chekkanligi o‘sha bolalik yillaridan boshlandi. Otasi dabdabali to‘y qilganligi ovozasini “yuqoridagilar” ning qulog‘iga yetib borib nohaq besh yilga surgun qilinadi. Adib o‘sha yillarni chuqur iztirob bilan yodga oladi. Otasiga qilingan nohaq tuhmatlarning ta’siri keyinchalik ham unda sezilib turadi. Oltinchi sinfda o‘qiyotgan paytda Toshkent sayohati otasi boy bo‘lganligi sababli qoldiriladi. *“Shu sabablarga ko‘ra men juda yosh paytlarimdan boshlab o‘z taqdirimdan norozi bo‘lib yurardim. Otasi inqilobchi yoki ishchi bo‘lgan tengdoshlarimga havas qilardim. Ayniqsa, studentlik yillarimda anketalar to‘ldirishga to‘g‘ri kelganda ijtimoiy chiqib kelishingiz?”* degan savoldan yuragim bezillardir” [5;107] deya xotirlaydi. Mazkur ma’lumotlar qisqargan tarzda adibning “Haq so‘z uchun kesilgan boshlar” maqola-intervyusida ham uchraydi. Stalin qatag‘onidan chekkan aziyati, taqdir zarbalari, oilasining boshiga tushgan sargardonliklar, buning ta’sirida uzoq vaqt yo‘lini topishga qiynalishi, aspiranturaga qabul qilinishda yuzaga kelgan muammolar va ular ta’sirida ruhiy tushkunlikni boshidan o‘tkazgan adib “Qizil imperiya”ning xalqni qaram ahvolga solib, qadr-qimmatini yerga urganidan ruhan azoblanadi. Bu iztiroblarni o‘z asarlarida birmuncha bo‘lsa-da, ko‘rsatishga intildi. “Qadrim”, “Erk” kabi qissalarda ichki erkini yo‘qotgan, mute’lik dardiga giriftor bo‘lgan qahramonlar hayotini hamdardlik bilan ko‘rsatishga va bu orqali ozodlikka, mustaqillikka bo‘lgan tashnaligini qondirishga harakat qildi.

2. Adibning yaqin insonlari. Ijodiy niyatning tug‘ilishida ijodkorning yaqin kishilari, xususan, onasining tutgan o‘rni beqiyos. Uning “Qalb ko‘zlari” kitobining “Ona ruhi” bobidan o‘rin olgan “Ilk ustoz”, “Iroda sinovlari”, “Najotkorlik”, “Sahifalardan taralgan nur”, “Duolar” badialarida onasi bilan bog‘liq xotiralarini qalamga oladi. Adib ijod maktabida bosh poydevor vazifasini bajargan onasining ertaklarini eslab “Ilk ustoz”

badiasida shunday yozadi: “Onam aytadigan ertaklarning tili bugungi adabiy tilimizga juda yaqin, o‘ta jonli va ifodali bo‘lganini men endi fahmlayman. Shuning uchun so‘z san’atida onam mening ilk ustozim bo‘lgan deb o‘ylayman” [5;124]. Ko‘plab ijodkorlar kabi Pirmqul Qodirov uchun ham onasi adabiyotga mehr uyg‘otgan birinchi muallim hisoblanadi.

Adib o‘z biografiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy kechinmalarini keyinchalik asarlarining ba’zi syujetlarida o‘rinli foydalanganini aytib o‘tadi. “Sahifalardan taralgan nur” badiasida “Qora ko‘zlar” romanidagi Avazning onasi Sanamning hovlida jun ipakdan patgilam to‘qigan holatini onasidan ko‘rganligini e’tirof etadi. Ijodkor onasi O‘g‘iloy momoning qattiqqo‘l bo‘lganligi, bu borada u Farg‘ona yaqinida O‘sh viloyatida dodxoh bo‘lgan bobolari va momolariga tortganligini ko‘p o‘rinlarda aytib o‘tgan bo‘lsa-da, aynan onasining bolalikda aytgan ertaklari ijodkorning epik dunyoqarashi shakllanishi uchun asos bo‘ldi.

Yozuvchining biografik xarakterdagi estetik qarashlarida o‘z umr yo‘ldoshi Safiya aya bilan bog‘liq chizgilarni e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. To‘lqin Eshbek tahriri ostida chiqqan ijodkorning “Haq so‘z uchun kesilgan boshlar” monolog-intrevyusining “Hayotimdagi eng unutilmas voqea” nomli kichik bandida turmush o‘rtog‘i Safiya xonim bilan tanishuvi va umr yo‘llarini birga bog‘lanishi voqeasiga qisqa to‘xtalib o‘tadi. “Bundan yarim asr avval – talabalik paytlarim gazetalarga maqolalar yozib yurardim. Kunlarning birida yoshlar gazetasi Moskvadagi gimnastika musobaqasida muvaffaqiyatli ishtirok etgan sportchi qiz haqida maqola tayyorlashni topshirdi. Birgina uchrashuv taqdirini o‘zgartirib yuborishi kimning xayoliga kelibdi deysiz!” [3] deya rafiqasi Safiya opa bilan ilk uchrashuvini xotirlaydi. “Taqdir tovlanishlari” badiasida rafiqasiga bo‘lgan iliq tuyg‘ularni ifodalovchi shunday satrlar mavjud: “1950-yil “Studentlar” nomli ilk kitobcham chiqqanda o‘zim student edim. Oxirgi kursda nozik tuyg‘ular girdobiga tushib qoldim. Men ko‘ngil qo‘ygan qiz Safiya “Uch ildiz”dagi Gavharga o‘xshab Moskvaga o‘qishga jo‘nadi...” shu o‘rinda e’tibor bersak, ikkita o‘rinda ham ijodkorning atrofida kechayotgan voqeliklar ikki asari uchun andoza bo‘lgan. Ya’ni, a) “Studentlar” kitobi chiqqanda u hali student ekanligi; b) ko‘ngil qo‘ygani Safiyaning “Uch ildiz” romani qahramoni Gavharga o‘xshab Moskvaga jo‘nab ketishi; Adib bu borada “Til, tarix, muhabbat” maqolasida ham aytib o‘tgan: “...Zamira bilan Gavharning ko‘p jihatlari ham umr yo‘ldoshim bo‘lmish Safiyaxonimdan olingan.” [6;41] Umuman olganda, Pirmqul Qodirovning ayol qahramonlari tagzamirida onasi va turmush o‘rtog‘ining siymosini ko‘ramiz. Rafiqasi Safiya xonim siymosi adib ijodining eng nozik tuyg‘u bo‘lmish muhabbat haqidagi lavhalarida estetik idealini ifodalagan. Adib nafaqat yaqin kishilari tipajlarini, balki ko‘rgan-kechirganlari fonida o‘z taqdirini ham qalamga oladi. Xususan, bu haqida “Til, tarix, muhabbat” maqolasida “Uch ildiz” romanidagi Ochil va Mahkam personajlarining xamirturushi uning o‘zi ekanligini va hatto Ochilning yozgan she’rlari o‘zining she’rlari bo‘lganligini ta’kidlaydi.

3.Adibning bolaligida mutolaa qilgan kitoblari. “Kishining ongli hayoti kitobga mehr qo‘ygan davrdan boshlanadi”, [5;113] deydi adib. Kitob mutolaasi deyarli barcha ijodkorlarning ijod qilishiga zamin hozirlagan, ilhom jarayonining tagzamiri bo‘lgan bosh omil desak, adashmaymiz. Darhaqiqat, Pirmqul Qodirovning o‘qigan kitoblarini akasiga so‘zlab berishi adibning adabiyotga muhabbat qo‘yishida, o‘z ta’biri bilan aytganda, ijod dargohiga olib kelgan ilk so‘qmoqlar vazifasini o‘tagan. Uning mutolaa qilgan kitoblari orasida Elbek to‘plagan “O‘zbek xalq qo‘shiqlari”, Voynichning “So‘na”si, Lermontovning “Zamonamiz qahramoni”, Stivenzonning “Javohirot oroli”, Jyul Vernning “Kapitan Grant bolalari”, Pushkinning “Kapitan qizi”, “Belkin qissalari”, Tolstoyning “Hojimurot”i, Oybekning “Qutlug‘ qon” romanlari va boshqa asarlar o‘rin olgan edi. Shu o‘rinda adib bu o‘qigan kitoblari ijod dargohiga olib kelgan ilk so‘qmoqlar bo‘lganligini

ta'kidlab o'tadi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari shunday asarlar sirasiga kiradi. Hatto mashhur "Yulduzli tunlar" romanining nomlanishida ham mazkur asarning nomi yorqin uchqun kabi ijodkorning yo'lini yoritib yuborganini ko'plab suhbatlarda aytib o'tadi.

4. Zamondoshlari, ustozlari va shogirdlari bilan bog'liq xotiralar.

Adibning "Qalb ko'zlari" badiasida ustozlar haqida xotiralar va mushohadalar bilan o'rtoqlashilgan "Adabiy avlodlar oqibati" bobidan o'rin olgan esdaliklarda adib ijodiy ideali uchun undirgi bo'lgan qator personajlarni xotirlaydi.

Yozuvchi Abdulla Qahhor uning "Majlis" hikoyasini tanqid qildi, ammo "Uch ildiz" romani haqida o'zbek adabiyotida momoqaldiroq gulduradi deb ta'rif beradi. Keyinchalik Qahhor prototipi "Uch ildiz" romanida otasi temirchi bo'lgan Temur Akbarov personajida jonlantiriladi. Adibning o'zi bu haqida matbuotda e'lon qilinmagan "Haq so'z uchun kesilgan boshlar" monolog intervyusida mustabid tuzumning nohaqliklaridan va sababsiz tuhmatlaridan bezib ketgan kezlarida yozilgan "Uch ildiz" romanida tasvirlangan uch nafar obrazni yaratishda uch nafar aniq shaxslarning prototiplaridan foydalanganligini e'tirof etadi. "... asarlarimda iztiroblarim, noroziligimni ramzlar vositasida ko'rsatishga harakat qilganman. "Uch ildiz" romanida shunday epizod bor: millatparvar olimlar – professor Abdurahmon Toshev va dotsent Temur Akbarovga ichi qora, baxil kimsalar tuhmat uyushtiradi. O'z fikrida sobit olimlar bo'hton va malomatga qarshi mardona kurashadilar. Kezi kelganda aytishim kerakki, talabalarning sevimli professori Toshev obrazida Oybek domla va bizga tarixdan dars bergan Abdurahmon Hamroyevni (O'zbekiston xalq artisti Razzoq Hamroyevning akasi) nazarda tutganman. Mustabid tuzum malaylariga qarshi dadil kurashgan Temur Akbarov timsolida esa ustoz Abdulla Qahhorni tasvirlaganman." [5;83] Ko'rinib turibdiki, adib o'z asarlarida tayyor qoliplardan emas, hayotiy voqeliklar va hayotdan olingan shaxslardan foydalanadi.

Yozuvchi Shuhrat adibning "Studentlar" hikoyasi haqida tanqidiy fikrlarni diliga yaqin olmaslikka chaqirib siyosiy ayblov qo'yilmaganidan xursand bo'lishi kerakligini uqtiradi. Keyinchalik Shuhrat bilan uchrashuv adibning "Uch ildiz" romanida Rahim Umarovich personaji uchun prototip bo'ladi. Adib bu haqda shunday yozadi: "...Men bu og'ir tuyg'ularni "Uch ildiz"da o'z tengdoshlarimning o'sha davr qatag'onlaridan ruhan ezilganlar orqali tasvirlashga intilganman. Roman yozilayotgan paytlarda Shayxzoda domla va Shuhrat akalar qamoqdan qutulib kelishdi. Men ular bilan ko'rishganimda bir narsa yodimda qoldi: ikkovining ham kaftlari jismoniy mehnatni ko'p qilgan odamlarning kaftidek qattiq va zalvarli tuyuldi. Keyin bu tuyg'u ham romanda Rahim Umarovich degan domlaning qamoqdan chiqib kelgandan keyin o'z talabalari bilan ko'rishganda kaftlari Mahkamga toshdek qattiq sezilgani orqali berildi." [5;83] 50-yillarning qatag'oni yana bir bor ziyolilarga qaratilgani va undan jabr ko'rganlargina emas, barcha ijod ahli bu jarayonda qattiq ruhiy bosim ostida qolganini adibning birgina shu so'zlaridan bilib olish qiyin emas. Adibning voqelikdan qay darajada ta'sirlanganini personajlarni haqiqiy hayotdan olishga intilishida ko'rdik. Hatto qatag'on zulmidan qutulib chiqqan yozuvchilarning qalam ushlashga o'rgangan kaftlari og'ir mehnatda qattiqlashib qolgani adibni chuqur iztirobga solganidan shu nuqtani asar syujetiga joylashtirishni lozim deb topadi.

Aytish kerakki, yozuvchi adabiyotshunos olim sifatida ham ko'plab ilmiy tadqiqotlarning muallifi bo'ldi. O'z navbatida ilmiy tafakkurini sayqallashtirish bilan bir qatorda ushbu dunyoqarashning samarasini avlodlarga ulashishga ham ulgurdi. Olim sifatida ikki nafar shogirdning yetishib chiqishida, ularning ilm dunyosida o'z so'ziga ega bo'lgan nuktadon olim sifatida ildiz otishida ko'makdosh bo'ldi. Bu olimlarning biri Samarqand davlat universitetining professori, adabiyotshunos Hotam Umurov bo'lsa, yana biri Qarshi davlat universiteti professori Gulchehra Imomovadir. Hotam Umurov Qodirov

domla rahbarligida “Adabiy tanqidda mahorat masalalari” (1971) mavzuda ilmiy izlanish olib bordi. Gulchehra Imomova esa “Tipik milliy xarakter yaratishda badiiy nutqning o‘rni”(1993) mavzusida ilmiy tadqiqot bilan ilm sohasida chinakamiga o‘rin egalladi. Hassos olimning adabiyot dunyosida badiiy hamda ilmiy tafakkurning yuksak darajada shakllanganligini ilm yo‘lida ekan daraxtlari mevasi bo‘lmish shogirdlari misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Ustoz shogirdlarini umri davomida olimning hammaslagi va suyana oladigan farzandlari qatorida ko‘rib keldi. Ularga hamisha o‘z yo‘lini topishda madadkor bo‘la oldi. Bu esa uning oliy insoniy fazilatlariga ega bo‘lganligidan darak beradi.

Xulosa. Adib estetik qarashlarida aks etgan xotiralari, biografik xarakterga ega bo‘lgan estetik qarashlari deyarli har bir asariga ma‘lum ma‘noda ta‘sir o‘tkazgan. Ijodkor badiiy estetik konsepsiyasini belgilashda, uning uslub va mahoratini aniqlashda yozuvchi biografiasini turli aspektlarda tekshirish talab etiladi. Shu boisdan, Pirimqul Qodirov badiialari va suhbatlarida aks etgan xotiralari, qolaversa, yaqin insonlari, ustozlari va shogirdlari hamda boshqa ko‘plab tarjimayi holi bilan bog‘liq bir qator omillar ijodkorning estetik idealini shakllantirishga xizmat qilgan.

Mazmun-mohiyatiga ko‘ra ijodkorning ko‘rgan-kechirganlari, yaqin insonlari, o‘qigan kitoblari, do‘stlari va ustozlari bilan bogliq xotiralar turkumlanib, alohida shaxobchaga ajratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adizova O.” Sharl Ogyusten de Sent-Byov-biografik metod asoschisi” // “O‘zbekistonda xorijiy tillar” ilmiy-metodik jurnal. № 4/2019., (245-251) -250-bet
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent:O‘qituvchi, 2002.
3. <https://xabar.uz> “Haq so‘z uchun kesilgan boshlar”
4. Qodirov P. “Adabiyot yaxshilikdan yashnaydi” / “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasi, 2009-yil 28-noyabr
5. Qodirov P. Qalb ko‘zlari. – Toshkent: Ma‘naviyat-2001-yil
6. Qodirov P. Til, tarix, muhabbat. // “Yoshlik” jurnali, 1989-yil. 5-son, 41-bet
7. Qodirov P. Yashashning ma‘nosi. // Sharq yulduzi, 1990-yil, 12-son
8. Rahimjonov N. Istiqlol va bugungi adabiyot. –Toshkent: O‘qituvchi, 2012. 15-bet.
9. Rasulov A. Ilmi g‘aribani qumsab. –Toshkent: Ma‘naviyat, 1998-yil, 29-bet
10. Umurov X. Adabiyot nazariyasi. // Darslik. – Toshkent: “Sharq” matbaa-nashriyoti, 2005.

ALISHER NAVOIYNING EPIK POEZIYASIDA YO‘L OBRAZI

Avaznazarov Odiljon Rahmatulloevich,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Qarshi davlat universiteti doktoranti (DSc)
odiljon.avaznazarov@gmail.com
ORCID 0000-0002-2883-5857
UDK 894.35-1(045)

Annotatsiya. Yo‘l – adabiyot tarixida eng qadimgi va qiymatli timsollardan biri. Badiiy adabiyotda yo‘lchi, yo‘l ko‘rsatuvchi, tush, safar, sinov, manzil va boshqa ko‘plab timsollardan iborat obrazlar galereyasida yetakchilik maqomidagi bu timsol poetikasini chuqur tadqiq etish adabiyotshunosligimizning dolzarb masalalaridandir. Ushbu maqolada dastlab “Xamsa” dostonlari tadqiqi bo‘yicha navoiyshunoslikdagi ba‘zi muammolarga e‘tibor qaratildi. Shuningdek, ilk bor Alisher Navoiy dostonlaridagi yo‘l obrazi falsafiy-badiiy mohiyatiga ko‘ra tadqiqqa tortildi. Ushbu obraz geografiasini tadqiq qilinib, muallif epik poeziyasida keng qo‘llangan yo‘l obrazi, avvalo, mazmun-mohiyatiga ko‘ra tabiiy-moddiy yo‘llar hamda majoziy-ma‘naviy yo‘llarga ajratildi. Tabiiy-moddiy yo‘llar yo‘nalishiga ko‘ra gorizontol hamda vertikal yo‘llarga ajratildi. Tadqiqot natijasida qahramonlarning gorizontol yo‘llar bo‘ylab harakatlanishi asar sujet chizig‘ini shakllantirishda muhim funktsiya bajarishi, vertikal yo‘llar esa ma‘naviy-ruhiy uruj bilan aloqador ekani aniqlandi. Shuningdek, vertikal yo‘llar ko‘lami gorizontol yo‘llar ko‘lamidan ancha keng ekani, bu yo‘l geografiasini sarhadlaridan chiqib ketishi asoslandi. Alisher Navoiy dostonlaridagi yo‘l obrazining badiiy talqinlari tadqiq qilindi. Muallif epik poeziyasida keng qo‘llangan ushbu obraz poetikasida Qur‘oni Karim, hadisi sharif, tasavvuf manbalari hamda salaflar ijodiy tajribalarining ta‘siri

borligi o'chib berildi. Shuningdek, Navoiy bu ijodiy tajribalarni rivojlantirgani, yo'l obraziga istiora usuli bilan o'nlab yangidan-yangi ma'nolarni yuklagani asoslab berildi.

Kalit so'zlar. Qur'on, hadis, tasavvuf, doston, poetika, obraz, istiora, yo'l, geografiya, vertikal yo'llar, gorizontalar yo'llar, badiiy talqin.

THE SYMBOL OF THE ROAD IN ALISHER NAVOI'S EPIC POETRY

Abstract. The Road is one of the most ancient and significant symbols in the history of literature. Within the gallery of images in artistic literature – such as the traveler, guide, dream, journey, trial, destination, and many others – the road holds a leading position. A deep investigation into the poetics of this symbol is one of the pressing issues in literary studies. This article initially focuses on certain challenges in Navoi studies related to the analysis of the Khamsa epics. Additionally, for the first time, the image of the road in Alisher Navoi's epics has been analyzed based on its philosophical and artistic essence. The geography of this image has been studied, and the road, extensively employed in the author's epic poetry, has been categorized primarily into natural-material and symbolic-spiritual roads according to its content and meaning. The natural-material roads are further divided into horizontal and vertical paths based on their direction. The study found that the horizontal movement of characters along roads plays a crucial role in shaping the plotline of the work, while vertical roads are associated with spiritual and psychological ascent. Furthermore, it was established that the scope of vertical roads is significantly broader than that of horizontal roads, often extending beyond geographical boundaries. The artistic interpretations of the road image in Alisher Navoi's epics were thoroughly examined. It was revealed that the poetics of this image, widely employed in the author's epic poetry, was influenced by the Quran, Hadith, Sufi sources, and the creative experiences of predecessors. Moreover, it was substantiated that Navoi not only developed these creative experiences but also enriched the image of the road with dozens of new meanings through the use of metaphorical techniques.

Keywords. Koran, Hadith, Sufism, epic, poetics, image, metaphor, road, geography, vertical roads, horizontal roads, artistic interpretation.

Kirish. Navoiyshunoslik tom ma'noda fan sifatida shakllanganidan buyon Alisher Navoiy epik poeziyasi xususida ko'p va xo'p tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, matnshunoslikdan tortib poetika ilmiga qadar bu yo'nalishda hali hamon hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar oz emas. Dastlab ana shunday muammolardan biriga to'xtalamiz. Darsliklarda ko'rsatilishicha, "Xamsa" 25617 baytdan iborat [10]. Biroq Navoiyning zamondoshi, shogirdi Xondamir "Xamsa"ning 27000 baytdan iborat ekanini ta'kidlaydi [13:91]. "Odamu-sh-shuaro" nisbasi bilan ulug'lanuvchi Rudakiy bizgacha yetib kelgan ming bayt atrofidagi asarlari bilan ming yildan buyon adabiyot tarixidan munosib o'rin egallab kelayotganini xotirga keltirsak, "Xamsa"ning bugungi nashrlari hamda Xondamirning ma'lumoti orasidagi 1387 baytlik tafovut kichkina hajm emasligi, kelajakda matnshunoslikda Xondamir keltirgan fakt jiddiy tekshirilishi kerakligi anglashiladi.

Alisher Navoiy dostonlarida poetika ilmi nuqtayi nazaridan tekshirilishi lozim bo'lgan muammolar ham talay. Chunki ushbu asarlarda e'tibordan chetda qoldirgulik biror detal mavjud emas, ularda qo'llangan har bir tushuncha, obraz, tilga olingan har bir mavzu mohiyati juda chuqur va keng. Biz tadqiq etishni maqsad qilgan yo'l, yo'lovchi, safar va manzil mavzusi ham shunga doxil. Yo'l – adabiyot tarixida eng qadimgi va qiymatli timsollardan biri. Badiiy adabiyotda yo'lchi, yo'l ko'rsatuvchi, tush, safar, sinov, manzil va boshqa ko'plab timsollardan iborat obrazlar galereyasida yetakchilik maqomidagi bu timsol poetikasini chuqur tadqiq etish adabiyotshunosligimizning dolzarb masalalaridandir. Yo'l obrazi tadqiqi Navoiy poetikasida Qur'oni Karim, hadisi sharif, tasavvuf manbalari hamda salaflar ijodiy tajribalarining ta'siri ko'lamini ochishga, shuningdek, ijodkor novatorligi qirralarini aniqlashga imkon beradi.

"Haqiqiy yozuvchi uchun har bir yangi kitob shu paytgacha erishilmagan bir narsaga intilish uchun boshlang'ich nuqta bo'lishi kerak. Shu paytgacha hech kim qilmagan yoki kimlardir harakat qilgan-u, lekin erisholmagan narsaga qo'l uzatishi kerak", – degan edi Ernest Xeminguey [3:33-34]. Haqiqatan, turkiy adabiyotda hech kim forsiy "Xamsa"lar va "Mantiq-u-tayr"ga munosib, barkamol javobiya ayta olmagan edi va bu

nuqtani ilk bor Navoiy zabt etdi. Ammo ulug' mutafakkir dostonlarining poetik kamoloti sirlarini to'la kashf etish uchun haligacha yangidan yangi tadqiqotlarga ehtiyoj sezilmoqda. Jumladan, navoiyshunos Sultonmurod Olim "Xamsa"ning ilk dostonidan tashqari to'rt dostonni falsafiy-tasavvufiy asar sifatida baholab, ularda "Lisonu-t-tayr" dagidan farqli ravishda irfoniy g'oyalar, tasavvufiy istilohlar ochiq-oydin ishlatilmagani, hayotiy, ya'ni insonlar o'rtasida kechgan voqealar zamiriga singdirib yuborilganini ta'kidlab, navoiyshunosligimizda haligacha bu to'rt dostonning tasavvufiy motivatsiyasi amalga oshirilmaganiga diqqat qaratadi [11:93]. Fikrimizcha, *yo'l – yo'lovchi – safar – manzil* obrazlari galereyasining kompleks tahlili Navoiy dostonlari poetikasidagi hali kashf etilmagan qirralarni ochish barobarida ilmdagi ana shu muammoni ham hal qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tarixiy-qiyosiy, diniy-tasavvufiy, hermenevtik, fenomenologik hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Natijalar va muhokama. Homerning "Illiada" va "Odisseya" asarlari orqali ham bilish mumkinki, yo'l antik davr adabiyotidayoq yetakchi obrazlardan bo'lgan. Turk adabiyotida ham faol qo'llangan bu obrazning har jihatdan kamoloti, shubhasiz, hazrat Alisher Navoiy ijodida ko'zga tashlanadi. Bizningcha, mutafakkir epik poeziyasidagi yo'l obrazini quyidagi uch yo'nalishda tadqiq qilish maqsadga muvofiq:

1. *Yo'l obrazi geografiyasi.*
2. *Yo'l obrazining falsafiy mohiyati.*
3. *Yo'l obrazining badiiy talqinlari.*

Dastlab yo'l obrazi geografiyasi xususida bahs yuritimiz. Akademik Izzat Sulton "Navoiyning qalb daftari" asarida ijodkorning hayoti davomida bosib o'tgan yo'llari xaritasini bergan edi. Ulug' mutafakkir hayotida ma'lum darajada iz qoldirgan bu yo'llar geografiyasi va ularni bosib o'tish xronologiyasini tekshirish navoiyshunoslikni boyitgan. Albatta, Navoiy dostonlari qahramonlari bosib o'tgan yo'llarni keng ko'lamda tadqiq etish ham ko'p masalalarga oydinlik kiritadi. Shu sababli dastlab Navoiy dostonlaridagi yo'llar xaritasiga doir tasnifotimizni keltiramiz.

Avvalo, dostonlardagi yo'llarni mazmun-mohiyatiga ko'ra quyidagicha tasnif qilish mumkin:

- I. *Tabiiy-moddiy yo'llar;*
- II. *Majoziy-ma'naviy yo'llar.*

Tabiiy-moddiy yo'llar xususida. Yo'l – harakat. Harakat esa geografiyani taqozo qiladi. Bunda *ibtido – jarayon – intiho* mavjud bo'ladi. Bunday yo'llarni *yo'nalishiga ko'ra* ikki toifaga ajratish mumkin:

1. *Gorizontal (yotiq) yo'llar* – yer yuzi bo'ylab bir nuqtadan ikkinchi bir nuqtaga olib boruvchi;
2. *Vertikal yo'llar* – tik ko'tariluvchi, yoki tushuvchi.

Dostonlardagi yo'llarning bunday tasnifi juda muhim. Negaki qahramonlarning gorizontal yo'llar bo'ylab harakatlanishi asar sujet chizig'ini shakllantirishda muhim funksiya bajarsa, vertikal yo'llar ruhiy uruj bilan aloqador. Vertikal yo'l ko'lami gorizontal yo'llar ko'lamidan juda keng bo'lib, bu yo'l geografiya sarhadlaridan chiqib ketadi. Shunday bo'lsa-da, "geografiya" atamasini qo'llashni ma'qul ko'rdik. Bunda u keng ma'noda bo'lib, yuqoridagi har ikki turli yo'llar nazarda tutiladi.

Gorizontal yo'llar. Qahramonlarning bir makondan boshqasiga harakatini, asar sujet chizig'ini shakllantirishdagi rolini ko'rsatuvchi ushbu yo'llarni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

- a) *Sahro va cho'llardan o'tuvchi;*
- b) *Tog', g'orga olib boruvchi;*
- d) *Suv yo'llari: muhit, daryo, dengizdan kechib o'tuvchi;*

e) *Shaharlar, mamlakatlarni bog'lovchi.*

Gorizental yo'llarni barcha dostonlarning asosiy qismida uchratish mumkin. Qahramonlar xarakteri, muallifning estetik ideali asosan ana shu yo'llarda sodir bo'ladigan voqealarda, konfliktlarda ochila boradi.

Shu o'rinda bir jihatga alohida diqqat qaratib o'tish kerak. Dostonlarda qahramonlar faqat Xuroson yoki Movarounnahr doirasida emas, balki butun dunyo bo'ylab harakatlanadilar. Navoiyning qahramonlari Turon, Eron, Chin, Hind, Yunon, Arab, Arman va hokazo yurtlardan. Ya'ni gorizental yo'llarning geografik doirasi juda keng. Bunga sabab sifatida bir nechta argument ko'rsatish mumkin:

1. *Adabiy an'ana.* Navoiyning salaflari ham o'z "Xamsa"laridagi adabiy qahramonlarni dunyoning turli xalqlaridan tanlaganlar.

2. *Muallifning jahoniy tafakkuri.* Bu xususda navoiyshunos Abduqodir Hayitmetovning mana bu fikrlari e'tiborga molik: "Sab'ayi sayyor" dostonida Navoiy yetti iqlim kishilarini, ya'ni Yevropa, Hindiston, Misr, Xitoy, Eron, Movarounnahrlik qahramonlar va sayyohlarni tasvirlar ekan, bunda shoir bir mamlakat, bir xalq doirasida emas, jahon miqyosida fikr yuritadi, butun dunyo xalqlari taqdiri, muammolari haqida bosh qotiradi. Ushbu dostonning monumentalligi ulug'vorligi shunda" [15:103].

3. *Xalqlar do'stligi g'oyasi.* Hayitmetov boshqa bir o'rinda Navoiyning epik poeziyasidagi ishq-muhabbat tasviri xususida fikr yuritarkan shunday deydi: "shoir sevgida har qanday milliy cheklashlarning dushmani bo'lganini, izchil ravishda turli xalqlar o'rtasida do'stlik, hamkorlik g'oyalarni ilgari surganini ko'ramiz. Chinlik yigit Farhodning arman qizi Shiringa muhabbat qo'yishi, uning otashin sevgisi Shirin tomonidan e'zozlanishi, Navoiy dostonlarida turli xalq va mamlakatlarning vakillari – arabistonlik Layli, Majnun, eronlik Bahrom, xitoylik Dilorom, yunonistonlik Iskandar kabilarning yorqin obrazlari yaratib berilgani – bular hammasi Navoiy she'riyatining ma'naviy sof va yuksak bo'lganiga dalildir" [15:39].

Vertikal yo'llar xususida. Qahramonlarning ruhiy yuksalishi va ma'naviy kamolotini tasvirlovchi vertikal yo'llar Navoiy asarlarida, asosan, Allohga intilishning ramzi sifatida tasvirlangan. Ushbu yo'llarni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

a) *yerdan ko'kka chiquvchi;*

b) *ko'kdan yerga enuvchi;*

d) *ko'kdan ko'kka yo'nalgan;*

e) *yerdan lomakongacha eltuvchi.*

Masalan, "Hayratu-l-abror"da ko'ngilning sayri, "Xamsa"ning bir nechta dostonidagi Me'roj talqinlarida shunday yo'llarni uchratish mumkin. Xususan, "Lisonu-t-tayr"dagi qushlar vodiylarni gorizental ketma-ketlikda emas, balki spiralsimon vertikal harakatda bosib o'tadi [12:11]. Shuni ham ta'kidlash kerakki, ba'zida gorizental yo'llar vertikal yo'llarga ulanib ketadi. Jumladan, Me'roj tasvirlari berilgan boblarda buni uchratish mumkin.

Majoziy-ma'naviy yo'llar xususida. Navoiy asarlarida yo'l faqat geografik tushuncha sifatida emas, balki inson hayoti, ma'naviy va ruhiy izlanishlar, hamda Allohga yaqinlashuvning timsoli sifatida ham tasvirlanadi. Ijodkor yo'l obrazining badiiy talqinini Qur'on va hadislar, qolaversa, tasavvuf falsafasi g'oyalari bilan boyitgan. Bu, ayniqsa, ma'joziy-ma'naviy yo'llar tadqiqida yaqqol seziladi. Dostonlardagi yo'l obrazi bu jihatdan markaziy va chuqur ramziy ahamiyatga ega bo'lib, muallif ijodiy va falsafiy qarashlarini yorituvchi asosiy elementlardan biri hisoblanadi. Majoziy-ma'naviy yo'llarni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. *Shariat bilan aloqador yo'llar:* basmala yo'li, Haq yo'li, kufr yo'li;

2. *Tasavvuf bilan aloqador yo'llar:* Nuri Muhammadiya yo'li; talab yo'li, ishq yo'li, ma'rifat yo'li, istig'no yo'li, tavhid yo'li, hayrat yo'li, faqr yo'li, fano yo'li, baqo

yo‘li;

3. *Badiiy ijod jarayoniga aloqador yo‘llar*: so‘z yo‘li, xamsanavislik yo‘li, xayol yo‘li, tush yo‘li, sinov yo‘li va hokazo.

Endi yo‘l obrazining falsafiy mohiyati va badiiy talqinlari masalasiga e‘tibor qaratsak. O‘zbek adabiyoti mumtoz namunalarining aksariyatida bu timsol ishtiroki ko‘zga tashlanadi. Qur‘ongacha bo‘lgan ilohiy kitoblar hamda Qur‘onda ham yo‘l bilan bog‘liq holatlar talay. Aytish joizki, Qur‘on poetikasi hamda hadislar Navoiy asarlari poetikasiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatgan. Bu ijodkorning kichik lirik asarlaridan tortib epik poeziyasigacha kuzatiladi. Jumladan, g‘azallar strukturasidan joy olgan begona baytda, albatta, nasihat, hikmat mazmunidagi badiiy fikr ifoda qilingan. Adabiyotshunoslikda g‘azalning bu bayti bozgasht (qaytish), gardish [6:48], begona bayt, qistirma bayt [5:62], lirik chekinish [14:110], mav‘iza bayt [4:7] kabi maxsus atamalar bilan yuritiladi. Fikrimizcha, ushbu baytda ko‘pincha g‘azalning umumiy mavzusidan chetga chiqib, biror bir falsafiy fikrning keltirilishi “she‘rda hikmat bo‘lishi kerak” mazmunidagi hadis bilan bog‘liq. “Xazoyinu-l-maoniy” debochasida Navoiyning ayni shu prinsipga qat‘iy rioya qilganiga ishora bor: “Va durudi noma‘dud ul anbiyo halqasining xotamig‘akim, inna-sh-she‘ra lahikmatun va inna-l-bayona lasihrun nuktasi bila shuaro poyasin hukamo martabasig‘a chekti-yu bayon rutbasin sehr manzilasig‘a tortti”. Demak, g‘azal kompozitsiyasidan begona baytning joy olishi va unda biror falsafiy mushohadaning berilishi tasodifan qonuniyatga aylangan emas. Biz shu sababga ko‘ra aynan Navoiy g‘azallaridagi ushbu baytni *hikmat bayt* deb nomlashni ma‘qul ko‘ramiz.

Qur‘onning Navoiy lirikasi va epik poeziyasiga ta‘siri, ayniqsa, yo‘l obrazining falsafiy mohiyati va badiiy talqinlarida yaqqol seziladi. Jumladan, Navoiy lirikasidagi “talab yo‘li”, “ishq yo‘li”, “rizo yo‘li”, “faqr yo‘li”, “fano yo‘li”, “adam yo‘li”, “din yo‘li”, “porso yo‘li”, “taqvo yo‘li”, “Haq yo‘li”, “Tengri yo‘li”, “vasl yo‘li”, “tuz yo‘l”, “najot yo‘li”, “himmat yo‘li” “farog‘at yo‘li”, “xonaqah yo‘li”, “xarobot yo‘li”, “hijron yo‘li”, “maqsad yo‘li”, “falak yo‘li”, “sarsar yo‘li”, “ko‘z yo‘li”, “nazar yo‘li”, “sirishk yo‘li”, “vafo yo‘li”, “ko‘ngul yo‘li”, “ovoralig‘ yo‘li”, “kufr yo‘li”, “o‘zluk yo‘li”, “riyo yo‘li” kabi o‘ttizdan ortiq istioralar yo‘lning mohiyatini ochishga, uning muallif badiiy niyatini yuzaga chiqarishda qanchalik muhimligini anglashga xizmat qiladi. Ulug‘ mutafakkir dostonlaridagi yo‘llarni esa, avvalo, ikki guruhga ajratish mumkin:

1. *To‘g‘ri yo‘l*. “Haq yo‘li”, “Xudo yo‘li”, “Tengri yo‘li”, “jannat yo‘li”, “din yo‘li”, “mazhab yo‘li”, “hidoyat yo‘li”, “karam yo‘li”, “tuz yo‘l”, “salomat yo‘li”, “itoat yo‘li”, “talab yo‘li”, “ishq-u muhabbat yo‘li”, “faqr yo‘li”, “fano yo‘li”, “adam yo‘li”, “irodat yo‘li”, “bexudlig‘ yo‘li”, “benavolig‘ yo‘li”, “junun yo‘li”, “lutf-u vafo yo‘li”, “vafo yo‘li”, “adolat yo‘li”, “musofir yo‘li”, “maktab yo‘li”, “hijron yo‘li”, “jonon yo‘li”, “shah yo‘li”, “satr yo‘li”, “so‘z yo‘li”, “maxlas yo‘li”, “nafas yo‘li”, “dam yo‘li”, “ma‘dalat yo‘li”, “ko‘z yo‘li”, “qon yo‘li”, “aqba yo‘li” kabi istioralarni ana shu guruhga taalluqli deyish mumkin.

2. *Egri yo‘l*. “Najosat yo‘li”, “kufr yo‘li”, “zalolat yo‘li” kabi istioralar esa egri yo‘l timsoliga aloqador.

Badiiy obrazning kanonlaridan biri metaforiklik bo‘lib, bu jihatdan yo‘l o‘ta keng imkoniyatlarga ega. Navoiy dostonlarida to‘g‘ri va egri yo‘l tushunchalari atrofida qirqdan ortiq istioralar assotsiativlik hosil qilayotgani buning isbotidir.

Dostonlarda “to‘g‘ri yo‘l” va uning antipotidan san‘atkorona foydalanilishi bejiz emas. Chunki “to‘g‘ri yo‘l” tushunchasi Qur‘oni Karimda bevosita yoki bilvosita, ya‘ni ishorat yo‘li bilan eng ko‘p zikr qilingan kalimalardan hisoblanadi. Jumladan, Kalomullohning olti o‘rnida – “Baqara” (108-oyat), “Moida” (12, 60, 77-oyatlar), “Qasos” (22-oyat), “Mumtahana” (1-oyat) suralarida سَوَاءَ السَّبِيلِ (sawa: as-sabibili) shaklida; bir o‘rnida – “Ahqof” (30-oyat) surasida طَرِيقٍ مُسْتَقِيمٍ (toriqim-mustaqim); ikki o‘rnida –

“Fotiha” (6-oyat) hamda “Mumtahana” (1-oyat) suralarida الصِّرَاطِ الْمُسْتَقِيمِ (as-sirota-l-mustaqima) shaklida, bir o‘rnida – “A’rof” surasida (16-oyat) صِرَاطِكَ الْمُسْتَقِيمِ (sirotoka-l-mustaqim) shaklida; besh o‘rnida – “Niso” (68, 175-oyatlar), “An’om” (126-oyat), “Fath” (2, 20-oyatlar) suralarida صِرَاطًا مُسْتَقِيمًا (siroto-m-mustaqima) shaklida; 18 o‘rnida – “Baqara” (142, 213-oyatlar), “Oli Imron” (101-oyat), “Moida” (16-oyat), “An’om” (39, 87, 161-oyatlar), “Yunus” (25-oyat), “Hud” (56-oyat), “Nahl” (76, 121-oyatlar), “Haj” (54-oyat), “Mo‘minun” (73-oyat), “Nur” (46-oyat), “Yosin” (4-oyat), “Shuuro” (52-oyat), “Zuxruf” (43-oyat), “Mulk” (22-oyat) suralarida صِرَاطٍ مُسْتَقِيمٍ (siroti-m-mustaqim) shaklida; 5 o‘rnida – “Oli Imron” (51-oyat), “Maryam” (36-oyat), “Yosin” (61-oyat), “Zuxruf” (61, 64-oyatlar) suralarida صِرَاطٌ مُسْتَقِيمٌ (sirotu-m-mustaqim); 1 o‘rnida – “An’om” (153-oyat) surasida صِرَاطِي مُسْتَقِيمًا (siroti mustaqiman) shaklida keladi hamda istiora usuli bilan “payg‘ambar va siddiqlarning yo‘li”, “Allohning yo‘li”, “Allohgagina ibodat qilish”, “Allohning dini”, “haq din”, “Ibrohim dini”, “Islom”, “iymon keltirmoq” ma’nolariga ishora qiladi. Shuningdek, to‘g‘ri yo‘l noto‘g‘ri, egri yo‘l – zalolatga zid qo‘yiladi. To‘g‘ri yo‘lni topish zulmatdan nurga chiqishga tashbeh qilinadi.

Ulug‘ mutafakkirning ilk dostoni “Hayratu-l-abror”ning “Basmala” ta’rifiga bag‘ishlangan dastlabki bobidayoq yo‘l jiddiy badiiy funktsiya bajaradi. Quyida mana shu jihatni batafsil ko‘rib o‘tamiz.

Muallif “Bismillohir-rahmonir-rahim” jumlasini ipga, undagi har bir harfni esa noyob va bebaho durga tashbeh etadi:

Bismillohir-rahmonir-rahim,

Rishtag‘a chekti necha durri yatim [1:6].

Basmala bir necha durlar tizilgan yagona bir rishtadir. Bunda Navoiy rishta so‘zini birlik shaklda qo‘llash orqali tavhidga ham ishora qiladi.

Yirik durlarning tabiatdan parvarish topishi va ularning inson qo‘liga kelib tushishi uzoq muddatli hamda murakkab jarayon. Navoiy Basmala tarkibidagi har bir harfni durri yatimga tashbeh qilish orqali ularni Tangri parvarish qilgani hamda insoniyat uchun juda qimmatli ekaniga ishora qiladi. Qolaversa, bunday bebaho durlarning bir ipga tizilishi ham noyob hodisa.

Navoiyning ushbu tashbehida zarracha mubolag‘a yo‘q. Bu haqda kengroq mushohada qilish uchun ulug‘ mutasavvif Muhyiddin Ibn Arabiyning mana bu fikrlariga diqqat qaratmoq o‘rinli: “Qur‘on sirlarini biladigan oriflarning fikricha, har bir suraning boshidagi Basmala o‘sha suraning barcha sirlarini berkitib turadi. Shu ma’noda, Basmala suraning, ya’ni uying eshigi hukmidadir. Zero, ma’nolar Basmala bilan ochiladi. Chunki Fotihaning birinchi oyati Basmaladir. Fotihaning ma’nosi esa “ochuvchi”dir. Biroq bu uy hamma uchun ochilmas” [7:29].

Najmiddin Umar Nasafiy “at-Taysir”da keltiradi: “Hazrat Payg‘ambar alayhissalom: “Qur‘onning kaliti basmaladir”, – deya buyurganlar. Rivoyatlarga ko‘ra, qalam Lavhu-l-mahfuzda yozgan ilk jumla Bismillohir-rahmonir-rahim bo‘lib, Alloh taolo Hazrati Odamga endirgan ilk so‘z ham shudir” [8:104].

Sharq mumtoz adabiyotining buyuk vakillari ilohiy jumlar badiiy talqiniga kirishganda, shubhasiz, Ibn Arabiy, Umar Nasafiy kabi mufasssirlarning chuqur ilmiy tahlillariga tayanishgan. Xususan, Nizomiy Ganjaviy “Panj ganj”ining ilk bayti Ibn Arabiy va Umar Nasafiy fikrlarining she’riy talqini ekani buning yaqqol dalilidir:

Bismillohir-rahmonir-rahim,

Hast kalidi dari ganji Hakim [9:1].

Ya’ni “Bismillohir-rahmonir-rahim – Hakim hikmatlar xazinasining eshigini ochuvchi kalitdir”.

Ko‘rib o‘tganimizdek, basmala o‘tmishda eshikka, kalitga o‘xshatilgan bo‘lsa, Navoiy salaflarining bu boradagi tajribalarini yanada rivojlantirdi, chuqur ma’no-

mazmunga, ilmiy va badiiy talqin tarixiga ega ushbu kalimani yangi bir shaklda vasf qildi.

Biz uchun eng muhim nuqta uchinchi baytdan boshlanadi. Chunki shu baytdan dur misol harflar tizilgan rishta ta'rifi boshlanadi va u keyingi bir necha baytda o'nga yaqin narsaga tashbeh qilinadi. Dastlab muallif "Bu ip go'yo marvarid o'tkazilgan jahon ipidir, yo'q-yo'q, jahon ipi emas, jon ipidir", – deydi:

Rishtasi xud iqdi jahon rishtasi,

Dema jahon rishtasi, jon rishtasi [1:6].

Rishta ta'rifida bir tashbehdan yangisiga ruju' badiiy usuli bilan o'tiladi. Jumladan, to'rtinchi baytda bu rishta boqiylik xazinasiga erishtiruvchi *tasbihga*, beshinchi baytda davlat va din o'ljasini tutqazuvchi *tuzoqqa*, oltinchi baytda Jannat bog'idagi kiyiklarni qo'lga kiritish uchun qo'llanadigan *arqonga*, yettinchi baytda jon suvi, balki tiriklik suvi oqadigan *ariqqa*, to'qqizinchi baytda ilohiy xazinani qo'riqlovchi *ajdahoga*, o'ninchi baytda eng yuqori Arshda o'rnatilgan *qandilga* tashbeh qilinadi. Rishta ta'rifida tashbehlarning qatorlashib kelishi, tadrijiy ravishda kuchaytirib borilishi nafaqat talqinni jozibador qiladi, balki eng so'nggi o'xshatishning naqadar salmoqli ekaniga kitobxonni tayyorlab boradi.

O'xshatishlarning eng yuqori nuqtasida "Xamsa"ga yo'l obrazi kirib keladi. O'n ikkinchi baytda basmala Vahdat xazinasiga olib boradigan *yo'lga*, yo'l bo'lganda ham *eng yaqin yo'lga* o'xshatiladi:

Yo'qki erur maxzani vahdatqa yo'l,

Yo'l-u ne yo'l, asru yaqin yo'ldur ul.

Ya'ni, "u Vahdat xazinasini sari bir yo'l, yo'l bo'lganda ham shunday yo'lki, eng yaqin yo'ldir!"

Muallif navbatdagi baytlarda ikki toifa – ahli qabul va ahli ra'd uchun bu yo'lning bor xatarlari va sinovlarini batafsil yoritadi. Bobdan anglashiladiki, shoir tavsif etayotgan, barcha birdek bosib o'tishga majbur bo'lgan bu sinov Yo'li – "Bismillah" kalimasi, mohiyatan najot va saodat dini – Islomdir.

Xulosa. Yo'l obrazi Navoiy asarlarining estetik va falsafiy chuqurligini ochib beruvchi asosiy ramziy unsurlardan biridir. Ulug' mutafakkir epik poeziyasini yo'l obrazi misolida tadqiq qilishda maqolada ilgari surilgan tasniflar juda samarali bo'lib, muhim natijalarga yo'l ochadi. Abdurauf Fitrat "Shoir-yozg'uchi san'atkorlikda ko'tarila borg'an sayin o'ziga maxsus bir uslub yarata boshlaydir", – deydi [2:17]. Navoiyning epik poeziyasi misolida yo'l obrazini tadqiq qilish orqali ko'rish mumkinki, ulug' mutafakkirning ijodiy uslubi, estetik ideallari Qur'oni Karim, hadisi sharif kabi Sharq ma'rifatining mo'tabar meroslari, qolaversa, Ibn Arabiy, Umar Nasafiy, Nizomiy Ganjaviy kabi mutafakkirlar asarlari asosida shakllangan. Qolaversa, Navoiy bu ijodiy tajribalarni rivojlantirgan, yo'l obrazining yangidan-yangi ma'nolarini kashf qilgan. Ushbu timsol asosida mohiyati ochilgan Basmala bobi Navoiy dostonlarining kalitidir. Inson hayotidagi tanlovlar, ruhiy izlanishlar va ma'naviy kamolotni tasvirlash uchun ishlatilgan yo'l obrazi tasavvuf falsafasi va majoziy ifodalar bilan boyitilgan, bu esa Navoiy ijodining ulug'vorligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik. 6-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2012. – 812 b.
2. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар: Ж.4. Дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар / Масъул муҳаррир: Б.Қосимов. – Тошкент: "Маънавият", 2006. – 336 б.
3. Адибларнинг Нобель маърузалари. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги НМИУ, 2008. – Б.33-34.
4. Давлатов О. Маънолар хазинаси. 4-китоб. – Тошкент: "Tamaddun", 2021. – 312 б.
5. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Тошкент: "Фан", 1983. – 168 б.
6. Комилов Н. Маънолар оламига сафар. – Тошкент: "Tamaddun", 2012. – 315 б.
7. Muhyiddin Ibn Arabi. Tefsir-i Kebir / Te'vilât. Cilt: 1. – İstanbul: Kitsan Yayınları, 2008. – 780 s.

8. Necmeddin Ömer en-Nesefti. et-Teysîr fi't-Tefsîr. Cilt: 1. – İstanbul: Bilnet Matbaacılık ve Yayıncılık A.Ş., 2019. – 1246 s.
9. Nizomiy Ganjaviy. Maxzanul asror. Ilmiy-tanqidiy matn. – Boku: 1960. – B.1
10. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. Darslik. – Toshkent: “Tamaddun”, 2018. – 520 b.
11. Султонмурод Олим. “Лисон ут-тайр”: ошкор ва пинҳон бадиият // “Шарқ юлдузи”, 2021. – №7. – Б.93.
12. Султонмурод Олим. “Лисон ут-тайр”да фано талқинлари. “INFOLIB” ахборот-кутубхона журнали. №1 (33) 2023. – Б.11.
13. Хондамир. Макориму-л-ахлоқ. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 372 b.
14. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Тошкент: “O‘zbekiston” НМИУ, 2015. – 328 б.
15. Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1993. – 216 б.

FAQIRIY LIRIKASIDA MA'RIFATPARVARLIK VA MILLIY QADRIYATLAR TASVIRI

Anvar XO'JAYEV

TATU Qarshi filiali o'qituvchisi,

ORCID 0009-0008-1989-6093

anvarxujayev1974@gmail.com

УДК 894.375:392/395(045)

Annotatsiya. Xorazm jadidchilik harakati vakili, shoir Faqiriyning tuzgan devoni O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanadi. Bu devon Faqiriyning o‘z qo‘li bilan yozilganligi(avtograf) uchun shoir ijodining g‘oyaviy va badiiy xususiyatlarini o‘rganishda g‘oyat ishonchli manba sifatida baholanishi kerak. Maqolada ushbu devondagi g‘azallar, ruboiylar, muxammaslar orasida boshqa janrlar – masnaviy, musaddas, murabbalar kabi turli she‘riy janrga oid asarlar tahlili va ma‘rifatparvar shoirning ijtimoiy dunyoqarashi haqida so‘z boradi. Mazkur devon shoirning XIX asrning oxiri – XX asrning 1914–1915-yillarga qadar bo‘lgan ijod mahsuli bo‘lib, tadqiqotimizning asosiy obyektidir. Maqolada o‘zbek adabiyotshunoslarining shoir hayoti va ijodi to‘g‘risidagi tadqiqotlari tahlil qilindi. Maqolalardagi bahstalar masalalarga munosabat bildirildi.

Ilmiy adabiyotlardagi shoir ijodiga oid ma‘lumotlar adabiyotshunoslikning so‘nggi yutuqlariga tayanib tahlil qilindi, shuningdek, maqolalardagi Faqiriyning hayoti va ijodi bilan bog‘liq munozarali mulohazalarga munosabat bildirildi.

Kalit so‘zlar. devon, ma‘rifatparvarlik, diniy-ma‘rifiy mavzu, milliy qadriyat, lirik janrlar, g‘azal.

Abstract. This article describes focusing on the collected works (divan) of Faqiriyn, a poet associated with the Jadid movement in Khwarazm. This divan is held in the manuscript collection of the Abu Rayhan Beruniy Institute of Oriental Studies of the Uzbek Academy of Sciences. The divan is an autograph, meaning it was written by Faqiriyn himself. This makes it an exceptionally valuable source for understanding the poet's creative and ideological characteristics. The article examines various poetic genres found in the divan, including ghazals, rubaiyat, mukhammas, and other forms like masnaviy, musaddas, and murabbas. It also explores the social worldview of this enlightened poet. The divan represents Faqiriyn's creative output from the late 19th century to the years 1914-1915, making it the primary focus of the study. The article analyzes existing research by Uzbek literary scholars on Faqiriyn's life and work, addressing any controversial issues raised within those studies. The article analyzes information on Faqiriyn's work, drawing on the latest advancements in literary studies. It addresses contentious views surrounding the poet's life and works.

Overall, this information is sufficient to pique a reader's interest and encourage them to explore the article in more detail.

Keywords. divan, enlightenment, religious and educational theme, national value, lyrical genres, ghazal.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning birinchi yarmida Xorazmda yashab ijod etgan ma‘rifatparvar shoir Faqiriyning adabiy merosi birinchi navbatda o‘zining mazmunan boy va shaklan xilma-xilligi bilan diqqatni tortadi. Faqiriyn mumtoz she‘riyatning rang-barang janrlari va turlarida ijod qildi. Shoirning devonidan g‘azal, muxammas, musaddas, murabba, ruboiy, muammo, chiston, masnaviy, mustahzod va boshqalar o‘rin olgan.

Shoir yashagan XIX asrning ikkinchi yarmi adabiyoti mavzularning xilmaxilligi, janrlarning turiligi bilan, eng muhimi, yangicha ijtimoiy qarashlar, ya‘ni jadidchilik

g'oyalarning ifodasi bilan ajralib turadi. Shoirning hayot hodisalariga nisbatan bo'lgan qarashlari o'z qalamiga mansub dastxat devonida nihoyatda yuksak mahorat bilan ifoda etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Faqiriyning ilm-ma'rifatga da'vat etuvchi fikrlari dastlab g'azallarining ayrim misralarida yoritilgan bo'lsa, endi u yaxlit asarlarida ham shu mavzuga qo'l uradi. Shoirning mazkur devonidan o'rin olgan 1328 hijriy (1910 milodiy) yilda yozilgan "beshlanji masnaviy"si to'laligicha shu mavzuga bag'ishlanganligi bilan xarakterlanadi. She'rda birinchi navbatda ilmlilar majlisi ta'rif etiladi:

Qilsang onlar oyg'onin doim diling xandon bo'lur,

Barcha zahmatdin omon o'lg'ung alar qalqon bo'lur.

Faqiriyning bu g'oyalari o'z zamonasi uchun, shubhasiz, ijobiy bo'lib, jadid adabiyot namoyandalarining ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan hamohangdir. Nihoyatda original o'xshatishlar bilan ilm ahlini ko'klarga ko'taradi. Ularga qarshi o'laroq, zamonasining fosiq-u badkorlarini ham kitobxonga hech esidan chiqarmaydigan o'xshatishlar bilan gavdalantirib beradi. Ya'ni ilm ahlini attorga o'xshatadi. Olim-fozil, ilm ahlini qimmatli fikrlarini attorning xushbo'y hid tarqatuvchi qiyos (olim-u fozilni qilmishlar qiyos attorg'a) qiladiki, bu xushbo'y hiddan kishilar bahramand bo'ladi, dillari ravshan tortadi.

Faqiriyning ilm ahli haqidagi bildirgan fikrlari uning ma'rifatparvarlik qarashlarining asosini tashkil qiladi. Shoir har qanday sharoitda ham ommani o'z davrining ilmi, dono, bilimdon shaxslari suhbatida bo'lishga chaqiradi:

Kelsa nogoh ahli ilm, qil xoki poyin to'tiyo,

Xo'b yaroshur chiqsang oldig'a, keling, deb peshvo. [1:126]

Zamonasining bilimdon kishisi sifatida o'z zamondoshlarini ogohlantirib:

Qilmag'il noahl, johil birla suhbat zinhor,

Suratin odam ko'rub, qilma har inson birla xat. [1:32]

degan shoir yana ularga yo'l-yo'riq ham ko'rsatadi. Shoir ulug' maqsadlar egasi. O'z maqsadiga sodiq va sobit. Shu maqsad yo'lida tinim bilmaydi. Shuning uchun doimo bilimdon, dono, dunyoviy ilmi kishilarga umid bog'laydi. Nodonlar suhbatini, majlisini do'zaxga qiyos qiladi.

Shu hol ham xarakterliki, shoir faqatgina din peshvolarini emas, balki jamiyat uchun, xalq uchun foydali maslahatlar beruvchi dunyoviy ilmdan xabari bor, o'qimishli, donishmand kishilarni ham ulug'laydi. Yana shunisi diqqatga sazovorki, Faqiriy o'sha tarixiy sharoitda xalq uchun zamonaviy ilmning muhim ekanligini tushunib yetadi. Bunda shoirga yangicha fikrlovchi jadid namoyandalarining ta'siri yaqqol sezilib turadi. U zamondoshi, ma'rifatparvar shoir Avaz O'tar o'g'lining ilg'or an'analarini davom ettiradi. Avaz O'tar o'zining "Til" she'rida rivojlangan xalqlarning ilg'or madaniyatini ko'zda tutadi. U yoshlarga xitob qilib, til o'rganishning foydalarini bayon qiladi. Shuningdek, Avaz O'tar:

Xor bo'lmasin onlar dog'i til bilmay Avazdek,

Til bilmaganidan oni bag'ri to'la qondir. [2:19]

deb afsus chekadi.

Faqiriyning ta'kidlashicha, ilmi bo'lish g'aflat uyqusidan uyg'onishning, taqdiri azalning qismatidan ozod bo'lishning vositasidir. Shoir ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning:

Bilmaganin so'rab o'rgangan olim,

Orlanib so'ramagan o'ziga zolim –

kabi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan hikmatlari izidan borib:

Yetsa molim yetmasa jonim degan olim bo'lur,

Behuda nokaslara yo'qsa bu hikmatlar abas. [1:32]

kabi misralarini yaratadi. Agar Navoiy so‘rab o‘rganishning foydasi, orlanib so‘ramaslikning zararlari haqida gapirgan bo‘lsa, Faqiriy ilm egallashning o‘ziga xos shart-sharoitlarini bayon qiladiki, bu shart-sharoitlariga amal qilmagan nokaslarga zarba beradi. Haqiqiy olim bo‘lish uchun qiyinchiliklarga chidab, molu-jonini ayamalikka undaydi.

Shoir diniy mayllardan ham ijobiy maqsadda foydalanishda juda nozik yo‘l tutadi. Ya‘ni u hadislarida aytilgan fikrlarning hayotdagi katta e‘tiboridan foydalanib, shu yo‘l bilan o‘z qarashlarini targ‘ib etadi:

Hazratimizdan hadis bor, biling, ey habib,
 Johil-u fosiqg‘a umring boricha bo‘lma qarib.
 Ya‘ni, on hazrat demish har kimni tutsang do‘stu jon,
 Aylagil, ul ulfating yaxshi-yomonni imtihon.
 Gar hayot o‘lsang kecha-kunduz mungo et e‘tiqod,
 Bo‘lsang ahli fazl ila san ham fazling ziyod. [1:156]

Faqiriy bu masnaviysida g‘oyat chuqur mazmuni yoritish bilan birga, shakl va mazmunning dialektik birligiga ham e‘tibor bergan. Umuman, shoir lirikasida she‘riy obrazlar barchasi mazmunga mos, shu jihatdan uning lirikasi real, sermazmun, ravon va hayotbaxsh shaklga ega.[8:25] Shoirning yuqoridagi masnaviysida har bir satr o‘ziga xos mustaqil ravishda mantiqiy fikr tashiydi va keyingi satrlarda bu fikr o‘ziga boradi, bir-biri bilan uzviy bog‘lanadi.

Adabiyotshunos olim S. Erkinov: “Badiiy adabiyotda folklor motivlaridan foydalanish yozuvchidan katta mahorat talab qiladi. Yozuvchi buning uchun xalqning hayoti, urf-odatlarini, orzu-intilishlari va boy tili bilan yaqindan tanish bo‘lishi kerak. Shundagina ijodiy tajriba yaxshi natija beradi”, [3:54] a deb ta’kidlaganidek, Faqiriy xalq og‘zaki ijodidan sinchkovlik bilan foydalandi. Xalq og‘zaki ijodiyoti va xalq jonli tilidagi bebaho javohirlar – maqol, ta‘bir, iboralarni o‘z g‘oyaviy niyati asosida zarshunoslik bilan terib oldi, ularga ijodiy yondashib asar talabiga muvofiq qayta ishladi. O‘zbek tilining boyliklaridan, uning o‘ziga xos xususiyatlaridan unumli foydalana bildi. Shuning uchun ham shoirning bu kabi asarlari mazmunan juda chuqur, keng va o‘ziga xos ajoyib mahorat namunasidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda soha bo‘yicha dunyo olimlari erishgan ilmiy yutuqlarni o‘zbek adabiyotshunosligi va matnshunosligiga tatbiq etish dolzarb vazifalardandir. Tadqiqotni yozishda adabiy merosni o‘rganishda sinalgan, katta samara berib kelayotgan qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, tavsiflash usullaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Faqiriy xalq hayoti ichiga juda yaqindan kirib borgan shoiridir. Shu tufayli ham uning she‘riyati etnografik detallarga boy. U xalq orasidagi urf-odatlar va marosimlarga oid asarlar yozib, ularda o‘zbek xalqining hayotiy odatlarini, rasm-rusumlarini himoya qiladi.

Xalqimizning qadimiy marosimlaridan biri – bu bahorgi tengkunlik, ya‘ni Navro‘z bayramidir. Bu qadimdan odat tusiga kirib qolgan bo‘lib, hozirgi farovon turmushimiz uchun ham nihoyatda hayotiydir.

Beruniy “Osori boqiya” (“O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar”)da Navro‘zning keng bayram qilinishini yozgan edi. Bu O‘rta Osiyo va Eron xalqlarining mavsum bayrami bo‘lib, yangi yil, “yangi kun” sifatida nishonlab kelinadi. Yerga urug‘ tashlash istagida bo‘lgan dehqon uchun bu kun shodlik va kelajakka umid hissini keltirardi. Shuning uchun shoirlar uni to‘lqinlanib kuylaganlar. Faqiriy va u yashagan davr shoirlarining bu mavzuga murojaat qilishlari ham tasodifiy emas. Faqiriy zamondoshi shoir Devoniy bilan hamkorlikda yozgan murabbalarida bahor fasli va uning go‘zalliklarini to‘lqinlanish bilan chizadi:

Shukrkim Navro‘z keldi, bo‘ldi fasli navbahor,

Dam-badam fayzu farah olamg‘a bo‘ldi oshkor.
 Qayg‘u-g‘am, anduhu kulfat jumla jondin bo‘ldi daf‘,
 Shodu xurramlig‘ yetib piru javong‘a beshumor. [2:173]

Shuningdek, birinchi qor yog‘ishi munosabati bilan “Qorxat” yozib, birinchi qor bilan do‘stlarini, yaqin kishilarini tabriklash kabi qadimiy odat ham Faqiriyning diqqat nazari va e‘tiboridan chetda qolmagan. O‘tmishda qish, qorning yog‘ishi boshpanasiz, bechora xalqning mashaqqati ustiga yana mashaqqat keltirar edi. Kambag‘al xalqning qishdagi hol-ahvolini tasvirlab ko‘p so‘z san‘atkorlari qalam tebratganlar. Shuningdek, Faqiriyning zamondoshi, do‘sti Chokar yozgan edi:

Qaltirarman sovuqdan o‘yla qamish,
 Ne balo bo‘ldi sovuq ushbu qish.
 Sarvdek qomatimni qildi xam,
 Man emas yakka, barcha mandek emish. [4:291]

Faqiriy xalq urf-odatlarining nashidasini xalqi bilan birga baham ko‘rishni orzu qiladi. Unga hamisha yaxshi umid-orzular hamroh. U devonidan o‘rin olgan, birinchi qor munosabati bilan yozilgan ikkita masnaviysida birinchi qor bilan xushnud bo‘lgan qalb so‘zlarini bitib, do‘stlarini tabriklaydi. Ularni yaxshi so‘zlar bilan olqishlab, katta anjuman xumorida ekanligini bayon qiladi, uning shartlarini aytadi:

Aylang emdi bu rasm shartin bajo,
 Ya‘ni bizlarga bering bir ijtimoi‘. [1:154]

Shoir shu bahona bilan o‘z maqsadini, ya‘ni ezgu niyat kishisiga xos bo‘lgan yurak tuyg‘ularini bayon qiladi:

Bir-birovni barf bahonasi bila yod ayladi,
 Tez bering bir ijtimoi‘, g‘amgin ko‘ngil shod ayladi...
 Ijtimodin muddaomiz yemagu ichmak emas,
 Biror bahona bu Faqirni yo‘qsa hech kim yo‘qlamas. [1:155]

Faqiriy bir qator asarlarida o‘zbek xalqining eng oliyjanob odatlaridan, rasm-rusumlaridan biri mehmondo‘stlikni ulug‘laydi. Bu xususda uning devonidagi uchinchi musaddasi alohida ahamiyatga egadir. Shoir bu asarida mehmon va mehmon kutish, mehmondo‘stlik haqida o‘zidan avval o‘tgan so‘z san‘atkorlarining qimmatli fikrlari unga yo‘llanma ekanligini aytadi. Kamtar shoir ana shu yo‘l boshlovchi ustozlari izidan borib, bu olijanob odatlar haqida fikr-mulohazalarini bayon etmoqchi bo‘ladi:

Ey ko‘ngil, nazm ichra yorimand Navoyidur sanga,
 Yaxshilarni so‘zidin naql et, davoyidur sanga.
 Xoh tanish, xoh yot kelsun himmatingni tut baland,
 Xoh faqiru xoh g‘ani tutg‘il azizu arjumand.
 Birga o‘n hissa natijalar ko‘rarsan chand-chand,
 Ba‘zilar kelsa boy xo‘b, qashshoqni qilmas pisand.
 Kelsa betaklif mehmon, bil xudoyidur sanga,
 Garchi botaklif kelsa, ul baloyidur sanga. [1:155]

Bu bandda kishilarni boy va kambag‘al deb farqlashlariga qarshi chiqishining o‘zi shoirning katta jasoratidir. U kelgan mehmonni boy va kambag‘alligiga qarab muomala qiluvchilarning bu xususiyatlarini keskin qoralaydi.

Faqiriy mehmonni ochiq yuz, xushsuxan, baland himmat bilan kutib olishni, uni ko‘nglini olishni, bu xizmatlarini minnat qilmaslik, undan faxrlanmaslik kabi oliyjanob g‘oyalarni ilgari suradi, olqishlaydi. Bularning aksi bo‘lgan tomonlarni qoralaydi. Shoir bularga bop badiiy vositalar topib, juda o‘rinli ishlatadi.

Faqiriy didaktikasi o‘zining falsafiy, ijtimoiy tomonlari bilan ahamiyat kasb etadi:

Do‘stu dushman ko‘rsa, sog‘u shod ekoning bilsa bas,
 Nasiya, qarz aylab onga qilmoq taraddud shart emas,

Chin do'st bir-biriga aylar duo hech ranjimas,
Bu zamon rasmi mahovotdur bori hoyi-havas,
Kelsa, betaklif mehmon, bil xudoyidur sanga,
Garchi botaklif kelsa, ul baloyidur sanga. [1:155]

She'ning o'ziga xosligi, ta'sirchan kuchni oshiruvchi oxirgi ikki misraning har bandda takrorlanishidir. Faqiriy bu o'rinda xalq og'zaki ijodi namunalaridan ustalik bilan foydalanadi. Shoir bu bilan o'z maqsadini ketma-ket ta'kid orqali juda chiroyli bayon qiladi.

Faqiriyning urf-odatlar haqida qalam tebratishi uning o'z xalqi urf-odatlariga zo'r qiziqish va hurmat bilan qaraganligidan dalolat beradi. Bu odatlarni e'zozlagan holda ular haqida ibratli fikr-mulohazalar bildiradi. Uning bu g'oyalari hozirgi turmushimiz uchun ham nihoyatda foydalidir. Shuningdek, Faqiriy ijodida o'zbek xalqi kundalik hayotidagi choy quyish odatiga alohida to'xtaladi. Sharq nazmida ko'p qo'llanmagan choy mavzusida muxammas yozib, uni iqtidori darajasida yoritdi. Natijada shoir o'zbek adabiyoti tarixidagi may mavzui bilan yonma-yon, hali keng taraqqiy etmagan "Choy" mavzusini tanlab oldi. Shoirning choyga oid muxammasi hajm jihatidan ham ancha katta bo'lib, 36 band (180 misra)dan tashkil topgan.

Faqiriy bu muxammasini choyning ta'rif, tavsifi bilan boshlaydi. Uning afzallik tomonlarini madh etadi. Keyinchalik esa, mehmondorchilikning ziynati, peshvosi, kadxudosi, ibtidosiyu intihosi shu choy bilan bog'liq bo'lganligi, hamma nozu ne'matlar choy bilan bog'liq ekanligi, mehmonning izzati, obro'yi bo'lgan choy taomlar sarasi ekanligi bayon etiladi. Insonning kundalik har bir hayot tongi ham shu choy bilan boshlanib, choy bilan yakunlanadi. Shoir juda sinchkovlik bilan choy bilan bo'lgan hamma odatiy munosabatlarni, uning hayotimizdagi rolini o'rganishga qattiq kirishgan va bu munosabatlar muammasida ham aks etgan.

Ey yoronlar, tiyra dillarning ziyosi choydur,
Majlis ahli ishrati, zavqu safosi choydur,
Balki mehmonxonaning ziynat-mazasi choydur,
Har kishi mehmon chaqirsa ibtidosi choydur,
Bu zamona xalqiningkim, muddaosi choydur. [1:110]

Choy barcha millatning iste'molida ekanligini, shoir "Bo'ldi mashhur Balx, Buxor, Toshkand, Samarqand, Rum, Farang", - deb qayd qiladi. Shunisi ahamiyatliki, shoir choyni boshqa ichimliklardan yuqori qo'yadi.

Faqiriy lirikasida diniy-ma'rifiy mavzu salmoqli o'rin egallaydi. Shoir devonida bu mavzudagi asarlar anchagina. Chunki u o'z davrining, sharoitining maktab va madrasa ko'rgan ma'rifatli farzandi. Hamma davrda ham musulmonlar o'rtasida muqaddas haj ziyoratiga borib kelish katta hodisa bo'lgan. Shoir zamon va sharoit taqozosidan ziyorat uchun u yerlarga borib kelgan o'z davrining tipik shaxslaridan Safo hojini o'z g'azallarida tilga olib, uning ibodat uchun hajga borib, sog'-salomat kelganidan xursandligini bayon etadi. Faqiriyning bu o'rinda diniy urf-odat, hajga borishni qo'llab-quvvatlagani aytib o'tganimizdek, uning o'z davrining diniy ta'lim va tarbiya olgan farzandi ekanligidandir. Lekin, ikkinchi tomondan, diniy qobiqqa o'ralgan bo'lsa-da, yashab turgan dunyoning kishilar uchun faqatgina baxt-saodat emas, balki sinovdan iboratligini Hojiga murojaat yo'li bilan san'atkorona ifodalaydi:

Fitnai oxir zamondin boshingiz olib ketib,
Fath etib dil bobini, aylab ibodat keldingiz. [1:44]

Safo hojini tabriklash asnosida o'sha tarixiy davr ustidan "fitna, oxir zamon" hukmini chiqaradi, ilmsizlikni qoralaydi.

Shoirning zamonaviy ilmlarga teskari amaldorlar muhitida O'rta Osiyo, xususan Xorazmning rivojlangan mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy munosabati bilan mahalliy

xalqlarning madaniy hayotida yuzaga kelgan yangilikni kuylashi katta jasorat sifatida ko‘zga tashlanadi.[9:114] Faqiriy bu jihati bilan Furqat, Muqimiy, Anbar Otin, Avazlar kabi jadidchilik namoyandalari bilan hamohangdir.

Xulosa va takliflar. Faqiriy mazmundor lirik asarlari, davrining nohaqliklari hamda ijtimoiy tengsizlikni fosh etgan hajvlari, yangi zamoni kuylagan she‘rlari bilan demokratik yo‘nalishdagi adabiyot taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi. Xorazm jadid adabiyotida ham shoirning o‘ziga xos ovozi mavjuddir.

Faqiriy ko‘p qirrali iste‘dod egasi bo‘lib, u shoir, xattot, nasrda ham yaxshigina qobiliyat sohibi bo‘lgan san‘atkordir. Faqiriy ikki asrni, ijtimoiy-siyosiy jihatdan farq qilgan ikki xil tuzumni ko‘rib mukammal asarlar yozishga muvassar bo‘lgan shoirdir.

Faqiriyning boy adabiy merosini bundan keyin ham chuqur va atroflicha o‘rganish, birinchi navbatda shoir asarlarining mukammal nashrini yuzaga keltirish adabiyotshunosligimizning muhim vazifalaridan bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Faqiriy. Devon. Qo‘lyozma. O‘zFASHI qo‘lyozmalar fondi, Inv.№7693.
2. Avaz O‘tar. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1956.
3. Erkinov S. Lutfiy (hayoti va ijodi). – Toshkent: Фан, 1965.
4. Navoiy va adabiy ta‘sir masalalari. – Toshkent: Фан, 1968.
5. Normatov U. Adabiy hamkorlik va realistik an‘analar. // “Guliston” jurnali, 1973, №1.
6. Muqimiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1958.
7. Furqat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1958.
8. Azizov B. T. – Xodim. Xorazm navozandalari. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1994.
9. Laffasiy. Tazkirai shuaro.– Urganch: “Xorazm” tahririyat-nashr bo‘limi, 1992.
10. Faqiriy A. She‘rlar. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972.

ARXITEKTURA-QURILISH CHIZMACHILIGI FANINI O'QITISHDA TALABALARNING KOGNITIV QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Boymuratov Farrux Xamzayevich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti assistenti

farrux.boymuratov@mail.ru

ORCID 0009-0003-6762-6243

UDK 378.014(072.8)

Annotatsiya. Mazkur maqolada arxitektura va qurilish chizmachiligi fanini o'qitishda talabalarning kognitiv qiziqishlarini rivojlantirishga oid nazariy va amaliy asoslar yoritilgan. Talabalarning o'quv jarayoniga faol jalb qilinishini ta'minlash uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar, vizualizatsiya, 3D-modellash va amaliy faoliyatni kengaytirish usullari ko'rib chiqilgan. Interfaol usullar, muammolarni hal qilishga asoslangan ta'lim va virtual reallik kabi yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Fan mazmuni orqali talabalarda ijodiy yondashuv, texnik va analitik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari taklif etiladi. Ushbu metodik yondashuvlar natijasida talabalarning fanga bo'lgan qiziqishi va kasbiy tayyorgarligi sezilarli darajada oshishi kutiladi. Kognitiv qiziqishni rivojlantirish uchun o'quv jarayonida talabalarni ijodkorlikka rag'batlantiradigan mashg'ulot turlari va baholash tizimlari aniq ko'rsatib berilgan. Arxitektura va qurilish chizmachiligi fanini matematika, san'at, va texnik tadqiqotlar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha qiziqarli yechimlar taklif etilgan. Bu yondashuv talabalar fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada nazariy asoslar va amaliy tavsiyalar birgalikda yoritilgan, bu esa ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Kalit so'zlar. arxitektura chizmachiligi, kognitiv qiziqish, pedagogik texnologiyalar, vizualizatsiya, amaliy faoliyat, innovatsion yondashuv.

METHODICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS' COGNITIVE INTERESTS IN TEACHING THE SUBJECT OF ARCHITECTURAL AND CONSTRUCTION DRAWING

Abstract. This article highlights the theoretical and practical foundations for developing students' cognitive interests in teaching the subject of architectural and construction drawing. Modern pedagogical technologies, visualization methods, 3D modeling, and approaches to expanding practical activities are considered to ensure active student engagement in the educational process. The effectiveness of interactive methods, problem-solving-based learning, and approaches utilizing virtual reality is analyzed. Methods for fostering creativity, technical skills, and analytical thinking in students through the subject's content are proposed. These methodological approaches are expected to significantly increase students' interest in the subject and their professional preparedness. Specific types of activities and assessment systems designed to stimulate creativity in students and foster their cognitive interest in the educational process are presented. Innovative solutions for integrating architectural and construction drawing with mathematics, art, and technical research are offered, playing a key role in enhancing students' cognitive abilities. The article combines theoretical foundations and practical recommendations, enabling more effective organization of the educational process.

Keywords. architectural drawing, cognitive interest, pedagogical technologies, visualization, practical activities, innovative approach.

Kirish. Arxitektura va qurilish chizmachiligi fani talabalarda muhim muhandislik va konstruktiv ko'nikmalarini shakllantiradi. Ushbu fan talabalar o'rtasida analitik tafakkur, ijodiy yondashuv va texnik bilimlarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ammo zamonaviy ta'lim jarayonida ko'p hollarda talabalarning fanga qiziqishi past darajada bo'lishi kuzatiladi [1]. Ushbu maqolada kognitiv qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan samarali metodik yondashuvlar yoritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tadqiqot metodologiyasi bo'yicha aniq bir metod ko'rsatilmagan bo'lsa-da, mazmuni asosida quyidagi metodlar qo'llangan:

1. Nazariy tahlil:

- Fan mazmuni, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg'or yondashuvlar tahlili amalga oshirilgan.

- Arxitektura va qurilish chizmachiligi bilan bog'liq o'quv materiallari va ilg'or amaliyotlar tadqiq qilingan.

2. Amaliy kuzatuv va tajriba:

- O‘quv jarayonida interfaol usullar, 3D-modellashtirish va virtual reallikning qo‘llanilishi bo‘yicha kuzatishlar yoki tajribalar o‘tkazilgan bo‘lishi ehtimol qilinadi.

3. Muammoli ta‘lim metodlari:

- Muammolarni hal qilishga asoslangan yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilingan.

4. Integratsion yondashuv:

- Matematika, san‘at va texnik tadqiqotlar bilan uyg‘unlashtirish orqali fan mazmunini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Natijalar va muhokama. Kognitiv qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan samarali metodik yondashuvlar haqida fikr yuritamiz.

Kognitiv qiziqishni rivojlantirishning ahamiyati. Kognitiv qiziqish – bu shaxsning o‘z bilimni kengaytirishga bo‘lgan ichki ehtiyoji bo‘lib, u o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Talabalar o‘zlari o‘rganayotgan mavzuni chuqur tushunganida va bu jarayonga qiziqib kirishganida, natijalar ancha yuqori bo‘ladi [8]. Arxitektura va qurilish chizmachiligi fanida bu qiziqishni rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e‘tibor qaratish lozim:

- *Amaliy faoliyatni kengaytirish:* talabalarni real loyihalarda ishtirok etishga jalb qilish.

- *Vizual yondashuvni qo‘llash:* kompyuter grafikasi va 3D-modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish.

- *Ijtimoiy-texnik masalalar orqali qiziqish uyg‘otish:* loyihalash va dizayn ishlarida zamonaviy ekologik muammolarni yechishda qatnashish.

Metodik asoslari. Arxitektura va qurilish chizmachiligi fanini o‘qitishda talabalarining kognitiv qiziqishlarini rivojlantirish uchun quyidagi metodik asoslar tavsiya etamiz:

- Vizuallashtirish arxitektura va chizmachilik ta‘limida eng samarali metodlardan biridir. Ushbu yondashuv talabalarining mavzuni o‘zlashtirishini osonlashtirib, ularning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Vizuallashtirish – bu ma‘lumot yoki g‘oyalarni ko‘rinadigan shaklda ifodalash va taqdim etish jarayonidir. Ushbu yondashuv, ayniqsa, murakkab tushunchalarni tushunish, muloqotni osonlashtirish va ta‘lim samaradorligini oshirishda yordam beradi. Vizuallashtirish grafika, diagramma, rasm, chizma, 3D modellar, animatsiyalar yoki boshqa vizual vositalar orqali amalga oshiriladi.

Vizuallashtirishning asosiy maqsadi:

1. Murakkab tushunchalarni soddalashtirish: Ma‘lumotni talabalar yoki auditoriyaga tushunarliroq qilib taqdim etadi.

2. E‘tiborni jalb qilish: Vizual tasvirlar odatda matndan ko‘ra tezroq tushuniladi va yodda qoladi.

3. Ijodkorlikni rivojlantirish: Yangi g‘oyalarni yaratishda yordam beradi.

4. O‘zaro aloqa samaradorligini oshirish: Vizuallashtirish o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotni osonlashtiradi.

Vizuallashtirish – bu nafaqat ta‘lim, balki turli sohalarida muloqot va samaradorlikni oshiruvchi vositadir. Ayniqsa, arxitektura va texnik fanlarda vizuallashtirish talabalar uchun bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash va qiziqishni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

- 3D-modellashtirish, animatsiya va grafik dasturlar (masalan, AutoCAD, Revit, SketchUp) yordamida loyiha elementlarini tushuntirish.

- murakkab chizmalarni katta ekran orqali ko‘rsatish va dinamik izoh berish.

- VR (Virtual Reality) orqali talabalarni virtual loyihalashga jalb qilish. Masalan,

talabalar rejalashtirilgan bino yoki landshaftni virtual muhitda ko'rib chiqishlari mumkin.

Amaliyotga asoslangan o'qitish talabalarni real hayotda duch keladigan muammolar bilan tanishtiradi va fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

- Mini-loyihalar yaratish: Har bir darsda kichik chizmalar yoki qurilish loyihalari ustida ishlash topshirig'i. Masalan, talabalar kichik arxitektura elementlarini chizib, ularning tuzilishini tahlil qilishi mumkin.

- Katta loyiha ishlari: Talabalar guruhlariga bo'linib, real hayotdagi qurilish muammolarini hal qilish uchun birgalikda loyiha yaratadilar.

- Field Practice (Tashqi mashg'ulotlar): Talabalar shahar arxitekturasi, mashhur bino va inshootlarning chizmasini tahlil qiladi yoki loyihalash jarayonini ko'zdan kechiradi.

Interfaol yondashuvlar o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

- "Muammoni hal qilish" mashqlari: Talabalarga muammoli vaziyatlar taqdim etiladi, masalan, qaysi arxitektura usulini qo'llash eng optimal bo'lishini aniqlash.

- Rol o'ynash: Talabalar muhandis, dizayner va mijoz rollarini bajarib, loyiha jarayonini simulyatsiya qiladi.

- Munozaralar va guruh ishlari: Talabalar loyiha g'oyalarini muhokama qiladi va eng maqbul yechimni tanlaydi.

Yangi pedagogik texnologiyalar fanga bo'lgan qiziqishni oshirish va talabalarning bilim olish jarayonini individualizatsiya qilishga xizmat qiladi [10].

- Benjamin Blum taksonomiyasi asosida bilimlarni bosqichma-bosqich shakllantirish:

- Bilish: Chizma tushunchalarini o'rganish.

- Tushunish: Chizmalar qanday yaratilishini tahlil qilish.

- Qo'llash: Yangi loyiha uchun mustaqil ravishda chizma yaratish.

- Tahlil qilish: Chizma elementlarining texnik va estetik jihatdan muvofiqligini o'rganish.

- Baholash: Loyihalarni tahlil qilish va xatolarni aniqlash.

- Yaratish: Yangi, ijodiy va original loyiha chizmalarini ishlab chiqish.

- Muammo asosida ta'lim (PBL): Har bir mavzu bo'yicha talabalarni muayyan muammo bilan tanishtirish va uni hal qilish uchun qadam-baqadam chora-tadbirlarni ishlab chiqishga undash.

- Elektron o'quv materiallari: Elektron kitoblar, videodarslar va simulyatsiyalar orqali darslarni boyitish.

Kognitiv qiziqishni oshirish uchun baholash jarayoni ham rag'batlantiruvchi bo'lishi kerak.

- Portfolio yaratish: Har bir talaba o'z ishlari, loyihalari va chizmalaridan iborat portfolio yaratadi.

- Raqamli baholash tizimi: Har bir loyiha uchun ko'rsatilgan yondashuv va ijodkorlik darajasiga qarab ballar berish.

- Teskari aloqa: Talabalar ishi bo'yicha konstruktiv tavsiyalar berish va kelgusida qanday yondashuvlar yaxshiroq bo'lishi mumkinligini muhokama qilish.

Arxitektura chizmachiligi matematik, texnik va estetik bilimlarni uyg'unlashtirishni talab qiladi [2]. Bu bilimlarni integratsiya qilish orqali talabalar fanni yaxshiroq tushunadi.

- Matematik modellashtirish: Geometrik shakllar va ularning chizmalarini tushuntirish uchun matematika usullaridan foydalanish.

- Texnik tadqiqotlar: Qurilish materiallarining xususiyatlari bilan tanishish va ularni arxitektura elementlariga integratsiya qilish.

- San'at va tarix yondashuvlari: Arxitektura uslublarini san'at va tarixiy rivojlanish

kontekstida o'rganish.

Misol sifatida dars ishlanmasi

Mavzu: Binoning kesimi chizmasini yaratish.

1. Kirish: Kesim chizmasining maqsadi va arxitektura loyihasidagi o'rni tushuntiriladi.

2. Vizuallashtirish: Kesim chizmalarining namunaviy ko'rinishlari 3D modellashtirish dasturlari orqali namoyish etiladi.

3. Amaliy mashg'ulot: Talabalar kichik loyiha binosining kesim chizmasini yaratadilar.

4. Guruh muhokamasi: Talabalar chizmalarini taqdim etib, birgalikda tahlil qilishadi.

5. Xulosa: Eng yaxshi ishlangan loyiha tanlanadi va uning afzalliklari muhokama qilinadi.

Ushbu metodik yondashuvlar orqali talabalarning fanga bo'lgan kognitiv qiziqishi sezilarli darajada oshadi, ular fanni chuqurroq o'zlashtiradi va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Arxitektura chizmachiligi o'z mohiyatiga ko'ra vizual fan hisoblanadi [3]. Bu sababli vizual materiallardan foydalanish talabalar qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Jumladan:

- Darslarda 3D-modellashtirish dasturlarini qo'llash.
- Virtual reallik (VR) vositalaridan foydalanish.
- Loyihalarning namunaviy vizuallashtirishlarini taqdim etish.

Talabalarning darsdagi faolligini oshirish uchun loyiha asosida ta'lim usulini qo'llash tavsiya etiladi. Masalan, talabalarga kichik hajmdagi arxitektura loyihalarini ishlab chiqish topshirig'i beriladi. Bu usul talabalarni fanga qiziqtirish bilan birga ularning mas'uliyatini oshiradi.

Interfaol yondashuv orqali talabalar bilan muhokamalar va guruh bo'lib ishlash imkoniyatini kengaytirish:

- "Dizayn muammolarini hal qilish" treninglari.
- Guruh loyihalari orqali birgalikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.
- Ochiq seminar va arxitektura tanlovlarida ishtirok etish.

Arxitektura va qurilish chizmachiligi fani talabalarga nafaqat kasbiy bilimlar berish, balki ularning kognitiv (idrok, tushunish va ijodiy fikrlash) qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda fan o'qitishning asosiy maqsadi nafaqat texnik bilimlarni o'zlashtirish, balki talabalarda ijodiy yondashuv va o'z-o'zini rivojlantirishga intilishni shakllantirishdir [12].

Kognitiv qiziqish talabalarning yangi bilimlarni izlash, tahlil qilish va mustaqil o'rganishga bo'lgan intilishini anglatadi. Ushbu qiziqishning rivojlanishi:

- Talabalarning muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi.
- Ularni ijodkorlikka va innovatsion g'oyalarni yaratishga rag'batlantiradi.
- Mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Mazkur fan o'z mazmuni va amaliyotga yo'naltirilganligi bilan talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay platforma yaratadi:

- Ijodiy yondashuvni talab qiluvchi topshiriqlar: Loyihalar va eskizlarni ishlab chiqish jarayonida talabalar nafaqat chizmalar chizadi, balki texnik va estetik yondashuvlarni uyg'unlashtirishni o'rganadilar.

- Amaliyot bilan bog'liqlik: Fanning amaliy qismida talabalar real muammolarni hal qilishga urinadi, bu esa ularning analitik fikrlash va muhandislik mantiqini rivojlantiradi.

Har bir talabaga uning imkoniyatlari va qiziqishlariga mos vazifalar berish orqali

motivatsiyani va rag'batlantirish oshirish mumkin. Talabalarni o'z ishlarini tahlil qilishga va tanqidiy baho berishga undash maqsadga muvofiq bo'ladi. Eng yaxshi loyiha yoki innovatsion yondashuv uchun rag'batlantirish tizimi qilish ham fanga qiziqishning ortishiga sabab bo'ladi.

Talabalar kognitiv qiziqishini rivojlantirishda quyidagi natijalarga erishildi

- Ijodkorlikni rivojlantirish: Talabalar faqat standart chizmalarni takrorlamaydi, balki o'z g'oyalarni taklif qilishga o'rgandilar.

- Muammolarni hal qilish qobiliyati: Real muammolarni tahlil qilish va samarali yechim topish ko'nikmalari oshdi.

- Fan va kasbiy faoliyatga qiziqish: Fanga bo'lgan qiziqish talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonishiga zamin yaratadi.

Arxitektura va qurilish chizmachiligi fanini o'qitish jarayonida kognitiv qiziqishni rivojlantirish talabalarni ijodkor, mantiqiy va analitik fikrlovchi mutaxassis bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. O'qituvchining innovatsion yondashuvi, texnologiyalarni qo'llashi va talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olishi bu jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar. Ushbu yondashuvlarni amaliyotda qo'llash orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

1. Talabalar orasida chizmachilik fani bo'yicha o'zlashtirish darajasini oshirish.
2. Fan bo'yicha kreativ va ijodiy fikrlashni shakllantirish.
3. Real loyihalarda ishtirok etish orqali talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarlikni yaxshilash.

Xulosa va tavsiyalar. Arxitektura va qurilish chizmachiligi fanini o'qitishda kognitiv qiziqishni rivojlantirish talabalarni o'quv jarayoniga faol jalb qilish va ularning bilim olish darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng qo'llash, interfaol metodlarni joriy etish va vizual vositalar bilan dars jarayonini boyitish tavsiya etiladi.

Tavsiya etilgan metodlar:

1. O'qitishda texnologik yangiliklardan foydalanish.
2. Talabalarni real loyihalarga jalb qilish.
3. Interaktiv seminarlar va amaliy mashg'ulotlar sonini ko'paytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boymuratov F. Muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o'qitishda kognitiv qiziqishlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish //бюллетень педагогов Нового Узбекистана. – 2023. – т. 1. – №. 4 part 2. – с. 43-45.

2. Sharipov, A.I., Karimov, S.N. // Qurilish chizmachiligi. –Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020.

3. Mirzayev B.T. Arxitektura chizmalarining nazariy asoslari. //– Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

4. Vygotsky L.S.Thought and Language. // Cambridge, MA: MIT Press, 1986.

5. Marzano R.J. Designing a New Taxonomy of Educational Objectives // Thousand Oaks, CA: Corwin Press. 2001.

6. Jonassen D.H. Modeling with Technology: Mindtools for Conceptual Change // Upper Saddle River, NJ: Pearson, 2006.

7. Митрошенков О. В. Основы архитектурного проектирования. –Москва: Архитектура-С, 2016.

8. Шепель, В. М. Методика преподавания инженерной графики. - Москва: Высшая школа, 2019.

9. Чеботарев, П. А. Архитектурное черчение: учебник для вузов. - Москва: Академический проект, 2018.

10. Ismatullayev, A. M. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti, 2020.

11. Шумейко, В. Н. Введение в виртуальную реальность и 3D-моделирование. – Санкт-

Петербург: Питер, 2021.

12. Волков, А. А., и Иванов, С. П. Развитие когнитивного интереса студентов через проектную деятельность в инженерной графике. “Вестник инженерного образования”, 2020, № 3, с. 45–52.

13. Ахмедов, И. А. Использование интерактивных технологий в преподавании архитектурного черчения. - Мир науки и образования, 2021, № 5. - С. 67–72.

14. Каримов, Н. Х. Роль 3D-моделирования в обучении строительному черчению. - Инновационные технологии в образовании, 2022, № 2. - С. 23–28.

15. Rustamovich R. M., Xamzayevich B. F. Muhandislik va kompyuter grafikasi darslarida oliy ta’lim muassasarlari talabalarining fazoviy tasavvurini shakllantirish usullari //pedagog. – 2022. – Т. 5. – №. 4. – С. 181-184.

14. Каримов, Н. Х. Роль 3D-моделирования в обучении строительному черчению. - Инновационные технологии в образовании, 2022, № 2. - С. 23–28.

15. Ким, С. И., и Пак, Е. С. Образовательные подходы к обучению архитектурному черчению в условиях цифровизации. - Современное образование: вызовы и решения, 2021, № 4. - С. 15–21.

TA’LIMNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA MAKTAB RAHBARLARI SHAXSIGA QO’YILADIGAN UMUMIY TALABLAR

Iskandarova Gulrux Pirmamatovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Innovatsion ta’lim kafedrası
PhD mustaqil izlanuvchisi
iskandarovashox@gmail.com

Annotatsiya. Ta’lim tizimiga va uning sifat va samaradorligiga davlatimiz tomonidan qaratilayotgan e’tibor, ta’lim muassasalarini zamon talablari darajasida yangi texnologiyalar bilan jihozlanishi, shuningdek, o’quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish uchun zaruriy sharoitlarning yaratilishi umumiy o’rta ta’lim muassasarlari barcha rahbarlarining o’z ustida ishlashi, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish borasida izlanishlar olib borishini hamda boshqaruv faoliyatini takomillashtirishni taqozo etadi.

Mazkur maqolada umumta’lim maktabi rahbarlari kasbiy kompetentligi darajasini ularning boshqaruv yo’nalishidagi tushunchalari darajasi, uning tashkilotchilik, tadqiqotchilik, boshqaruvchilik va pedagogik qobiliyati va ko’nikmasi, uning o’zini o’zi rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta’lim olishga bo’lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, shaxsiy imkoniyatlari orqali aniqlash mezonlari keltirib o’tilgan.

Kalit so’zlar. umumiy o’rta ta’lim maktablari rahbarlari, transformatsiya, rahbarlik mahorati, samaradorlik, Performance Indicators, Key Performance Indicators, Baholash mezonlari, Baholash parametrlari, kvalifikatsiya, kasbiy mahorat, Faoliyat unumdorligi, boshqaruv faoliyatini rivojlantirish strategiyalari.

GENERAL REQUIREMENTS FOR SCHOOL LEADERS IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION OF EDUCATION

Abstract. The attention paid by our state to the education system and its quality and efficiency, the equipment of educational institutions with new technologies in line with modern requirements, as well as the creation of the necessary conditions for organizing the educational process on a scientific basis, require all heads of secondary educational institutions to work on themselves, conduct research on the introduction of new pedagogical technologies, and improve management activities.

This article presents the criteria for determining the level of professional competence of heads of secondary schools through the level of their management concepts, their organizational, research, managerial and pedagogical abilities and skills, their inclination for self-development and continuous independent education, aspirations, as well as personal capabilities.

Keywords. general secondary school principals, transformation, leadership skills, effectiveness, Performance Indicators, Key Performance Indicators, Evaluation criteria, Evaluation parameters, qualification, professional skills, Performance productivity, management development strategies.

Kirish. Umumta’lim tizimida ta’lim natijasiga erishish nafaqat unda dars beruvchi pedagoglar, balki rahbar xodimlarning intellektual salohiyati va boshqaruv kompetensiyalarini qay darajada egallanganligiga bog’liq. Boshqaruv faoliyati mazmuni, talablari, xarakteri va yo’nalishlarini takomillashib borishi rahbar xodimlarni kasbiy tayyorlashda kompetensiyaviy va innovatsion yondashuvlarni talab etmoqda.

Ta'limni transformatsiyalash sharoitida yuqori salohiyatli inson sifatida umumta'lim tizimi rahbarlari hamda pedagog xodimlari faoliyat yuritishi uchun albatta zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari talab etiladi.

Ta'limni transformatsiyalash sharoitida faoliyat yuritish ijtimoiy hayotda muvaffaqiyat qozonishning majburiy shartiga aylanib ulgurdi. Ta'limni raqamlashtirishda axborotni yaratish, qayta ishlash, almashish va uzatish texnologiyasi nazarda tutiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida rahbar kadrlarning intellektual salohiyati va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish eng yangi raqamli va axborot texnologiyalarini yaratishni taqozo etadi. Bunday sharoitlarni ta'minlash va yaratish uchun professional kadrlar zarur, shuning uchun raqamli iqtisodiyotning asosiy yo'nalishi kadrlar tayyorlash, ya'ni rahbar kadrlarning ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish, raqamli texnologiyalar sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, shuningdek, korxonalarining ilmiy-texnika zaxiralarini rivojlantirish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Boshqaruvda kompetentlik ta'lim muassasasi rahbar-kadrlarining ma'naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyati, ya'ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini tasvirlaydi. Mazkur salohiyatni ta'lim muassasasi rahbar kadrlari boshqaruv faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda boshqaruv faoliyati jarayonining holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

Boshqaruv kompetensiyalari – rahbar hamda uning o'rinbosarlari, tashkiliy tuzilma rahbarlarining ma'muriy funksiyalarni samarali amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan professional ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Kompetensiyalar modeli hamda ularni baholash mexanizmidan quyidagi vazifalarni amalga oshirishda foydalanishimiz mumkin:

- xodimlarni tanlash va tayinlashda, lavozimlarga tavsiya etishda;
- kadrlar zaxirasiga kiritish uchun tanlovda va kadrlar zaxirasi bilan ishlashni tashkil etishda;
- xodimning malakasini oshirishda;
- boshqa tashkiliy va kadrlarga oid faoliyatni amalga oshirishda.

Xodimlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligi, boshqaruv vaziyatining dinamik sharoitlaridan kelib chiqadigan, turli xil masalalarni ongli ravishda, o'z vaqtida va ijodiy yechishga bo'lgan kasbiy tayyorligida o'z ifodasini topadi. Xodimlarning shunday murakkab funksional majburiyatlarni muvaffaqiyatli bajarishi ularning faoliyatga tayyorligi va shu qatorda ijtimoiy-psixologik kompetentligi darajasiga bog'liq [6].

V.Toporovskiyning fikricha, boshqaruvda rahbarning kompetentligi boshqaruv yo'nalishidagi tushunchalari darajasi, uning individual qobiliyatlari va malakasi, o'zini-o'zi rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, zamonaviy talablar asosida ta'lim muassasasini boshqarish imkoniyatlari orqali aniqlanadi.

Natija va muhokama. Rahbarlarining kasbiy kompetentligi – bu ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etish, boshqarish va takomillashtirishda innovatsion yondashuvlarga asoslanadigan, kasbiy ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatarga ega bo'lgan, yuqori darajada o'zini o'zi nazorat qila oladigan, boy falsafiy va ma'naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega bo'lgan, shuningdek, shaxslararo munosabatlarda tarbiyaviy munosabatlarni e'tiborga oladigan hamda vaziyatlarga ko'ra turli xil muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga asoslanadigan, ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish, faolligini ta'minlash, ta'lim muassasasi ilmiy-metodik ta'minotini yaxshilash, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish orqali umumta'lim maktabi faoliyatini takomillashtirish yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va

malakalarga ega bo'lgan mutaxassis shaxsini tavsiflaydi.

Umumta'lim maktabi rahbarlari o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga belgilanayotgan talablar umumta'lim maktabi rahbarlari kasbiy kompetentligini baholash ko'rsatkichlari hamda umumta'lim maktabi rahbarlari boshqaruv faoliyati samaradorligi darajasini aniqlovchi omillar sifatida ham xizmat qilishi mumkin.

Umumta'lim maktabi rahbarlari boshqaruv faoliyati asosiy yo'nalishlari, boshqaruv faoliyati jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, ularga qo'yilayotgan talablar va kasbiy kompetentligi yo'nalishlarida keltirilgan ma'lumotlarga asosan ularda shakllanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka hamda kasbiy ahamiyat kasb etuvchi shaxsiy sifatlarni inobatga olgan holda umumta'lim maktabi rahbarlari kasbiy kompetentligi yo'nalishida belgilanadigan quyidagi asosiy talablarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- umumiy o'rta ta'lim muassasasi haqidagi Nizom va umumiy o'rta ta'limga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy, me'yoriy-uslubiy hujjatlarni mukammal bilishi va o'z faoliyatida ularga amal qilish malakasiga ega bo'lishi;

- umumiy o'rta ta'lim muassasasini boshqarishga oid me'yoriy hujjatlar, maktabni boshqarish tamoyillari, usullari asosida maktab ichki boshqaruv tizimini tashkil qilishni bilishi;

- umumiy o'rta ta'lim muassasasi ishini ilmiy asosda rejalashtirish usullarini bilishi va amalda qo'llay olish malakasiga ega bo'lishi;

- maktabni pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ularni joy-joyiga qo'yish, ular bilan ishlash, ularga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish hamda rag'batlantirish yo'llarini bilishi;

- darslarni kuzatish va tahlil qilish qoidalarini bilishi;

- umumiy o'rta ta'lim muassasasi faoliyati monitoringini olib borishni bilishi;

- boshqaruvning demokratik va insonparvarlik tamoyillarini bilishi va ularga amal qilish malakasiga ega bo'lishi;

- rahbarga mos va xos yuksak madaniy saviya va ma'naviy qiyofa usullarini bilishi va egallashi;

- yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion texnologiyalar haqida tasavvurga ega bo'lishi;

- sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning mazmun-mundariyasi, shakllari va bunday ishlarni tashkil qilish yo'llari va usullari haqida ma'lumotga ega bo'lishi;

- umumiy o'rta ta'limning muammolari, bu sohadagi izlanishlar, yangilik va yutuqlar haqidagi ma'lumotga ega bo'lishi;

- umumiy o'rta ta'limni moliyalash, hisob-kitob yuritish, jihozlash, moddiy ta'minot masalalarini bilishi;

- byudjetdan tashqari mablag' kiritish va ulardan foydalanish yo'llarini bilishi;

- shaxslararo va tabiat bilan bo'lgan munosabatlarda faol va adolatli hamda muhabbatli bo'lishi;

- o'zligini anglash, o'zini va boshqalarni hurmat qilish, o'zini o'zi boshqara olish va o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;

- shaxsiy manfaatlarini umummilliy manfaatlar bilan uyg'un holda ko'ra olishi;

- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish jarayonlarida faol ishtirok etishi;

- mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlarida faollik ko'rsatishi;

- milliy an'ana, urf-odatlar va qadriyatlarimizni asrab-avaylash, yosh avlod

qalbi va ongiga, ona-yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirishga intilishi;

- o'z faoliyati va ta'lim muassasasi faoliyati samaradorligini tahlil qilish va obyektiv baholashga xizmat qiluvchi reflektiv ko'nikmalarga hamda tizimli fikrlash, keng dunyoqarash va reflektiv tafakkurga ega bo'lishi;

- tadqiqotchilik va tahliliy faoliyatga, ilg'or tajribalarni o'rganish, pedagogik mahoratni oshirish, mustaqil ta'lim olish va o'zini o'zi rivojlantirishga, innovatsion jarayonlarga va yangiliklarga moyillik;

- oldindan aniqlanayotgan vaziyatlarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, o'zgal muvaffaqiyatini oqilona baholash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishda adolatlilik;

- o'z faoliyati va o'zaro munosabatlar jarayonidagi xatti- harakatlarining natijalarini oldindan ko'ra olishi;

- boshqaruv jarayonlarida vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarda subyektlar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtira olishi;

- boshqaruv jarayonlarida mavjud sun'iy to'siq va qarama- qarshiliklarni jamoadagi ongli intizomga salbiy ta'sir ko'rsatishini oldini olishi;

- hamkorlikda faoliyat ko'rsatish va vaziyatlarga ko'ra rahbarlik uslublaridan oqilona foydalanishi;

- muloqotga oson kirishishi;

- axborotlar to'plash, tahlil qilish, obyektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashinish qoidalarini bilishi;

- ta'lim muassasasini boshqarishda zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etishi;

- boshqaruv funksiyalari, vositalari va metodlaridan oqilona foydalanishi;

- rahbarlik uslublari va ulardan oqilona foydalanishi;

- axborot texnologiyalari va kommunikatsion vositalardan foydalanishi;

- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va rivojlanishlar hamda ularning natijalariga qiziqish va e'tiborli bo'lishi;

- tinchlik, mustaqillik, erkinlik va bag'rikenglikning ahamiyati va zaruriyatini tushunib yetishi;

- pedagogik jarayonlar va ularning o'zaro bog'liqlik va aloqadorlik tamoyillarini bilishi;

- pedagogik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi;

- tarixni bilishi va vaziyatlarga ko'ra o'tmishni va bugungi kundagi taraqqiyotni obyektiv baholay olishi zarur hisoblanadi.

Demak, umumta'lim maktabi rahbarlari kasbiy kompetentligi darajasini ularning boshqaruv yo'nalishidagi tushunchalari darajasi, uning tashkilotchilik, tadqiqotchilik, boshqaruvchilik va pedagogik qobiliyati va ko'nikmasi, uning o'zini o'zi rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta'lim olishga bo'lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, shaxsiy imkoniyatlari orqali aniqlash mumkin.

Shunday ekan, yuqorida keltirilgan talablarga, asosan, maktab rahbarlari kasbiy kompetentligi darajasini aniqlashda ularning boshqaruvchilik, tashkilotchilik, tadqiqotchilik, ijodkorlik va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlar yo'nalishlaridagi bilimiga qo'yilayotgan talablar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish yo'llarini bilishi;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish yo'llarini o'zlashtirgan bo'lishi;

- ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish va ilmiy tadqiqotlar olib borish usullarini bilishi;

- pedagogik jarayon subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish yo‘llarini bilishi;
- me‘yoriy hujjatlar bilan ishlashning huquqiy asoslarini va qoidalarini bilishi;
- ta‘lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish funksiyalari va metodlarini bilishi;
- axborotlar to‘plash, qayta ishlash va obyektiv baholash mohiyati va ahamiyatini bilishi;
- tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari va ularning o‘ziga xos jihatlarini bilishi;
- buxgalterlik hisobi asoslarini va boshqaruvning iqtisodiy metodlarini bilishi;
- o‘qituvchi va o‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini bilishi;
- pedagogik jarayonlarning samaradorligini aniqlash va obyektiv baholash yo‘llarini bilishi;
- ijodiy, tizimli, vaziyatli, korporativ, milliy-hududiy, etnik va boshqa zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish texnologiyalarini bilishi;
- innovatsion jarayonlarni tashkil etish va boshqarish hamda mazkur jarayonlarga ishtirokchilar qiziqishini rivojlantirish usullarini bilishi;
- ijodiy, refleksiv va qulay ta‘limiy muhitni shakllantirish texnologiyalarini bilishi;
- Vatanparvarlik, insonparvarlik, fidoyilik, prinsipiiallik, kommunikativlik tushunchalarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushunishi zarur.

Maktab rahbarlari bilimiga qo‘yilayotgan mazkur talablar asosida ularning kasbiy kompetentlilik darajasini aniqlashda boshqaruvchilik, tashkilotchilik, tadqiqotchilik, ijodkorlik va kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlar yo‘nalishlaridagi ko‘nikma va malakalariga belgilanadigan talablar sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: [5; 12-b.].

- pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirishga tizimli, vaziyatli, korporativ, blok-modulli, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim kabi yondashuvlarni joriy etish;
- pedagog xodimlar va o‘quvchilar o‘rtasida mustaqillik, uning mazmun-mohiyati va zaruriyati yo‘nalishlarida davra suhbatlari, o‘quv seminarlari, konferensiyalar va yozma ishlar tanlovini o‘tkazish, g‘oliblarni rag‘batlantirishni tashkil etish;
- ilg‘or pedagogik tajribalarni ommalashtirish va targ‘ib qilish;
- o‘quv-metodik birlashma va fan uyushmalari faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish;
- fanlar bo‘yicha o‘tkaziladigan olimpiadalarga hamda ko‘rik-tanlovlarga o‘quvchilarni tayyorlash jarayonlarini muvofiqlashtirish;
- pedagogik jarayon subyektlarining ehtiyojlari va imkoniyatlarini o‘rganish asosida ularning faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish;
- me‘yoriy hujjatlarni o‘rganish, tahlil qilish va ular asosida ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etish;
- o‘quvchilarga DTS talablari asosida bilim berish va ularning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari monitoringini olib borish;
- ta‘lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish;
- pedagogik jarayon subyektlarining faoliyatlari va o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish hamda motivlashtirish;
- pedagogik jarayonlarni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va obyektiv baholash;
- axborotlar to‘plash metodlarini tashkil etuvchi barcha komponentlardan foydalanish asosida axborotlar to‘plash, o‘rganish va tahlil qilish, ularning yangiligi va ishonchliligini obyektiv baholash;

- o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi mavjud munosabatlarni o'rganish, tahlil qilish va muvofiqlashtirish;
- pedagogik jarayonlarda tarbiyaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda shaxsga yo'naltirilgan ta'sirni vujudga keltirish;
- kadrlar tanlash, ulardan foydalanish, personal faoliyatiga baho berish, attestatsiyadan o'tkazish, malakasini oshirish, ularning mehnatiga haq to'lash, rag'batlantirish va mukofotlash, yuqori lavozimlarga tavsiya qilish, lavozimlarga tayinlash, ishdan bo'shatish;
- xarajatlar smetasini tuzish, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash, hisobotlar tayyorlash va tahlil qilish;
- hujjatlar bilan ishlash, farmoyish, buyruq, qarorlar tayyorlash, yuqori tashkilotlardan kelgan xatlar bilan ishlash, ijro intizomini ta'minlash;
- o'qituvchi va o'quvchilarni ilmiy tadqiqot ishlariga jalb etish;
- tajriba-sinov ishlarini tashkil etish uchun dastur va qo'llanmalar tayyorlash, faoliyat natijalarini tahlil qilish va baholash mezonlarini ishlab chiqish;
- o'quvchilarning ijodiy guruhini tuzish va unga rahbarlik qilish;
- pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini aniqlash;
- o'quvchilarni ilm olishga, ularning faolligini ta'minlashga, mustaqil o'rganishga, mustaqil ma'lumot olishga va o'zini o'zi tarbiyalashga yo'naltiruvchi motivlar va vositalarni aniqlash;
- belgilangan maqsadga erishish uchun eng qulay bo'lgan vositalarni aniqlash, samaradorlikni ta'minlovchi ko'rsatkichlar va usullarni tanlash asosida ijodiy yondashuvni joriy etish;
- innovatsion jarayonlarga o'qituvchi va o'quvchilarni qiziqishini rivojlantirish orqali ularning innovatsion faoliyatini tashkil etish, alohida innovatsion loyihalarni birlashtiruvchi, yagona maqsadga qaratilgan dasturlar doirasida hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish;
- innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlaridan oqilona foydalanish;
- ijodkorlik yo'nalishidagi to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish;
- o'qituvchi va o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirish maqsadida turli yo'nalishlarda ko'rik-tanlovlar tashkil etish;
- innovatsion jaryonlarni boshqarish;
- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va rivojlanishlar hamda ularning natijalariga qiziqish va e'tiborli bo'lish;
- tinchlik, mustaqillik, erkinlik va bag'rikenglikning ahamiyati va zaruriyatini tushunib yetish;
- o'z imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish;
- shaxslararo va tabiat bilan bo'lgan munosabatlarda faol va adolatli hamda muhabbatli bo'lish;
- o'zligini anglash, o'zini va boshqalarni hurmat qilish, o'zini o'zi boshqara olish va o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- oldindan aniqlanayotgan vaziyatlarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, o'zgalar muvaffaqiyatini oqilona baholash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishda adolatlilik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish jarayonlarida faol ishtirok etish;
- mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlarida faollik ko'rsatish;
- tabiatni muhofaza qilish, ota-bobolarimiz qoldirgan madaniy meroslarni to'plash, o'rganish, avaylab saqlash va targ'ib qilishda tinmay mehnat qilish va izlanish;

- tarbiyaviy munosabatlar jarayonida insoniy omillarga asoslanish, ehtiroslarga berilmaslik;
- o'zini jamoa lideri sifatida ko'rsata olish;
- vaziyatlarga mos ravishda xodimlarning hissiyotga berilish holatlarini muvofiqlashtirish asosida ularda mehribonlik, qo'llab-quvvatlash, mehr-oqibat, o'zaro hurmat va ishonch tuyg'ularini shakllantirish;
- millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning mazmun-mohiyatini o'quvchi-yoshlarga tushuntirishda prinsipiiallik;
- pedagog shaxsiga xos xatti-harakatlarni namoyon etish;
- muloqot jarayonida insoniy omillarga asoslanish, maktabni rivojlantirish maqsadini jamoaning har bir a'zosiga tushuntirish, belgilangan vazifalarni bajarishga motivlashtirish, jamoa a'zolari bilan muntazam aloqada bo'lish;
- rahbarlik rolini bajarish, o'zini tuta bilish, shuningdek, o'qituvchilarni ham barcha munosabatlarida pedagog shaxsiga xos xatti-harakatlarni namoyon etishga yo'naltirish;
- ta'lim muassasasi jamoasining faoliyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi o'z xatti-harakatlarini tahlil qilish, anglash;
- maqsadga yo'naltirilgan innovatsion faoliyatga, o'zligini isbotlashga, o'zini o'zi rivojlantirishga ehtiyoj, shuningdek, boshqaruv obyekti barcha bo'g'inlarining o'zaro ta'siri natijasida moslashuvchan ta'limiy muhitni vujudga keltirish.

Zamonaviy rahbar va madaniyat to'g'risida ko'rib chiqilgan g'oyalarga muvofiq, samarali boshqaruvga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillarni aniqlash uchun tadqiqotlar asosida M.Vudok va D.Frensis tomonidan rahbarga bir qator talablar qo'yiladi[3; 28-b.]..

1. O'z-o'zini va vaqtni boshqarish qobiliyati – integral qobiliyat, bu quyidagilarni o'z ichiga oladi: shaxsiy va professional talablar va ehtiyojlar o'rtasidagi muvozanat; vaqtni, umuman, ish vaqtidan oqilona va samarali foydalanish; ishlarni samarali tartiblash; boshqalar bilan tegishli aloqa; o'zini o'zi qadrlash; stressdan mohirona “qochish”.

2. O'rtacha shaxsiy qadriyatlarga ega bo'lish – zamonaviy rahbarga muhim va ahamiyatsiz narsalar to'g'risida to'g'ri xulosalar chiqarishga va to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon beradigan asosiy hayotiy pozitsiyalar.

3. Aniq shaxsiy maqsadlarga ega bo'lish, rahbarni muayyan holatlarga va ularning natijalariga yo'naltirish va boshqaruv faoliyatining kuchlari, vaqtlari va boshqa manbalarini saralashga imkon berish.

4. Doimiy shaxsiy o'sish, rivojlanish o'zini va shaxsiy qobiliyatlarini bilish asosida, bu rivojlanish uchun vaqt ajratishni, to'siqlarga ijobiy munosabatni, o'z tajribasini baholashni, o'ziga ishonchni va kasbiy rivojlanishni boshqarish orqali martaba o'zgarishlariga javob berishni anglatadi.

5. Muammolarni samarali hal qilish qobiliyati, muammolarni hal qilishda doimiy e'tiborni o'z zimmasiga olish, yetarli usullarni tanlash, tizimli yondashuvdan foydalanish, muammoga javobgar bo'lganlarni aniqlash, har kimning ishining maqsadini aniq belgilash, muvaffaqiyatni aniqlash mezonlarini belgilash, ma'lumotni mohirona ishlatish, samarali rejalashtirish, tahlil qilish uchun vaqt ajratish, jamoa ishini samarali muvofiqlashtirish.

6. Yangilik qilish qobiliyati – rahbarning integrativ qobiliyati, shu jumladan, boshqa odamlarda ijodiy yondashuvga ijobiy baho berish, o'z ijodiga ishonish, ijodiy faoliyatga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash qobiliyati, muammolarni hal qilishda qat'iyatlilik, urf-odatlarini buzish qobiliyati, o'zgarishga ehtiyoj, muammolarni hal qilishda va innovatsion g'oyalarni tanlashda tizimli yondashuvdan foydalanish, ularning qarori bilan, xatolardan o'rganish qobiliyati, xavflarni qabul qilish istagi.

7. Boshqalarga ta'sir qilish qobiliyati, boshqalarga to'g'ri baho berish, munosabatlar o'rnatish, fikrlarni aniq ifoda etish qobiliyati, o'ziga xos “men” degan real g'oyaning mavjudligi, o'zini tutish, qat'iyatli bo'lish istagi, boshqasini “eshitish” qobiliyati, uni anglash istagi bilan tavsiflanadi.

8. Menejmentning zamonaviy yondashuvlarini bilish, boshqaruv uslublari va shaxsiy

uslublar haqidagi bilimlarni nazarda tutish, ehtiyoj va vaziyatga qarab boshqaruv uslubini o'zgartirish, odamlardan ular berishi mumkin bo'lgan hamma narsani olish qobiliyati.

9. Yetakchilik qilish qobiliyati (inson resurslaridan mohirona foydalanish) - rahbarning shakllangan va rivojlangan qobiliyati. Bu o'z rolini va bu rolni bajarishga ta'sir etuvchi omillarni tushunishni, boshqaruv uslubini jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashtirishni, ishlarni tahlil qilishga tizimli yondashuvni, vakolatli vakillar va ijobiy fikrlarni yaratishni, xodimlarni jonlantirish va muvaffaqiyat mezonlarini izlashni o'z ichiga oladi.

10. Subordinatlarni o'rgatish va rivojlantirish qobiliyati – uning ta'lim funksiyalari bilan bog'liq bo'lgan maxsus yetakchilik qobiliyatlari. Rahbar jamoada ijobiy o'quv muhitini yaratishga intilishi, xodimlarning o'qishga bo'lgan ehtiyojlarini tahlil qilishi, xodimlarni muntazam ravishda baholashi, bo'ysunuvchilarning kuchli va zaif tomonlarini bilishi, harakat talab qiladigan maqsadlarni belgilashi va bu jarayonda rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanishi kerak.

11. Ishchi guruhlarini tuzish va rivojlantirish qobiliyati, boshqaruv ko'nikmalarining mavjudligi, qulay psixologik muhitni yaratish, ish natijalariga qiziqish, xodimlarni to'g'ri tanlab olish va ular orasidagi majburiyatlarni aniq taqsimlash, bo'ysunuvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, samarali jamoa ichidagi munosabatlarni shakllantirish, konstruktiv maqsadlar uchun ziddiyatlardan foydalanish, xavflarni qabul qiladigan ishchilarni rag'batlantirish, yuqori taqdimot bo'ysunuvchilarga qo'yiladigan talablar hisoblanadi.

Xulosa. Rahbar har qanday vaziyatlarda ham o'zini tuta olishi, tashabbuskor bo'lishi, har qanday vaziyatlardan jamoani olib chiqa olishi, taraqqiyot bilan barobar qadam tashlashi, ko'pchilik dardi bilan yashashi, hamkorlik, hamjihatlik, hamijodkorlik bilan ish yuritishi, kasbiy-uslubiy mahorat egasi bo'lishi, so'zi bilan ishi bir bo'lishi, maqsadni aniq qo'ya oladigan va uning ijrosini ta'minlaydigan, vijdonli va adolatli, samimiy, vazmin, bag'rikeng, ijodkor, bunyodkor va yaratuvchan, talabchan va mehribon, vaqtning qadriga yetadigan, xushmuomala inson bo'lishi kerak [1; 8-b.].

Umumta'lim muassasasini boshqarishning o'ziga xosligi – ta'lim muassasasi boshqaruvini ichki va tashqi o'zgarishlarga moslashtirish, rahbarlik uslublaridan oqilona foydalanish, boshqaruv tamoyillarini o'zlashtirish va qo'llash, boshqaruvni ta'lim muassasasi faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirish asosida belgilash, shuningdek, belgilangan maqsadga erishish yo'nalishidagi vazifalarni bajarishda muhim ahamiyat kasb etuvchi axborot-tahlil, oldindan ko'rish-rejalashtirish, tashkiliy-ijrochilik, nazorat va tartibga solish kabi funksiyalarini amalga oshirish jarayonida aniqroq ifodalanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, uning natijaviyligini ta'minlash, ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Mazkur funksiyalarni amalga oshirishda rahbarlarning demokratik tamoyillarga asoslanishi, barcha ta'lim ishtirokchilarini boshqaruv jarayoniga jalb etilishi, yuqori samaradorlikka erishishda o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tompson A.J., Striklend A.D. Strategic management: concepts and situations for analysis. 12-e izd.-2003. 924 p.
2. Michael E. Porter. Competitive strategy: Techniques Analyzing Industries and Competitors. The free press. New York London Toronto Sydney Singapore. 2017 y. – 816 p.
3. Образование взрослых: теория и практика // Региональное образование. Занятость. – № 1. – СПб.: Ин-т образования взрослых РАО, 1995. – 160 с.
4. Поташник М.М. Управление современной школой. – М.: Новая школа, 1995. – 159 с.
5. Temur tuzuklari / V.Ahmedov tahriri ostida. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. – 75-76-b.
6. Тидор С.Н. Психология управления: от личности к команде. – Петрозаводск: Фолиум, 1996. – С. 133
7. Turg'unov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlarining malakasini oshirish kursi tinglovchilari uchun ta'lim boshqaruvi (menejment)dan o'quv dasturi. – Toshkent: O'zPFITI, 2005.–19 b.
8. Hayitmetov A. Alisher Navoiy davlat va uni boshqarish to'g'risida // Rahbar va xodim. – Toshkent: Akademiya, 1998. – 100-110-b.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MATN USTIDA ISHLASH ORQALI NUTQIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHGA DOIR O'QUV TOPSHIRIQLARI TAVSIFI**Raxmatullayeva Shaxodat Ziyotovna**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedras

shahodatrahmatullayeva11@gmail.com

ORCID 0009-0000-8681-5224

UDK 373.31.

Annotasiya. Maqolada boshlang'ich sinflarda matn ustida ishlash orqali nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishda o'quv topshiriqlaridan foydalanish, ularning tasnifi va tavsifiga doir fikr-mulohazalar, o'quv topshiriqlarining berilishi, turlari, vazifasini tahliliy o'rganish hamda o'quv topshiriqlari nazariyasidagi o'zgarishlar, yangi yondashuvlarga munosabat bildirish, darsliklardan keltirilgan o'quv topshiriqlarning yutuq va kamchiliklari haqida yondashuvlar bayon qilingan. Shuningdek, o'quv topshiriqlaridan foydalanish bo'yicha namunalar ishlab chiqilgan, tanlangan matn ustida ishlash orqali topshiriqlarning vazifaviy turlari keltirilgan hamda topshiriqlardan dastlab bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda, keyin o'zlashtirilgan bilim va egallangan ko'nikma hamda malakalarni sinash vositasi sifatida foydalanish jarayonlari yoritib berilgan.

O'quv ma'lumotlariga vositachilik qiladigan o'quv topshiriqlarining o'quv materiallarini o'z ichiga olishi yoki uni qayerdan olish mumkinligi ko'rsatilgan.

O'quv materiallari bilan o'quv topshiriqlari orqali o'quvchini tushunishga, o'quv ma'lumotlarini tizimlashtirishga, o'z-o'zini nazorat qilish; taqqoslashni, xulosalarni, umumlashtirishni o'rgatish mumkin ekanligi misollar asosida dalillangan, o'quv topshiriqlari o'quvchilarni yangi materialni ongli ravishda o'zlashtirishga yordam berishi maqolada asoslangan. Matn ustida ishlash orqali nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga doir o'quv topshiriqlarini tavsifi keltirilgan.

Kalit so'zlar. matn, boshlang'ich ta'lim, ona tili, mashq, topshiriq, savol, o'quv topshiriqlarining turlari, yangi avlod darsliklari, matn, lug'at, ko'nikma, malaka, bilim, xalqaro tajriba

DESCRIPTION OF LEARNING TASKS ON DEVELOPING SPEAKING SKILLS THROUGH WORKING ON TEXT IN PRIMARY EDUCATION

Abstract. The article describes the use of educational tasks in the development of speech skills through working on the text in primary grades, reviews of their classification and description, an analytical study of the assignment of educational tasks, types, functions and changes in the theory of educational tasks, reactions to new approaches, approaches to the advantages and disadvantages of educational tasks from textbooks. Also, samples of the use of educational tasks are developed, task types of tasks are presented through working on the selected text, and the processes of using tasks first in the formation of knowledge, skills and competencies, and then as a means of testing the acquired knowledge and acquired skills and competencies are highlighted.

It is indicated that educational tasks that mediate educational information include educational materials or where they can be obtained.

It is proved on the basis of examples that it is possible to teach students to understand, systematize educational information, self-control; compare, draw conclusions, generalize through educational materials and educational tasks, and the article is based on the fact that educational tasks help students to consciously master new material. A description of educational tasks for the development of speech skills through working on the text is given.

Keywords. text, primary education, native language, exercise, task, question, types of educational tasks, new generation textbooks, text, dictionary, skills, qualifications, knowledge, international experience

Kirish. O'quvchilarda XXI asr nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishni talab qilar ekan, demak, o'quv topshiriqlari ham shu talabga moslashishi kerak. O'zbek tilining ona tili va davlat tili, shuningdek, ikkinchi til sifatida o'qitilishida o'quv topshiriqlari namunaga qarab ishlab chiqilgan savol va topshiriqlardan foydalaniladi. Aslida har bir savol, har bir topshiriq puxta o'ylangan, belgilangan mezonlar asosida ishlab chiqilishi lozim. Mavjud o'quv topshiriqlarining eng noqulay juhati – bu zamonaviy baholash tizimiga mos kelmasligidir. Har bir mashg'ulot muayyan ko'nikma yoki malakani hosil qilish uchun taqdim qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta

ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risida PF-4947-son farmonining “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi” deb nomlangan IV yo‘nalishida ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlaridagi mavjud muammolar yechimiga qaratilgan “...uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” singari ishlar ko‘lamini amalga oshirish albatta, iqtisodiyotning real tarmoqlari uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash davlat siyosati darajasidagi ustuvor vazifalardan biriga aylanganligini tasdiqlaydi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonida “...o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; darsliklarni yaratish tizimida xilma-xillikning yo‘qligi ularni yaratish va nashr qilishni monopollashtirishga omil bo‘lib qolmoqda hamda ularning mazmuni, metodikasi va nashr sifatiga salbiy ta‘sir etmoqda; davlat ta‘lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, o‘qitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa o‘quv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan bo‘lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda; foydalanilayotgan darsliklar sifatini oshirish, xorijiy o‘quv qo‘llanmalarini qo‘shimcha yoki muqobil o‘quv materiallari sifatida qo‘llash amaliyotini yo‘lga qo‘yish talab etilmoqda; xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan PISA (The Programme for International Student Assessment) umumta‘lim maktablarida ta‘lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish; pedagog xodimlarning malaka talablarini, shuningdek yangilangan ta‘lim standartlarini joriy etish uchun egallanadigan ko‘nikmalarni aniqlashning yangi usullarini joriy etish xalq ta‘limi tizimi oldida o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotganligi tanqidiy-tahliliy bayon etilgan[2]

Ta‘lim sohasidagi o‘zgarishlarning tub mohiyati haqida L.S.Salomatina maqolasida shunday yozadi: “Hozirgi jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar ta‘lim makonini tezlashtirilgan holda takomillashtirishni, davlat, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlar va manfaatlarni hisobga oladigan ta‘lim maqsadlarini belgilashni taqozo etadi” . “Til tizimini, nutqiy faoliyat malakalarini egallash o‘zligini va o‘zgalarni yaxshiroq anglash, axloqiy va estetik qadriyatlarni qo‘lga kiritishga yordam beradi[3].

Natijalar va muhokama. Boshlang‘ich ta‘limda matn ustida ishlash orqali nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga doir o‘quv topshiriqlari, o‘quvchilarning matnni tushunishi va uni samarali ifodalashi uchun muhim ahamiyatga ega. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning tilni to‘g‘ri tushunishiga, o‘qish va tushunish qobiliyatlarini oshirishga, shuningdek, ularning so‘zlashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Matn ustida ishlash orqali nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga doir o‘quv topshiriqlarini quyidagicha tavsifladik:

1. Matnni o‘qish va tushunish:

O‘qish topshiriqlari: O‘quvchilarga qisqa matnlar yoki hikoyalar o‘qitiladi. O‘quvchilar matn mazmunini tushunishlari kerak. Masalan, matnni o‘qib, asosiy g‘oya yoki voqealar ketma-ketligini tushuntirib berishlari lozim.

Savollar asosida muhokama: Matn o‘qib bo‘lingandan keyin o‘quvchilarga matnni tushunishga yordam beradigan savollar beriladi. Savollarda matn mazmuni, muallifning fikri yoki voqealar ketma-ketligini ifodalovchi mazmun aks etishi lozim.

Izoh berish: O‘quvchilarga matndagi qiyin so‘zlarni izohlash yoki matnni boshqa so‘zlar bilan tushuntirish topshirig‘i beriladi.

2. Nutqni ifodalash:

Matn bo‘yicha insho yozish: O‘quvchilarga o‘qilgan matn asosida qisqa insho yoki fikr yozish topshiriladi. Bu topshiriq o‘quvchining o‘qilgan matnni tahlil qilish va o‘z fikrini

aniq ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi.

Matni tahlil qilish: Matndagi obrazlarni, voqealarni va fikrlarni tahlil qilish orqali o'quvchi o'z fikrini muntazam va aniq ifodalashni o'rganadi.

3. Matn asosida nutq yaratish:

Kengaytirilgan gaplar yaratish: O'quvchilarga matndagi ma'lumotlar asosida kengaytirilgan gaplar tuzish topshiriladi. Masalan, matni qisqacha o'z so'zlari bilan bayon qilish.

Fikrlar almashish: O'quvchilar bir-birlari bilan matn asosida fikr almashishlari uchun guruhlarda yoki partadoshlari bilan ishlashlari mumkin.

4. Matni o'zgartirish va yaratuvchanlik:

Matni qayta yozish: O'quvchilarga matni o'z fikrlari yoki tasavvurlari asosida qayta yozish topshiriladi. Bu topshiriq o'quvchining ijodiy fikrlash va matni moslashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

5. Matn orqali nutqni tinglash va tushunish:

Matni tinglash va javob berish: O'quvchilarga matni ovozli ravishda tinglash va undan asosiy ma'lumotlarni olish topshiriladi. So'ngra o'quvchilar matn asosida savollarga javob berishadi.

Diskussiya o'tkazish: Matni tinglaganidan keyin o'quvchilar matn asosida fikr almashish va bahs-munozara qilishadi. Bu ularning muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

6. Matnning maqsadiga muvofiq nutq:

Matnning maqsadiga qarab javob: O'quvchilar matnning maqsadiga mos ravishda nutq yoki javob yaratishlari kerak. Masalan, matni tavsiya qilish yoki unga qarshi fikr bildirish.

Bunday topshiriqlar o'quvchilarning matni tushunish, so'zlashuv va yozish ko'nikmalarini birgalikda rivojlantirishga xizmat qiladi, o'qitish jarayonining samaradorligini oshiradi.

1-sinfda o'quvchilar matni ongli, to'g'ri va bo'g'inlab sidirg'a o'qishni o'rganadilar. Olti-yetti yoshli o'quvchilarning nutqini takomillashtirish uchun uning nutqidagi kamchiliklarni o'qish darslaridagina emas, balki barcha fan yuzasidan o'tkaziladigan darslarda hamda darsdan va maktabdan tashqari o'tkazilgan mashg'ulotlar jarayonida ham tuzatib borishga alohida ahamiyat berish zarur. O'quvchilar o'qilgan asarlar yuzasidan berilgan savollarga javob berishga o'rganadilar. Matn ustida ishlash o'qituvchi rahbarligida olib boriladi.

2-sinfda o'quvchilarda so'zlarni to'liq, sidirg'asiga o'qish malakasi shakllanadi. O'qishning to'g'ri va ifodali bo'lishiga erishiladi, o'qish texnikasi tezlashadi. Bu sinfda o'quvchilar matnning ayrim qismlarini, qisqa hikoyalarni ichda (ovozsiz) mustaqil o'qishga o'tadilar. Matn ustida ishlash murakkablashib boradi, o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida asarning asosiy mazmunini aniqlaydilar, qahramonlarning xatti-harakatini ifodalovchi so'z va iboralarni topishga, voqea-hodisalarni so'z bilan tasvirlashga o'rganadilar. Ularda so'z boyligiga talab ortadi.

Nutq ravonligi va mazmuniga e'tibor kuchayadi, lug'ati boyiydi va faollashadi, nutq sur'ati oshadi, so'zlarni to'g'ri qo'llashga, ovozni boshqarishga o'rganadi.

3-sinfda so'zlarni butunicha sidirg'a o'qish ko'nikmasi to'la shakllanadi. Bu esa o'quvchilarning ongli va ifodali o'qishga qo'yilgan talablarni o'stirish imkoniyatini beradi.

O'qish darslarida o'quvchilarning matn mazmunini o'zlashtirish ustida mustaqil ishlashga, hikoyadagi voqea-hodisalarning izchilligini belgilashga, o'zaro bog'lanish sabab-natijalarini aniqlashlariga alohida ahamiyat beriladi. Matnning badiiy xususiyatlarini, tasviriy vositalarini aniqlash ustida ishlash davom ettiriladi.

O'quvchilarni o'z nutqlarida maqollardan, hikmatli so'z va iboralardan foydalanishga, so'zlarni to'g'ri tanlashga, gap qurilishidagi so'zlarning bir-biriga bog'lanishidan to'g'ri foydalanishga o'rgatish talab etiladi. O'qish darslarida o'quvchilarning so'zlarni adabiy qoidalarga muvofiq talaffuz etishlari talab etiladi.

4-sinfda o'quvchilar so'zlarni bo'g'inlamay sidirg'a o'qishlari, matnni tez, to'g'ri, ongli va ifodali o'qiy olishlari talab qilinadi. Bu sinfda bo'g'inlab o'qishga yo'l qo'yilmaydi. O'quvchilar o'qilgan matn mazmunini mustaqil ravishda qayta hikoya qilishlari, matn yuzasidan sodda reja tuza olishlari, uning asosiy mazmunini ajrata olishlari, matnni to'la, qisqartirib, tanlab qayta hikoyalashlari zarur. Ifodali o'qish va o'zaro nutqiy faoliyat jarayonida o'quvchilarning adabiy talaffuz me'yorlari shakllanadi. Gapda so'zlarning grammatik shakllarini to'g'ri qo'llash o'quvchi nutqining ravon va ifodali bo'lishiga yordam beradi.


Matnni o'qish va tushunish: "Mehribonlik" matnini ifodali o'qishni mashq qiling.

13 noyabr – Butunjahon mehribonlik kuni (World Kindness Day). Ushbu ajoyib bayram "Butunjahon meribonlik harakati" tashkilotining tashabbusi bilan vujudga keldi. U xayriya tashkilotlarida ishlaydigan va og'ir ahvolga duch kelganlarga beminnat yordam beradigan turli mamlakatlardan kelgan ko'ngillilarni birlashtiradi.

Ko'ngilli – o'z ixtiyori bilan va mutlaqo xolisona yaxshilik qiladigan va odamlarga, jamiyatga yordam berish uchun o'z vaqti va kuchini sarflashga tayyor bo'lgan odamlar hisoblanadi.

Boshqalarga yordam berish va yaxshiliklar qilish qiyin ish emas. Darhol ko'ngilli yoki qutqaruvchi bo'lish shart emas. Atrofga nazar soling, shoshilmang va bajarilishi mumkin bo'lgan ishlar ko'pligini, sizning yordamingizga muhtoj bo'lganlar ko'pligini ko'rasiz, kutish kerak emas, hozirning o'zida bajarish kerak.

Yordam – bu yaxshi so'z, yaxshi ishlar orqali boshqa odamlar bilan muloqot qilishning eng yaxshi usuli. Insondagi insoniylik darajasi atrofdagilarga yordam berish uchun samimiy istak bilan belgilanadi. Har birimiz o'z do'stimizga yoki sinfdoshimizga, onamiz, otamiz, qo'shnimizga hozirning o'zida yordam berishimiz mumkin. Faqat undan "Sizga nima yordam berishim mumkin?" yoki "Sizga yordam bera olamanmi?" deb so'rang. Bu juda oddiy bo'lgan savol yaxshi ishlarigizning boshlanishi bo'ladi.



Quyidagi savollarga javob bering:

1. Diqqat bilan ko'rib chiqing va har bir rasmda qanday yordam kerakligini aniqlang.
2. O'ylab ko'ring va ayting-chi, qanday holatlarda siz yordam berdingiz yoki yordam berishingiz mumkin.
3. O'ylab ko'ring, agar siz o'tib ketgan bo'lsangiz va yordam bermagan bo'lsangiz,

nima sodir bo'lishi mumkin edi.

4. Yordam nimaligini tushuntiring.
5. Nima uchun boshqalarga yordam berish kerak?
6. Yordam qanday bo'ladi?
7. Ko'ngillilar kimlar? Nima uchun ular boshqalarga yordam berishadi?
8. Nima deb o'ylaysiz, 4-sinf o'quvchisi kattalarga yordam bera oladimi?

Faqat pul bilan yordam berish mumkin deb hisoblaganlar – adashadi. Hayotdagi baxt pul bilan boshlanmaydi va pul bilan tugamaydi. Hayotda sevgi, tushunish va hamdardlik ham bor. Yordamga muhtoj bo'lgan inson uchun, unga ishonishlarini va ba'zan mutlaqo begonalar yordam berishga tayyorligini his qilish ancha qimmatliroqdir. Ko'p hollarda kishilarga sizning ishtirokingizga muhtoj, kimgadir sizning maslahatingiz yoki sizning yo'l-yo'rig'ingiz kerak. Agar sizda biron-bir vosita, bilim yoki vaqtingiz bo'lsa, ehtiyoj sezganlar bilan o'rtoqlashing. Ehtimol, siz kimningdir taqdirini kichik yordamingiz bilan o'zgartirishingiz, hayotini yaxshiroq, yengilroq va yoqimliroq qilgan bo'ladingiz.

Topshiriq:

Quyidagi vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal etishda yordam bering. Vaziyatni tahlil qiling, ushbu vaziyatda qanday yordam berish mumkinligini hal qiling. Bunda yoshingiz va imkoniyatlaringizni hisobga olishingiz kerak.

1-vaziyat: Qo'shningiz kirish eshigining qulfi sinib qoldi. U uyiga kira olmayapti. Uning mobil telefoni jiringlab qoldi.

2-vaziyat: Sinfdoshingiz oyog'ini sindirib qo'ydi, u uyga va maktabga bora olmayapti. Barcha fanlardan orqada qolyapti.

3-vaziyat: Qo'shningiz – oyoqlari og'riydigan yolg'iz keksa kampir va u ko'chada uzoq yurolmaydi.

4-vaziyat: Daraxtning baland shoxida qo'rqib ketgan mushuk o'tiribdi, baland ovozda yig'layapti va o'zi pastga tusha olmayapti.

5-vaziyat: 3-4 yoshli kichik qizaloq ko'chada baland ovozda yig'layapti. U yo'qolib qolgan va onasini izlayapti.

6-vaziyat: Do'stingiz o'tilgan mavzuni yaxshi o'zlashtira olmadi va past baho oldi. U juda ham xafa bo'lgan.

Quyida o'quv topshiriqlaridan foydalanish bo'yicha bir namuna ishlab chiqilgan bo'lib, tanlangan matn ustida ishlash orqali topshiriqlarning vazifaviy turlari keltiriladi. Ta'kidlangani kabi topshiriqlardan dastlab bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda, keyin o'zlashtirilgan bilim va egallangan ko'nikma hamda malakalarni sinash vositasi sifatida foydalaniladi. Biroq pedagogika fanlari doktori, professor Uman Arkadiy Ilich ta'lim topshiriqlari orasida ogohlantiruvchi ta'sirga ega bo'lmaganlari ham borligini ta'kidlaydi[4]. Ular ta'lim qobiliyatlari va ko'nikmalarini takomillashtirish uchun o'xshashlik bilan amalga oshiriladigan reproduktiv vazifalardir.

O'quv faoliyatining tabiati bo'yicha ikkinchi guruh vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quv ma'lumotlariga vositachilik qiluvchi o'quv topshiriqlari;
- o'quv materiallari bilan o'quvchining ishini boshqaradigan o'quv topshiriqlari:
 - a) kuzatuv uchun vazifalar;
 - b) matn bilan ishlash vazifalari;
 - c) qobiliyat va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan vazifalar.

O'quv ma'lumotlariga vositachilik qiladigan o'quv topshiriqlari to'g'ridan to'g'ri o'quv materiallarini o'z ichiga oladi yoki uni qayerdan olish mumkinligini ko'rsatadi. Ushbu turdagi vazifalar o'qituvchining tushuntirishini qisman o'zgartiradi va o'quv materialining dastlabki idrokiga yoki uni mustaqil o'rganishga mo'ljallangan.

O'quv materiallari bilan o'quv topshiriqlari orqali o'quvchini tushunishga, o'quv ma'lumotlarini tizimlashtirishga, o'z-o'zini nazorat qilish; taqqoslashni, xulosalarni, umumlashtirishni o'rgatish mumkin; yangi materialni ongli ravishda o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish kerakki, ona tili ta'limida, xususan, boshlang'ich sinflarda o'qib va tinglab tushunishga doir matnlar ustida to'g'ri ish olib borish lozim. Bu o'quvchilarga to'g'ri talaffuz va eshita olish ko'nikmalarini hamda og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. // "Xalq so'zi" gazetasi. – 2017-yil 8-fevral. №28 (6722).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son 2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risidagi farmoni. –www.lex.uz
3. Саломатина Л.С. Обучение созданию письменных текстов разных типов в условиях перехода на ФГОС начального общего образования - Начальная школа. 2010. № 12. – С. 14.
4. Уман А. И. Теоретические основы технологического подхода в дидактической подготовке учителя: дис. ... д-ра пед. наук. - Орел, 1996.–402 с.
5. Alavuddinova N. Ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi: ped. fan. nomz. ... diss. avtoref. TDPU. – Toshkent, 2008. – 24 b.
6. Husanboyeva Q. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari: ped. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2006. – 262 b.
7. Mavlonova K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o'qitish metodikasini takomillashtirish: ped. fan. fal. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – 22 b.
8. Хамроев А.Р. Она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойихалаштириш: пед. фан. док. (Dsc) ... дисс. –Тошкент, 2020. –242 б.
9. Суюнов Х. Адабиёт дарсларида ўқувчиларни савол ва топшириқлар устида ишлашга ўргатиш усуллари: пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 125 б.
10. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari: ped. fan. dokt. diss. – Toshkent, 2003. – 280 b

ONA TILI TA'LIMI JARAYONIDA ETIMOLOGIK TAHLILNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR BILAN INTEGRATSIYALASHUVI

Sobirova N.Z.

QarshiDU Boshlang'ich ta'lim kafedrası
tayanch doktoranti
ORCID 009-0009-5154-0457
UDK 372.62(075.8)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili ta'limi jarayonida yetimologik tahlilning innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi yoritilgan. Innovatsion metodlarni ona tili ta'limi jarayonida qo'llash uning samaradorligini oshirishga xizmat qilishi, ularning turlari haqida ham maqolada to'xtalib o'tilgan. Innovatsion ta'lim texnologiyalari – ona tili ta'limi jarayonida qo'llaniladigan shakl, metod va usul, vositalarining o'zaro bog'liq va yaxlit holda namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek, u talabalarga etimologiyaga oid bilimlar olishni kafolatlaydi va natijadorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Etimologik tahlilning innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi shunday xususiyatga egaki, unda rang-baranglik namoyon bo'ladi, talabalarning esa bunday darslarda ishtirok etish motivatsiyasi ortib boradi. Shuningdek, ushbu maqolada muammo doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili, ularning ta'lim jarayonida tutgan o'rni bayon qilingan.

Kalit so'zlar. etimologik tahlil, innovatsion texnologiyalar, metod, milliy va adabiy til, analiz va sintez, taqqoslash, xulosa chiqarish, indeksiya, deduksiya .

Abstract. This article describes the integration of etymological analysis with innovative technologies in the process of teaching the native language. The use of innovative methods in the process of teaching a native language helps to increase its effectiveness; their types are also discussed in the article. Innovative educational technologies - forms, methods and techniques used in the process of teaching the native language, ensure their interconnection and integration. This also ensures that students gain knowledge of etymology and serves to ensure efficiency. The integration of etymological analysis with innovative technologies has such a feature that it reveals diversity and increases the motivation of students to participate in such classes. This article also describes an analysis of scientific research conducted within the framework of the problem, their role in the educational process.

Key words. etymological analysis, innovative technologies, method, folk literary language, analysis and synthesis, comparison, conclusion, indexing, deduction

Kirish. Jahon ijtimoiy-iqtisodiy sohasida kuzatilayotgan intensiv va dinamik o'sish ta'lim tizimiga o'z ta'siri o'tkazish bilan birga, unda yetishib chiqayotgan shaxslarning intellektual-mantiqiy fikrlashini tobora rivojlantirishga bo'lgan talabning yuksalishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, shaxsning mantiqiy fikrlashi, savodxonligi va intellektini rivojlantirish va turli usullar yordamida baholash bo'yicha AQSH (ETS-Educational Testing Services), Kanada (Statistic Canada), Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assosatsiyasi (GEA)ning faoliyati asosiy rolni o'ynaydi. Bu kabi tajribalar yoshlarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda etimologik tahlildan foydalanish jarayonini takomillashtirishga hamda ta'lim jarayonida yoshlarning ona tiliga nisbatan qadriyatli munosabatini tarkib toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo ijtimoiy taraqqiyotining texnika va texnologiyalar bilan bog'liq holda rivojlanishi ta'lim jarayoniga ham shaxs mantiqiy fikrlashini jadallashtirishga undaydigan ta'lim shakllarining texnologiyalashtirilgan, innovatsion yondashuvlar bilan boyitilga hamda interaktivlikka yo'lantirilgan ta'lim metodlarini qo'llashni, shuningdek, ulardan samarali foydalanish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ammo, yoshlarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish muammosi turli fanlar doirasida tatqiq etilayotgan bo'lsa-da, hamon ushbu masalaning ona tili bilan bog'liq pedagogik asoslari va metodikasini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ona tili darslarida etimologik tahlil usullaridan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim islohotlari o'z natijalarini bera boshlagan bir paytda, yoshlarning ona tilini o'rganishga qiziqishlarini turli yondashuv va usullar asosida rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. "Hozirgi tez o'zgarayotgan globallashtirish davrida o'zbek tili va adabiyotining o'ziga xos betakror xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, uning bugungi holati va istiqboli bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini kuchaytirish" [1]. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarning ona tiliga oid kompetensiyalarini shakllantirishda integrativ va differensial ta'lim samaradorligini oshirish hamda ona tili ta'limi jarayonida turli tahlillardan foydalab, talabalarning mantiqiy fikrlashini o'stirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Shaxs ijtimoiy hayotida mantiqiy fikrlash muhim o'rin tutishini yuqori baholagan Abu Nosir Forobiy, Al Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino kabi faylasuflar tomonidan ishlab chiqila boshlandi.

Ushbu muammoning pedagogik jihatlarini Nasriddin Tusiy, Kaykovus, Alisher Navoiy, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur hamda jadid ma'rifatparvarlari – Abdulla Avloniy, Maxmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov kabilarning ilmiy-badiiy asarlarida yaqqol ko'ga tashlanadi.

Keyingi davrlarda ham ushbu muammoni pedagogik jihatlarini takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqishda mahalliy olimlardan: R.Shodiyev, R.Safarova, T.G'afforova, S.Qahhorov, Sh. Nurullayeva, O. Qoraxonova, E. Xudoynazarov kabilarning ilmiy izlanishlari diqqatga sazovor.

Etimologik tahlil masalalarining turli jihatlarini ishlab chiqish va uning ahamiyatini yoritishda tilshunos olimlardan: Sh.Raxmatullayev, B. Bafoyev, B. R. Sayfullayeva, B. Mingliyev, I. Raupova, M. Qurbonova, M. Abuzalova, D. Yo'ldosheva, T. Jumayev, O.Shukurov, H. Dadaboyev, B. Bahridinova, M. Mirtojdiyev kabilarning xizmatlari katta.

MDH olimlaridan L.S. Levitskaya, A.V. Dibo, V.I. Rassadin, S. A. Starostin, A. V. Dybo, O. A. Mudrak, O.N. Levushkina, O. V. Shatalova, N. M. Shanskiy, M. Fasmer, L. B. Prokopeva, S. I. Lvova, T. V. Larina, O. N. Kondrateva, L. A. Isayeva, T. N. Grankina kabilarda ta'lim jarayonida etimologik tahlildan foydalanishning turli jihatlarini tadqiq etishgan.

Xorijiy olimlardan Arundhathi Yamsani, Vilja Oja, R.Anttila, D. Harper, M.Webster, F.Khan, R. Mailhammer, R.Durkin, E.Partridge, J. Bronkhorst, C.Chiarcos, R. Axmetyanov kabilarda etimologik tahlil va etimologik tahlillarga doir tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Talabalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish tizimi ona tilini o‘ranishga oid kompetensiyalar va pragmatik pedagogikaning shaxsga yo‘naltirilganlik, individuallik, insonparvarlik, ko‘p darajalilik tamoyillari uyg‘unligi asosida aniqlashtirilgan;

etimologik tahlil asosida talabalar mantiqiy fikrlashini rivojlantirish modelining diagnostik va tatbiqiy bosqichlari mantiqiy fikrlashning analiz va sintez, taqqoslash, xulosa chiqarish, indeksiya, deduksiya kabi mezonlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

talabalar mantiqiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyalari etimologik tahlilning antropologik, etnopedagogik, akseologik, akmeologik tahlillarga tayanilgan holda ularning mantiqiy, intellektual, kreativ fikrlashini rivojlanish trayektoriyasini kengaytirish asosida takomillashtirilgan;

etimologik tahlil asosida talabalar mantiqiy fikrlashini rivojlantirish metodikasining samaradorligi taklif etilayotgan interaktiv dasturning diagnoslik, ijodiy-kreativ, natijaviylik bosqichlarini didaktik jarayonga izchil tatbiq etish va pedagogik jarayonda samaradorlikni oshirish asosida takomillashtirilgan.

Natijalar va muhokama. Zamonaviy ta‘lim sharoitida etimologik tahlildan foydalanish ona tili ta‘limi samaradorligini oshirishga hamda ona tili ta‘limi jarayonning tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan holda tashkil etilishiga yordam beradi.

Etimologik tahlil tarixiy usullardan biri hisoblansa-da, ammo bugungi zamonaviy ta‘lim sharoitida u innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyalashgan holda ona tili ta‘limida foydalanishni taqozo qiladi. Bunday innovatsion texnologiyalar talabalarda ona tili ta‘limiga nisbatan qiziqishning yuksalishiga va mantiqiy fikrlashining jadallashishiga yordam beradi.

Innovatsion ta‘lim texnologiyalari – ona tili ta‘limi jarayonida qo‘llaniladigan shakl, metod va usul, vositalarining o‘zaro bog‘liq va yaxlit holda namoyon bo‘lishini ta‘minlaydi. Shuningdek, u talabalarga etimologiyaga oid bilimlar olishni kafolatlaydi va natijadorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Etimologik tahlilning innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi shunday xususiyatga egaki, unda rang-baranglik namoyon bo‘ladi, talabalarining esa bunday darslarda ishtirok etish motivatsiyasi ortib boradi.

Demak, tajriba-sinov ishlari jarayonida “Ona tili - o‘qitish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi” fanidan “Tillarning paydo bo‘lishi”, “Milliy va adabiy til”, “Leksikologiya, uning obekti, vazifalari, ona tili lug‘at tarkibining ma‘no jihatdan tavsifi”, “Lug‘at tarkibining shakl va ma‘no munosabatlari jihatidan tavsiflanishi: omonim, sinonim, antonim, paronim va ularning turlari”, “Lug‘at tarkibidagi so‘zlarning kelib chiqishi, ijtimoiy guruhlar tomonidan qo‘llanilishi jihatidan tavsiflanishi. Lug‘at tarkibidagi ajralmas birikmalar – fraziologik birikmalarining ma‘no va tarkib jihatidan tavsiflanishi” kabi mavzulardagi amaliy dars mashg‘ulotlarida grafik organayzerlar va boshqa innovatsion texnologiyalar foydalandik. Quyida bir nechta dars ishlanmalaridan na‘muna keltirib o‘tamiz:

1-jadval

“Milliy va adabiy til” mavzusidagi amaliy darsning texnologik xaritasi

<i>Mashg‘ulot maqsadi</i>	Talabalarga milliy va adabiy til haqida ma‘lumot berish, ularga milliy tilning qadriyat ekanligini chuqurroq anglatish.
<i>Mashg‘ulotning informatsion-uslubiy ta‘minoti</i>	Mashg‘ulot jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, grafik organayzerlar va mini keyslar va boshqa texnologiyalardan foydalaniladi.
<i>Mashg‘ulotning jihozlari</i>	Elektron doska, plakatlar, izohli lug‘atlar.
<i>Asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar</i>	Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sarieva Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. -T.: Noshir, 2009.-163 b.
<i>Mashg‘ulotning borishi</i>	
<i>Ish turi</i>	<i>Vahti</i>
	<i>Mazmuni</i>

	<i>Tashkiliy qism</i>	5 minut	Salomlashish, davomatni aniqlash, auditoriya va talabalarining darsga tayyorgarligini o'rganish, kirish suhbatini o'tkazish hamda talabalarni kichik guruhga ajratib olish.
I	Egallangan bilimlarni tekshirish.	10 minut	1.Talabalarining mazkur mavzu yuzasidan ma'ruza darsida egallagan bilimlarini aniqlash uchun "Davom ettir" o'yini tashkil etiladi
II	Milliy va adabiy tilning paydo bo'lishi.	20 minut	Talabalarga SCAMPER strategiyasi taqdim etiladi va ular ijodiy yondashib, muammoni hal etadilar.
V	Adabiy til haqida tushuncha.	20 minut	Talabalar 2 ta kichik guruhga ajratiladi va ularga "Qarorlar shajarasi" texnologiyasidan foydalangan holda muammoni yechish taklif etiladi.
	Milliy va adabiy til – ijtimoiy qadriyat sifatida	20 minut	Talabalarga rolli o'yin texnologiyasi taklif etiladi va ular muammoga ijodiy yondashib uning yechimlarini topadilar.
I	Mashg'ulotni yakunlash.	5 minut	Talabalarining baholari e'lon qilinadi. O'qituvchi darsni xulosalaydi va keyingi mashg'ulot uchun mustaqil topshiriqlar beradi.

Mashg'ulot rejasi:

I.Tashkiliy qism

II.Egallangan bilimlarni tekshirish va mustahkamlash

III. Milliy tilning paydo bo'lishi

IV. Adabiy tilning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni va ahamiyati.

V. Milliy va adabiy til – ijtimoiy qadriyat sifatida

VI. Mashg'ulotni yakunlash

Mashg'ulotning borishi:

Tashkiliy qism. Talabalarining davomati aniqlanadi va ular bilan o'tilgan mavzu yuzasidan kirish suhbatini o'tkaziladi.

Egallangan bilimlarni tekshirish va mustahkamlash. Mavzu yuzasidan talabalarining ma'ruza darsida egallagan bilimlarini tekshirish uchun "Davom ettir..." o'yini o'tkaziladi. Masalan, talabalarga til, milliy va adabiy til mavzusiga oid quyidagi tushunchalarning ta'rifini davom ettirish so'raladi:

til – bu ...

milliy til – bu ...

adabiy til – bu ...

o'zbek milliy tilining tarixi – bu....

milliy tilning uch davri –bu ...

o'zbek tilining ichki resurslari – bu...

jonli til – bu, ...

o'zbek adabiy tilining so'z yasash imkoniyatlari– bu ...

milliy tilning uchta manbai – bu

sheva – bu

nutqning og'zaki shakli –bu

nutqning yozma shakli – bu

kabi ko'plab mavzuga oid so'zlarga talabalar javob berishlari lozim. Bu texnologiya orqali talabalar o'tilgan mavzuni yodga oladilar va ularning mavzuga oid bilimlari yanada mustahkamlanadi.

Milliy tilning paydo bo'lishi. Milliy tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi haqidagi talabalarining bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida SCAMPER strategiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

SCAMPER strategiyasi

Strategiyaning maqsadi: talabalarda mantiqiy fikrlash va kreativlikni shakllantirish, yangi-yangi g'oyalar yaratishga undashdan iborat.

Strategiyaning qo'llanilishi:

talabalar kichik guruhlariga ajratib olinadi;

ularga SCAMPER strategiyasi haqida ma'lumot beriladi;

SCAMPER strategiyasi aks etgan jadval har bir guruhga alohida tarqatiladi;

talabalarga topshiriqni bajarish uchun aniq vaqt beriladi.

Berilgan vaqt davomida har bir guruh o'z variantini havola etadi va eng kreativ yondashuv g'oliblari taqdirlanadi.

2-jadval

SCAMPER strategiyasi asosida talabalarning milliy va adabiy tilning paydo bo'lishi haqidagi bilimlarini mustahkamlash

SCAMPER	Vazifalar	Savollar
Substitute (almashtirmoq/o'zgartirmoq)	Milliy til qachon paydo bo'lganligini aniqlang.	Bir qancha variantlarni ishlab chiqing va ulardan biriga ta'rif bering.
Combine (birlashtirmoq)	Milliy va adabiy til birlashganda....	Variantlarni keltiring va ulardan birini yoriting!
Adapt (moslashtirmoq)	Talabani qanday qilib adabiy tilda so'zlashishga tez va oson moslashtirish mumkin?	Variantlar ro'yxatini tuzing va talaba adabiy tilga moslashganda qanday o'zgarish sodir bo'lishini izohlang!
Maximize/minimize (maksimallashtirmoq/ minimallashtirmoq)	Milliy va adabiy til qanday rivojlantirish mumkin?	Milliy va adabiy tilni rivojlantirish uchun bir qancha variantlarni keltiring va ulardan bir nechtasini izohlang!
Put to other uses (boshqa soha/usulda qo'llash)	Jamiyatda milliy va adabiy tilning o'rnini ko'rsating.	Variantlarni keltiring va ulardan birini yoriting!
Eliminate (oldini olmoq)	Milliy til va adabiy tilning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlang?	Milliy til va adabiy tilning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni keltiring va ularni asoslab bering!
Rearrange (qo'llanilishini o'zgartirish)	Talabalarda milliy va adabiy tilga qiziqishni shakllantirishga qiziqish uyg'otishning no'anaviy usullarni aniqlang.	Variantlarni keltiring va ulardan birini yoriting.

Adabiy tilning o'qituvchi faoliyatidagi o'rnini va ahamiyati. Talabalarning adabiy til haqidagi bilimlarini yanada kengaytirish, adabiy tilning o'qituvchi faoliyatida tutgan o'rnini tushuntirish va ularni adabiy til normalariga rioya qilish darajasini yuksaltirish maqsadida "Qarorlar shajarasi" texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Texnologiyaning maqsadi: talabalarning o'rganilayotgan mavzu yuzasidan bilimlarini xulosalashga o'rgatish hamda xulosalar orasidan maqbul xulosani ajratib olish, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, izlanuvchanlik, qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Texnologiya quyidagicha amalga oshiriladi:

o'qituvchi darsda o'tilayotgan mavzu doirasida talabalarga muammoli savolni havola etadi va guruh qarorini yozish uchun plakat tayyorlaydi;

talabalar kichik guruhlariga ajratib olinadi va muammoni hal etishlari uchun vaqt belgilab olinadi;

har bir guruh o'z a'zolari tomonidan bildirilayotgan qarorlarning maqbul yoki nomaqbul ekanligini muhokama qiladi. Shu bilan birga, har bir variantning afzalligi yoki afzal emasligini ham yozib boradi. Muammoni hal qilish yuzasidan bildirilgan usullar guruh a'zolarining qaroriga ko'ra tanlab olinadi;

belgilangan vaqt tugagach, har bir guruh o'z qarori haqida axborot beradi. Kerakli hollarda o'qituvchi rahbarligida qarorlar qiyosiy tahlil qilinadi. Agar guruhlar tomonidan bir xil qarorlar qabul qilingan bo'lsa, o'qituvchi tomonidan izohlanadi.

Ushbu metodning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u ma'lum loyiha asosida tashkil etiladi.

3-jadval

“Qarorlar shajarasi” texnologiyasida ifodalanishi

Muammo					
1-qaror		2-qaror		3-qaror	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Yakuniy qaror					

Muammoli vaziyat. Malakali ona tili o'qituvchilaridan biri o'z darsida talabalarni adabiy til normalari va sof ona tilida so'zlashishlari uchun bor kuch va imkoniyatlarini sarflashiga qaramay, ayrim talabalar hamon adabiy til normalari, chunonchi turli shevalarda so'zlashishi o'qituvchining jahlini chiqarardi. O'qituvchi bunday holatda yana qanday yo'l tutishi lozim?

Vaziyat yechimi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1-g'oya. O'qituvchi diktorlar tanlovini o'tkazishi va shu orqali talabalarning adabiy tilda gapirish motivatsiyasini kuchaytirishi mumkin.

2-g'oya. Talabalar ishtirokida rolli o'yin texnologiyasini tashkil etishi va bundan talabalarning xulosa chiqarishiga erishishi lozim.

3-g'oya. O'qituvchi talabalarning bunday so'zlashishiga e'tiborsiz bo'lishi va talabalar kelajakda pedagogik faoliyatlarida bu xatoni qilmasligiga ishonishi lozim.

Yuqoridagi muammo matni va g'oyalardan ko'rinib turibdiki, qaror qabul qilish talabalarning bilimi va mantiqiy fikrlashiga, o'z vaqtida qarorlarni qabul qilish malakasi shakllanganligi bilan bevosita bog'liqdir.

Milliy va adabiy til – ijtimoiy qadriyat sifatida. Milliy va adabiy tilning ijtimoiy qadriyat ekanligini talabalar chuqur anglatishlari lozim. Ushbu rejani yoritishda talabalarga “T-chizma” grafik organayzeri taqdim etiladi. Bizga ma'lumki, talabalar ham jamiyat a'zosi sifatida milliy va adabiy tilni qadrlashlari va kelgusidagi pedagogik faoliyatida o'z o'quvchilarini ham ona tilini qadrlashga o'rgatishi darkor. Ammo ayrim hollarda barcha yoshlarning ham milliy tilni u darajada qadrlamasligi kuzatiladi. Mana shunday jarayonda ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa barcha yoshlarda milliy tilga nisbatan hurmat va e'tiborni rivojlantirishdan iboratdir.

Texnologiyaning maqsadi: talabalarga mavzu doirasidagi muammolar, tushunchalarni qiyosiy taqqoslash, tahlil qilish, solishtirish hamda ijobiy yoki salbiy jihatlarini ajratib olish o'rgatiladi.

Kutiladigan natija: talaba milliy va adabiy tilni qadrlashga o'rganadi. Shu bilan birgalikda talabalar ijtimoiy hayotdagi muammolarning yechimini izlab topishga va xulosa chiqarishga o'rganib boradilar.

Muammo: “Keyingi yillarda yoshlar milliy tildan ko'ra o'zga tillarni ko'proq o'rganmoqdalar. Ularning fikricha, ona tili doim biz bilan birga, uni o'rganish u darajada shart emas. O'zga tillarni esa mukammal bilish zarur. Chunki, o'zga tillarni o'rganish ular uchun imkoniyatlar eshigini ochadi”.

Ana shu muammo talabalarga taqdim etiladi va ularga qo'yidagicha topshiriq beriladi.

Topshiriq: Yoshlarning bu fikrlaridagi qarama-qarshilik va ziddiyatlarning xususiyatini ushbu chizma orqali yoritib bering!

4-jadval.

“T – chizma” grafik organayzeri

+ soha	- soha
<p>Yoshlar tomonidan milliy tildan ko‘ra o‘zga tillar ko‘proq o‘rganilganda:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Yoshlarda o‘zga tillarni o‘rganishga nisbatan qiziqishning kuchayib borashi. 2.Yoshlarda boshqa xalqlarning madaniyati bilan tanishish imkoniyatining vujudga kelishi. 3.Jamiyatda o‘zga tillarni biladigan shaxslarning ko‘payishi. 	<p>Yoshlar tomonidan milliy tilni o‘zlashtirilmaligi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Yoshlarda milliy tilni o‘rganishga nisbatan qiziqishning pasayishi. 2. O‘zga tillarni milliy tildan ustun qo‘yish. 3.Milliy qadryatlar va milliy madaniyatni o‘zlashtira olmaslik. 4.Milliy tilda muloqotga kirisha olmaslik.

Xulosa. Tadqiqot muammosi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishida xorijiy va mahalliy tilshunos olimlarning hamda pedagog-psixologlarning etimologiya va etimologik tahlil borasidagi fikrlari o‘rganildi. Ularning bugungi zamonaviy ta‘lim taraqqiyoti uchun muhim kasb etishi tadqiqot ishida isbotlab berildi. Zero, bugungi davr yoshlari ona tilimizdagi so‘zlarning kelib chiqish ma‘nosini yaxshi bilishlari va har bir so‘z o‘z tarixiga egaligini anglashlari lozim. Ona tili - o‘qitish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi darslarining mazmuni va maqsadidan kelib chiqqan holda shuni ta‘kidlashimiz lozimki, yoshlarning ona tili ta‘limini o‘rganishga qiziqishni hosil qilish davr talabidir. Ayniqsa, talabalarning etimologik lug‘atlar va adabiyotlar bilan ishlash, so‘zlarni tahlil qilish ko‘nikmasini tizimli rivojlantirib borish didaktik muammo sanaladi. Talabalarning mantiqiy fikrlash darajasi bir qancha mezonlarga javob berishi lozim. Bular: so‘z boyligining ko‘pligi va nutqning ravonligi, to‘g‘ri qaror qabul qila olish ko‘nikmasining rivojlanganligi, egallagan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishi; o‘z fikrini aniq va ravshan bayon eta olishi, muammo mohiyatini anglash va uni echishga intilishning yuqoriligi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi PF-4797-sonli “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiёti universiteti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni. // www.lex.uz.
2. Abduqodirov A.A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. –Toshkent: “Iste‘dod”. 2008. – B. 180.
3. Afanasev V.V. Proektirovanie pedtsexnologiy // Vysshee obrazovanie v Rossii. - № 4 - 2001. – S.147-150.
4. Anas Fahad Khan. Towards the Representation of Etymological Data on the Semantic Web. Information 2018, 9, 304; doi:10.3390/info9120304
5. Ларина, Т. В. Этимологический анализ как методический прием при обучении орфографии / Т. В. Ларина // Вестник научных конференций. – 2018. – № 8-2 (36). – С. 67–74.
6. Мухамедьярова Н. А. Особенности реализации метапредметного принципа при подготовке педагогических кадров в вузе // Инновации в образовании. 2013 – № 1. – С. 72-79.
7. Прокопьева, Л. Б. Этимологический анализ заимствованной лексики на уроках русского языка в средней школе / Л. Б. Прокопьева // Язык и культура: Материалы XXXI Международной научной конференции / Национальный исследовательский Томский государственный университет. – Томск, 2021. – С. 272–275.
8. Сафарова Р.Г. Ўқувчиларнинг мантикий фикрлаш кўникмаларини ривожлантиришнинг тарихий педагогик манбалари ва омиллари. Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 5 uif 2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337.6306. 630-634 б.
9. Шаталова, О. В. Этимологический анализ как прием формирования орфографической компетенции в средней школе / О. В. Шаталова // Вопросы педагогики. – 2023. – № 1. – С. 134–140.
10. Шукуров О. Замонавий ўзлашмалар эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини. Монография. «Intellect», Қарши. 2022. –240 б.

INTERNET TARMOG'IDAGI INSON PSIXOLOGIYASIGA TA'SIR O'TKAZUVCHI MATERIALLAR TAHLILI

M.Esanov

Mustaqil tadqiqotchi

mirzabekumarov23@gmail.com

UDK 159.928:004.738.5

Annotatsiya. Bugun jahon "o'rgimchak to'ri" – internet makonida inson ongini egallashga, inson psixologiyasiga ta'sir o'tkazishga bo'lgan har qanday ko'rinishdagi urinishlarni kuzatmoqdamiz. Mana shunday ziddiyatli zamonda bunday xurujlarga qarshi turish, milliy immunitetni shakllantirishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Insoniyat iste'mol qiladigan mahsulotlar ichida eng xaridorgiri – axborotdir. Unga ehtiyoj hamisha yuqori bo'lgan. Ayniqsa, hozirgi sharoitda, uning o'rni va ahamiyati har qachongidan ham ortib borayapti. Axborotga bo'lgan talabning yuqoriligi, nafaqat uni uzatish vositalari, turlariga, balki axborotning asosiy vazifasi, mazmun-mohiyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmayapti. Maqolada jamiyat a'zolari orasida internet tarmog'i milliy segmentidan foydalanish darajasi, olingan axborotlarning inson faoliyatidagi zaruriyati va uning faoliyati, ma'naviy dunyosi, milliy g'oya maqsadlari shakllanishidagi foydalilik darajasiga oid axborotlar xavfsizligini ta'minlashning innovatsion usullarini hayotga tatbiq qilish, yosh avlodni tarbiyalash, kadrlar tayyorlash jarayonida samarali foydalanishning innovatsion metodikasi mazmunini takomillashtirish lozimligi haqida aytib o'tildi.

Kalit so'zlar. Kibermakon, internet, axborot qaramligi, axborot ekstremizmi, inson psixologiyasi, milliy immunitet.

ANALYSIS OF MATERIALS ON THE INTERNET THAT INFLUENCE HUMAN PSYCHOLOGY

Abstract. Today, in the world "spider web" - the Internet space, we observe all kinds of attempts to occupy human consciousness and influence human psychology. In such a conflicting time, it is necessary to resist such attacks and to form national immunity. Among the products consumed by mankind, the most expensive is information. The need for it has always been high. Especially in the current conditions, its place and importance is increasing more than ever. The high demand for information has an impact not only on the means and types of its transmission, but also on the main function and content of information. In the article, the level of use of the national segment of the Internet network among members of society, the necessity of the received information in human activity and the level of usefulness in the formation of its activity, spiritual world, national ideal goals, implementation of innovative methods to life, it was mentioned that it is necessary to improve the content of the innovative methodology of effective use in the process of educating the young generation and training personnel.

Key words. Cyberspace, Internet, information addiction, information extremism, human psychology, national immunity.

Kirish. XXI asrga kelib axborot texnologiyalarning rivojlanishiga xos jadallik ommaviy axborot vositalari faoliyati, u orqali axborot almashish jarayonlariga ham ko'chdi. Natijada muayyan makonda sodir bo'lgan voqea soniyalar ichida axborot iste'molchilariga yetib bormoqda. Bu tezkorlik jamiyatda interaktiv muhitni vujudga keltirib, aholi ham axborot almashish jarayonlarida teng ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Odatda, axborot iste'molchilari har doim ham olayotgan yoki uzatayotgan axborotning to'g'ri yoki noto'g'ri ekani haqida o'ylash, uni tekshirib ko'rishga e'tibor qaratishmaydi. Bu jamiyatda salbiy axborotning ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Bugun nafaqat internet, ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan yangiliklar, balki rasmiy axborot saytlaridagi xabarlar ichida ham noto'g'ri va salbiy axborotlar ko'p uchramoqda. Yol'gon, uydirma, soxta, vahima uyg'otuvchi axborot esa auditoriya ongiga salbiy ta'sir ko'rsatib, odamlar orasidagi turli munosabatlar, jamiyatda mavjud tartib-qoidalar, qadriyat va an'analarning izdan chiqishiga olib keladi. Shu bois, hozirgi sharoitda salbiy axborotlarga qarshi kurashish dolzarb mavzularidan biriga aylandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ko'tarilgan masalani ochib berishda tavsifiy, tasnifiy metod tahlil usullari qo'llanildi.

Natijalar va muhokama. Prezidentimiz tomonidan kibermakondagi zamonaviy tahdid va xatarlarga munosib javob qaytarish uchun ShHTning axborot xavfsizligi sohasidagi ekspertlar forumini ta'sis etish to'g'risida tashabbus bilan chiqqanligi ham masalaning naqadar dolzarbligini anglatadi.

So'nggi yillarda internet tarmog'ining rivojlangan ilova va servislari ko'pgina foydalanuvchilarga o'zining real bir qism hayotini virtual hayotga o'tkazish imkonini bermoqda. Shu sababdan ommada shov-shuvli yangiliklar, ko'ngilochar axborotlarga qisman qaramlik uchun aniq moyillik kuzatilmoqda.

Pittsburg universitetining psixologiya fanlari professori Kimberli Yang axborot qaramligi kasalligiga chalinganlar uchun asosiy xavf ma'lumotlarning ko'payishi natijasida orttirilgan stress hisoblanishini ta'kidlagan. Boshqacha aytganda, internetga yoki axborotlarga qaramlik inson holatiga boshqa har qanday psixologik kasalliklarga nisbatan halokat darajasida ta'sir etishi mumkin. Uning asoratlari inson hayotining turli xil ijtimoiy jihatlarida namoyon bo'lishi mumkin: atrofdagilar bilan bo'lgan munosabatlarda muammolarning paydo bo'lishi, ishdan bo'shatilishi, o'zlashtira olmaslik va shu kabilar [1].

Qaramlik oqibatida axborotni tahlil qilish, uning to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshirishda ham noxolislikka yo'l qo'yish va oqibatda feyk xabarni ham to'g'ri deya qabul qilish kuzatilishi mumkin. Bu esa inson psixologiyasida sezilarli ta'sir o'tkazmay qolmaydi.

Bundan tashqari, ko'plab tadqiqotchilar anonimlik va muloqotda "sinov harakatlari" imkoniyatini yaratishga hissa qo'shadigan og'zaki bo'lmagan tarkibiy qismlarning yo'qligi sababli Internet foydalanuvchilarining onlayn muloqot holatini o'z-o'zini baholash xavfsizligini bir necha bor ta'kidladilar. Suhbatdoshlar orasida sezilarli anonimlikni ta'minlash, virtual muhitni asosiy qulayliklaridan biri sanaladi, video suhbatlar esa bundan mustasno, yuqorida aytilgan jarayonlarda shaxslararo munosabatlar, muloqot jarayonlari va fikrlashish yanada ochiqlik va psixologik qulaylikka olib keladi. Internetda inson o'zi uchun qulay bo'lgan suhbatdoshlar doirasini va vaqtini bimalol yaratishi mumkin.

Kommunikativ muloqotda haqiqiy hayotda tanish bo'lgan odamlar, bir-biriga kiberfazoda bimalol muloqot qilishi bilan birga bir-birini yuzma-yuz tanimagan begonalr ham tanish bo'lganlar kabi bir xilda muloqot yoki aytaylikki, ta'sir eta olishadi. Internet tomonidan qondiriladigan ehtiyojlarning navbatdagi turi obro'li ehtiyojlardir. Internet-resurslar yordamida foydalanuvchilar boshqa odamlarning ijodi bilan ham tanishishlari va o'z ijodlarini boshqalarga namoyish etishlari mumkin (fotosuratlar, sayohat yozuvlari, musiqa, videolar, she'rlar, turli xil hunarmandchilik, tikuvchilik, trikotaj va boshqalar). Lekin virtual muhit ijtimoiylashuvi bahsli sanaladi. Ba'zi bir foydalanuvchilarning o'z xavfsizligiga bo'lgan ehtiyojini ham qondiradi.

Shunday qilib, Internet insonga ko'plab ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini berib, tarmoq orqali ulangan oddiy kompyuterlar to'plamidan Internet foydalanuvchilari jamoasiga, ularning xatti-harakatlarini ma'lum qoidalar va qonunlar bilan bog'laydigan odamlar jamoasiga aylandi. Mana shu ehtiyojlarni qondirish asnosida foydaluvchi yot g'oyalar, kiberfiribgarlar ta'siriga tushib qolishi mumkin. Bu esa ularni tarmoqlar orqali ongini boshqarish, psixologiyasiga salbiy ta'sir o'tkazish imkonini beradi.

Qisqa aytganda virtual muhit – insonning haqiqiy faoliyat sohasiga, shaxs hayotining muhim qismiga aylanadi, insonning o'zida ko'p narsalarni o'zgartiradi – uslub, turmush tarzi, odatlar, qiziqishlar doirasi va muloqotni ham. Internetning asosiy vazifasi kundalik hayot makonini ifodalashdir, chunki Internet nafaqat ijtimoiylashuv vazifasini amalga oshirishga qodir, balki jamiyat hayotidagi hodisa va hodisalarga ma'lum maqom, ahamiyat, obro'-e'tibor berish sanaladi.

Bugungi dunyo yoshlari-son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Bugun internet madaniyati, virtual madaniyat, axborot madaniyati, ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish madaniyati kabi tushunchalar hayotimizdan o'rin egalladi. Yoshlarda internet olamida o'z o'rnini to'g'ri belgilash va foydalanuvchilar bilan to'g'ri muomala qilish, virtual olamdagi axborotlarni to'g'ri tahlil qilish malakasini shakllantirish davr talabidir. Kundalik hayotimizda har narsaning salbiy va ijobiy tomoni bo'lgani kabi zamonaviy texnika vositalaridan

foydalanishda ham me'yorga amal qilmog'imiz zarur.

Jahon internet tarmog'ining boshqa ommaviy axborot vositalaridan muhim farqi, uning sahifalarida professional jurnalistlardan tashqari, boshqa soha vakillari, professional hisoblanmagan kommunikatorlar, maxsus ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslar ham ishtirok etadi. Kasbi jurnalist bo'lmagan shaxslar internet tarmog'idagi rasmiy va norasmiy saytlardagi ishtiroki bilan jamoatchilik vakillari fikrini bildiradi, katta hajmdagi internet auditoriyadagi ijtimoiy fikr shakllanishiga muayyan darajada ta'sir o'tkazadi, bu jarayon insonlar orasidagi fikr almashuv natijasida norasmiy saytlarda axloqiy chegaradan chiqish holatlari ham mavjud. Shu bilan birgalikda, jahon internet tarmog'i kanallaridagi axborot hajmi oshib ketganligi, ko'payganligi natijasida ushbu axborotlarning sifati pasaydi.

Ushbu jarayon global tarmoqning innovatsion kommunikativ potentsiali bilan, ya'ni internet auditoriyasining faol qismi tomonidan bildirilgan fikrlar, ikkinchi tomondan, internet tarmog'ini ijtimoiy boshqaruv monitoringi amaliyoti mexanizmlaridagi kamchiliklarda namoyon bo'ladi [2].

Global kompyuter tizimidagi norasmiy saytlarda salbiy mazmundagi axborotlar hajmining ko'payishi, axborotlarni nazorat qilish imkonining yo'qligi, internetga nisbatan axborot xavfsizligiga qarshi manba sifatidagi ijtimoiy fikrni shakllantiradi.

Ta'kidlash lozimki, internet tarmog'ida turfa axborotlar joylashtirilishi, jumladan, ma'naviy qashshoqlik, axloqiy tubanlikni targ'ib qiladigan, pornografiya, "ommaviy madaniyat" kabi salbiy materiallar ham mavjud [3].

Internet tarmog'i milliy segmentida rasmiy va norasmiy internet kommunikatsiyalarining jamoatchilik fikriga ta'sirini aniqlash uchun O'zbekistonda yangi rivojlanish bosqichiga mansub bo'lgan, ya'ni jamiyatdagi ijtimoiy kommunikativ va ijtimoiy-madaniy transformatsiyalarning nazariy asoslarini tahlil qilishning kompleks mexanizmlarini takomillashtirish lozim. Hozirgi jamiyat rivojida global kompyuter tarmog'i ommaviy kommunikatsiyalar faoliyatida innovatsion vosita rolini bajarmoqda.

Ushbu jarayon bilan birgalikda, hozirgi davrda axborot ekstremizmining mamlakat xavfsizligi, tinchligi, O'zbekiston konstitusion tuzumi, yoshlar ma'naviy, axloqiy kamoloti uchun xatarli fenomen ekanligini qayd etish darkor. Shuning uchun jahon internet tarmog'idagi axborot ekstremizmining maqsadi, mazmuni, kimlarga mo'ljallanganligi, qanday ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy natijalarga, ijtimoiy oqibatlariga olib kelishini tadqiq qilish, prognozlashtirish lozim.

Shu bilan birga, hozirgi davrda O'zbekistonga nisbatan qanday axborot xurujlari mavjudligi, uning salbiy qirralari, tarqalish geografiyasi, axborotlarni tarqatish mexanizmlari haqida sotsiologik mazmundagi xulosa va tavsiyalar berish darkor. Bu borada global internet tarmog'ining ijtimoiy boshqaruv tizimini yaratib, suveren mamlakat xavfsizligini ta'minlash lozim.

O'z navbatida, "O'zbekiston Respublikasi axborot makonidagi ruxsatsiz kirishga urinishlar va kompyuter virus hujumlari to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilish va javob qaytarish metodlari va vositalaridan foydalanib, butunjahon internet axborot tarmog'ining milliy segmentidagi veb-saytlarning axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmini amalga oshirish zarurligi belgilab qo'yilgan" [4].

Shundan kelib chiqqan holda jamiyat a'zolari orasida internet tarmog'i milliy segmentidan foydalanish darajasi, olingan axborotlarning inson faoliyatidagi zaruriyati va uning faoliyati, ma'naviy dunyosi, milliy g'oya maqsadlari shakllanishidagi foydalilik darajasiga oid axborotlar xavfsizligini ta'minlashning innovatsion usullarini hayotga tatbiq qilish, yosh avlodni tarbiyalash, kadrlar tayyorlash jarayonida samarali foydalanishning innovatsion metodikasi mazmunini takomillashtirishga doir empirik tadqiqotlarni muntazam o'tkazib turish lozim.

Xulosa va takliflar Sotsiologik so'rovlarning muhim xususiyati undan olingan natijalar asosida mustaqil xulosalar, jamoatchilik fikri hisobga olingan holda, jamiyat rivojlanishining strategik yo'nalishlarini, ijtimoiy muammolar yechimini, innovatsion,

ratsional asosda aniqlashga xizmat qiladigan tavsiyalar vujudga kelishi mumkin.

Shuningdek, empirik kuzatishlar natijasida internet tarmog'idagi rasmiy va norasmiy saytlardagi mavjud axborotlarning realligi, haqqoniyligi, obyektivligi, ijtimoiy muammolar yechimidagi o'rniga mustaqil baho berish imkoniyati yaratiladi.

Xulosa qilib aytiladigan bo'lsa, bugungi kunda dunyoda virtual olamda kishilar ongi uchun "urush" ayni avj pallasida. Bu jarayonda inson psixologiyasiga har qanday yo'l bilan ta'sir o'tkazish va shu orqali uni boshqarish urinishning turli misollarini ko'rmoqdamiz. Shunday ekan, milliy immunitet, axborotni tahlil etish ko'nikmasi va internet tarmog'idan foydalanish qoidalariga rioya etish bunday ta'sirlarning oldini olishning eng maqbul yo'li, desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi to'g'risida nizom. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz) 2017 yil 18 oktyabr.

3. O'zMU dotsenti To'lqin Eshbekovning "Axborot-psixologik xavfsizlik" o'quv qo'llanmasi asosida. – Toshkent: O'zMU, 2018

4. Jo'rayev N. Axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimining mohiyati va unsurlari. /O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi joriy arxivi, 2006.

5. Арестова О.Я., Бабанин Л.Н., Войскунский А.Е. Коммуникация в компьютерных сетях: психологические детерминанты и последствия // Вестник МГУ. Серия ХИВ. Психология. Вип. 4. - М., 1996. - С. 14-20.

6. R.U.Otamuratov. Kasbiy motivasiyalarda qo'rquv va xavotirlanish psixokorreksiyasi, magistrlik dis., T-2022., 79-bet.

7. X. M. Burxanov. Internet kommunikasiyalarining jamoatchilik fikriga va psixologiyasiga ta'siri. www.ares.uz. 322-b.

8. Зборовский Г.Е., Шуклина Е.А. Образование как ресурс информационного общества // Социол. исслед. 2005. № 7. - С. 118-119.

PRODUCTION OF POLYCRYSTALLINE SILICON AND THE CURRENT STATE OF ITS MARKET

Mukhtarov Erkinjon

Andijan State University, associate professor

erkinmuxtarov@yahoo.com

ORCID 0009-0001-5057-4905

UDK.548.522

Annotation. The article explores the technology for producing polycrystalline silicon, a key material used in solar energy and semiconductor industries. Information is provided about the production processes and technologies of polycrystalline silicon. The current state of the global polycrystalline silicon market, dominated by Chinese companies that produce about 80% of the total volume, is also analyzed. Despite efforts to reduce production costs through various strategies, the price of polycrystalline silicon remains relatively high due to strong demand. The polycrystalline silicon market is expected to have positive growth prospects due to ongoing efforts to transition to renewable energy sources. An increase in demand for solar energy and the development of more efficient and affordable energy sources is expected to drive the rising demand for polycrystalline silicon.

Keywords. polycrystalline silicon, solar module, trichlorosilane, monosilane, Siemens process, pyrolysis, reactor.

Annotatsiya. Maqolada quyosh energiyasi va yarim o'tkazgich sanoatida asosiy material bo'lgan polikristall kremniyni ishlab chiqarish texnologiyasi o'rganilgan. Polikristall kremniyni ishlab chiqarish jarayonlari va texnologiyalari haqida ma'lumotlar taqdim etilgan. Umumiy hajmning qariyb 80 foizini ishlab chiqaradigan Xitoy kompaniyalari ustunlik qiladigan global polikristall kremniy bozorining hozirgi holati ham tahlil qilinadi. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish uchun turli strategiyalarni qo'llashga qaratilgan sa'y-harakatlarga qaramay, yuqori talab tufayli polikristall kremniy narxi nisbatan yuqoriligicha qolmoqda. Polikristall kremniy bozori qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish bo'yicha olib borilayotgan ishlar tufayli ijobiy o'sish istiqbollari ega. Quyosh energiyasiga bo'lgan talabning ortishi va yanada samarali, arzon energiya manbalarini ishlab chiqish maqsadida polikristall kremniyga bo'lgan talabning oshishi kutilmoqda.


Kalit so'zlar. polikristall kremniy, quyosh moduli, trixlorosilan, monosilan, Siemens texnologiyasi, piroliz, reaktor.

Introduction. Polycrystalline silicon (PCS) remains a key material for both photovoltaics and certain segments of semiconductor electronics. Its importance is due not only to the growing demand for solar panels, but also to its use in various areas of electronics. Given current global trends, the transition to renewable energy sources and technological developments continue to support and increase the demand for this material [2].


Its versatility and importance are due to a number of factors such as availability, cost and technological maturity [2].

Literature review. The Siemens process is a classic and widely used technology for the production of polycrystalline silicon, especially in the solar energy and semiconductor industries. The main steps of this process are as follows:

Silicon reacts with chlorine (Cl_2) and water vapor (H_2O) in a reactor to form trichlorosilane ($SiHCl_3$). The reaction takes place at high temperatures and is as follows:



Trichlorosilane is reduced by hydrogen (H_2) in a rod reactor (or other reactor, such as a submerged electrode reactor) at high temperature (around 1000-1100°C) [2]. The reaction produces pure polycrystalline silicon and by-products in the form of hydrogen chloride (HCl). The reaction is as follows:




In the reactor, silicon crystals are deposited on a special substrate (e.g. silicon rods).


Monosilane technology is a modern method for producing polycrystalline silicon, which is commonly used in the solar energy and semiconductor industries. This technology is based on the use of monosilane (SiH_4) as a starting material. The process

can be broken down into several key steps:


Silicon reacts with chlorine (Cl_2) and water vapor (H_2O), forming trichlorosilane ($SiHCl_3$) and hydrogen chloride (HCl). The reaction occurs at high temperatures:



Trichlorosilane undergoes disproportionation in a reactor with a catalyst (e.g. based on copper or iron compounds) at high temperatures. The reaction results in the formation of monosilane (SiH_4) and other chlorosilanes:



Monosilane decomposes in reactors such as rod-type reactors or fluidized bed reactors at high temperatures (usually around 1000-1200°C). During pyrolysis, monosilane decomposes into silicon and hydrogen:



Polycrystalline silicon is deposited on the substrate in the form of crystals or powder, depending on the type of reactor [3].

Each of these methods has its own advantages and disadvantages. For example, the Siemens process has long been proven to be reliable and efficient, but requires significant energy inputs. Monosilane technology may offer purer silicon and potentially lower energy costs, but it is also more complex in terms of chemical processing and requires more precise process control.

Research methodology. The objective of the study is to analyze polycrystalline silicon production technologies and study the state of its global market. The following tasks are solved within the study:

- review of polycrystalline silicon production technologies and analysis of their efficiency.
- assessment of market trends, supply and demand structure in the polycrystalline silicon market.
- analysis of factors influencing the cost and production of silicon.
- forecasting the development of the polycrystalline silicon market in the context of the global economy and energy transition.

The study is descriptive and analytical. Within the framework of this study, both qualitative and quantitative methods of analysis will be used, which will allow obtaining a comprehensive understanding of production technologies and market trends.

Results and discussions. With the increasing interest in renewable energy, especially solar energy, the demand for polycrystalline silicon is growing. To accelerate the development of photovoltaics, the key factor is the improvement of polycrystalline silicon production technology. Continuous innovation and investment in R&D in this area can lead to a significant reduction in solar panel prices and accelerate their adoption, which in turn will support the growth and development of the renewable energy sector [4].

Polycrystalline silicon prices can vary significantly depending on market conditions, supply and demand, as well as the quality of the material and technology used.

Since polycrystalline silicon is mainly used to produce solar panels, the demand for solar energy directly affects prices. During periods of high growth in solar energy, silicon prices may increase.

As of 2024, polycrystalline silicon prices may range from \$10 to \$20 per kilogram. These are indicative values that may change depending on market conditions and other factors. In the short term, there is an imbalance between supply and demand in the PCS market. While demand for solar panels is growing, polycrystalline silicon processing and production is struggling to catch up.




Fig. 1. Dynamics and forecast of prices for metallurgical silicon

The dynamics of polycrystalline silicon imports depend on many factors, such as market conditions, technological advances, and policy decisions [5].

China is the world's largest consumer and importer of polycrystalline silicon. This is due to its large solar panel market and the rapid development of the photovoltaic industry. In recent years, China has significantly increased its imports to meet the growing demand for solar modules and systems. Large companies such as LONGi Green Energy, GCL-Poly Energy, and Tongwei play leading roles in this segment.

The United States is also an important importer of polycrystalline silicon. Despite the development of domestic production, the United States continues to import silicon to support its growing solar energy industry. There is also significant production in the United States, with companies such as Hemlock Semiconductor and Wacker Chemie, which has plants in Mississippi and Texas.

Japan, as a leading market in solar energy, imports significant amounts of polycrystalline silicon to meet the needs of its solar panel industry. Japanese companies such as Shin-Etsu Chemical and Sumco are also active in silicon production, although in smaller volumes compared to China.

South Korea is an important player in the solar energy market and, accordingly, an active importer of polycrystalline silicon for its high-tech industry. South Korean company OCI Company Ltd. is one of the major producers.

Germany, as one of the leading European markets in the field of renewable energy, also imports polycrystalline silicon for its solar panels.

In Central Asia, several countries are developing polycrystalline silicon production, especially given the significant reserves of natural resources and growing investments in solar energy [6].

Table 1. Dynamics of polysilicon imports (in thousand tons) by the world's largest importing countries.

Year	China	USA	Japan	South Korea	Germany
2020	300	60	34	29	17
2021	309	63	39	32	19
2022	321	70	39	35	22
2023	338	71	46	41	24
2024	354	80	52	43	29

The top 5 polycrystalline silicon producing countries produced 95% of the world's output, amounting to 675,000 tons of polysilicon. The largest market players are companies such as GCL-Poly Energy (China), Wacker Chemie AG (Germany), OCI (Korea), Hemlock Semiconductor (USA), and Xinte Energy (China). These companies produced more than 70% of the world's polycrystalline silicon output [7].

Forecasts for the dynamics of changes in polysilicon production capacity from different analytical agencies often differ, as they are based on different assumptions and methodologies. The actual change in polysilicon production volumes in 2018-2026 confirmed the general trend of capacity growth, but forecasts made in 2021 faced challenges such as supply instability and fluctuations in raw material prices. These factors led to the fact that the actual

growth rate was slightly lower than predicted [8].




Fig. 2. Consumption of polycrystalline silicon for solar energy and electronics

Table 2. Dynamics and forecast of production of metallurgical silicon by application sectors.

Year	Sector 1 (Electronics)	Sector 2 (Energy)	Sector 3 (Industrial Manufacturing)	Sector 4 (Automotive)
2019	70,000	38,000	52,000	30,000
2020	75,000	40,000	55,000	33,000
2021	80,000	42,000	58,000	35,000
2022	85,000	44,000	60,000	38,000
2023	90,000	46,000	62,000	40,000

Solar energy continues to grow rapidly as countries strive to increase the share of renewable energy and reduce carbon emissions. A record amount of new solar capacity was added in 2023, and the trend is set to continue.

International agreements and national programs to stimulate the transition to renewable energy are driving investment in solar technology. Examples include the European Union's Green Deal and initiatives in the United States and China.

In recent years, the production of polycrystalline silicon for solar panels has increased significantly. China continues to dominate the polycrystalline silicon market, investing heavily in new factories and technology. The country is looking to strengthen its position in both the domestic and international solar energy markets. Major Chinese manufacturers such as GCL-Poly, LONGi Green Energy, and Tongwei are expanding their production capacity [9].

Other countries, such as the United States and EU countries, are also expanding production, albeit on a smaller scale.

Table 3. Dynamics of development of the photovoltaic industry and volumes of production of polycrystalline silicon for use in solar cells

Year	Polysilicon production volume (thousand tons)	Power of installed solar panels (GW)	Solar panel production volume (million m ²)	Average price of polysilicon (\$/kg)
2020	332	685	3000	10.2
2021	346	752	3110	12.8
2022	355	874	3350	11.5
2023	392	908	3400	13.3
2024	408	957	3900	14,5

The world's largest polycrystalline silicon production projects are concentrated mainly in China, South Korea and the United States. Table 4 lists some of the largest polycrystalline silicon production projects and companies [10].

Table 4.

Company	Location	Production capacity (tons/year)	Industrial technology
Tongwei Group	China	220,000	Siemens process
Daqo New Energy Corp.	Xinjiang, China	225,000	Fluidized Bed Reactor
GCL-Poly Energy Holdings	China	250,000	Fluidized Bed Reactor

Wacker Chemie AG	Germany	80,000	Siemens process
OCI Company Ltd.	South Korea	90,000	Siemens process
REC Silicon	Moses Lake, Washington, USA	18,000	Fluidized Bed Reactor
Xinjiang East Hope New Energy Co., Ltd.	Xinjiang, China	150,000	monosilane-Based
Xinte Energy Co., Ltd.	China	200,000	Fluidized Bed Reactor
Sichuan Yongxiang Co., Ltd.	Sichuan, China	120,000	Siemens process
Hemlock Semiconductor	Michigan, USA	36,000	Fluidized Bed Reactor
Xinjiang TBEA Silicon Co., Ltd.	Xinjiang, China	200,000	monosilane-Based
JinKo Solar Holding Co. Ltd.	Jiangxi, China	60,000	Siemens process
Shin-Etsu Chemical Co., Ltd.	Japan	30,000	Siemens process

Polysilicon manufacturers are working hard to improve their manufacturing processes to increase production efficiency and reduce production costs. Innovations in chemical cleaning, new materials, and automation of manufacturing processes can significantly increase productivity and improve the quality of polysilicon. For example, Siemens technology continues to dominate production, but alternative methods are emerging, such as Fluidized Bed Reactor (FBR) technology, which reduces energy costs and increases product purity [11]. Despite existing challenges such as price fluctuations and logistical problems, the outlook for the polysilicon market remains favorable. Demand for polysilicon is expected to grow in the coming years, due to the increasing number of solar power plants and the development of energy storage technologies.




Fig. 3. Forecast for growth of the polycrystalline silicon market (2022-2031)

The graph (Fig. 3) illustrates the projected growth of the global polycrystalline silicon market from 2022 to 2031. During this period, the market is expected to grow by an average of 8-10% per year, driven by global efforts to transition to renewable energy sources.

Conclusion. Polycrystalline silicon continues to be a key material for solar energy and other high-tech industries such as semiconductors. Growing global demand for clean energy, sustainability, and technological advancements continue to drive the polycrystalline silicon market. Manufacturing companies are investing heavily in innovation to improve production efficiency and reduce costs, making polysilicon cheaper and more accessible for a wider range of applications.

Despite challenging conditions and challenges such as environmental regulations and trade restrictions, the polycrystalline silicon industry will continue to evolve and adapt to changing global trends and needs. Increased production, technological innovation, and

improved product quality will play a critical role in meeting growing demand and strengthening polycrystalline silicon's position as a key material in the global economy.

Overall, the outlook for the polycrystalline silicon market remains positive, and its importance for the future of energy and technology highlights the need for further investment and research in this area.

References

1. World energy. <http://www.eeseaec.org>
2. Yarkin V. N., Kisarin O. A., Kritskaya T. V. Methods for obtaining trichlorosilane for the production of polycrystalline silicon // News of higher educational institutions. Materials of electronic engineering. 2021. Vol. 24, No. 1, pp. 5-26. DOI: 10.17073/1609-3577-2021-1-5-26
3. Fluidized bed technology in solar silicon production. URL: <http://silicon-article.ucoz.ru/index/0-12>. (date of access: 4.04.2024)
4. Milichko V.A. et al. Solar photovoltaics: current state and development trends // Uspekhi fizicheskikh nauk. 2016. Vol. 186, No. 8. pp. 801-852. (In Russ)
5. Nekrasov A. V., Naumov A. V. Prospects of the Polycrystalline Silicon Market // News of Universities. Materials of Electronic Engineering. 2019. Vol. 17, No. 4. pp. 233-239. (In Russ)
6. Abdurakhmanov B.M., Kadyrov A.L. Experience in obtaining secondary cast polycrystalline silicon and semiconductor devices based on it. // Uzbek Journal of Physics. 2019. Vol.21(№6). pp.391-396 (In Russ)
7. Polysilicon manufacturers. <https://www.bernreuter.com/polysilicon>
8. (date of access: 04.06.2024)
9. Naumova O.V., Katkov D.S. A new technology for producing silicon for solar cells. The Eurasian Scientific Journal. 2024; 16(1): 41SAVN124. Available at: <https://esj.today/PDF/41SAVN124.pdf>. (In Russ., abstract in Eng.)
10. Bellini E. China holds firm on strategy to build self-sufficient domestic polysilicon industry. <https://www.pv-magazine.com/2020/01/20/china-holds-firm-on-strategy-to-build-self-sufficient-domestic-polysilicon-industry/> (date of access: 17.10.2023)
11. Photovoltaic I: Polycrystalline Silicon. www.globalmarketmonitor.com/
12. (date of access: 21.05.2024)
13. T.B. Klychbaev, T.Z. Bapaev, S.A. Alymkulov. Improved siemens technology for producing polycrystal silicon. Science, new technologies and innovations of Kyrgyzstan, No. 3, 2020. DOI:10.26104/NNTIK.2019.45.557

DIVISIBILITY CRITERIA FOR SOME PRIME NUMBERS WITH PROOF

Khaydarov Shamsiddin

University of economics and pedagogy

375-atmmk@mail.ru

Khalilov Akbar

Karshi state university

akbarx1991@gmail.com

Khalilova Zilola

University of economics and pedagogy

ORCID 0009-0005-9654-1841

UDK 511.522

Abstract. In this article explores the divisibility criteria for several prime numbers, providing a comprehensive understanding of how divisibility rules can be established for primes. Divisibility tests, which offer efficient methods for determining whether a number is divisible by a given prime, are essential tools in number theory and have practical applications in fields such as cryptography and computer science. The focus is on deriving explicit criteria for primes such as 7, 11, 13, 17, and others, with proofs to support each rule. The article also extends the discussion to more complex divisibility tests for primes such as 23 and 29, using algebraic identities and modular techniques. Through rigorous proofs, the paper enhances the understanding of how divisibility rules are rooted in the properties of numbers and primes.

Key words. Number theory, last digit, remainder, integer numbers, algebraic identities, modular arithmetic.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bir nechta tub sonlar uchun bo'linish alomatlarini o'rganilib, tub sonlar uchun bo'linish qoidalarini qanday o'rnatish mumkinligi haqida to'liq tushuncha beriladi. Sonning

Ikkinchi guruh: Bahorgi-yozgi turlar 41 turni o'z ichiga oladi. Bu umumiy turlarning 43 foizini tashkil qiladi. Rivojlanish davrlari bo'yicha monovoltin turlar 29, bivoltin turlar 8 ta, polivoltin 4 ta turni o'z ichiga oladi. Ularning imagosi aprelning birinchi o'n kunligidan boshlab sentyabr oyigacha uchadi. Ushbu guruh quyidagi: *Broscus asiaticus*, *Broscus punctatus*, *Calosoma auropunctatum dsungaricum*, *Calosoma imbricatum deserticola*, *Daptus pictus*, *Daptus vittatus*, *Idiomelas nigripes*, *Chlaenius inderiensis*, *Chlaenius spoliatus spoliatus*, *Calathus melanocephalus*, *Distichus planus*, *Scarites terricola*, *Scarites angustus*, *Scarites salinus*, *Siagona europaea*, *Bembidion pamiricola*, *Bembidion latiplaga*, *Agabus bifarius*, *Agabus zimmermanni*, *Rhantus suturalis*, *Hydrophilus aterrimus*, *Tropisternus* sp, *Paederus longiceps*, *Paederus fuscipes*, *Platyprosopus elongatus*, *Philonthus carbonarius*, *Lethrus bituberculatus*, *Hypera postica*, *Aeolesthes sarta*, *Pogonus gilvipes*, *Pogonus submarginatus*, *Plagionotus floralis*, *Pedinus femoralis*, *Adalia decempunctata*, *Anisosticta novemdecimpunctata*, *Brumus octosignatus*, *Semiadalia notata*, *Coccinula sinuatomarginata*, *Hippodamia variegata*, *Hippodamia tredecimpunctata*, *Coccinella quatuordecimpunctata* turlarini o'z ichiga oladi. Uchinchi guruh: Yozgi turlar 4 turni o'z ichiga oladi. Bu umumiy turlarning 4 foizini tashkil qiladi. Rivojlanish davrlari bo'yicha faqat monovoltin turlar 4 ta turni o'z ichiga oladi. Ularning imagosi iyun oyining birinchi o'n kunligidan boshlab sentyabr oyigacha uchadi. Ushbu guruh quyidagi: *Acupalpus flaviceps*, *Dolichus halensis*, *Poecilus peregrinus*, *Eurythyrea oxiana* turlariga ega. To'rtinchi guruh: Yozgi-kuzgi turlar 3 ta turni o'z ichiga oladi. Bu umumiy turlarning 3 foizini tashkil qiladi. Rivojlanish davrlari bo'yicha faqat monovoltin

turlarni tashkil etadi. Ularning imagosi iyun oyining birinchi o'n kunligidan oktyabr-noyabr oyigacha uchishi mumkin. Ushbu guruh quyidagi: *Cephalota deserticola*, *Harpalus calceatus*, *Chlaenius festivus* turlarni o'z ichiga oladi. Beshinchi guruh: Bahorgi-kuzgi turlar 17 ta turni o'z ichiga oladi. Bu umumiy turlarning 18 foizini tashkil etadi. Rivojlanish davrlari bo'yicha monovoltin turlar 13 ta, bivoltin turlar 4 ta turni tashkil etadi. Ularning imagosi mart-aprel oyidan oktyabr-noyabr oylarigacha uchadi. Ushbu guruh quyidagi: *Calosoma sycophanta*, *Calomera littoralis conjunctaepustulata*, *Cylindera obliquefasciata*, *Cylindera inscripta*, *Polistichus connexus*, *Harpalus distinguendus*, *Dicheirotichus sp*, *Dicheirotichus discolor*, *Stenolophus sp*, *Clivina ypsilon*, *Oryctes nasicornis*, *Scarites subcylindricus*, *Harpalus rufipes*, *Chlaenius stevenii*, *Poecilus cupreus*, *Poecilus subcoeruleus*, *Bembidion varium* turlarini o'z ichiga oladi. Oltinchi guruh: Erta bahorgi-yozgi turlar 4 ta turni o'z ichiga oladi. Bu umumiy turlarning 4 foizini tashkil qiladi. Rivojlanish davrlari bo'yicha monovoltin turlar 2 ta, bivoltinlar 2 turni tashkil etadi. Ularning imagosi mart oyidan avgust-sentyabr oyigacha uchadi. Ushbu guruh quyidagi; *Platytarus famini*, *Syntomus obscuroguttatus*, *Hispa atra*, *Chrysomela luteola* turlarini o'z ichiga oladi. Yettinchi guruh: Kech bahorgi-kuzgi turlar 8 ta turni o'z ichiga oladi. Bu umumiy turlarning 9 foizini tashkil qiladi. Rivojlanish davrlari bo'yicha monovoltin turlar 6 ta, bivoltinlar 2 ta turni tashkil etadi. Ularning imagosi aprel oyining birinchi o'n kunligidan boshlab oktyabr-noyabr oylarigacha uchadi. Ushbu guruh quyidagi: *Anchomenus sp*, *Agonum menetriesi*, *Cetonia aurata*, *Pogonus sp*, *Cylindera litterifera*, *Myriochila melancholica*, *Coccinella septempunctata*, *Coccinella undecimpunctata* turlarini o'z ichiga oladi.




4-rasm. Qo'ng'iz turlari imagosining mavsumiy fenologik guruhlari

Tahlil qilayotgan qo'ng'iz imagolarining rivojlanish davrlari bo'yicha monovoltin turlar (bir mavsumda bir marta avlod beradi) 69 ta (72,6%), bivoltin rivojlanadigan (yiliga ikki marta avlod) turlar 22 ta (23,1%) va polivoltin rivojlanish bo'yicha esa (yiliga 3 yoki undan ko'p marta avlod berishi) 4 tur (4,2%) qayd qilindi. Keltirilgan ma'lumotlardan ma'lumki, Xorazm viloyati agrotsenozlarida qo'ng'izlar imagosining fenologik jihati va rivojlanish davrlari bo'yicha monovoltin turlar barcha fenologik guruhlarda, bivoltin turlar guruhlardan 5 tasida, polivoltin turlar esa faqat 1 ta guruhda uchrashi kuzatildi.

Hasharotlarning ekologik xususiyatlarini o'rganishda ularning mavsumiy uchish dinamikasiga alohida e'tibor qaratildi. Xorazm viloyati agrotsenozlarida qo'ng'iz imagolarining uchish dinamikasini o'rganishda individual stasionar kuzatuvlar natijalaridan foydalanildi. Tadqiqotlar davomida maxsus tuproq banka-tutqichlari, matrap yordamida kesish, jalb qiluvchi xo'raqlar, yorug'lik tutqichlariga kelib tushgan qo'ng'iz imagolarini faol davridagi muddatlariga qarab xulosa qilindi. Albatta, ushbu qo'ng'iz turlari orasida jumladan *Carabidae* va *Tenebrionidae* oilasi vakillarida ko'plab uchish qobiliyatiga ega bo'lmagan turlari mavjud. Ammo, tadqiqotlar natijasida uchish qobiliyati

bo'lmagan yirik o'lchamli qo'ng'izlarning ham yorug'likka kelishi kuzatildi. Ayniqsa, yirtqich hayot tarziga ega bo'lgan vizildoq qo'ng'izlarining yorug'lik tutqichlariga kelishi ancha yuqori bo'lib, bu holat ularning tutqichga kelgan turli-tuman hasharotlar bilan oziqlanishi bilan tushuntiriladi. Lekin shunday bo'lsada, tutqichga tushgan qo'ng'izlar soni asosida umuman qattiqqanotlilarning mavsumiy dinamikasi haqida xulosalar chiqarish mumkin.



5-rasm. Qo'ng'iz imagolarining mavsumiy dinamikasi

Agrotsenozlarda bahor mavsumining boshi, ya'ni mart oyining birinchi o'n kunligida qo'ng'izlar sonining sezilarli darajada kam bo'lishi mavsumning oxiri va yozgi davrlarda, ya'ni may oyining ikkinchi va uchinchi o'n kunligidan, iyul oylarigacha qo'ng'izlar miqdorining yuqori bo'lishi kuzatildi. Qo'ng'iz turlari sonining maksimal miqdori iyun oyining dastlabki kunlarida qayd etildi. Bu davrda havo nisbiy namligi va atmosfera bosimining eng past ko'rsatkichlariga to'g'ri keladi. Lekin qo'ng'izlar sonining kamayishi kuz mavsumining o'rtalaridan yani sentyabr oyining birinchi o'n kunligidan keyin kuzatildi (5-rasm).

Xulosa. Tadqiqotlar olib borilgan agrotsenozlarda 95 turdagi qattiqqanotlilarning ekologik xususiyatlari uchta faslning sakkizta davri bo'yicha 7 ta fenologik guruhlariga ajratildi. Kech bahorgi-yozgi 17 tur, bahorgi-yozgi 43 tur, yozgi 4 tur, yozgi-kuzgi 3 tur, bahorgi-kuzgi 18 tur, erta bahorgi-yozgi 3 tur, kech bahorgi-kuzgi 7 turni tashkil qildi. Qo'ng'iz imagolarining rivojlanish davrlari bo'yicha, monovoltin 69 tur (72,6%), bivoltin 22 tur (23,1%), polivoltin 4 turni (4,3%) tashkil qilishi aniqlandi. Imagolarining mavsumiy dinamikasi bo'yicha yuqori ko'rsatkich may oyining ikkinchi va uchinchi o'n kunligidan iyun-iyul oylarida, eng kam ko'rsatkich mart oyida va sentyabr oyining ikkinchi o'n kunligidan oktyabr oylarigacha bo'lgan davrda kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аллабергенов Т.Х. Физико-географическое районирование Хорезмского оазиса и прилегающих к нему территорий: Автореферат дис. на соискание учен. степени канд. геогр. наук / Казан. гос. ун-т им. В. И. Ульянова-Ленина. - Казань :[б. и.], 1966. - 20 с.
2. Беньковский А.О. Определитель божьих коровок (Coleoptera, Coccinellidae) европейской части России и Северного Кавказа. - Ливны: Издатель Мухаметов Г. В, 2020.-Т. 140.
3. Дадамирзаев А.К. Фауна и экология жужелиц (Coleoptera: Carabidae) Ташкентской области // Издательство «Фан» Узбекской ССР. 1978.-С. 77-87.
4. Егоров Л.В., Рахимов Т.У. Материалы к познанию жуков-чернотелок (Coleoptera, Tenebrionidae) Узбекистана // Эверсманния. Supl, 2015.-Т. 5.-С. 30-35.
5. Крыжановский О.Л. Состав и распространение энтомофаун земного шара // М.: Товарищ. науч. изд. КМК, 2002.-237 с.
6. Лынов А.В., Негрбов О.П., Ручин А.Б., Семишин Г.Б. Контейнерная ловушка для сбора насекомых, привлекаемых запахом // Труды Мордовского государственного природного заповедника им. П.Г. Смидовича, 2020. - №. 25.-С. 403-408.
7. Маталин А.В. Жизненные циклы жужелиц (Coleoptera, Carabidae) западной палеарктики / Автореф. дис. докт. биол. наук. М.: МПГУ. - 2011. -47 с.
8. Мороз М.Д., Вежновец В.В. Макрозообентос реки Ствиги в пределах заказника «Ольманские болота» // Природные ресурсы, 2019. - №. 2.-С. 64-71.

9. Пирназаров В.П. Жуки-чернотелки (Coleoptera, Tenebrionidae) Каракалпакской АССР // Автореф. дис. канд. биол. наук. Ашхабад, 1973.-26 с.
10. Соболева-Докучаева И.И., Чернышев В.Б., Афонина В.М., Тимохов А.В. Сезонная динамика пространственного размещения массовых видов жужелиц (Coleoptera, Carabidae) в агроэкосистемах зоны смешанных лесов // Зоологический журнал, 2000. - Т. 79. - №. 7. - С. 818-823.
11. Якобсон Г.Г. Определитель жуков // Издание 2-е дополненное Оглоблиным Д.А. // - Москва – Ленинград: Гос. изд-во сельскохозяйств. и колх.-кооперат. лит-ры., 1931.-454 с.
12. Andrew E.Z. Short., Martin Fikacek. World Catalogue of the Hydrophiloidea (Coleoptera): additions and corrections II (2006–2010) // Acta entomologica musei nationalis Prage. - 2011. - Т. 51. - №. 1. - С. 83-122.
13. Bezdek A. Catalogue of Palaearctic Coleoptera. Archostemata-Myxophaga-Adephaga. VOL. 1 // European Journal of Entomology. - 2018. - Т. 115. - С. 641.
14. Bouchard P., Bousquet Y., Davies A.E., Alonso-Zarazaga M.A., Lawrence J.F., Lyal C.H.C., Newton A.F., Reid C.A.M., Schmitt M., Slipinski S.A., Smith A.B.T. 2011. Family-group names in Coleoptera (Insecta). ZooKeys, 2011, 88: 1-972.
15. Duschanov U.E., Bekchanov H. U. Taxonomic Analysis of Coleoptera, Carabidae Distributed in Agrobiocenoses of Khorazm Region // International Journal of Genetic Engineering. 2023. 11 (2): - P.22-29. DOI:10.5923/j.ijge. 20231102.03. (03.00.00; №11).
16. Kryzhanovskii O.L., Belousov I.A., Kabak I.I., Kataev B.M., Makarov K.V., Shilenkov V.G. A checklist of the ground-beetles of Russia and adjacent lands (Insecta, Coleoptera, Carabidae) // Pensoft Series Faunistica, N 3. Sofia-Moscow: Pensoft Publishers. 1995.-271 p.
17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2019-yildagi 484-son “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI UZUN SHOXLI QO‘NG‘IZLARINING
XYLOTRECHUS (TURANOCLYTUS) NAMANGANENSIS (HEYDEN, 1885)
(COLEOPTERA: CERAMBYCIDAE) YANGI TOPILMALARI VA
BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Duysengaliyev E.S.

Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat
pedagogika instituti, doktorant
erbolduysengaliyev@gmail.com
ORCID 0009-0003-1441-6437

Isaev R.T.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat
universiteti, doktorant
raxmanberg@gmail.com

Juginisov T.I.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat
universiteti, biologiya fanlari doktori
tangirbergen_juginisov@gmail.com

UDK 595.76

Annotatsiya. Mazkur ishda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida uchraydigan Xylotrechus (Turanoclytus) namanganensis turi (Heyden, 1885)ning tarqalishi, biologik va ekologik xususiyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida turning yashash muhiti, oziqlanish xususiyatlari, hayot davrlari hamda hududning ekologik sharoitlariga moslashuvi haqida batafsil ma’lumotlar taqdim etilgan. Ushbu tadqiqot natijalari turning bioekologik xususiyatlarini aniqlash hamda uni saqlab qolish chora-tadbirlari uchun amaliy ahamiyatga ega. Birinchi muallif tomonidan Qoraqalpog‘istonda olib borilgan ko‘p yillik dala tadqiqotlari davomida to‘plangan taksonlar ro‘yxati, shuningdek, uning kolleksiyasidan unchalik ma’lum bo‘lmagan turlarning, shu jumladan, ayrim endemiklarning fotosuratlari qo‘shimcha ravishda keltirilgan. Bundan tashqari, ekspeditsiyamiz davomida to‘plangan ba’zi o‘ta noyob turlarning yuqori sifatli fotosuratlari, ya’ni Xylotrechus (Xylotrechus) ibex (Gebler, 1825) ularning yashash joylari va oziqlanish joylari tasvirlari bilan birga taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar. Endemik turlar, invaziv turlar, zararkunanda, takson.

NEW DISCOVERIES AND BIOECOLOGICAL FEATURES OF THE LONG-HORNED BEETLE XYLOTRECHUS (TURANOCLYTUS) NAMANGANENSIS (HEYDEN, 1885) (COLEOPTERA: CERAMBYCIDAE) FROM THE REPUBLIC OF KARAKALPAK

Abstract. This study examines the distribution, biological, and ecological characteristics of the species *Xylotrechus (Turanoclytus) namanganensis* (Heyden, 1885), which occurs in the territory of the Republic of Karakalpakstan. Detailed information on the species' habitat, feeding habits, life cycles, and adaptation to the region's ecological conditions is provided. The results of this research are of practical importance for identifying the bioecological features of the species and for developing conservation measures. The list of taxa collected during the author's many years of field research in Karakalpakstan is included, along with photographs of lesser-known species from the author's collection, including some endemics. Additionally, high-quality photographs of extremely rare species gathered during our expedition, such as *Xylotrechus (Xylotrechus) ibex* (Gebler, 1825), are presented, along with images depicting their habitats and feeding sites.

Key words. Endemic species, invasive species, pest, taxon.

Kirish. O'zbekistonning shimoli-g'arbida joylashgan Qoraqalpog'iston Respublikasi turli xil ekotizimlarga ega bo'lib, ular cho'llardan daryo vodiylarigacha bo'lgan hududlarni qamrab oladi. Bu noyob ekologik sharoitlar hududdagi turli xil hasharot turlari, shu jumladan, uzun shoxli qo'ng'izlar (Coleoptera: Cerambycidae) uchun qulay muhit yaratadi. Ushbu qo'ng'izlar ekotizimda muhim rol o'ynaydi. Shular orasida *Xylotrechus (Turanoclytus) namanganensis* (Heyden, 1885) turi alohida qiziqish uyg'otadi, chunki uning tarqalishi chegaralangan va ekologik ahamiyati yuqori. Ammo ushbu turning biologiyasi, tarqalishi va Qoraqalpog'iston sharoitiga moslashuvi bo'yicha hanzugacha batafsil tadqiqotlar olib borilmagan. Ushbu tadqiqot ushbu bo'shliqni to'ldirish maqsadida *Xylotrechus namanganensis* turning Qoraqalpog'istondagi bioekologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan.[1-3] Maydon tadqiqotlari, laboratoriya tahlillari va fotosuratlar orqali o'tkazilgan kuzatuvlar orqali ushbu turning hayot sikli, ovqatlanish xulq-atvori va hududning ekologik sharoitiga moslashuvi to'g'risida muhim ma'lumotlar taqdim etiladi.

Qoraqalpog'istondagi uzun shoxli qo'ng'izlar faunasi hamda mintaqada uchraydigan ayrim turlarning biologiyasi va ekologiyasi bo'yicha ma'lumotlar yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli, ushbu tadqiqot mazkur yo'nalishdagi bilimlarni boyitishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot materiallari Qoraqalpog'istonning Qizilqum cho'lidan 2023-2024-yillari mart oyidan noyabr oyigacha yig'ish ishlari amalga oshirildi.

Hasharotlarni yig'ishda (*Xylotrechus namanganensis*, *Xylotrechus*, *Aeolesthes sarta*.) ekin zararkunandalari, entomologik tadqiqotlarda qo'llaniladigan turli an'anaviy usullardan foydalanilgan anan:

1. Tadqiqotlarimizda biz qo'ng'izlarni tutish uchun Barbera metodidan tuproq tuzoqlaridan foydalandik (Barbera, 1931). Qopqon sifatida tuproq yuzasi bilan bir tekisda qazilgan, sig'imi 0,5 l va 55 mm sig'imi 0,25 l bo'lgan diametri 72-73 mm bo'lgan shisha idishlar ishlatilgan. Har bir biotopda, odatda, bir qatorda bir-biridan 10 m masofada 10 ta tuzoq o'rnatildi. Ba'zi tajribalarda 20 dan 70 tagacha tuzoq ishlatildi. Fikslash suyuqligi sifatida etil atsetat eritmasi ishlatildi. Qopqonlar ko'p hollarda faunani yig'ish uchun ishlatilgan.

2. Tadqiqotlarimizda asosan N.L. Saxarova metodidan foydalanildi "Световые ловушки"[4,5] (1- rasm)

Xylotrechus (Turanoclytus) namanganensis (Heyden, 1885), *Xylotrechus (Xylotrechus) ibex* (Gebler, 1825) va *Aeolesthes sarta* (Solsky, 1871) ularning yashash joylarining fotosuratlari muallif tomonidan Samsung a12 kamerasi bilan olingan. Qoraqalpog'iston hududidagi uzunmo'ylov qo'ng'izlarning tur tarkibini aniqlashda xalqaro e'tirof etilgan "Titan database on Cerambycidae or Longhorn beetles" (<http://titan.gbif.fr/index.html>), "Lamiines of the World" (<https://lamiinae.org/about.html>), "Cerambycidae: Subfamily Prioninae of World" (<http://www.cerambycidae.cz/home-page.html>), "Catalogue of Palaearctic Chrysomeloidea (Vesperidae, Disteniidae, Cerambycidae)" (<http://www.cerambycidae.net/>) kabi kataloglardan hamda ular tarkibidagi yuzlab ilmiy adabiyotlardan foydalanildi.[1]

Natijalar va muhokama. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida Qoraqalpog'iston tizmlarida Coleoptera:Cerambycidae qo'ng'izning tarqalishiga aniqlik kiritilib, ular uchraydigan o'simliklar

ro'yxatiga aniqlik kiritildi.

Xylotrechus (Turanoclytus) namanganensis (Heyden, 1885)

[= *Clytus (Xylotrechus) bucharensis* Semenov, 1893]

[= *Xylotrechus subcrucifer* Pic, 1903]

[= *Turanoclytus namanganensis* (Heyden, 1885)]

Xylotrechus (Turanoclytus) namanganensis (Heyden, 1885) uzun shoxli qo'ng'izlar oilasi (Cerambycidae)ga mansub bo'lib, Markaziy Osiyoda uchraydigan hasharot turlaridan biridir. Ushbu tur ilk bor Heyden tomonidan 1885-yilda tasvirlangan va o'zining cheklangan tarqalish areali bilan ajralib turadi. Tur asosan Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekistonning turli hududlari, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida uchraydi. Turning tarqalishi aniq joylashuv va iqlim sharoitlari bilan cheklangan.

Yashash muhiti: Turning yashash joylari quruq, issiq iqlimli hududlar bo'lib, ular asosan cho'l va yarim cho'l zonalarida tarqalgan.

Oziqlanishi: Tuxum qo'yish va lichinkalar rivoji o'simliklarning yog'och qismida amalga oshadi, bu esa turning o'simlik biomassa bilan bog'liq bo'lganligini ko'rsatadi.

Hayot sikli: Turning hayot sikli to'liq metamorfozdan (tuxum, lichinka, g'umbak, imago) iborat. Ko'payish davri odatda bahor yoki yozning boshlariga to'g'ri keladi.

Tana uzunligi: 10 - 20 mm

Hayot davri: 1 - 2 yil

Kattalar: Aprel - Iyul

Oziqlanish o'simligi: bargli daraxtlarda polifag (*Populus*, *Eleagnus*, *Armeniaca*, *Salix*, *Juglans* va boshqalar) [6,7]

Ushbu qo'ng'iz yog'ochni parchalash orqali ekotizimda ozuqa zanjirini boyitishda muhim rol o'ynaydi. Ammo yog'ochning zararlanishiga sabab bo'lishi mumkinligi uchun ba'zi hollarda iqtisodiy jihatdan zararli tur sifatida ham baholanadi. Taxtakopir tumani (43.0440° N, 60.1586° E), 2024-04-22, 5♂♂♂; (42.9800° N, 60.2000° E) 3♂, 6♀♀, *Salix* o'simligidan turi aniqlandi. (2-rasm)

Xylotrechus (Rusticoclytus) rusticus (Linnaeus, 1758)

[= *Rusticoclytus rusticus* (Linnaeus, 1758)]

Xylotrechus rusticus, Ispaniyadan O'rta Osiyogacha keng tarqalgan turi, 1758 yilda Karl Linne tomonidan Shvetsiyadan *Leptura rustica* sifatida tasvirlangan [2]. Bu tur O'rta Osiyoda pasttekislikdagi o'rmonlarda va ularning qoldiqlarida uchraydi.

X.rusticus lichinkalari o'layotgan/o'lik turgan, ildizi kesilgan, kesilgan yoki qulagan bargli daraxtlarning shoxlari va tanasida rivojlanadi. Lichinkalar shakli daraxtning turiga qarab sezilarli darajada farq qiladi, lekin ular bir xil yog'ochda ham farq qilishi mumkin. Qattiq daraxtlarda rivojlanayotganda, lichinkalar po'stlog'i va sap daraxti o'rtasida tartibsiz yo'laklar hosil qiladi va asosan yog'ochga faqat qisqaroq yo'lakni olib kiradi, bu esa qo'g'irchoq hujayrasi va chiqish yo'lagi orqali davom etadi.

Qo'g'irchoq hujayralari (yoki pupa hujayralari) hasharotlarning rivojlanish jarayonidagi muhim bosqichlardan biridir. Hasharotlar to'rt asosiy rivojlanish bosqichini bosib o'tadi: tuxum, lichinka, qo'g'irchoq va yetuk hasharot. Qo'g'irchoq hujayralari, ayniqsa, to'liq metamorfozga ega bo'lgan hasharotlar (masalan, qo'ng'izlar, kapalaklar, pashshalar) uchun xarakterlidir. Bu bosqichda lichinka tana tuzilmasini butunlay o'zgartiradi va voyaga yetgan hasharot shakliga aylanadi. Qo'g'irchoq hujayrasida lichinka o'zining avvalgi shaklini yo'qotadi va yangi anatomik tuzilmalari shakllanadi: qanotlar, oyoqlar, antennalar va boshqa yetuk hasharot a'zolari rivojlanadi. Bu jarayon ma'lum bir davr davom etadi va bu davrda hasharot qo'g'irchoq hujayrasi ichida harakatsiz bo'ladi, yani hech qanday oziqlanish amalga oshirilmaydi.

Yumshoq yog'ochli daraxtlarda yog'ochdagi yo'laklarda pupatsiyadan oldin ancha uzoqroq bo'ladi, ko'pincha lichinkalar floemaga qaytadi va oziqlantirish paytida yana yog'ochga chuqur kirib boradi. May oyining oxiridan sentyabr oyining boshigacha faol bo'lgan kattalar (balandlikka va mintaqaga bog'liq) daraxtlar, kesilgan va singan yoki qurib qolgan daraxtlarlarda uchraydi.

Manbalarni ko'rsatuvchi batafsil ma'lumotlar taksonomiya, sinonimlar va umumiy birikmalar: *Leptura rustica* Linné, 1758 = *Cerambyx liciatus* Linné, 1767 = *Callidium hafniense* Fabricius, 1775 (Illiger, 1805) = *Callidium rusticum* Fabricius, 1775 (Illiger, 1805) = *Leptura*

villosoflavomaculata Götze, 1777 = Leptura oo Schrank, 1781 = Callidium confusum Herbst, 1784 = Leptura variegata Geoffroy, 1785 (nec Fabricius, 1775) = Leptura signata Geoffroy, 1785 = Cerambyx octonotatus Gmelin, 1789 = Cerambyx confusus Gmelin, 1789 = Leptura maculata Gmelin, 1789 (nec Poda, 1761) = Cerambyx hafniensis Villers, 1793 = Callidium liciatum Olivier, 1795 = Clytus rusticus Schrank, 1798 = Clytus confusus Schrank, 1798 = Clytus atomarius Illiger, 1805 = Clytus liciatus Schönherr, 1817 = Clytus hafniensis Dejean, 1821 = Clytus (Clytus) rusticus Heyden, 1881 = Clytus rusticus m. heros Ganglbauer, 1882 = Clytus (Xylotrechus) rusticus Ganglbauer, 1887 = Xylotrechus rusticus Heyden, 1893 (Bense, 1995 ; Sama, 2002 ; Vitali, 2004: 5 ; Wang, 2003 ; Özdikmen, 2006 ; Sláma, 2006 ; Ohbayashi & Niisato, 2007 ; Allemand et al., 2009) = Xylotrechus rusticus m. subuniformis Pic, 1902 = Xylotrechus (Xylotrechus) rusticus Gressitt, 1951 (Danilevsky, 2005 comm.pers.) = Xylotrechus rusticus m. heroicus Delmet, 1963 = Rusticoclytus rusticus Vives, 1977 (Bijiaoui, 1986 ; Farashiani et al., 2006 ;[8-10] Taxtako'pir tumani, Beltov, Janadaryo, Otako'l, Taxtako'pir, Qoraoy ovul fuqarolar yig'ini yoqasidan /43.018503, 60.305192/, /43.019471,60.306075/, /43.020911,60.306134/, /43.022803,60.306751/, /43.026458,60.308133/, /43.028027, 60.310103/, /43.027834,60.311779/, /43.031187,60.304192/ Xylotrechus (Rusticoclytus) rusticus (Linnaeus, 1758) va Trirachys sartus (Solsky, 1871) turi aniqlandi.(3-rasm)



1-rasm 1Barbera metodi (Barbera, 1931). 2N.L.Saxarova metodi (Световые ловушки)

2-rasm. A) Xylotrechus (Turanoclytus) namanganensis (Heyden, 1885)skanerda ko'rinishi (asl nusxa)



3-rasm. A) Xylotrechus (Rusticoclytus) rusticus (Linnaeus, 1758) skanerda ko'rinishi (asl nusxa) B)

Oziqlanish o'simligi: Salix tenuijulis (Qora tal)

Xulosa. Yuqorida olib borilgan tadqiqotlarimizdan ma'lum bo'ldiki, Qoraqalpog'istonning Taxtako'pir tumani Coleoptera:Cerambycidae qo'ng'izning tarqalishiga aniqlik kiritilib, ular uchraydigan o'simliklar ro'yxatiga aniqlik kiritildi.

Bundan tashqari, biologik va mikrobiologik ilmiy-tadqiqot institutlari zararkunandalarga qarshi kurash bo'yicha tajribalarni imidacloprid va permethrin pestitsidlari qora tol daraxtlariga sepilganda zararkunandalarni qo'ng'iz tuxumlarining daraxt postlog'iga tushishini oldini olishda samarali ekanligini ko'rsatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmad MI, Hafiz IA & Chaudhry MI (1977) Biological studies on *Aeolesthes sarta* attacking poplars in Pakistan. *Pakistan Journal of Forestry* 27, 122–129.
2. Barsevskis A. et al. 2015. *Cerambycidae of the World*: [http://cerambycidae.org/\[4\]](http://cerambycidae.org/[4])
3. Danilevsky ML (1993) Taxonomic and zoogeographical notes on the family *Cerambycidae* (Coleoptera) of Russia and adjacent regions. (for 1992) *Russian Entomological Journal* 1(2): 37–39.
4. Danilevsky ML (2001a) Review of genus *Turanium* Baeckmann, 1923 (Coleoptera, *Cerambycidae*). *Lambillionea* 101(4): 579–588.
5. Danilevsky ML (2014) Longicorn beetles (Coleoptera, *Cerambycoidea*) of Russia and adjacent countries. Part 1. Higher School Consulting, Moscow, Russia, 522 pp.
6. *Cerambycinae* Latreille, 1802 // *Cerambycidae* URL: https://www.cerambyx.uochb.cz/neoplocaederus_scapularis.php (дата обращения: 09.07.2024).
7. E.S. Duysengaliev, T.I. Jugnisov, Qoraqalpog'istonda yangi invaziv tur *Coleoptera*, *Cerambycidae* *Aedesthes sarta* (Solsky, 1871) muylovdor qong'izining bioekologiyasi // *Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi*. - 2024. - №6/1. - c. 53-56.
8. Kaliuzhnaja NS, Komarov EV, Cherezova LB (2000) Beetles (Insecta, *Coleoptera*) of lower Volga river. *Volgograd, Russia*, 204 pp.
9. Khan, Sajad Ahmad; Bhatia, Sanjay; Tripathi, Narinder (2013). "Entomological investigation on *Aeolesthes sarta* (Solsky), a major pest on walnut trees (*Juglans regia* L.) in Kashmir valley" (PDF). *Journal of Academia and Industrial Research*. 2 (6): 325–330.
10. Mazaheri, Afsaneh; Khajehali, Jahangir; Marzieh, Kashkouli; Hatami, Bijan (10 June 2015). "Laboratory and field evaluation of insecticides for the control of *Aeolesthes sarta* Solsky (Col.: *Cerambycidae*)". *Journal of Crop Protection*. 4 (2): 257–266.

ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ И СВОЙСТВА ШАЛФЕЯ ЛЕКАРСТВЕННОГО (*SALVIA OFFICINALIS*) И МЕЛИССЫ ЛЕКАРСТВЕННЫЙ (*MELISA OFFICINALIS*)

Дильфуза Гаффоровна Садыкова

Денауский институт предпринимательства и педагогики

Кандидат биологических наук

dilfuza_1775@mail.ru

Севара Хамзаевна Хакимова

Денауский институт предпринимательства и педагогики

преподаватель

По отзыву доцента ТерДУ С.С.Хуррамову

ORCID 0000-0003-4734-1526

UDK 577.1

Аннотация. Лекарственные растения, используемые для лечения человека и животных, профилактики заболеваний, а также в пищевой, парфюмерной и косметической промышленности - травы. Установлено, что на Земле насчитывается 10-12 тысяч видов лекарственных растений. Были исследованы химические, фармакологические и лечебные свойства более 1000 видов растений. В Узбекистане насчитывается более 700 видов лекарственных растений. Из них около 120 видов растений, произрастающих и культивируемых в естественных условиях, используются в научной и народной медицине. В этой статье рассматривается изучение влияния экстрактов шалфея и Melissa на контроль объема клеток тимоцитов крысы и высвобождение гемоглобина из эритроцитов человека в условиях гипосмотического стресса и определение действия экстрактов шалфея и Melissa на эритроциты в изоосмотических условиях.

Ключевые слова. Лекарственные растения, шалфей, алканойд, флаванойд, эфирное масло,

Melissa officinalis, антиоксидант.

MAVRAK (SALVIA OFFICINALIS) VA DORIVOR LIMONO‘T (MELISSA OFFICINALIS) NING KIMYOVIY TARKIBI VA XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Dorivor o‘simliklar -odamlar va hayvonlarni davolash, kasalliklarning oldini olish, shuningdek oziq-ovqat, parfyumeriya va kosmetika sanoatida xomashyo sifatida ishlatiladi. Yer yuzida dorivor o‘simliklarning 10-12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o‘simlik turlarining kimyoviy, farmakologik va dorivor xususiyatlari o‘rganilgan. O‘zbekistonda dorivor o‘simliklarning 700 dan ortiq turlari mavjud. Ulardan tabiiy sharoitda o‘sadigan va o‘stiriladigan 120 ga yaqin o‘simlik turlari ilmiy va xalq tabobatida qo‘llaniladi. Ushbu maqola mavrak va limono‘t ekstraktlarining kalamush timotsit hujayralari hajmini nazorat qilish va gipoosmotik stress sharoitida inson qizil qon tanachalaridan gemoglobinning chiqarilishiga ta'sirini o‘rganish va izoosmotik sharoitda mavrak va limono‘t ekstraktlarining qizil qon tanachalariga ta'sirini aniqlash haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar. Dorivor o‘simliklar, mavrak, alkaloidlar, flavonoidlar, efir moyi, melissa officinalis, antioksidant.

Введение. В последние годы встречается значительное снижение показателей уровня здоровья и рост заболеваемости населения вследствие ряда объективных причин, среди которых имеет важное значение ухудшение экологической обстановки, усиление ритма жизни, снижение социальной защищенности широких слоев населения. Таким образом, существенное снижение сопротивляемости организма, связанное с ослаблением детоксикационных, иммунных и других адаптационно-приспособительных его механизмов является следствием всевозрастающего эколого-социального воздействия. В таких условиях, важное значение приобретают профилактические мероприятия, направленные на повышение неспецифической резистентности организма. Одним из способов достижения этого состояния является применение тонизирующих, общеукрепляющих и иммунномодулирующих лекарственных средств и биологически активных добавок, которые обладают адаптогенной активностью, повышающих сопротивляемость организма к широкому спектру агрессивных факторов окружающей среды. По этой причине, в настоящее время значительно вырос интерес к лекарственным растениям.

Лекарственные растения, обладающие терапевтическим потенциалом для лечения и профилактики инфекционных и неинфекционных заболеваний. Усложненный доступ к западной медицине, а также высокая стоимость ее продукции способствуют распространению народной медицины, особенно в развивающихся странах [1]. По сведениям Всемирной организации здравоохранения, 80% населения мира зависит от традиционной медицины, применяется от 40 000 до 70 000 видов растений, и вместе с их побочными продуктами в мировую торговлю поступает около 100 миллиардов долларов США [2].

Травяные лекарственные средства хороши тем, что при правильном применении они могут практически не вызывать побочных эффектов [3].

В листьях шалфея лекарственного находится до 2,5 % эфирного масла, компонентами которого являются цинеол (до 15%), линалоол, α - и β - пинен, борнеол и его ацетат, туйон, линалилацетат и другие терпеновые соединения. А также листья содержат дубильные вещества, витамины P и PP; флавоноиды: гиспидулин, генкванин, 6-метоксигенквинин, сальвитин, лютеолин, 6-гидроксилутолин, цирзилиол, цинарозид, непетин; алкалоиды, смолистые вещества; тритерпеноиды: урсоловую и олеаноловую кислоты; дитерпен сальвин; фенолкарбоновые кислоты: хлорогеновую, ноохлорогеновую, криптохлорогеновую, кофейную, розмариновую; горечи, фитонциды [4].

Методология исследования. Получение экстрактов из растений. Производство

экстракционных лекарственных средств на основе лекарственного растительного сырья является одним из перспективных направлений фармацевтического производства. Получение экстрактов из растений состоит из следующих стадий производства:

1. Подготовка лекарственного растительного сырья: измельчение, просеивание, взвешивание;
2. Подготовка экстрагента;
3. Получение первичной вытяжки;
4. Очистка вытяжки;
5. Выпаривание для густых и сухих экстрактов;
6. Сушка для сухих экстрактов;
7. Стандартизация;
8. Фасовка и упаковка.

Шалфей оказывает стягивающее и противовоспалительное действие. К тому же в листьях шалфея найдено довольно серьезное количество дубильных веществ, алканоидов и флаваноидов, урсоловой и олеаноловой кислоты, фенолкарбоновые кислоты. В плодах шалфея содержится большое количество жирного масла до 25 %, такие как представляет собой глицериды линолевой кислоты. Кроме этого, в составе шалфея найдены витамины Р и РР, горечи и фитонциды, оказывающие антибактериальный эффект. Листья шалфея содержат эфирное масло 0,5-2,5%, в состав которого входят цинеол до 15%, l-a-туйон, d-b-туйон, d-a-пинен, сальвен, d-борнеол, d-камфора, цедрен.

Melissa officinalis L. - растение семейства губоцветных, известное во многих странах своими лечебными свойствами. Это растение с древних времен использовалось для лечения различных заболеваний, в том числе желудочно-кишечных, сердечно-сосудистых, неврологических, психологических. *M. officinalis* содержит несколько фитохимических веществ, таких как фенольные кислоты, флавоноиды, терпеноиды и многие другие, которые лежат в основе его фармакологической активности. Действительно, растение может оказывать антиоксидантное, противовоспалительное, спазмолитическое, антимикробное, нейропротекторное, нефропротекторное, антиноцицептивное действие.

Молодые листья содержат до 0,29% эфирного масла, второго сбора - до 0,13%, третьего - только 0,1%. В листьях Melissa имеются каротин, витамин С, кофейная, урсоловая, розмариновая, олеановая кислоты, дубильные вещества, слизь, смолы. В малых концентрациях в листьях Melissa находятся флавоноиды. Семена растения содержат до 20% жирного масла [5].

Melissa officinalis L., традиционно называемая Melissa, является одной из ароматических трав с запахом лимона, широко используемых в народной медицине из-за ее успокаивающего, седативного и антиаритмического действия. Кроме того, несколько исследований связывают его терапевтический потенциал с антиоксидантными свойствами.[9]

Эпилепсия характеризуется повторяющимися эпилептическими припадками, и ее эффективное лечение по-прежнему представляет собой терапевтическую проблему. Окислительный стресс и местная воспалительная реакция сопровождают эпилептический статус (SE). Данные свидетельствуют о том, что *M. officinalis* может смягчать эпилептогенез. [10]


Сахарный диабет является системным заболеванием, которое может вызывать синаптические дефекты в гиппокампе. Гиппокамп играет решающую роль в обучении и памяти. *Melissa officinalis* L. использовалась для улучшения памяти в персидской медицине.[6]

Издавна мелисса лекарственная (*M. officinalis*) применялась для лечения сердечно-сосудистых заболеваний. Ученные оценили влияния *M. officinalis* на систолическое и диастолическое артериальное давление у пациентов с гипертонией.[7]

Учитывая его консолидированное использование, *M. officinalis* также подвергался экспериментам в клинических условиях, демонстрируя интересные свойства в отношении различных заболеваний человека, таких как тревога, проблемы со сном, сердцебиение, гипертония, депрессия, деменция, детские колики, бруксизм, проблемы с обменом веществ, болезнь Альцгеймера, и сексуальные расстройства. [8].

Однако их влияние на регулирование клетками и транспортные процессы, активируемые объемом, не изучалось. Этот пробел в науке об экстракте шалфея лекарственного и мелиссы лекарственной может стать целью нашего исследования.


Анализ и результаты. В работе использовали следующие химические препараты и реагенты: кровь, взятая у здорового человека, HEPES, (Sigma, США), экстракт шалфея и мелиссы. Другие реактивы: CaCl₂, MgCl₂, NaCl, KCl, глюкоза, гепарин производства России. Все используемые реагенты имеют квалификацию чистоты для проведения химического анализа в эксперименте. В наших экспериментах, проведенных в изотонических условиях, испытуемые образцы экстракта мелиссы оказали значительное влияние на высвобождение гемоглобина из эритроцитов человека.



1-график. Влияние экстракта мелиссы лекарственной на эритроциты человека

$$\text{Концентрация мкг/мл. Гемолиз(\%)} = (\text{ОП} / \text{ОП}_{100}) \times 100$$

При изучении влияния экстракта Мелиссы лекарственной на эритроциты были определены гемолитические свойства экстракта. Экстракт, приготовленный из мелиссы, при максимальной концентрации 293 мкг/мл, не оказывал влияния на уровень гемолиза (< 4%), (1-график).



2-график. Влияние экстракта шалфея лекарственного на эритроциты человека. Концентрация мкг/мл. $G = G_{min} + (G_{max} - G_{min}) / (1 + \exp[(H - H_{50})/k])$

При изучении влияния экстракта шалфея лекарственного на эритроциты были

определены гемолитические свойства экстракта.

Экстракт шалфея при концентрации 561 мкг/мл вызывал 100% гемолиз. Анализ результатов с помощью уравнения Хилла дал величину эффективной полу максимальной концентрации экстракта листьев шалфея ($C_{50\%}$) 213 ± 28 мкг/мл ($n=4$).

Заключение. В наших исследованиях изучались эффекты экстрактов шалфея и Melissa, которые модифицируют процессы регуляции клеточного объема. Полученные результаты могут стать фундаментальной основой для фармакологии и медицины. Масса экстракта, полученного из растения шалфея, составила $11,22 \pm 0,15$ мг/мл. При изучении влияния экстракта шалфея на эритроциты были определены гемолитические свойства экстракта. Результаты проанализировали по уравнению при этом полумаксимальный эффект ($C_{50\%}$ гемолиз) составил 213 ± 28 мкг/мл.

Экстракт растения Melissa ингибирует систему контроля объема клеток тимоцитов при низкой концентрации и полностью блокирует ее при высокой концентрации. При влиянии экстракта, полученного из экстракта шалфея, на регуляции объема, концентрация от полумаксимального эффекта была $13,7 \pm 3,9$ мкг/мл, а коэффициент Хилла оказался равным $0,7 \pm 0,1$. Таким образом, экстракт, приготовленный из листьев и стеблей шалфея, оказывает цитотоксическое действие на эритроциты, разрушая их мембраны.

Список литературы

1. Abd Allah, H. N., Abdul-Hamid, M., Mahmoud, A. M., & Abdel-Reheim, E. S. (2022). Melissa officinalis L. ameliorates oxidative stress and inflammation and upregulates Nrf2/HO-1 signaling in the hippocampus of pilocarpine-induced rats. *Environmental Science and Pollution Research*, 29(2), 2214-2226.
2. Maliki, I., Es-Safi, I., El Moussaoui, A., Mechchate, H., El Majdoub, Y. O., Bouymajane, A., ... & Elbadaoui, K. (2021). Salvia officinalis and Lippia triphylla: Chemical characterization and evaluation of antidepressant-like activity. *Journal of Pharmaceutical and Biomedical Analysis*, 203, 114207..
3. Hatun A Alomar 1, Wafaa M Elkady 2, Marwa M Abdel-Aziz 3, Taghreed A Ibrahim 4 5, Noha Fathallah 2. Anti- Heliobacter pylori and Anti-Inflammatory Potential of Salvia officinalis Metabolites: In Vitro and In Silico Studies.2023
4. Чиков П.С. Лекарственные растения. - М.: Медицина, 2002.
5. Палов Маннфрид. Энциклопедия лекарственных растений. //Под ред. канд. биол. наук И.А. Губанова. – Москва: Мир, 1998.
6. Hăncianu, M., Aprotosoiaie, A. C., Gille, E., Poiată, A., Tuchiluş, C., Spac, A., & Stănescu, U. (2008). Chemical composition and in vitro antimicrobial activity of essential oil of Melissa officinalis L. from Romania. *Revista medico-chirurgicala a Societatii de Medici si Naturalisti din Iasi*, 112(3), 843-847
7. Shekarriz, Z., Shorofi, S. A., Nabati, M., Shabankhani, B., & Yousefi, S. S. (2021). Effect of Melissa officinalis on systolic and diastolic blood pressures in essential hypertension: A double-blind crossover clinical trial. *Phytotherapy Research*, 35(12), 6883-6892.
8. Zam, W., Quispe, C., Sharifi-Rad, J., López, M. D., Schoebitz, M., Martorell, M., ... & Pezzani, R. (2022). An updated review on the properties of Melissa officinalis L.: Not exclusively anti-anxiety. *Frontiers in Bioscience-Scholar*, 14(2),
9. Zuo, R. M., Jiao, J. Y., Chen, N., Jiang, X. L., Wu, Y. L., Nan, J. X., & Lian, L. H. (2023). Carnosic acid suppressed the formation of NETs in alcoholic hepatosteatosis based on P2X7R-NLRP3 axis. *Phytomedicine*, 110, 154599
10. Sodikova, D. G., Xalmuratov, M. A., Hamroyeva, M. K., Mardonov, S. U., & Toshmirov, S. E. (2024). Ecology of micromycetes of higher plants of the Denov Arboretory. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 105, p. 06003). EDP Sciences.

QarDU XABARLARI

Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal

Qarshi davlat universiteti kichik bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: 180003, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17.

Indeks: 4071

Terishga 04.01.2025-yilda berildi.

Bosishga 06.01.2025-yilda ruxsat etildi.

14.01.2025-yilda bosildi.

Ofset qog'ozi. Qog'oz bichimi 60x84, 1/8.

Times New Roman garniturasida. Nashriyot hisob tabog'i 22,35.

Buyurtma raqami: № 35.

Adadi 50 nusxa. Erkin narxda.